

**Министерство по развитию информационных технологий и
коммуникаций Республики Узбекистан**

**Государственное унитарное предприятие Центр научно-технических
и маркетинговых исследований «UNICON.UZ»
(ГУП «UNICON.UZ»)**

**Русско-узбекский толковый словарь терминов по
мобильной и фиксированной беспроводной связи**

Переработанное, дополненное второе издание

**O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini
rivojlantirish vazirligi**

**«UNICON.UZ» Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi
Davlat unitar korxonasi
(«UNICON.UZ» DUK)**

**Mobil va ko‘chmas simsiz aloqa sohasiga
oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati**

Qayta ishlangan, to‘ldirilgan ikkinchi nashri

**Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва
коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги**

**«UNICON.UZ» Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази
Давлат унитар корхонаси
(«UNICON.UZ» ДУК)**

**Мобил ва кўчмас симсиз алоқа соҳасига оид
атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати**

Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи наشري

Toshkent – 2016

Под общей редакцией Кадилова А.А.

Словарь составлен кандидатом технических наук,
доцентом Ликонцевым Д.Н. и Хусановым З.К.,

переведен и отредактирован
Ахмедовой Ё.Н, Тулягановым Ш.Ш.

Компьютерный набор: Саидалиева М.И., Адашева Ш.Ж.

Рецензент: Мадаминов Х.Х.

A.A.Kadirovning umumiy tahriri ostida

Lug‘at texnika fanlari nomzodi, dotsent D.N.Likonsev va
Z.K.Xusanovlar tomonidan tuzildi,

Yo.N.Ahmedova, Sh.Sh.To‘laganovlar tomonidan
tarjima va tahrir qilindi.

Kompyuter ishlari: M.I. Saidaliyeva, Sh.J.Adasheva

Taqrizchi: H.X.Madaminov

A.A.Кадиловнинг умумий таҳрири остида

Луғат техника фанлари номзоди, доцент Д.Н.Ликонцев ва
З.К.Хусановлар томонидан тузилди,

Ё.Н.Ахмедова, Ш.Ш.Тўлагановлар томонидан
таржима ва таҳрир қилинди.

Компьютер ишлари: М.И. Саидалиева, Ш.Ж.Адашева

Тақризчи: Ҳ.Х.Мадаминов

Содержание

Введение	VI
Русско-узбекский толковый словарь терминов по мобильной и фиксированной беспроводной связи	1
Алфавитный указатель терминов на русском языке	679
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (латиница)	713
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (кириллица) ...	747
Алфавитный указатель терминов на английском языке	781
Список использованных источников	814

Mundarija

Kirish	VII
Mobil va ko‘chmas simsiz aloqa sohasiga oid atamalarning ruscha- o‘zbekcha izohli lug‘ati	1
Atamalarning rus tilidagi alifbo ko‘rsatkichi	679
Atamalarning o‘zbek tili (lotin alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi	713
Atamalarning o‘zbek tili (kirill alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi	747
Atamalarning ingliz tilidagi alifbo ko‘rsatkichi	781
Foydalanilgan manbalar ro‘yxati	814

Мундарижа

Кириш	VIII
Мобил ва кўзчмас симсиз алоқа соҳасига оид атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати	1
Атамаларнинг рус тилидаги алифбо кўрсаткичи	679
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (лотин алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи	713
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (кирилл алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи	747
Атамаларнинг инглиз тилидаги алифбо кўрсаткичи	781
Фойдаланилган манбалар рўйхати	814

Введение

В век бурного развития телекоммуникационных технологий и всеобщей информатизации общества с каждым днем растет востребованность мобильной связи. Стремительное развитие и повсеместное внедрение новых мобильных технологий предопределило возможность доступа к услугам связи независимо от времени и места нахождения пользователей. На сегодняшний день предоставление, помимо традиционных услуг голосовой связи, дополнительных услуг передачи данных, видеоконференцсвязи, доступа в Интернет и многих других стало привычной реальностью.

С расширением разнообразия предоставляемых услуг и внедрением все новых технологий увеличивается объем используемых терминов и понятий. В свою очередь, для правильного понимания значений терминов, используемых в беспроводной связи, будь это сотовая или транкинговая связь, радиорелейная связь или технологии беспроводного доступа, растет потребность в справочниках и терминологических словарях.

Данный словарь создан с целью формирования терминологической базы, которая может быть использована для создания современных учебников и учебных пособий на государственном языке для широкого круга специалистов, студентов высших и специальных технических учебных заведений, специализирующихся в области мобильной связи и беспроводного доступа.

Словарь является результатом работы специалистов Службы терминологии и словарей, с привлечением других специалистов ГУП «UNICON.UZ». При составлении словаря авторы пользовались материалами технической литературы и справочников, учебными пособиями, рекомендациями Международного союза электросвязи и материалами Интернет.

Словарь включает в себя более 1500 терминов, расположенных в алфавитном порядке.

В словаре отражены термины и определения на узбекском и русском языках и эквиваленты этих терминов на английском языке.

Словарь рассчитан на специалистов сферы информационных технологий и коммуникаций, научных работников, переводчиков, преподавателей, докторантов и студентов.

Заранее выражаем признательность за замечания и предложения.

Наш адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Богишамол, 7^А.
Государственное унитарное предприятие
«Центр научно-технических и маркетинговых исследований» – «UNICON.UZ»,
Служба терминологии и словарей

Kirish

Telekommunikatsion texnologiyalar shiddatli rivojlanayotgan va jamiyatning umumiy axborotlashtirilishi yuz berayotgan hozirgi kunda mobil aloqaga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Yangi mobil texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi va hamma yerda joriy qilinishi, foydalanuvchilar aloqa xizmatlaridan qachon va qayerda bo'lishlikdan qat'i nazar, foydalana olishlari mumkinligini belgilab berdi. Bugungi kunda an'anaviy ovozli aloqa xizmatlari bilan bir qatorda, ma'lumotlar uzatish, videokonferensaloqa, Internet dan foydalanish va ko'plab boshqa xizmatlarning taqdim etilayotganligi hech kimni ajablantirmaydi.

Taqdim etiladigan xizmatlar sonining oshib borishi va yangi texnologiyalarning joriy qilinishi bilan qo'llaniladigan atama va tushunchalarning hajmi oshadi. O'z navbatida, simsiz aloqada, u xoh sotali, xoh trunking, xoh radioreleli aloqa bo'lsin yoki simsiz ulanish texnologiyalari bo'lsin, ma'lumotnoma xarakteridagi nashrlar va terminologik lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Ushbu lug'at mobil aloqa va simsiz ulanish sohasida ixtisoslashgan mutaxassislarining keng doirasi, oliy va maxsus texnika o'quv yurtlarining talabalari uchun Davlat tilida zamonaviy darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari yaratishda foydalanilishi mumkin bo'lgan terminologik bazani shakllantirish maqsadida tuzildi.

Lug'at Atamashunoslik va lug'atlar xizmati mutaxassislarining, «UNICON.UZ» DUK ning jalb qilingan boshqa mutaxassislari mehnatining samarasidir. Lug'atni tuzishda mualliflar texnikaga oid xorijiy adabiyotlardan, ma'lumotnoma xarakteridagi nashrlardan, o'quv qo'llanmalaridan, Xalqaro elektraloqa ittifoqi tavsiyalaridan hamda Internet materiallaridan foydalandilar.

Lug'at alifbo tartibida joylashgan 1500 dan ortiq atamani o'z ichiga oladi.

Lug'atda rus va o'zbek tillaridagi atama va ta'riflar hamda atamalarning ingliz tilidagi muqobillari ifodalangan.

Lug'at axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasi mutaxassislarga, ilmiy xodimlarga, tarjimonlarga, o'qituvchilarga, doktorantlar va talabalarga mo'ljallangan.

Lug'at yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Bizning manzil: 100202, Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 7^A uy
«UNICON.UZ» – «Fan-texnika va marketing tadqiqotlari
markazi» Davlat unitar korxonasi,
Atamashunoslik va lug'atlar xizmati

Кириш

Телекоммуникацион технологиялар шиддатли ривожланаётган ва жамиятнинг умумий ахборотлаштирилиши юз бераётган ҳозирги кунда мобил алоқага бўлган талаб кундан-кунга ошиб бормоқда. Янги мобил технологияларнинг тез суръатларда ривожланиши ва ҳамма ерда жорий қилиниши, фойдаланувчилар алоқа хизматларидан қачон ва қаерда бўлиш-ликдан қатъи назар, фойдалана олишлари мумкинлигини белгилаб берди. Бугунги кунда анъанавий овозли алоқа хизматлари билан бир қаторда, маълумотлар узатиш, видеоконференцалоқа, Интернетдан фойдаланиш ва кўплаб бошқа хизматларнинг тақдим этилаётганлиги ҳеч кимни ажаблантирмайди.

Тақдим этиладиган хизматлар сонининг ошиб бориши ва янги технологияларнинг жорий қилиниши билан қўлланиладиган атама ва тушунчаларнинг ҳажми ошади. Ўз навбатида, симсиз алоқада, у хоҳ сотали, хоҳ транкинг, хоҳ радиорелели алоқа бўлсин ёки симсиз уланиш технологиялари бўлсин, маълумотнома характеридаги нашрлар ва терминологик луғатларга бўлган эҳтиёж ошиб бормоқда.

Ушбу луғат мобил алоқа ва симсиз уланиш соҳасида ихтисослашган мутахассисларнинг кенг доираси, олий ва махсус техника ўқув юртларининг талабалари учун Давлат тилида замонавий дарсликлар ҳамда ўқув қўлланмалари яратишда фойдаланилиши мумкин бўлган терминологик базани шакллантириш мақсадида тузилди.

Луғат Атамашунослик ва луғатлар хизмати мутахассисларининг, «UNICON.UZ» ДУК нинг жалб қилинган бошқа мутахассислари меҳнатининг самарасидир. Луғатни тузишда муаллифлар техникага оид хорижий адабиётлардан, маълумотнома характеридаги нашрлардан, ўқув қўлланмаларидан, Халқаро электралоқа иттифоқи тавсияларидан ҳамда Интернет материалларидан фойдаландилар.

Луғат алифбо тартибида жойлашган 1500 дан ортиқ атамани ўз ичига олади.

Луғатда рус ва ўзбек тилларидаги атама ва таърифлар ҳамда атамаларнинг инглиз тилидаги муқобиллари ифодаланган.

Луғат ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳаси мутахассисларига, илмий ходимларга, таржимонларга, ўқитувчиларга, докторантлар ва талабаларга мўлжалланган.

Луғат юзасидан билдириладиган фикр-мулоҳазалар ва таклифлар учун олдиндан миннатдорчилик билдирамыз.

Бизнинг манзил: 100202, Тошкент ш., Боғишамол кўчаси, 7^А уй
«UNICON.UZ» – «Фан-техника ва маркетинг
тадқиқотлари маркази» Давлат унитар корхонаси,
Атамашунослик ва луғатлар хизмати

Термин	Определение
А	
<p>Абонент uz - abonent абонент en - subscriber</p>	<p>Пользователь услуг связи, с которым заключен договор об оказании таких услуг при выделении для этих целей абонентского номера или уникального кода идентификации.</p> <p>Aloqa xizmatlari ko‘rsatilishi to‘g‘risida shartnoma tuzilgan, bu maqsadlar uchun abonent raqami yoki yagona identifikatsiya kodi ajratilgan foydalanuvchi.</p> <p>Алоқа хизматлари кўрсатилиши тўғрисида шартнома тузилган, бу мақсадлар учун абонент рақами ёки ягона идентификация коди ажратилган фойдаланувчи.</p>
<p>Абонент городской зоны uz - shahar zonasi abonenti шаҳар зонаси абоненти en - residential user</p>	<p>Абонент, обслуживаемый в пределах городской черты.</p> <p>Примечание – Связь может обеспечиваться как с открытого пространства, так и из зданий.</p> <p>Shahar hududi doirasida xizmat ko‘rsatiladigan abonent.</p> <p>Izoh – Aloqa ochiq fazodan ham, bino ichkarisidan ham ta’minlanishi mumkin.</p> <p>Шаҳар ҳудуди доирасида хизмат кўрсатиладиган абонент.</p> <p>Изоҳ – Алоқа очик фазодан ҳам, бино ичкарасидан ҳам таъминланиши мумкин.</p>
<p>Абонент-пешеход uz - piyoda abonent пиёда абонент en - pedestrian user</p>	<p>Категория абонентов. В наземных сетях сотовой связи все абоненты условно разделены на три категории: высокоподвижные, малоподвижные и стационарные. К категории малоподвижных объектов относятся абоненты-пешеходы, скорость передвижения которых принята равной 3 km/h а скорость передачи данных для них – до 384 Kbit/s.</p> <p>Abonentlar toifasi. Yer usti sotali aloqa tarmoqlarining barcha abonentlari shartli ravishda uch toifaga ajratilgan: tez harakatli, kam harakatli va statsionar (turg‘un). Kam harakatli ob’ektlar toifasiga, harakat tezligi 3 km/h, ma’lumot uzatish tezligi esa 384 Kbit/s gacha bo‘lgan piyoda abonentlar kiradi.</p>

А

Абонентлар тоифаси. Ер усти сотали алоқа тармоқларининг барча абонентлари шартли равишда уч тоифага ажратилган: тез ҳаракатли, кам ҳаракатли ва стационар (турғун). Кам ҳаракатли объектлар тоифасига, ҳаракат тезлиги 3 km/h, маълумот узатиш тезлиги эса 384 Kbit/s гача бўлган пиёда абонентлар киради.

Абонент-роумер

uz - roumer abonent

роумер абонент

en - nomadic user

(син. roaming user)

1 Подвижный абонент, перемещающийся из одной зоны обслуживания в другую.

2 Абонент сети подвижной наземной или спутниковой связи, временно обслуживаемый вне «домашней» зоны, где он постоянно зарегистрирован.

1 Bir xizmat ko'rsatish zonasidan boshqasiga ko'chib yuruvchi mobil abonent.

2 O'zi doimiy qayd etilgan «uy» zonasidan tashqarida vaqtincha xizmat ko'rsatiladigan Yer usti yoki yo'ldoshli aloqa tarmog'i abonenti.

1 Бир хизмат кўрсатиш зонасидан бошқасига кўчиб юрувчи мобил абонент.

2 Ўзи доимий қайд этилган «уй» зонасидан ташқарида вақтинча хизмат кўрсатиладиган Ер усти ёки йўлдошли алоқа тармоғи абоненти.

Абонентская линия

uz - abonent liniyasi

абонент линияси

en - local loop

(син. service link)

1 Линия между абонентской станцией и коммутационным оборудованием узла связи; часто называемая «последней милей» телекоммуникационной системы.

2 Линия связи между обслуживаемым абонентским терминалом и спутниковым ретранслятором в сетях подвижной спутниковой связи (служба MSS – Mobile Satellite Service).

1 Abonent stansiyasi bilan aloqa uzelineing kommunikatsion uskunasini o'rtasidagi liniya; ko'pincha, telekommunikatsiya tizimining «so'nggi milyasi» deb ham ataladi.

2 Mobil yo'ldoshli aloqa tarmoqlaridagi xizmat ko'rsatiladigan abonent terminali bilan yo'ldosh retranslyatori o'rtasidagi aloqa liniyasi (MSS xizmati).

А

1 Абонент станцияси билан алоқа узелининг коммуникацион ускунаси ўртасидаги линия; кўпинча, телекоммуникация тизимининг «сўнгги миляси» деб ҳам аталади.

2 Мобил йўлдошли алоқа тармоқларидаги хизмат кўрсатиладиган абонент терминали билан йўлдош ретранслятори ўртасидаги алоқа линияси (MSS хизмати).

Абонентская радиолиния

uz - abonent radioliniyasi

абонент радиолинияси

en - radio local loop (RLL)

Технология беспроводного доступа, предназначенная для решения проблемы «последней мили» и организации связи с удаленными пользователями.

Примечание – Наиболее часто термин используется, когда речь идет о создании сетей сельской связи.

«So‘nggi milya» muammosini hal etish va olisdagi foydalanuvchilar bilan aloqa o‘rnatish uchun mo‘ljallangan, simsiz ulanish texnologiyasi.

Izoh – Bu atama ko‘proq, qishloq aloqa tarmoqlarini yaratish to‘g‘risida so‘z borganda ishlatiladi.

«Сўнгги миля» муаммосини ҳал этиш ва олисдаги фойдаланувчилар билан алоқа ўрнатиш учун мўлжалланган, симсиз уланиш технологияси.

Изоҳ – Бу атама кўпроқ, қишлоқ алоқа тармоқларини яратиш тўғрисида сўз борганда ишлатилади.

Абонентская станция

uz - abonent stansiyasi

абонент станцияси

en - user station

1 Подключаемое к сети сотовой связи техническое средство формирования сигналов электро-связи для передачи/приема информации по каналам связи.

2 Комплекс средств связи и обработки информации, расположенный непосредственно у пользователя.

1 Aloqa kanallari orqali axborotni uzatish/qabul qilish maqsadida, sotali aloqa tarmog‘iga ulanadigan, elektraloqa signallarini shakllantiradigan texnik vosita.

2 Bevosita foydalanuvchida bo‘lgan aloqa va axborotni qayta ishlash vositalari kompleksi.

1 Алоқа каналлари орқали ахборотни узатиш/қа-

А

бул қилиш мақсадида, сотали алоқа тармоғига уланадиган, электралоқа сигналларини шакллантирадиган техник восита.

2 Бевосита фойдаланувчида бўлган алоқа ва ахборотни қайта ишлаш воситалари комплекси.

Абонентский

аутентификационный ключ

uz - abonent autentifikatsiya kaliti

абонент аутентификация

калити

en - user authentication key

Зашифрованная последовательность длиной 128 bit, которая обычно хранится вместе с регистрационными данными пользователя в постоянном запоминающем устройстве абонентской станции.

Uzunligi 128 bit boʻlgan shifrlangan ketma-ketlik. Odatda, foydalanuvchini roʻyxatga olish maʼlumotlari bilan birga abonent stansiyasining doimiy хотира qurilmasida saqlanadi.

Узунлиги 128 bit бўлган шифрланган кетма-кетлик. Одатда, фойдаланувчини рўйхатга олиш маълумотлари билан бирга абонент станциясининг доимий хотира қурилмасида сақланади.

Абонентский номер

uz - abonent raqami

абонент рақами

en - subscriber number

Телефонный номер, присваиваемый абоненту компанией-оператором, предоставляющим услуги связи в данной местности или регионе.

Muayyan joy yoki mintaqada aloqa xizmatlarini koʻrsatuvchi kompaniya-operator tomonidan abonentga beriladigan telefon raqami.

Муайян жой ёки минтақада алоқа хизматларини кўрсатувчи компания-оператор томонидан абонентга бериладиган телефон рақами.

Абонентский терминал

uz - abonent terminali

абонент терминали

en - user terminal

Малогабаритный приемопередатчик с антенной, находящийся в личном распоряжении пользователя и обеспечивающий обмен информацией с базовой станцией, спутником или другим пользователем, включая вхождение в связь, подготовку и ведение сеансов связи, ввод и вывод информации.

Foydalanuvchi tasarrufidagi antennali, oʻlchamlari kichik boʻlgan, tayanch stansiya, yoʻldosh yoki boshqa foydalanuvchi bilan axborot almashishni,

A

jumladan, aloqaga kirish, aloqa seanslarini tayyorlash va amalga oshirish, axborotni kiritish va olishni ta'minlaydigan qabulqilgich-uzatkich.

Фойдаланувчи тасарруфидаги антеннали, ўлчамлари кичик бўлган, таянч станция, йўлдош ёки бошқа фойдаланувчи билан ахборот алмашишни, жумладан, алоқага кириш, алоқа сеансларини тайёрлаш ва амалга ошириш, ахборотни киритиш ва олишни таъминлайдиган қабулқилгич-узаткич.

Абонентский фрод

uz - abonent aldovi

абонент алдови

en - subscription fraud

Один из наиболее простых видов мошенничества, при котором абонент вносит первоначальную абонентскую плату, а затем интенсивно использует сотовый телефон или просто перепродает эфирное время, а по истечении отчетного периода не оплачивает его, скрываясь от служб оператора, занимающихся выпиской счетов.

Tovlamachilikning eng oddiy turlaridan biri, bunda abonent boshlang'ich abonent to'lovini kiritadi, keyin esa sotali telefondan tinimsiz foydalanadi yoki efir vaqtini shunchaki qayta sotadi, hisoblash davri tugagandan keyin uni to'lamaydi, hisob-kitob yozuvlari bilan shug'ullanuvchi operator xizmatidan yashirinib yuradi.

Товламачиликнинг энг оддий турларидан бири, бунда абонент бошланғич абонент тўловини киритади, кейин эса сотали телефондан тинимсиз фойдаланади ёки эфир вақтини шунчаки қайта сотади, ҳисоблаш даври тугагандан кейин уни тўламайди, ҳисоб-китоб ёзувлари билан шуғулланувчи оператор хизматидан яшириниб юради.

Абонентское вещание

uz - abonent eshittirishi

абонент эшиттириши

en - narrowcasting

1 Передача вещательных программ для ограниченного числа абонентов.

2 Вещание на ограниченный регион через спутники, у которых бортовая антенна формирует несколько узких лучей, каждый из которых обслуживает свой регион.

1 Cheklangan sondagi abonentlar uchun dasturiy eshittirishlarni uzatish.

2 Chegaralangan hududga yo'ldoshlar orqali eshit-

A

tirish boʻlib, ular bortidagi antenna har biri oʻz hududiga xizmat koʻrsatadigan bir nechta tor nur hosil qiladi.

1 Чекланган сондаги абонентлар учун дастурий эшиттиришларни узатиш.

2 Чегараланган хуудга йўлдошлар орқали эшиттириш бўлиб, улар бортидаги антенна ҳар бири ўз хуудига хизмат кўрсатадиган бир нечта тор нур ҳосил қилади.

Автодозвон

uz - avtomatik qoʻngʻiroqlash (avtochaqiruv)

автоматик қўнғироқлаш (авточакирув)

en - on-going call

Режим работы телефонного аппарата, при котором многократно передается один и тот же вызов. Обычно число автоматических попыток вызова ограничено, однако абонент в любой момент может вновь включить телефон в режим автодозвона.

Telefon apparatida bitta chaqiruvni avtomatik tarzda koʻp marta uzatish rejimi. Odatda, avtomatik chaqiruvlar soni cheklangan boʻladi, lekin abonent istalgan paytda telefonni yana avtomatik chaqiruv rejimiga ulashi mumkin.

Телефон аппаратада битта чакирувни автоматик тарзда кўп марта узатиш режими. Одатда, автоматик чакирувлар сони чекланган бўлади, лекин абонент исталган пайтда телефонни яна автоматик чакирув режимига улаши мумкин.

Автоматический альтернативный биллинг

uz - avtomatik muqobil billing

автоматик муқобил биллинг

en - automatic alternative billing (AAB)

Услуга, позволяющая абоненту произвести вызов с любого телефона, а плату за разговор отнести на счет третьего абонента, который определен для этой услуги и не принадлежит ни к вызывающей, ни к вызываемой стороне.

Примечание – Для обращения к услуге используется специальный код доступа.

Abonentga istalgan telefondan chaqiruvni amalga oshirish, lekin soʻzlashuv toʻlovini shu xizmat uchun belgilangan va chaqiruvchi tomonga ham, chaqiruvchi tomonga ham tegishli boʻlmagan uchinchi abonent hisobiga oʻtkazish imkonini beradigan xizmat.

Izoh – Bu xizmatdan foydalanish uchun maxsus kirish kodi ishlatiladi.

А

Абонентга исталган телефондан чақирувни амалга ошириш, лекин сўзлашув тўловини шу хизмат учун белгиланган ва чақирувчи томонга ҳам, чақирилувчи томонга ҳам тегишли бўлмаган учинчи абонент ҳисобига ўтказиш имконини берадиган хизмат.

Изоҳ – Бу хизматдан фойдаланиш учун махсус кириш коди ишлатилади.

Автоматический запрос повторной передачи

uz - takror uzatishni
avtomatik so‘rash

такрор узатишни
автоматик сўраш

en - automatic request for
repeat (ARQ)

1 Механизм защиты от помех, при котором передача данных происходит по блокам. На приемной стороне обеспечивается контроль ошибок и генерация запроса о необходимости повторения той части информации, где обнаружены ошибки.

2 Протокол, определяющий процедуры обмена сигналами взаимодействия между передатчиком и приемником в линиях связи с повторной передачей данных.

1 Xalaqitlardan himoyalaniş mexanizmi, bunda ma'lumotlarni uzatish bloklar asosida amalga oshiriladi. Qabul qilish tomonida xatolarni nazorat qilish va axborotning xato qabul qilingan qismini takroran uzatish to'g'risidagi so'rovni generatsiyalash ta'minlanadi.

2 Ma'lumotlarni qayta uzatish mexanizmi mavjud liniyalarida uzatkich va qabulqilgich o'rtasida o'zaro ishlash signallari bilan almashuv protsedurasini belgilaydigan protokol.

1 Халақитлардан ҳимояланиш механизми, бунда маълумотларни узатиш блоklar асосида амалга оширилади. Қабул қилиш томонида хатоларни назорат қилиш ва ахборотнинг хато қабул қилинган қисмини такроран узатиш тўғрисидаги сўровни генерациялаш таъминланади.

2 Маълумотларни қайта узатиш механизми мавжуд линияларида узаткич ва қабулқилгич ўртасида ўзаро ишлаш сигналлари билан алмашув процедурасини белгилайдиган протокол.

A

Автоматическое определение местоположения

транспортного средства

uz - transport vositasining joylashuvini avtomatik aniqlash

транспорт воситасининг жойлашувини автоматик аниқлаш

en - automatic vehicle location (AVL)

Процедура, обеспечиваемая комплектом оборудования, состоящим из навигационного приемника и средств радиосвязи.

Примечание – Данные о местоположении в автоматическом режиме или по запросу оператора передаются в диспетчерский центр, где осуществляется контроль за перемещением транспортных средств.

Navigatsion qabulqilgich va radioaloqa vositalaridan iborat bo'lgan uskunalar komplekti ta'minlaydigan jarayon.

Izoh – Joylashuv haqidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda yoki operator so'rovi bo'yicha transport vositalarining harakatlanishi ustidan nazorat olib boriladigan dispatcherlik markaziga uzatiladi.

Навигацион қабулқилгич ва радиоалоқа воситаларидан иборат бўлган ускуналар комплекти таъминлайдиган жараён.

Изоҳ – Жойлашув ҳақидаги маълумотлар автоматик тарзда ёки оператор сўрови бўйича транспорт воситаларининг ҳаракатланиши устидан назорат олиб бориладиган диспетчерлик марказига узатилади.

Автоматическое определение скорости передачи

uz - uzatish tezligini avtomatik aniqlash

узатиш тезлигини автоматик аниқлаш

en - blind rate detection

Услуга в сетях связи, используемая в случаях, когда данные передаются с переменной скоростью, выбираемой из заданного ряда (обычно кратных) скоростей.

Примечание – Текущую скорость передачи приемник определяет автоматически, по входному сигналу.

Aloqa tarmoqlaridagi xizmat. Ma'lumotlar o'zgaruvchan tezlikda uzatiladigan hollarda qo'llaniladi. Odatda, o'rnatilgan (karrali) tezliklar qatoridan tanlab olinadi.

Izoh – Uzatishning ayni paytdagi tezligini qabulqilgich avtomatik tarzda, kirish signali bo'yicha aniqlaydi.

Алоқа тармоқларидаги хизмат. Маълумотлар ўзгарувчан тезликда узатиладиган ҳолларда қўлланилади. Одатда, ўрнатилган (каррали) тезликлар қаторидан танлаб олинади.

Изоҳ – Узатишнинг айти пайтдаги тезлигини қабулқилгич автоматик тарзда, кириш сигнали бўйича аниқлайди.

А

Автоматическое

распределение вызовов

uz - chaqiruvlarni avtomatik taqsimlash

чақирувларни автоматик тақсимлаш

en - automatic call distribution

Услуга в сетях связи, дающая возможность направлять вызовы на другие номера в соответствии с программой переадресации и приоритетами.

Aloqa tarmoqlaridagi, chaqiruvlarni qayta adreslash dasturi va ustuvorliklarga muvofiq, boshqa raqamlarga yoʻnaltirish imkoniyatini beradigan xizmat.

Алоқа тармоқларидаги, чақирувларни қайта адреслаш дастури ва устуворликларга мувофиқ, бошқа рақамларга йўналтириш имкониятини берадиган хизмат.

Автономный выделенный

канал управления

uz - avtonom ajratilgan

boshqaruv kanali

автоном ажратилган бошқарув канали

en - stand-alone dedicated control channel (SDCCH)

Канал двусторонней связи между базовой и мобильной станциями, используемый для передачи информации специальных сетевых служб.

Tayanch va mobil stansiyalar oʻrtasidagi ikki tomonlama aloqa kanali. Undan odatda, tarmoqning maxsus xizmatlari axborotini uzatishda foydalaniladi.

Таянч ва мобил станциялар ўртасидаги икки томонлама алоқа канали. Ундан одатда, тармоқнинг махсус хизматлари ахборотини узатишда фойдаланилади.

Агрегирование каналов

uz - kanallarni agregatsiyalash (birlashtirish)

каналларни агрегациялаш (бирлаштириш)

en - channel aggregation

Метод повышения пропускной способности за счет объединения нескольких параллельных каналов в один высокоскоростной поток данных.

Bir nechta parallel kanallarni bitta, yuqori tezlikli maʼlumotlar oqimiga birlashtirish hisobiga, tarmoqning oʻtkazish qobiliyatini oshirish usuli.

Бир нечта параллел каналларни битта, юқори тезликли маълумотлар оқимига бирлаштириш ҳисобига, тармоқнинг ўтказиш қобилиятини ошириш усули.

Адаптация по скорости

uz - tezlik boʻyicha moslashish

тезлик бўйича мослашиш

en - rate adaptation

Изменение скорости передачи данных в канале в зависимости от загруженности системы или условий распространения радиоволн.

Tizimning yuklanganlik darajasi yoki radiotoʻlqinlarning tarqalish sharoitlariga bogʻliq holda, kanalda maʼlumot uzatish tezligining oʻzgartirilishi.

А

Тизимнинг юкланганлик даражаси ёки радиотўлқинларнинг тарқалиш шароитларига боғлиқ ҳолда, каналда маълумот узатиш тезлигининг ўзгартирилиши.

Адаптивная кодовая книга

uz - adaptiv kod daftari

адаптив код дафтари

en - adaptive codebook

Кодовая книга с выборками речевого сигнала, параметры которой в процессе работы могут автоматически обновляться за счет анализа «тонкой» структуры входного сигнала.

Nutq signallarining tanlanmalari yig‘ilgan kod daftari. Bu kod daftarining parametrlari ish jarayonida kirish signalining «nozik» strukturasi tahlil qilish hisobiga avtomatik ravishda yangilanib turadi.

Нутқ сигналларининг танланмалари йиғилган код дафтари. Бу код дафтارينинг параметрлари иш жараёнида кириш сигналининг «нозик» структурасини таҳлил қилиш ҳисобига автоматик равишда янгиланиб туради.

Адаптивная регенерация

uz - adaptiv regeneratsiya

адаптив регенерация

en - smart refresh

Процедура обновления информации, хранимой в полупроводниковых ячейках памяти, при которой все запросы на регенерацию ставятся в очередь и обслуживаются в фоновом режиме (в паузах между остальными запросами).

Примечание – Если число накопившихся запросов превышает некоторое предельное значение, то текущий кадр обмена информацией откладывается, а цикл регенерации ячеек памяти выполняется немедленно.

Yarimo‘tkazgichli хотира yacheykalarida saqlanadigan axborotni yangilash protsedurasi. Bunda regeneratsiya uchun barcha so‘rovlar navbatga qo‘yiladi va ularga fon rejimida xizmat ko‘rsatiladi (boshqa so‘rovlar orasidagi pauzalarda).

Izoh – Agar to‘plangan so‘rovlar soni qandaydir chegara miqdoridan ortib ketsa, o‘tayotgan axborotlar almashuvi kadri to‘xtatilib, хотира yacheykalarining regeneratsiya sikli darhol bajariladi.

Yarimўtkazgichli хотира yacheykalarida saqlanadigan axborotni yangilash protsedurasi. Bunda regeneratsiya uchun barcha so‘rovlar navbatga qo‘yiladi va ularga fon rejimida xizmat ko‘rsatiladi (boshqa so‘rovlar orasidagi pauzalarda).

А

Изоҳ – Агар тўпланган сўровлар сони қандайдир чегара микдоридан ортиб кетса, ўтаётган ахборотлар алмашуви кадри тўхтатилиб, хотира ячейкаларининг регенерация цикли дарҳол бажарилади.

Адаптивное кодирование с переменной скоростью

uz - o'zgaruvchan tezlik

bilan adaptiv kodlash

ўзгарувчан тезлик

билан адаптив кодлаш

en - adaptive multi-rate (AMR)

Формат кодирования звуковых файлов, специально предназначенный для сжатия сигнала в речевом диапазоне частот.

Примечание – Стандартизован Европейским институтом стандартизации телекоммуникаций (ETSI).

Nutq chastotalar diapazonida signalni siqish uchun maxsus mo'ljallangan, tovushli fayllarni kodlash formati.

Izoh – Yevropa telekommunikatsiyalarni standartlashtirish instituti (ETSI) tomonidan standartlashtirilgan.

Нутқ частоталар диапазонида сигнални сиқиш учун махсус мўлжалланган, товушли файлларни кодлаш формати.

Изоҳ – Европа телекоммуникацияларни стандартлаштириш институти (ETSI) томонидан стандартлаштирилган.

Адаптивное распределение каналов

uz - kanallarning adaptiv

taqsimlanishi

каналларнинг адаптив

тақсимланиши

en - adaptive channel allocation

Динамическое перераспределение частотного ресурса системы между сотами в соответствии с их ожидаемой или реальной загрузкой.

Примечание – Алгоритмы адаптивного назначения каналов позволяют исключить перегрузку сот с наиболее интенсивным трафиком и за счет этого повысить эффективность всей системы мобильной связи.

Tizim chastota resursining sotalar o'rtasida, ularning kutilgan yoki haqiqiy yuklanishiga mos ravishda taqsimlanishi.

Izoh – Kanallarni adaptiv tayinlash algoritmlari eng intensiv trafikli sotalarning o'ta yuklanib ketishining oldini olish va shuning hisobiga butun mobil aloqa tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Тизим частота ресурсининг соталар ўртасида, уларнинг кутилган ёки ҳақиқий юкланишига мос равишда тақсимланиши.

Изоҳ – Каналларни адаптив тайинлаш алгоритмлари энг интенсив трафикли соталарнинг ўта юкланиб кетшининг олдини олиш ва шунинг ҳисобига бутун мобил алоқа тизимининг самарадорлигини ошириш имконини беради.

А

Адаптивные антенны

uz - adaptiv antennalar
адаптив антенналар
en - adaptive antennas

Антенны, в которых предусмотрено согласованное с условиями распространения сигналов и помех изменение параметров и характеристик с целью достижения максимальной эффективности работы антенны в составе систем пространственно-временной обработки сигналов.

Signallarni fazo-vaqt o'Ichamida qayta ishlash tizimi tarkibida antenna ishining eng yuqori samaradorligiga erishish maqsadida, signallar tarqalishi sharoitlari va xalaqitlar asosida parametrlari va xarakteristikalarining o'zgarishi muvofiqlashtirilgan antennalar.

Сигналларни фазо-вақт ўлчамида қайта ишлаш тизими таркибида антенна ишининг энг юқори самарадорлигига эришиш мақсадида, сигналлар тарқалиши шароитлари ва халақитлар асосида параметрлари ва харақистикаларининг ўзгариши мувофиқлаштирилган антенналар.

Аддитивная радиопомеха

uz - additiv radioxalaqit
аддитив радиохалақит
en - additive interference

Радиопомеха, мешающее действие которой определяется суммированием с полезным радиосигналом.

Xalaqit beruvchi ta'siri foydali signal bilan qo'shilib ketadigan radioxalaqit.

Халақит берувчи таъсири фойдали сигнал билан қўшилиб кетадиган радиохалақит.

Аддитивный белый гауссовский шум

uz - additiv oq gauss shovqini
аддитив оқ гаусс шовқини
en - additive white gaussian noise

Широкополосный шум, энергетический спектр которого равномерен на всех частотах.

Energetik spektri barcha chastotalarda bir me'yorda bo'lgan keng polosali shovqin.

Энергетик спектри барча частоталарда бир меъёрда бўлган кенг полосали шовқин.

Адрес

uz - adres
адрес
en - address

Уникальный номер или символическое имя, присваиваемое сети или сетевому устройству, чтобы другие сети и устройства могли распознать его при обмене информацией.

Примечание – Адреса бывают логическими (символическими или условными), физическими (аппаратными) и сетевыми.

A

Tarmoq yoki tarmoq qurilmasiga beriladigan yagona raqam yoki ramziy nom. Axborot almashinish jara-yonida boshqa tarmoqlar yoki qurilmalar uni ana shu nom bilan tanib oladilar.

Izoh – Adreslar mantiqiy (ramziy yoki shartli), fizik (apparat) yoki tarmoq adreslari shaklida bo‘lishi mumkin.

Тармоқ ёки тармоқ қурилмасига бериладиган ягона рақам ёки рамзий ном. Ахборот алмаши-ниш жараёнида бошқа тармоқлар ёки қурилма-лар уни ана шу ном билан таниб оладилар.

Изоҳ – Адреслар мантикий (рамзий ёки шартли), физик (аппарат) ёки тармоқ адреслари шаклида бўлиши мумкин.

Адрес отправителя

uz - jo‘natuvchining adresi

жўнатувчининг адреси

en - source address

Номер абонента или сети, являющихся источни-ком информации.

Axborot manbai bo‘lgan abonent yoki tarmoqning raqami.

Axborot manbai бўлган абонент ёки тармоқнинг рақами.

Азиатская система сотовой и спутниковой связи

uz - Osiyo sotali va yo‘ldoshli aloqa tizimi

Осиё сотали ва йўлдошли алоқа тизими

en - Asian Cellular and Satellite system (ACeS)

Система персональной радиотелефонной связи, созданная консорциумом ACeS, в который вхо-дят Индонезия, Филиппины и Таиланд.

Примечание – Система рассчитана на обслуживание до 2 млн. абонентов с помощью нескольких геостационар-ных космических аппаратов (Garuda), охватывающих территорию Азии и Европы. В качестве абонентских устройств используются двухмодовые портативные «трубки», в которых совмещены возможности работы в системах сотовой и спутниковой связи.

Tarkibiga Indoneziya, Filippin va Tailand kiradigan ACeS konsorsiumi tomonidan yaratilgan shaxsiy ra-diotelefon aloqa tizimi.

Izoh – Tizim Osiyo va Yevropa hududlarini qamrovchi bir nechta geostatsionar kosmik apparat (Garuda) yordamida 2 mln.gacha abonentga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Abonent qurilmalari sifatida, sotali va yo‘ldoshli aloqa tizimlarida ishlash imkoniyatlari mujassamlashtirilgan, ikki rejimli portativ apparatlar ishlatiladi.

Таркибига Индонезия, Филиппин ва Таиланд ки-радиган ACeS консорциуми томонидан яратил-ган шахсий радиотелефон алоқа тизими.

А

Изоҳ – Тизим Осиё ва Европа худудларини қамровчи бир нечта геостационар космик аппарат (Garuda) ёрдамида 2 млн.гача абонентга хизмат кўрсатишга мўлжалланган. Абонент қурилмалари сифатида, сотали ва йўлдошли алоқа тизимларида ишлаш имкониятлари мжассамлаштирилган, икки режимли портатив аппаратлар ишлатилади.

Активная антенна

uz - aktiv antenna

актив антенна

en - active antenna

Антенна, служащая для целей приема или передачи, в которой усилитель (преобразователь) установлен непосредственно на антенне.

Qabul qilish yoki uzatish uchun xizmat qiladigan antenna, unda kuchaytirgich (o'zgartirgich) bevosita antennaga o'rnatilgan bo'ladi.

Қабул қилиш ёки узатиш учун хизмат қиладиган антенна, унда кучайтиргич (ўзгартиргич) бевосита антеннага ўрнатилган бўлади.

Алгоритм «дырявое ведро»

uz - «teshik chelak» algoritmi

«тешик челак» алгоритми

en - leaky bucket algorithm

Метод защиты от ошибок при перегрузке системы, основанный на временном отключении тех каналов, в которых качество связи наихудшее.

Примечание – Техническая реализация формирует для каждого абонента системы свой счетчик, в который заносятся данные о качестве связи. На основании этой информации система управления производит отсев части «плохих» каналов с пониженным качеством. В результате, показатели качества связи у оставшейся части абонентов улучшаются.

Tizimning yuklanishi ortib ketganida, aloqa sifati eng yomon bo'lgan kanallarni vaqtincha uzib qo'yish bilan, xatolardan himoyalanish usuli.

Izoh – Texnik jihatdan bu usul tizimning har bir abonenti uchun aloqa sifati haqidagi ma'lumotlar kiritiladigan o'z hisoblagichini tuzadi. Bunday axborot asosida boshqaruv tizimi past sifatli «yomon» kanallarni o'chiradi. Natijada qolgan abonentlardagi aloqa sifatining ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Тизимнинг юкланиши ортиб кетганида, алоқа сифати энг ёмон бўлган каналларни вақтинча узиб қўйиш билан, хатолардан ҳимояланиш усули.

Изоҳ – Техник жиҳатдан бу усул тизимнинг ҳар бир абоненти учун алоқа сифати ҳақидаги маълумотлар киритиладиган ўз ҳисоблагичини тузади. Бундай ахборот асосида бошқарув тизими паст сифатли «ёмон» каналларни ўчиради. Натижада қолган абонентлардаги алоқа сифатининг кўрсаткичлари яхшиланади.

А

Алгоритм кодирования речи

uz - nutqni kodlash algoritmi

нутқни кодлаш алгоритми

en - algorithm encoding speech (CODEC)

Система оцифровки речи, представляет собой словарь звуков, с помощью которого голос говорящего преобразуется в набор из единиц и нулей для передачи по линии связи.

Nutqni raqamlashtirish tizimi o'zida tovushlar lug'atini ifodalaydi, bu lug'at yordamida gapiruvchining ovozi aloqa liniyasi orqali uzatish uchun nollar va birlar to'plamiga o'zgartiriladi.

Нутқни рақамлаштириш тизими ўзида товушлар луғатини ифодалайди, бу луғат ёрдамида гапирувчининг овози алоқа линияси орқали узатиш учун ноллар ва бирлар тўпламига ўзгартирилади.

Амплитудная диаграмма направленности

uz - amplituda yo'nalganlik diagrammasi

амплитуда йўналганлик диаграммаси

en - amplitude pattern of antenna

Зависимость амплитуды напряженности излучаемого электромагнитного поля от угловых координат θ и φ в дальней зоне при неизменном расстоянии.

Nurlangan elektromagnit maydonning kuchlanishi amplitudasining masofa o'zgarmagan holatida olis zonada θ va φ burchak koordinatalarga bog'liqligi.

Нурланган электромагнит майдоннинг кучланиши амплитудасининг масофа ўзгармаган ҳолатида олис зонада θ ва φ бурчак координаталарга боғлиқлиги.

Амплитудно-фазовая модуляция без несущей

uz - eltuvchisiz amplituda-fazaviy modulyatsiyalash

элтувчисиз амплитуда-фазавий модуляциялаш

en - carrierless amplitude-phase (CAP)

Вид модуляции. Существуют две ее разновидности – CAP64 и CAP128. В первом варианте каждое модуляционное изменение несет 6 bit информации, во втором – 7 bit. Этот вид модуляции не чувствителен к высокочастотным помехам и его спектр не занимает полосу разговорного канала (от 0 до 4 kHz). Данная технология пока не стандартизована.

Modulyatsiyaning bir turi, uning CAP64 va CAP128 turlari mavjud. Birinchi variantda har bir modulyatsion o'zgarish 6 bit, ikkinchi variantda 7 bit ma'lumotni tashiydi. Modulyatsiyaning bu turi yuqori chastotali xalaqitlarga sezgir emas, uning spektri so'zlashuv kanali polosasini (0 dan 4 kHz gacha) egallamaydi. Ushbu texnologiya hozircha standartlashtirilmagan.

A

Модуляциянинг бир тури, унинг CAP64 ва CAP128 турлари мавжуд. Биринчи вариантда ҳар бир модуляцион ўзгариш 6 bit, иккинчи вариантда 7 bit маълумотни ташиди. Модуляциянинг бу тури юқори частотали халақитларга сезгир эмас, унинг спектри сўзлашув канали полосасини (0 дан 4 kHz гача) эгалламайди. Ушбу технология ҳозирча стандартлаштирилмаган.

Амплитудно-частотная характеристика

uz - amplituda-chastotaviy xarakteristika

амплитуда-частотавий характеристика

en - gain-frequency characteristic

Характеристика, определяющая значение амплитуды сигнала на выходе устройства или канала связи по сравнению с входной амплитудой для всех возможных частот передаваемого сигнала.

Примечание – Степень искажений сигнала оценивают по ширине полосы пропускания, измеряемой по заданному уровню (обычно 0,5).

Qurilma yoki aloqa kanali chiqishidagi signal amplitudasi qiymatini, uzatiladigan signalning mumkin bo'lgan barcha chastotalari uchun tegishli kirish amplitudasi bilan taqqoslab aniqlovchi xarakteristika.

Izoh – Signalning buzilish darajasi berilgan sath bo'yicha o'lchanadigan (u odatda 0,5 ga teng) o'tkazish polosasining kengligi bo'yicha baholanadi.

Qurilma ёки алоқа канали чиқишидаги сигнал амплитудаси қийматини, узатиладиган сигналнинг мумкин бўлган барча частоталари учун тегишли кириш амплитудаси билан таққослаб аниқловчи характеристика.

Изоҳ – Сигналнинг бузилиш даражаси берилган сатҳ бўйича ўлчанадиган (у одатда 0,5 га тенг) ўтказиш полосасининг кенглиги бўйича баҳоланади.

Анализ через синтеза

uz - sintez orqali tahlil qilish

синтез орқали таҳлил қилиш

en - analysis-by-synthesis (AbS)

Алгоритм преобразования речи по замкнутой схеме, согласно которому результаты анализа уточняются в процессе синтеза.

Примечание – Процедура оптимизации основана на использовании модели синтеза с переменными параметрами, что позволяет достичь приемлемого уровня разборчивости речи, начиная со скоростей передачи информации (2,4–4,8) kbit/s (кодеки ACELP, CELP, VSELP).

Berk sxema bo'yicha nutqni o'zgartirish algoritmi bo'lib, unga muvofiq, analiz natijalari sintez jarayonida aniqlashtiriladi.

А

Izoh – Optimallashtirish protsedurasini o'zgaruvchan parametrlarga ega bo'lgan sintez modelidan foydalanishga asoslanadi, bu nutq tushunarililigidan maqbul darajasini (2,4–4,8) kbit/s axborot uzatish tezliklaridan boshlab ta'minlash imkonini beradi (ACELP, CELP, VSELP kodeklari).

Берк схема бўйича нутқни ўзгартириш алгоритми бўлиб, унга мувофиқ, анализ натижалари синтез жараёнида аниқлаштирилади.

Изоҳ – Оптималлаш процедураси ўзгарувчан параметрларга эга бўлган синтез моделидан фойдаланишга асосланadi, бу нутқ тушунарлилигининг мақбул даражасини (2,4–4,8) kbit/s ахборот узатиш тезликларидан бошлаб таъминлаш имконини беради (ACELP, CELP, VSELP кодеклари).

Анализатор спектра
uz - spektr analizatori
спектр анализатори
en - spectrum analyzer

Прибор для исследования и визуального отображения спектрального состава сигналов.

Примечание – Современные анализаторы спектра оснащены цифровыми регистраторами, позволяющими выводить данные на принтер или записывать на электронный носитель с целью их последующей обработки на компьютере.

Signallarning spektral tarkibini tekshirish va vizual tasvirlash uchun mo'ljallangan apparat.

Izoh – Zamonaviy spektr analizatorlari ma'lumotlarni printerga chiqarib berish yoki keyinchalik kompyuterda qayta ishlash maqsadida ularni elektron tashuvchiga yozib olish imkoniga ega bo'lgan raqamli registratorlar bilan jihozlangan.

Сигналларнинг спектрал таркибини текшириш ва визуал тасвирлаш учун мўлжалланган аппарат.

Изоҳ – Замонавий спектр анализаторлари маълумотларни принтерга чиқариб бериш ёки кейинчалик компьютерда қайта ишлаш мақсадида уларни электрон ташувчига ёзиб олиш имконига эга бўлган рақамли регистраторлар билан жиҳозланган.

Антенна
uz - antenna
антенна
en - antenna

Устройство для непосредственного излучения или приема радиоволн.

Примечание – Антенны отличаются диапазоном излучаемых (принимаемых) радиоволн, перекрытием по частоте, направленностью излучения или приема, принципом действия и конструктивным выполнением. Основные параметры и характеристики антенны: коэффициент направленного действия, диаграмма направленности, входное сопротивление, вид поляризации волны.

Radioto'lqinlarni bevosita uzatish (nurlantirish) va qabul qilish uchun mo'ljallangan qurilma.

A

Izoh – Antennalar uzatiladigan (nurlanadigan) (qabul qilindigan) radioto‘lqinlarning diapazoni, chastota bo‘yicha qoplanish, uzatish (nurlantirish) yoki qabul qilishdagi yo‘nalganlik, ta’sir qilish prinsipi va konstruktiv bajarilishi bilan farq qiladi. Antennaning asosiy parametrlari va xarakteristikalari quyidagilardir: yo‘naltirilgan ta’sir koeffitsiyenti, yo‘nalganlik diagrammasi, kirish qarshiligi, to‘lqin qutblanishi turi.

Радиотўлқинларни бевосита узатиш (нурлантириш) ва қабул қилиш учун мўлжалланган қурилма.

Изоҳ – Антенналар узатиладиган (нурланадиган) (қабул қилинадиган) радиотўлқинларнинг диапозони, частота бўйича қопланиш, узатиш (нурлантириш) ёки қабул қилишдаги йўналганлик, таъсир қилиш принципи ва конструктив бажарилиши билан фарқ қилади. Антеннанинг асосий параметрлари ва харақтеристикалари қуйидагилардир: йўналтирилган таъсир коэффициенти, йўналганлик диаграммаси, кириш қаршилиги, тўлқин қутбланиши тури.

Антенна «волновой канал» (директорная антенна)

uz - «to‘lqin kanali» antennasi
(direktor antenna)

«тўлқин канали»

антеннаси (директор антенна)

en - Yagi antenna (director-type antenna)

Направленная антенна, состоящая из ряда параллельных вибраторов (активного вибратора, пассивного рефлектора и нескольких пассивных директоров), расположенных в одной плоскости вдоль линии, совпадающей с направлением максимального излучения и/или приема.

Liniya bo‘ylab bitta tekislikda joylashgan, maksimal nurlanish va/yoki qabul qilish bilan mos keladigan bir qator parallel vibratorlardan (aktiv vibrator, passiv reflektor va bir nechta passiv direktordan) iborat yo‘naltirilgan antenna.

Линия бўйлаб битта текисликда жойлашган, максимал нурланиш ва/ёки қабул қилиш билан мос келадиган бир қатор параллел вибраторлардан (актив вибратор, пассив рефлектор ва бир нечта пассив директордан) иборат йўналтирилган антенна.

Антенная решетка

uz - antenna panjarasi

антенна панжараси

en - array; antenna array

Антенна, содержащая совокупность излучающих элементов, расположенных в определенном порядке, ориентированных и возбуждаемых так, чтобы получить заданную диаграмму направленности.

Ма’lum tartibda joylashtirilgan, berilgan yo‘nalganlik diagrammasini olish uchun mo‘ljallangan va

А

qo‘zg‘atilgan, nurlantiradigan elementlarning to‘plamidan iborat antenna.

Маълум тартибда жойлаштирилган, берилган йўналганлик диаграммасини олиш учун мўлжалланган ва қўзғатилган, нурлантирадиган элементларнинг тўпламидан иборат антенна.

Антенно-фидерное устройство

uz - antenna-fider moslamasi
антенна-фидер мосламаси
en - antenna-feeder device

Совокупность антенны и фидерного тракта, входящая в качестве составной части в радиоэлектронное изделие, образец, комплекс.

Примечание – АФУ используются для передачи сигналов в системах радиосвязи, радиовещания, телевидения, а также других радиотехнических системах, использующих для передачи сигналов радиоволны.

Radioelektron buyum, namuna, kompleks tarkibiga kiradigan antenna va fider trakt yig‘indisi.

Izoh – Antenna-fider qurilma radioaloqa, radioeshittirish, televideniya tizimlarida signallarni uzatish uchun shuningdek, signallarni uzatishda radioto‘lqinlardan foydalaniladigan radiotexnika tizimlaridan qo‘llaniladi.

Радиоэлектрон буюм, намуна, комплекс таркибига кирадиган антенна ва фидер тракт йиғиндиси.

Изох – Антенна-фидер қурилма радиоалоқа, радиоэшиттириш, телевидения тизимларида сигналларни узатиш учун шунингдек, сигналларни узатишда радиотўлқинлардан фойдаланиладиган радиотехника тизимларидан қўлланилади.

Аппаратное обеспечение

uz - apparat ta‘minoti
аппарат таъминоти
en - hardware security

Комплекс технических средств, включающий электронно-вычислительные машины, внешние устройства, терминалы и абонентские пункты, средства телекоммуникаций, необходимые для функционирования той или иной системы.

U yoki bu tizimning ishlashi uchun zarur bo‘lgan telekommunikatsiya vositalarini, terminallar, abonent punktlari, tashqi qurilmalar, elektron hisoblash mashinalarini ichiga oladigan texnik vositalar kompleksi.

U ёки бу тизимнинг ишлаши учун зарур бўлган телекоммуникация воситаларини, терминаллар, абонент пунктлари, ташқи қурилмалар, электрон ҳисоблаш машиналарини ичига оладиган техник воситалар комплекси.

A

Архитектура

uz - arxitektura

архитектура

en - architecture

Совокупность логической и физической организации аппаратных и программных средств, процедур управления, протоколов и интерфейсов, лежащих в основе какой-либо системы.

Biron-bir tizim asosida yotuvchi apparat va dasturiy ta'minot, boshqaruv jarayonlari, hujjatlar va interfeyslarni mantiqiy va fizik tashkil etishlar yig'indisi.

Бирон-бир тизим асосида ётувчи аппарат ва дастурий таъминот, бошқарув жараёнлари, ҳужжатлар ва интерфейсларни мантиқий ва физик ташкил этишлар йиғиндиси.

Асинхронная передача

uz - asinxron uzatish

асинхрон узатиш

en - asynchronous transmission

Передача информации в случайный момент времени, но не раньше, чем завершится обработка предыдущего сигнала.

Примечание – В начале каждого асинхронно передаваемого сообщения обычно содержатся избыточные символы, используемые приемным устройством для синхронизации сигнала.

Axborotni tasodifiy vaqt onida, biroq avvalgi signalning qayta ishlanishi tamomlanganidan so'ng, uzatish.

Izoh – Har bir asinxron uzatilayotgan xabarning boshida, odatda qabulqilgich tomonidan signalni sinxronlash uchun ishlatiladigan ortiqcha simvollar kiritilgan bo'ladi.

Ахборотни тасодифий вақт онида, бироқ аввалги сигналнинг қайта ишланиши тамомланганидан сўнг, узатиш.

Изоҳ – Ҳар бир асинхрон узатилаётган хабарнинг бошида, одатда қабулқилгич томонидан сигнални синхронлаш учун ишлатиладиган ортиқча символлар киритилган бўлади.

Ассоциация IrDA

uz - IrDA uyushmasi

IrDA уюшмаси

en - Infra red Data Association (IrDA)

Ассоциация по передаче данных в инфракрасном диапазоне световых волн, осуществляет разработку стандартов для беспроводных инфракрасных систем связи между устройствами. Через порт IrDA устройство, например, мобильный телефон может производить обмен данными с другими устройствами без кабельного соединения. Для IrDA необходимо наличие прямой видимости.

A

Ma'lumotlarni yorug'lik to'lqinlarining infraqizil diapazonida uzatish bo'yicha uyushma, qurilmalar orasida simsiz infraqizil aloqa tizimlari uchun standartlar ishlab chiqishni amalga oshiradi. IrDA porti vositasida qurilma masalan, mobil telefon orqali kabelli bog'lanishsiz boshqa qurilmalar bilan ma'lumotlar almashish mumkin. IrDA uchun bevosita (to'g'ridan to'g'ri) ko'rinishning mavjudligi zarur.

uz - qo'shimcha xizmatlar
қўшимча хизматлар
en - supplementary services

Услуги связи, которые отдельно не предоставляются, а служат в качестве дополнения к основным видам обслуживания, расширяя их функциональные возможности.

Alohida taqdim etilmaydigan, balki xizmat ko'rsatishning asosiy turlariga, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirgan holda qo'shimcha sifatida xizmat qiladigan aloqa xizmatlari.

Алоҳида тақдим этилмайдиган, балки хизмат кўрсатишнинг асосий турларига, уларнинг функционал имкониятларини кенгайтирган ҳолда қўшимча сифатида хизмат қиладиган алоқа хизматлари.

Дополнительный канал

uz - qo'shimcha kanal
қўшимча канал
en - supplemental channel

Один из вспомогательных каналов, который может быть использован для передачи высокоскоростной информации и адаптирован для предоставления различных видов услуг (в стандартах IS-95 и CDMA2000).

Примечание – Скорость передачи по дополнительному каналу может быть фиксированной или переменной, причем определение скорости в приемнике осуществляется автоматически по входному сигналу.

Yuqori tezlikli axborotni uzatish uchun foydalaniishi va turli xizmatlarni ko'rsatishga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yordamchi kanallardan biri (IS-95 va CDMA2000 standartlarida).

Izoh – Qo'shimcha kanal bo'ylab uzatish tezligi qayd etilgan yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, shu bilan birgalikda,

Д

qabulqilgichda tezlikning aniqlanishi kirish signali bo'yicha avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Юқори тезликли ахборотни узатиш учун фойдаланилиши ва турли хизматларни кўрсатишга мослаштирилиши мумкин бўлган ёрдамчи каналлардан бири (IS-95 ва CDMA2000 стандартларида).

Изоҳ – Қўшимча канал бўйлаб узатиш тезлиги қайд этилган ёки ўзгарувчан бўлиши мумкин, шу билан биргаликда, қабулқилгичда тезликнинг аниқланиши кириш сигнали бўйича авtomatik равишда амалга оширилади.

Доска объявлений

uz - e'lonlar taxtasi

эълонлар тахтаси

en - bulletin board

Первый пакет, который передается в каждом кадре TDMA и содержит таблицу распределения временных интервалов в кадре.

TDMA har bir kadrida birinchi bo'lib uzatiladigan va kadrda vaqt intervalining taqsimlanish jadvalini saq-lovchi paket.

TDMA ҳар бир кадридида биринчи бўлиб узатиладиган ва кадрда вақт интервалининг тақсимланиш жадвалини сақловчи пакет.

Доступ

uz - kira olish, foydalana olish, ulanish

кира олиш, фойдалана олиш, уланиш

en - access

Процедура обращения абонента, процесса, устройства к общесетевым ресурсам системы.

Abonent, jarayon, qurilma tomonidan, tizimning tarmoq uchun umumiy resurslariga murojaat qilish protsedurasi.

Абонент, жараён, қурилма томонидан, тизимнинг тармоқ учун умумий ресурсларига мурожаат қилиш процедураси.

Доступ к среде

uz - muhitga kirish

муҳитга кириш

en - medium access

Процесс, в ходе которого несколько компьютерных устройств используют общую среду. Наиболее распространенным методом осуществления доступа к среде в беспроводных сетях является множественный доступ с контролем несущей (CSMA).

Bir nechta kompyuter qurilmasi umumiy muhitdan foydalanadigan jarayon. Eltuvchini nazorat qilish bilan ko'plab kira olish (CSMA) simsiz tarmoqlarda muhitdan erkin foydalanishning eng keng tarqalgan metodi hisoblanadi.

Д

Бир нечта компьютер қурилмаси умумий муҳитдан фойдаланадиган жараён. Элтувчини назорат қилиш билан кўплаб кира олиш (CSMA) симсиз тармоқларда муҳитдан эркин фойдаланишнинг энг кенг тарқалган методи ҳисобланади.

Доступ множественный с контролем несущей частоты и предотвращением конфликтов

uz - eltuvchi chastota nazorat qilingan va konfliktlarning oldi olingan holda, ko'plab foydalana olish

элтувчи частота назорат қилинган ва конфликтларнинг олди олинган ҳолда, кўплаб фойдалана олиш

en - multiple access with control carrier frequency and conflict prevention

Доступ в соответствии с классом протоколов, использующих квантование по времени, при котором каждая станция может передавать информацию только в строго определенные для неё моменты времени и посылку запроса на получение доступа к среде; каждая станция формирует специальный запрос на передачу, адресуемый к управляющей станции.

Vaqt bo'yicha kvantlashdan foydalaniladigan protokollar klassiga muvofiq, foydalana olish, bunda har bir stansiya axborotni faqat uning uchun qa'iy belgilangan vaqtda uzatishi va muhitdan foydalanish huquqini olishga so'rovni yuborishi mumkin; har bir stansiya boshqaruvchi stansiyaga yuboriladigan uzatishga maxsus so'rovni shakllantiradi.

Вақт бўйича квантлашдан фойдаланиладиган протоколлар классига мувофиқ, фойдалана олиш, бунда ҳар бир станция ахборотни фақат унинг учун қайий белгиланган вақтда узатиши ва муҳитдан фойдаланиш ҳуқуқини олишга сўровни юбориши мумкин; ҳар бир станция бошқарувчи станцияга юбориладиган узатишга махсус сўровни шакллантиради.

Доступность

uz - foydalana olish imkoniyati

фойдалана олиш имконияти

en - accessibility

1 Способность получить доступ к различным видам услуг, общесистемным ресурсам и элементам сети, таким как ретрансляторы, коммутаторы, маршрутизаторы, концентраторы и др.

2 Возможность установления соединения с удаленными абонентами.

1 Turli xizmatlar, umumtarmoq resurslari va retranslyatorlar, kommutatorlar, marshrutizatorlar, konsentratrorlar kabi tarmoq elementlaridan foydalana olish qobiliyati.

2 Olisdagi abonentlar bilan bog'lanish o'rnatish imkoniyati.

Д

1 Турли хизматлар, умумтармоқ ресурслари ва ретрансляторлар, коммутаторлар, маршрутизаторлар, концентраторлар каби тармоқ элементларидан фойдалана олиш қобилияти.

2 Олисдаги абонентлар билан боғланиш ўрнатиш имконияти.

Доступность услуг

uz - xizmatlardan foydalanish qulayligi

хизматлардан фойдаланиш қулайлиги

en - service accessibility

Показатель, характеризующий удобство обслуживания и оперативность предоставления абонентам телекоммуникационных услуг.

Xizmat ko'rsatishning qulayligi va abonentlarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etilishining tezkorligini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Хизмат кўрсатишнинг қулайлиги ва абонентларга телекоммуникация хизматлари тақдим этилишининг тезкорлигини тавсифловчи кўрсаткич.

Дробление соты

uz - yacheykani maydalash

ячейкани майдалаш

en - cell splitting

Метод разбиения соты на несколько сот с меньшим радиусом действия, обычно применяемый для улучшения характеристик обслуживания в районах с интенсивным трафиком.

Примечание – При дроблении сот число базовых станций в сети увеличивается, однако мощность излучения передатчиков базовых и мобильных станций уменьшается.

Yacheyka (sota)ni harakat doirasi kichik bo'lgan bir nechta yacheykaga bo'lish metodi, odatda, intensiv trafikli rayonlarda xizmat ko'rsatish xarakteristikalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Izoh – Yacheykalar maydalanganda, tarmoqdagi tayanch stansiyalarning soni ortadi, biroq tayanch va mobil stansiyalar uzatkichlarining nurlanish quvvati kamayadi.

Ячейка (сота)ни ҳаракат доираси кичик бўлган бир нечта ячейкага бўлиш методи, одатда, интенсив трафикли районларда хизмат кўрсатиш хarakterистикаларини яхшилаш учун қўлланилади. Изох – Ячейкалар майдаланганда, тармоқдаги таянч станцияларнинг сони ортади, бироқ таянч ва мобил станциялар узаткичларининг нурланиш қуввати камаяди.

Дрожание фазовое

uz - fazaviy titrashlar

фазавий титрашлар

en - jitter

1 Кратковременные отклонения значащих моментов цифрового сигнала от их идеальных положений во времени.

Примечание – При этом считается, что эти отклонения происходят с частотой равной 10 Hz и более.

Д

2 Быстрые флуктуации фазы или «уходы» частоты, приводящие к ухудшению качества связи или сбою синхронизации.

1 Odatda, chegaraviy darajadan o'tganda hosil bo'ladigan, raqamli signallar qiymatining qisqa muddatli o'zgarishi.

Izoh – Buzilishlar, ma'lum vaqt oralig'ida impulslar frontlarining ideal holatiga nisbatan tasodifiy fluktuatsiyalar tarzida 10 Hz ga teng va undan katta chastota bilan namoyon bo'ladi.

2 Aloqa sifatining buzilishi yoki sinxronlikdan chiqib ketishga olib keladigan, fazaning tez fluktuatsiyalari yoki chastotaning «ketib qolishi».

1 Одатда, чегаравий даражадан ўтганда ҳосил бўладиган, рақамли сигналлар қийматининг қисқа мuddатли ўзгариши.

Изоҳ – Бузилишлар, маълум вақт оралиғида импульслар фронтларининг идеал ҳолатига нисбатан тасодифий флуктуациялар тарзида 10 Hz га тенг ва ундан катта частота билан намоён бўлади.

2 Алоқа сифатининг бузилиши ёки синхронликдан чиқиб кетишга олиб келадиган, фазанинг тез флуктуациялари ёки частотанинг «кетиб қолиши».

**Дуплекс; дуплексная
передача**

uz - dupleks; dupleks uzatish

дуплекс; дуплекс узатиш

en - duplex

Процесс передачи сообщений по каналам связи одновременно в двух направлениях.

Примечание – Данный термин часто употребляется как прилагательное, означающее «дуплексный, одновременно двусторонний». В этом случае он характеризует тип канала связи или режим работы устройства, способного одновременно передавать и принимать информацию.

Aloqa kanallari orqali xabarlarni bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda uzatish jarayoni.

Izoh – Bu atama «dupleks, bir vaqtning o'zida ikki tomonlama» ma'nosida ishlatiladi. Bunda u bir vaqtning o'zida ham uzatish, ham qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kanal turi yoki qurilmaning ishlash rejimini tavsiflaydi.

Алоқа каналлари орқали хабарларни бир вақтнинг ўзида икки йўналишда узатиш жараёни.

Изоҳ – Бу атама «дуплекс, бир вақтнинг ўзида икки томонлама» маъносида ишлатилади. Бунда у бир вақтнинг ўзида ҳам узатиш, ҳам қабул қилиш қобилиятига эга бўлган канал тури ёки қурилманинг ишлаш режимини тавсифлайди.

Д

Дуплексная передача с временным разделением; временной дуплексный разнос

uz - vaqt bo'yicha ajratilgan dupleks uzatish; vaqt bo'yicha dupleks tarqoqlik

вақт бўйича ажратилган дуплекс узатиш; вақт бўйича дуплекс тарқоқлик

en - time division duplex (TDD)

1 Двусторонняя передача цифровой информации на одной несущей с уплотнением каналов приема и передачи в разных временных интервалах одного кадра.

Примечание – Дуплексная передача с временным разделением предназначена прежде всего для пико- и микросот, где абоненты передвигаются с относительно невысокой скоростью в ограниченном пространстве.

2 Метод обмена информацией по одной линии связи с уплотнением каналов приема и передачи в разных временных интервалах одного кадра.

Примечание – Режим TDD предназначен для применения в пико и микросотах, когда абоненты передвигаются с невысокой скоростью в ограниченном пространстве.

1 Bir kadrning turli vaqt intervallarida, qabul qilish va uzatish kanallarini zichlashtirib, raqamli axborotni bitta eltuvchida ikki tomonlama uzatish.

Izoh – Vaqt bo'yicha ajratilgan dupleks uzatish, eng avvalo, cheklangan makonda abonentlar uncha katta bo'lmagan tezlik bilan harakatlanadigan piko- va mikrosotalarga mo'ljallangan.

2 Bir kadrning turli vaqt intervallarida, qabul qilish va uzatish kanallarini zichlashtirib, raqamli axborotni bitta eltuvchida ikki tomonlama uzatish.

Izoh – Vaqt bo'yicha ajratilgan dupleks aloqa, eng avvalo, cheklangan makonda abonentlar uncha katta bo'lmagan tezlik bilan harakatlanadigan piko- va mikrosotalarga mo'ljallangan.

1 Бир кадрнинг турли вақт интервалларида, қабул қилиш ва узатиш каналларини зичлаштириб, рақамли ахборотни битта элтувчида икки томонлама узатиш.

Изоҳ – Вақт бўйича ажратилган дуплекс узатиш, энг аввало, чекланган маконда абонентлар унча катта бўлмаган тезлик билан ҳаракатланадиган пико- ва микросоталарга мўлжалланган.

2 Бир кадрнинг турли вақт интервалларида, қабул қилиш ва узатиш каналларини зичлаштириб, рақамли ахборотни битта элтувчида икки томонлама узатиш.

Изоҳ – Вақт бўйича ажратилган дуплекс алоқа, энг аввало, чекланган маконда абонентлар унча катта бўлмаган тезлик билан ҳаракатланадиган пико- ва микросоталарга мўлжалланган.

Д

Дуплексная передача с частотным разделением; частотный дуплексный разнос

uz - chastota bo'yicha ajratish bilan dupleksli uzatish; chastotaviy dupleksli tarqatish
частота бўйича ажратиш билан дуплексли узатиш; частотавий дуплексли тарқатиш
en - frequency division duplex (FDD)

1 Режим работы линии связи, при котором частоты передачи и приема находятся в разных полосах частот, разделенных защитным промежутком.

Примечание – В режиме TDMA/FDD базовая станция может установить связь одновременно с N абонентами, каждому из которых выделен свой временной интервал.

2 Двухсторонняя связь с частотным разделением. Режим работы линии связи, при котором передача и прием осуществляются на разных частотах. При этом станция способна принимать и передавать одновременно.

Примечание – Этот режим поддерживают большинство сотовых систем, включая UMTS/WCDMA и CDMA2000, а также системы WiMAX стандарта IEEE 802.16.

1 Aloqa liniyasining ish rejimi, unda uzatish va qabul qilish chastotalari ma'lum vaqt himoya oralig'i bilan ajratilgan turli chastotalar polosalarida joylashadi.

Izoh – TDMA/FDD rejimida tayanch stansiya bir vaqtda har biriga o'z vaqt intervali ajratib berilgan N ta abonent bilan aloqa o'rnatishi mumkin.

2 Chastota bo'yicha ajratilgan ikki tomonlama aloqa. Aloqa liniyasining ish rejimi bo'lib, uzatish va qabul turli chastotalarda amalga oshiriladi. Bunda stansiya bir vaqtda qabul qiladi va uzatadi.

Izoh – Bu rejim sotali tizimlarning ko'pchiligida, jumladan, UMTS/WCDMA va CDMA2000 da, shuningdek, IEEE 802.16 standartining WiMAX tizimlarida qo'llaniladi.

1 Aloqa liniyasining ish rejimi, unda uzatish va qabul qilish chastotalari ma'lum vaqt himoya oralig'i bilan ajratilgan turli chastotalar polosalarida joylashadi.

Izoh – TDMA/FDD rejimida tayanch stansiya bir vaqtda har biriga o'z vaqt intervali ajratib berilgan N ta abonent bilan aloqa o'rnatishi mumkin.

2 Chastota bo'yicha ajratilgan ikki tomonlama aloqa. Aloqa liniyasining ish rejimi bo'lib, uzatish va qabul turli chastotalarda amalga oshiriladi. Bunda stansiya bir vaqtda qabul qiladi va uzatadi.

Izoh – Bu rejim sotali tizimlarning ko'pchiligida, jumladan, UMTS/WCDMA va CDMA2000 da, shuningdek, IEEE 802.16 standartining WiMAX tizimlarida qo'llaniladi.

Д

«Дыхание» соты
uz - sotaning «nafas olishi»
сотанинг «нафас олиши»
en - cell breathing

Изменение размеров соты в зависимости от нагрузки сети, помеховой обстановки и других факторов.

Tarmoq yuklamasi, xalaqitli vaziyat va boshqa omillarga bog‘liq ravishda, yacheyka (sota) o‘lchamlarining o‘zgarishi.

Тармоқ юкламаси, халақитли вазият ва бошқа омилларга боғлиқ равишда, ячейка (сота) ўлчамларининг ўзгариши.

Е

Единая сетевая адресация
uz - yagona tarmoq adresatsiyasi
ягона тармоқ адресацияси
en - network-wide addressing

Общая система адресации, принятая в пределах всей сети, т.е. без учета ее разделения на подсети.

Tarmoqning kichik tarmoqlarga bo‘linishini hisobga olmagan holda, butun tarmoq doirasida qabul qilingan umumiy adresatsiya tizimi.

Тармоқнинг кичик тармоқларга бўлинишини ҳисобга олмаган ҳолда, бутун тармоқ доирасида қабул қилинган умумий адресация тизими.

Ж

Живучесть
uz - yashovchanlik
яшовчанлик
en - liveness, survivability

Способность системы успешно функционировать при возникновении сбоев, отказов, тупиковых и других неблагоприятных ситуаций.

To‘xtalishlar, ishlamay qolishlar, ilojsiz va boshqa noqulay vaziyatlarda tizimning muvaffaqiyatli ishlay olish qobiliyati.

Тўхталишлар, ишламай қолишлар, иложсиз ва бошқа ноқулай вазиятларда тизимнинг муваффақиятли ишлай олиш қобилияти.

Загрузка свободных каналов

uz - bo'sh kanallarning yuklanishi

бўш каналларнинг юкланиши

en - idle-channel loading

Введение случайного трафика, например, бессмысленных данных или шума в свободные каналы с целью обеспечения заданного уровня сигнала на входе модулятора при многоканальной передаче данных.

Ma'lumotlarni ko'p kanalli uzatishda, modulyatorning kirishida signalning belgilangan darajasini ta'minlash maqsadida, bo'sh kanallarga tasodifiy trafikni, masalan, mazmunsiz ma'lumotlar yoki shovqinni kiritish.

Маълумотларни кўп каналли узатишда, модуляторнинг киришида сигналнинг белгиланган даражасини таъминлаш мақсадида, бўш каналларга тасодифий трафикни, масалан, мазмунсиз маълумотлар ёки шовқинни киритиш.

Загрязнение спектра

uz - spektrning ifloslanishi

спектрнинг ифлосланиши

en - spectral pollution

Передача неотфильтрованного сигнала, в спектре которого присутствуют побочные и интермодуляционные составляющие недопустимо высокого уровня.

Spektrida, yo'l qo'yib bo'lmaydigan yuqori darajali nomaqbul va intermodulyatsion tashkil etuvchilar bo'lgan, filtrlanmagan signalni uzatish.

Спектрида, йўл қўйиб бўлмайдиган юқори даражали нوماқбул ва интермодуляцион ташкил этувчилар бўлган, филтрланмаган сигнални узатиш.

Задержка

uz - ushlanib qolish

ушланиб қолиш

en - delay

1 Время запаздывания сигнала при его распространении.

2 Время ожидания при установлении соединения, которое определяется протоколом связи, характеристиками каналов доступа, наличием очереди на обслуживание и другими факторами.

1 Signalning, tarqalish jarayonidagi kechikish vaqti.
2 Bog'lanish o'rnatishdagi kutish vaqti, u aloqa protokoli, erkin foydalanish kanallarining xarakteristikalari, xizmat ko'rsatishga bo'lgan navbatning bor-yoqligi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

1 Сигналнинг, тарқалиш жараёнидаги кечикиш вақти.

2 Боғланиш ўрнатишдаги кутиш вақти, у алоқа протоколи, эркин фойдаланиш каналларининг характеристикалари, хизмат кўрсатишга бўлган навбатнинг бор-йўқлиги ва бошқа омиллар билан белгиланади.

Задний лепесток диаграммы направленности антенны

uz - antenna yoʻnalganlik diagrammasining keyingi yurogʻi

антенна йўналганлик диаграммасининг кейинги япроғи

en - posterior lobe of the antenna, backlobe of the antenna

Лепесток диаграммы направленности антенны, направление которого образует по отношению к направлению главного лепестка угол, равный или близкий 180° .

Antenna yoʻnalganlik diagrammasining yurogʻi, uning yoʻnalishi asosiy yuroq burchagiga nisbatan teng yoki 180° ga yaqin.

Антенна йўналганлик диаграммасининг япроғи, унинг йўналиши асосий япроқ бурчагига нисбатан тенг ёки 180° га яқин.

Заимствование

uz - oʻzlashtirish

ўзлаштириш

en - borrowing

Временное использование сетевых ресурсов (например, частотных каналов) другой соты, которой они выделены на постоянной основе.

Boshqa sotaga doimiy asosda ajratilgan tarmoq resurslari (masalan, chastota kanallari)dan vaqtincha foydalanish.

Бошқа сотага доимий асосда ажратилган тармоқ ресурслари (масалан, частота каналлари)дан вақтинча фойдаланиш.

Заимствованный

(захваченный) канал

uz - oʻzlashtirma (tutib olingan) kanal

ўзлаштира (тутиб олинган) канал

en - stealing channel

1 Информационный канал, по которому временно передается служебная информация.

Примечание – В стандарте TETRA такой канал организуется для передачи экстренных вызовов.

2 Канал, который организуется в процессе работы радиосети путем замены небольшой части информационных символов на команды управления и служебные символы.

Примечание – Очевидно, что подобная замена приводит к искажениям полезного сигнала, однако в ряде случаев эти искажения легко устранимы, например, при использовании дельта-модуляции.

3

1 Xizmat axboroti vaqtincha uzatib turiladigan axborot kanali.

Izoh – TETRA standartida bunday kanal shoshilinch chaqiruvlarni uzatish uchun tashkil etiladi.

2 Radiotarmoqning ish jarayonida axborotli simvollarining uncha katta bo'lmagan qismini boshqaruv kanallari va xizmat simvollariga almashtirish yo'li bilan tashkil etiladigan kanal.

Izoh – Bunday almashtirish foydali signalning buzilishiga olib kelishi ayon, biroq bir qator holatlarda bunday buzilishlar oson, masalan, delta-modulyatsiyadan foydalanish yo'li bilan bartaraf etiladi.

1 Хизмат ахбороти вақтинча узатиб туриладиган ахборот канали.

Изоҳ – ТЕТРА стандартида бундай канал шошилинич чақирувларни узатиш учун ташкил этилади.

2 Радиотармоқнинг иш жараёнида ахборотли символларнинг унча катта бўлмаган қисмини бошқарув каналлари ва хизмат символларига алмаштириш йўли билан ташкил этиладиган канал.

Изоҳ – Бундай алмаштириш фойдали сигналнинг бузилишига олиб келиши аён, бироқ бир қатор ҳолатларда бундай бузилишлар осон, масалан, дельта-модуляциядан фойдаланиш йўли билан бартараф этилади.

Заказ на услугу

uz - xizmatga buyurtma (berish)
хизматга буюртма (бериш)

en - order of service

Договор между потребителем и исполнителем услуги, определяющий юридические, экономические и технические отношения сторон.

Iste'molchi va xizmatni taqdim etuvchi o'rtasidagi shartnoma, tomonlarning yuridik, iqtisodiy va texnik munosabatlarini belgilaydi.

Истеъмолчи ва хизматни тақдим этувчи ўрта-сидаги шартнома, томонларнинг юридик, иқтисодий ва техник муносабатларини белгилайди.

Закладка (информации на космический аппарат)

uz - joylashtirish (axborotni kosmik apparatga)

жойлаштириш (ахборотни космик аппаратга)

en - unloading

Передача команд с наземной станции управления на спутник.

Yer usti boshqaruv stansiyasidan buyruq (komanda) ning yo'ldoshga uzatilishi.

Ер усти бошқарув станциясидан буйруқ (команда)нинг йўлдошга узатилиши.

Закрытая трасса**uz** - yopiq trassa

ёпик трасса

en - shadowed path

Трасса, профиль которой затенен рельефом местности, вследствие чего отсутствует прямая видимость между фазовыми центрами передающей и приемной антенн.

Примечание – Величина просвета для закрытых трасс всегда отрицательна.

Joy reliefi bilan to'silgan trassa bo'lib, uning oqibatida uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalarning fazaviy markazlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish bo'lmaydi.

Izoh – Oraliq kengligi yopiq trassalar uchun doimo manfiydir.

Жой рельефи билан тўсилган трасса бўлиб, унинг оқибатида узатувчи ва қабул қилувчи антенналарнинг фазавий марказлари ўртасида тўғридан-тўғри кўриниш бўлмайди.

Изоҳ – Оралиқ кенглиги ёпик трассалар учун доимо манфийдир.

Замедление;**снижение скорости****uz** - sekinlashuv;

tezlikning pasayishi

секинлашув;

тезликнинг пасайиши

en - slowdown

1 Работа процессора или другой электронной схемы с пониженной тактовой частотой.

2 Механизм борьбы с перегрузкой линий или каналов связи, основанный на понижении скорости передачи абонентского трафика.

1 Protessor yoki boshqa elektron sxemaning pasaytirilgan taktli chastota ishi.

2 Abonent trafigini uzatish tezligining pasayishiga asoslangan, tarmoq liniyalari yoki kanallarning ortiqcha yuklanishiga qarshi kurash mexanizmi.

1 Процессор ёки бошқа электрон схеманинг пасайтирилган тактли частота иши.

2 Абонент трафигини узатиш тезлигининг пасайишига асосланган, тармоқ линиялари ёки каналларнинг ортиқча юкланишига қарши кураш механизми.

Замирание**uz** - tinish

тиниш

en - fading

1 Кратковременное или длительное уменьшение (исчезновение) уровня принимаемых радиосигналов на большом расстоянии от источника.

2 Внезапное ослабление или даже полное исчезновение радиосигнала, обусловленное случайными изменениями параметров передающей сре-

ды (температуры, влажности, давления), а также из-за интерференции радиоволн, приходящих в точку приема по разным путям.

1 Manbadan katta masofada qabul qilinadigan radio-signallar darajasini qisqa muddatli yoki uzoq muddatli kamayishi (yo'qolishi).

2 Uzatuvchi muhit (temperatura, namlik, bosim) parametrlarining tasodifiy o'zgarishlari bilan asoslangan, shuningdek qabul qilish nuqtasiga turli yo'llar bilan keladigan radioto'lqinlarning interferensiyasi tufayli radiosignalning to'satdan susayishi yoki hat-toki to'liq yo'qolishi.

1 Манбадан катта масофада қабул қилинадиган радиосигналлар даражасини қисқа муддатли ёки узоқ муддатли камайиши (йўқолиши).

2 Узатувчи муҳит (температура, намлик, босим) параметрларининг тасодифий ўзгаришлари билан асосланган, шунингдек қабул қилиш нуқтасига турли йўллар билан келадиган радиотўлқинларнинг интерференцияси туфайли радиосигналнинг тўсатдан сусайиши ёки ҳаттоки тўлиқ йўқолиши.

Замирания при многолучевом распространении

uz - ko'p nurlı tarqalishdagi tinishlar

кўп нурли тарқалишдаги тинишлар

en - multipath fading

Вид замираний, возникающих в каналах мобильной связи из-за паразитного влияния соседних лучей многолучевого сигнала.

Mobil aloqa kanallarida ko'p nurlı signal qo'shni nurlarining parazit ta'siri evaziga paydo bo'ladigan tinishlar turi.

Мобил алоқа каналларида кўп нурли сигнал қўшни нурларининг паразит таъсири эвазига пайдо бўладиган тинишлар тури.

Запаздывание; задержка; отставание

uz - kechikish, ushlanib qolish, orqada qolish

кечикиш, ушланиб қолиш, орқада қолиш

en - lag

Смещение во времени выходного сигнала относительно входного воздействия, обычно характеризующее инерционность системы или послесвечение экрана.

Tizimning inersionligi yoki ekranning kechikib shu'lalanishi bilan tavsiflanadigan, chiqish signalining kirishdagi ta'sirga nisbatan vaqt bo'yicha siljishi.

Запас на замирания**uz** - tinishlarga zahira

тинишларга захира

en - fade margin

Тизимнинг инерционлиги ёки экраннинг кечикиб шуълаланиши билан тавсифланадиган, чиқиш сигналининг киришдаги таъсирга нисбатан вақт бўйича силжиши.

Величина, на которую может быть увеличен уровень мощности принимаемого сигнала в канале с замираниями, чтобы обеспечить в нем такое же отношение сигнал/шум, как и канале без замираний.

Tinishlar mavjud kanalda qabul qilinuvchi signalning quvvat darajasi oshirilishi lozim boʻlgan shunday kattalikka, bunda signal/shovqin nisbatining tinishlarsiz kanaldagi kabi nisbati taʼminlanadi.

Тинишлар мавжуд каналда қабул қилинувчи сигналнинг қувват даражаси оширилиши лозим бўлган шундай катталикки, бунда сигнал/шовқин нисбатининг тинишларсиз каналдаги каби нисбати таъминланади.

Записи параметров вызова**uz** - chaqiruv parametrlari yozuvi

чақирув параметрлари

ёзувлари

en - call detail records (CDR)

Регистрируемые параметры вызовов абонента, которые заносятся в базу данных и в дальнейшем используются для выполнения биллинговых операций.

Abonent chaqiruvlarining qayd etiladigan parametrlari, ular maʼlumotlar bazasiga kiritiladi va kelgusida billing operatsiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Абонент чақирувларининг қайд этиладиган параметрлари, улар маълумотлар базасига киритилади ва келгусида биллинг операцияларини бажариш учун ишлатилади.

Запрет всех входящих вызовов**uz** - barcha kiruvchi

chaqiruvlarning taqiqlanishi

барча кирувчи

чақирувларнинг тақиқланиши

en - barring of all incoming calls

Дополнительная услуга в сети связи, при использовании которой все входящие вызовы не поступают абоненту, а исходящие передаются без каких-либо ограничений.

Aloqa tarmogʻidagi qoʻshimcha xizmat, undan foydalanilganda barcha kiruvchi chaqiruvlar abonentga kelib tushmaydi, chiquvchi chaqiruvlar esa, biror-bir cheklashlarsiz uzatiladi.

Алоқа тармоғидаги қўшимча хизмат, ундан фойдаланилганда барча кирувчи чақирувлар абонентга келиб тушмайди, чиқувчи чақирувлар эса, бирор-бир чеклашларсиз узатилади.

Запрет всех исходящих вызовов

uz - barcha chiquvchi chaqiruvlarning taqiqlanishi

барча чиқувчи

чақирувларнинг тақиқланиши

en - barring of all outgoing calls

Дополнительная услуга в сети связи, при использовании которой ограничиваются исходящие вызовы, содержащие номер вызываемого абонента или данные о его местоположении.

Примечание – Одной из разновидностей этой услуги является запрет всех международных вызовов.

Aloqa tarmogʻidagi qoʻshimcha xizmat, undan foydalanilganda chaqiriluvchi abonentning raqami yoki uning joylashgan oʻrni haqidagi maʼlumotlarni oʻzida saqlaydigan chiquvchi chaqiruvlar cheklanadi.

Izoh – Bunday xizmat koʻrinishlaridan biri – barcha xalqaro chaqiruvlarning taqiqlanishidir.

Алоқа тармоғидаги қўшимча хизмат, ундан фойдаланилганда чақирилувчи абонентнинг рақами ёки унинг жойлашган ўрни ҳақидаги маълумотларни ўзида сақлайдиган чиқувчи чақирувлар чекланади.

Изоҳ – Бундай хизмат кўринишларидан бири – барча халқаро чақирувларнинг тақиқланишидир.

Запрещенное сообщение

uz - taqiqlangan xabar

тақиқланган хабар

en - forbidden message

Сообщение, которое нельзя передать немедленно. Оно передается сразу же, как только отменяется запрет на его передачу.

Darhol uzatib boʻlmaydigan xabar. Uzatilishiga taqiq bekor qilingan zahoti xabar uzatiladi.

Дарҳол узатиб бўлмайдиган хабар. Узатилишига тақиқ бекор қилинган захоти хабар узатилади.

Запрос, опрос

uz - soʻrov, soʻroqlash

сўров, сўроқлаш

en - query

1 Вызов абонента, обращение пользователя к базе данных (запрос на поиск информации) или любая другая процедура, требующая ответной реакции.

2 Поочередное подключение к различным абонентским терминалам с целью определения у них наличия информации.

1 Abonentning chaqirilishi, foydalanuvchining ma'lumotlar bazasiga murojaati (axborotni izlash uchun so'rov) yoki javob reaksiyasini talab qiluvchi har qanday protsedura.

2 Turli abonent terminallariga, ularda uzatilishi lozim bo'lgan axborot bor-yo'qligini aniqlash maqsadida navbatma-navbat bog'lanish.

1 Абонентнинг чақирилиши, фойдаланувчининг маълумотлар базасига муурожаати (ахборотни излаш учун сўров) ёки жавоб реакциясини талаб қилувчи ҳар қандай процедура.

2 Турли абонент терминалларига, уларда узатилиши лозим бўлган ахборот бор-йўқлигини аниқлаш мақсадида навбатма-навбат боғланиш.

Запрос на передачу

uz - uzatishga bo'lgan talab

узатишга бўлган талаб

en - request-to-send (RTS)

Тип управляющего фрейма в стандарте 802.11, применяется в механизме обнаружения виртуальной несущей.

Примечание – Если такой механизм используется в сети 802.11, то станция, желающая отправить данные, должна предварительно послать фрейм RTS.

802.11 standartidagi boshqaruvchi freym turi, virtual eltuvchini aniqlash mexanizmida qo'llaniladi.

Izoh – Bunday mexanizmdan 802.11 tarmog'ida foydalanilganda, ma'lumotlar jo'natmoqchi bo'lgan stansiya oldindan RTS freymini yuborishi kerak.

802.11 standartidagi boshqaruvchi freym turi, virtual eltuvchini aniqlash mexanizmida qo'llaniladi.

Izoh – Bunday mexanizmdan 802.11 tarmog'ida foydalanilganda, ma'lumotlar jo'natmoqchi bo'lgan stansiya oldindan RTS freymini yuborishi kerak.

Затенение

uz - soylanish

сояланиш

en - shadowing

Медленные замирания на трассе между передатчиком и приемником, обусловленные экранирующим влиянием рельефа местности и городскими строениями.

Пример – В сетях сотовой связи этот вид замираний характерен для каждых 12-60 м пути (временной интервал 1,2-6 с) при движении абонента со скоростью 36 км/ч в городских условиях.

Joy relyefi va shahar imoratlarining to'suvchi ta'siri tufayli, uzatkich va qabulqilgich o'rtasidagi tras-sadagi sekin asta tinishlar.

Misol – Shahar sharoitida 36 km/h tezlikda hara-kat qiluvchi abonentlarga sotali aloqa tarmoqla-rida bu xildagi tinishlar masofaning har 12-60 metri uchun xosdir (vaqt intervali 1,2 s-6 s).

Жой рельефи ва шаҳар иморатларининг тўсувчи таъсири туфайли, узаткич ва қабулқилгич ўрта-сидаги трассадаги секин аста тинишлар.

Мисол – Шаҳар шароитида 36 km/h тез-ликда ҳаракат қилувчи абонентларга сотали алоқа тармоқларида бу хилдаги тинишлар масофа-нинг ҳар 12-60 метри учун хосдир (вақт интер-вали 1,2 s-6 s).

Захват «вслепую»

uz - «ko'rmasdan» egallash

«кўрмасдан» эгаллаш

en - blind acquisition

Способ вхождения в синхронизм, при котором синхроинформация выделяется непосредственно из принимаемого полезного сигнала.

Sinxronlikka kirish usuli, unda sinxroaxborot bevo-sita qabul qilinayotgan foydali signaldan ajratib oli-nadi.

Синхронликка кириш усули, унда синхроахборот бевосита қабул қилинаётган фойдали сигналдан ажратиб олинади.

«Захват» канала

uz - kanalni «egallash»

канални «эгаллаш»

en - bid

Попытка передать запрос и занять канал с целью последующей передачи данных.

Примечание – В зависимости от конкретной ситуации попытка может быть успешной, безуспешной или приводящей к конфликту.

Ma'lumotlarni uzatish uchun kanalni band qilish maqsadida so'rov uzatishga urinish.

Izoh – Aniq vaziyatga bog'liq tarzda bunday urinish muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz yoki to'qnashuvga olib keluvchi bo'lishi mumkin.

Маълумотларни узатиш учун канални банд қи-лиш мақсадида сўров узатишга уриниш.

Изоҳ – Аниқ вазиятга боғлиқ тарзда бундай уриниш муваффақиятли, муваффақиятсиз ёки тўқнашувга олиб келувчи бўлиши мумкин.

Зашифрованная речь

uz - shifrlangan nutq
 шифрланган нутқ
en - encrypted voice

Речевой сигнал, обработанный с помощью специальных алгоритмов шифрования и передаваемый по открытым каналам связи.

Maxsus shifrlash algoritmlari yordamida qayta ishlangan va ochiq aloqa kanallari orqali uzatiladigan nutq signali.

Махсус шифрлаш алгоритмлари ёрдамида қайта ишланган ва очик алоқа каналлари орқали узатиладиган нутқ сигнали.

Защитное действие

uz - himoyalovchi harakat
 химояловчи ҳаракат
en - protective action

Уменьшение сигнала, принимаемого антенной с направления противоположного главному или в определенном заданном секторе углов, по сравнению с этим же сигналом, принимаемым в главном направлении.

Asosiyga qarama-qarshi yoʻnalishdagi antenna bilan yoki burchaklarning maʼlum belgilangan sektorida, shu signal bilan taqqoslaganda asosiy yoʻnalishda qabul qilinadigan signalning pasayishi.

Асосийга қарама-қарши йўналишдаги антенна билан ёки бурчакларнинг маълум белгиланган секторида, шу сигнал билан таққослаганда асосий йўналишда қабул қилинадиган сигналнинг пасайиши.

Защитное отношение

uz - himoya nisbati
 химоя нисбати
en - protection ratio

1 Минимальное отношение уровня полезного радиосигнала к уровню радиопомехи на входе радиоприемного устройства, при котором обеспечивается требуемое качество функционирования радиоэлектронного средства.

2 Минимальное значение отношения мощностей полезного сигнала и помехи, при котором обеспечивается прием сигналов с заданным качеством (выражается в децибелах).

1 Foydali radiosignal darajasining radioqabulqiluvchi qurilmaning kirishidagi radioxalaqit darajasiga boʻlgan minimal nisbati, bunda radioelektron vosita ishlashining talab etiladigan sifati taʼminlanadi.

2 Foydali signal va xalaqit quvvatlari nisbatining

minimal qiymati, bunda signallarning berilgan sifat bilan qabul qilinishi ta'minlanadi (detsibellarda ifodalanaadi).

1 Фойдали радиосигнал даражасининг радиокабулқилувчи қурилманинг киришидаги радиохлақит даражасига бўлган минимал нисбати, бунда радиоэлектрон восита ишлашининг талаб этиладиган сифати таъминланади.

2 Фойдали сигнал ва халақит қувватлари нисбатининг минимал қиймати, бунда сигналларнинг берилган сифат билан қабул қилиниши таъминланади (децибелларда ифодаланади).

Защитный (временной) интервал

uz - himoya (vaqt bo'yicha) intervali

химоя (вақт бўйича)

интервали

en - guard time

Временной промежуток, который вводится между кадрами технологии TDMA с целью исключения межсимвольных искажений.

Примечание – Введение защитных интервалов приводит к снижению пропускной способности обычно на (3–7)%.

TDMA texnologiyasida, simvollararo buzilishlarning oldini olish maqsadida kadrlar o'rtasiga kiritiladigan vaqt intervali.

Izoh – Himoya intervallarining kiritilishi o'tkazish qobiliyati (3–7)% kamayishiga olib keladi.

TDMA texnologiyasida, simbolларaro бузилишларнинг олдини олиш мақсадида кадрлар ўртасига киритиладиган вақт интервали.

Изоҳ – Ҳимоя интервалларининг киритилиши ўтказиш қобилияти (3–7)% камайишига олиб келади.

Защищенность от фазового дрожания

uz - fazaviy titrashdan himoyalanganlik

фазавий титрашдан

химояланганлик

en - jitter immunity

Способность устройства функционировать без сбоев при значительных флуктуациях временного положения импульсов относительно идеального.

Impulslarning ideal holatga nisbatan vaqt bo'yicha holatining sezilarli fluktuatsiyasida qurilmaning to'xtab qolmasdan ishlay olish qobiliyati.

Импульсларнинг идеал ҳолатга нисбатан вақт бўйича ҳолатининг сезиларли флуктуациясида қурилманинг тўхтаб қолмасдан ишлай олиш қобилияти.

Звено; тракт
uz - zveno; trakt
 звено; тракт
en - link

Часть системы связи или сквозного соединения, состоящего из нескольких последовательных участков.

Aloqa tizimining yoki ketma-ketlikdagi bir nechta uchastkadan iborat boʻlgan, boshdan oxir daxldorlikdagi birikmaning bir qismi.

Алоқа тизимининг ёки кетма-кетликдаги бир нечта участкадан иборат бўлган, бошдан охир дахлдорликдаги бирикманинг бир қисми.

Злонамеренный вызов
uz - gʻaraz niyatdagi chaqiruv
 ғараз ниятдаги чақирув
en - malicious call

Вызов, обычно анонимный, содержащий какие-либо угрозы или предупреждения.

Qandaydir doʻq-poʻpisa yoki ogohlantirish mazmunidagi, odatda, anonim chaqiruv.

Қандайдир дўқ-пўписа ёки огоҳлантириш мазмунидаги, одатда, аноним чақирув.

Значащие моменты
uz - ahamiyatli momentlar
 аҳамиятли моментлар
en - significant instants

Интервалы времени, в течение которых происходит изменение состояния сигнала в процессе его аналого-цифрового преобразования, например, таковым является интервал между соседними моментами пересечения нулевого уровня.

Vaqt intervallari, ular davomida signalning holati, uni analog-raqamli shaklga oʻtkazish jarayonida oʻzgaradi. Masalan, nol darajaning kesishuvchi qoʻshni momentlari oʻrtasidagi interval shunday vaqt intervalidir.

Вақт интерваллари, улар давомида сигналнинг ҳолати, уни аналог-рақамли шаклга ўтказиш жараёнида ўзгаради. Масалан, ноль даражанинг кесишувчи қўшни моментлари ўртасидаги интервал шундай вақт интервалидир.

Зона
uz - zona
 зона
en - zone

1 В общем случае термин определяет любую заданную область или участок в пространстве и во времени, например, географическая область, охватываемая системой связи, частотная область пространства сигналов, участок памяти и др.

2 Часть территории, в пределах которой обеспечиваются определенные условия работы.

1 Umumiy tarzda bu atama makon va zamondagi har qanday berilgan soha yoki uchastkani bildiradi, masalan, aloqa tizimi qamrab oladigan geografik hudud, signallar fazasining chastotaviy sohasi, хотира uchastkasi va b.lar.

2 Hududning, ichida ma'lum ish sharoitlari ta'minlanadigan qismi.

1 Умумий тарзда бу атама макон ва замондаги ҳар қандай берилган соҳа ёки участкани билдиради, масалан, алоқа тизими қамраб оладиган географик худуд, сигналлар фазасининг частотавий соҳаси, хотира участкаси ва б.лар.

2 Худуднинг, ичида маълум иш шароитлари таъминланадиган қисми.

**Зона без разнесения
(в сотовой связи)**

uz - notarqoq zona
(sotali aloqada)

нотарқоқ зона
(сотали алоқада)
en - nondiversity area

Зона обслуживания, имеющая одну базовую станцию со всенаправленной антенной в горизонтальной плоскости. Базовая станция расположена в центре этой зоны.

Har tomonga yoʻnalgan antennali bitta tayanch stansiyaga ega xizmat koʻrsatish zonasi. Tayanch stansiya ushbu zonaning markazida joylashadi.

Ҳар томонга йўналган антеннали битта таянч станцияга эга хизмат кўрсатиш зонаси. Таянч станция ушбу зонанинг марказида жойлашади.

**Зона действия оператора
связи**

uz - aloqa operatorining ta'sir doirasi

алоқа операторининг
таъсир доираси
en - operation area of
telecommunications operator

Территория, на которой оператор связи уполномочен оказывать услуги связи в соответствии с лицензией (не совпадает с зоной покрытия).

Litsenziyaga muvofiq, aloqa operatori aloqa xizmatlarini koʻrsatishga vakolatli boʻlgan hudud (qoplash zonasi bilan mos tushmaydi).

Лицензияга мувофиқ, алоқа оператори алоқа хизматларини кўрсатишга ваколатли бўлган худуд (қоплаш зонаси билан мос тушмайди).

Зона обслуживания

uz - xizmat ko'rsatish zonasi
хизмат кўрсатиш зонаси
en - service area

1 Географическая зона, в которой гарантируется уверенный прием радиосигналов от абонентских и базовых станций в прямом и обратном направлениях.

2 Область на земной поверхности, в пределах которой обеспечивается устойчивый прием сигналов от наземных станций или спутниковых ретрансляторов и гарантируется требуемое качество связи.

1 To'g'ri va teskari yo'nalishlarda abonent hamda tayanch stansiyalardan keladigan radiosignallarning ishonchli qabul qilinishi kafolatlanadigan geografik zona.

2 Yer sirtidagi, yer usti stansiyalardan yoki yo'ldosh retranslyatorlaridan signallar barqaror qabul qilinishi ta'minlanadigan va talab qilinadigan aloqa sifati kafolatlanadigan soha.

1 Tўғри va teskari йўналишларда абонент ҳамда таянч станциялардан келадиган радиосигналларнинг ишончли қабул қилиниши кафолатланадиган географик зона.

2 Ер сиртидаги, ер усти станциялардан ёки йўлдош ретрансляторларидан сигналлар барқарор қабул қилиниши таъминланадиган ва талаб қилинадиган алоқа сифати кафолатланадиган соҳа.

Зона отсутствия связи

uz - aloqa yo'q zona
алоқа йўқ зона
en - dead zone

Область, где отсутствует уверенный приём радиосигналов от передатчика базовой станции. Для перекрытия областей неуверенного приема обычно устанавливают дополнительные ретрансляторы.

Tayanch stansiya uzatkichidan radiosignallarning ishonchli qabuli mavjud bo'lmagan soha. Ishonchsiz qabul sohalarini qamrash uchun, odatda qo'shimcha retranslyatorlar o'rnatiladi.

Таянч станция узаткичидан радиосигналларнинг ишончли қабули мавжуд бўлмаган соҳа. Ишонchsиз қабул соҳаларини қамраш учун, одатда қўшимча ретрансляторлар ўрнатилади.

3

Зона покрытия

uz - qoplash zonasi
қоплаш зонаси
en - coverage area

Территория, в пределах которой осуществляется уверенный прием-передача голоса и данных мобильным телефоном.

Mobil telefon orqali ovoz va ma'lumotlar ishonchli uzatiladigan-qabul qilinadigan hudud.

Мобил телефон орқали овоз ва маълумотлар ишончли узатиладиган-қабул қилинадиган ҳудуд.

Зона предоставления услуги

uz - xizmat taqdim etiladigan zona
хизмат тақдим этиладиган зона
en - service providing zone

Территориальная зона, на которой оказание сервиса гарантируется оператором связи (может не совпадать с зоной действия сотовой телефонной связи).

Xizmat ko'rsatilishi aloqa operatori tomonidan kafolatlanadigan hududiy zona (sotali telefon aloqa ta'sir zonasi bilan mos kelmasligi mumkin).

Хизмат кўрсатилиши алоқа оператори томонидан кафолатланадиган ҳудудий зона (сотали телефон алоқа таъсир зонаси билан мос келмаслиги мумкин).

Зона разносённого приема

uz - tarqoq qabul zonasi
тарқоқ қабул зонаси
en - area of diversityreception

Зона, в которой осуществляется одновременный прием сигналов с разных направлений связи, например, от нескольких базовых станций.

Bir nechta aloqa yo'nalishidan, masalan bir nechta tayanch stansiyadan bir vaqtda signallar qabul qilinadigan zona.

Бир нечта алоқа йўналишидан, масалан бир нечта таянч станциядан бир вақтда сигналлар қабул қилинадиган зона.

Зонная регистрация

uz - zona bo'yicha qayd qilish
зона бўйича қайд қилиш
en - zone-based registration

Метод автономной регистрации, при котором мобильная станция регистрируется при каждом вхождении в зону обслуживания.

Примечание – При таком методе регистрации в оперативном запоминающем устройстве мобильной станции не обязательно иметь список разрешенных зон связи.

3

Avtonom qayd qilish metodi, unda mobil stansiya xizmat ko'rsatish zonasiga har bir kirishda qayd qilinadi.

Izoh – Tezkor xotira qurilmada mobil stansiyaning bunday metodida ruxsat etilgan aloqa zonalarining ro'yxati bo'lishi shart emas.

Автоном қайд қилиш методи, унда мобил станция хизмат кўрсатиш зонасига ҳар бир киришда қайд қилинади.

Изоҳ – Тезкор хотира қурилмада мобил станцияни қайд қилишнинг бундай методида рўхсат этилган алоқа зоналарининг рўйхати бўлиши шарт эмас.

И

Идентификатор

uz - identifikator

идентификатор

en - identifier

1 Код или символическое имя, однозначно характеризующее объект и позволяющее выделить его среди множества других объектов.

2 Поле в адресной части пакета, обычно указывающее на тип объекта, для которого предназначена информация, содержащаяся в поле данных.

Примечание – Идентификатор может указывать на тип сети, номер маршрутизатора, используемый протокол, номер порта, конкретного пользователя и др.

1 Ob'ektni aniq tavsiflash va uni ko'p sonli ob'ektlar o'rtasida ajratib ko'rsatishga imkon beruvchi kod yoki ramziy nom.

2 Paketning adres qismidagi, odatda, ma'lumotlar maydonidagi axborot qaysi turdagi obyektga mo'ljallanganligini ko'rsatadigan maydon.

Izoh – Identifikator tarmoq turini, marshrutizator raqamini, foydalaniladigan protokolni, port raqamini, ma'lum bir foydalanuvchini ko'rsatishi mumkin.

1 Объектни аниқ тавсифлаш ва уни кўп сонли объектлар ўртасида ажратиб кўрсатишга имкон берувчи код ёки рамзий ном.

2 Пакетнинг адрес қисмидаги, одатда, маълумотлар майдонидаги ахборот қайси турдаги объектга мўлжалланганлигини кўрсатадиган майдон.

Изоҳ – Идентификатор тармоқ турини, маршрутизатор рақамини, фойдаланиладиган протоколни, порт рақамини, маълум бир фойдаланувчини кўрсатиши мумкин.

И

Идентификатор абонента

uz - abonent identifikatori

абонент идентификатори

en - subscriber identity

security

Неизменяемый код, который дается каждому телефону непосредственно на заводе. Содержит код производителя и модели.

Bevosita zavodda har bir telefonga beriladigan o‘zgarmas kod. Ishlab chiqaruvchi va model kodini ichiga oladi.

Бевосита заводда ҳар бир телефонга бериладиган ўзгармас код. Ишлаб чиқарувчи ва модель код-ни ичига олади.

Идентификатор

пользователя

uz - foydalanuvchi

identifikatori

фойдаланувчи

идентификатори

en - user-id

Идентификатор, позволяющий определить принадлежность пользователя к той или иной виртуальной сети по его персональному IP-адресу.

Foydalanuvchini, uning shaxsiy IP-adresi bo‘yicha, u yoki bu virtual tarmoqqa mansubligini aniqlashga imkon beruvchi identifikator.

Фойдаланувчини, унинг шахсий IP-адреси бўйича, у ёки бу виртуал тармоққа мансублигини аниқлашга имкон берувчи идентификатор.

Идентификатор MAC-адрес

uz - MAS-adres identifikatori

MAC-адрес

идентификатори

en - MAC-address

Уникальный идентификатор любого устройства в сети.

Tarmoqdagi har qanday qurilmaning yagona identifikatori.

Тармоқдаги ҳар қандай қурилманинг ягона идентификатори.

Идентификатор SSID

uz - SSID identifikatori

SSID идентификатори

en - service set identifier (SSID)

Параметр, однозначно идентифицирующий беспроводную сеть. Точки беспроводного доступа осуществляют широковещательную передачу идентификатора SSID в заголовках пакетов, что позволяет конечным пользователям идентифицировать беспроводную сеть, к которой они собираются подключиться.

Примечание – Разные идентификаторы SSID позволяют устанавливать в одном физическом пространстве несколько беспроводных сетей. Для доступа к беспроводной

И

сети необходимо, чтобы идентификаторы SSID точки беспроводного доступа и адаптера беспроводной сети совпадали. Устройству не будет предоставлен базовый набор услуг до тех пор, пока оно не сообщит уникальный SSID. Поскольку все SSID в пакетах передаются открытым текстом, SSID не является средством обеспечения безопасности сети. Для усиления защиты беспроводной сети администратор сети может отключить широковещательные функции некоторых точек доступа и таким образом прекратить широковещательную передачу идентификатора SSID. В этом случае для подключения к сети конечный пользователь должен будет вручную указывать идентификатор SSID.

Simsiz tarmoqni qat'iy identifikatsiyalovchi parametr. Simsiz foydalanish nuqtalari paketlar sarlavhalarida SSID identifikatori keng uzatilishini amalga oshiradi, bu oxirgi foydalanuvchilarga, ular ulanmoqchi bo'lgan simsiz tarmoqni identifikatsiyalash imkonini beradi.

Izoh – Turli SSID identifikatorlari bitta fizik muhitda bir nechta simsiz tarmoqni o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Simsiz tarmoqqa kirish uchun, simsiz foydalanish nuqtalarining va simsiz tarmoq adapterining SSID identifikatorlari mos kelishi kerak. Qurilma yagona SSID ni ko'rsatmaguncha, unga asosiy xizmatlar to'plami taqdim etilmaydi. Paketlardagi barcha SSID ochiq matn bilan uzatilishi sababli, SSID tarmoq xavfsizligini ta'minlash vositasi bo'la olmaydi. Simsiz tarmoq muhofaza qilinishini kuchaytirish uchun, tarmoq ma'muri ba'zi kirish nuqtalarining keng tarqatish funksiyalarini uzib, SSID identifikatori keng tarqatilishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunday holda, oxirgi foydalanuvchi tarmoqqa ulanish uchun, SSID identifikatorini qo'lda ko'rsatishi kerak.

Симсиз тармоқни қатъий идентификацияловчи параметр. Симсиз фойдаланиш нуқталари пакетлар сарлавҳаларида SSID идентификатори кенг узатилишини амалга оширади, бу охириги фойдаланувчиларга, улар уланмоқчи бўлган симсиз тармоқни идентификациялаш имконини беради.

Изоҳ – Турли SSID идентификаторлари битта физик муҳитда бир нечта симсиз тармоқни ўрнатиш имкониятини яратади. Симсиз тармоққа кириш учун, симсиз фойдаланиш нуқталарининг ва симсиз тармоқ адаптерининг SSID идентификаторлари мос келиши керак. Қурилма ягона SSID ни кўрсатмагунча, унга

И

асосий хизматлар тўплами тақдим этилмайди. Paketлардаги барча SSID очик матн билан узатилиши сабабли, SSID тармоқ хавфсизлигини таъминлаш воситаси бўла олмайди. Симсиз тармоқ муҳофаза қилинишини кучайтириш учун, тармоқ маъмури баъзи кириш нуқталарининг кенг тарқатиш функцияларини узиб, SSID идентификатори кенг тарқатилишини тўхтатиб қўйиши мумкин. Бундай ҳолда, охирги фойдаланувчи тармоққа уланиш учун, SSID идентификаторини қўлда кўрсатиши керак.

Идентификационное имя ESSID

uz - ESSID identifikatsiya
nomi

ESSID идентификация
номи

en - extended service set ID
(ESSID)

Имя, идентифицирующее сеть 802.11.

Примечание – Чтобы присоединиться к беспроводной локальной сети, нужно знать ее ESSID.

802.11 tarmoqni identifikatsiyalovchi nom.

Izoh – Simsiz lokal tarmoqqa qo‘shilish uchun, uning ESSID ni bilish zarur.

802.11 тармоқни идентификацияловчи ном.

Изоҳ – Симсиз локал тармоққа қўшилиш учун, унинг ESSID ни билиш зарур.

Идентификационный номер мобильного абонента

uz - mobil abonentning
identifikatsiya raqami

мобил абонентнинг
идентификация рақами

en - mobile subscriber
identification number (MSIN)

Номер из 10 цифр, записанный в определенных позициях международного идентификационного номера мобильной станции IMSI.

IMSI mobil stansiya xalqaro identifikatsiya raqamining ma’lum pozitsiyalarida yozib qo‘yilgan, 10 ta sondan iborat raqam.

IMSI мобил станция халқаро идентификация рақамининг маълум позицияларида ёзиб қўйилган, 10 та сондан иборат рақам.

Идентификационный номер мобильной станции

uz - mobil stansiyaning
identifikatsiya raqami

мобил станциянинг
идентификация рақами

en - mobile identification
number (MIN)

Номер мобильной станции в сети, по которому она может быть однозначно идентифицирована, сетевой номер станции.

Примечание – Данный номер обычно отличается от серийного номера (ESN), который присваивается станции заводом изготовителем. Чтобы предотвратить несанкционированный доступ, MIN и ESN контролируются электронным способом.

Mobil stansiyaning tarmoqdagi raqami bo‘lib, u orqali stansiya aniq identifikatsiya qilinishi mumkin; stansiyaning tarmoq raqami.

Izoh – Bu raqam, odatda, tayyorlovchi zavod tomonidan beriladigan seriyaviy raqam (ESN)dan farq qiladi. Ruxsat

И

etilmagán kirish (foydalanish)ning oldini olish maqsadida, MIN va ESN lar elektron usulda nazorat qilinadi.

Мобил станциянинг тармоқдаги рақами бўлиб, у орқали станция аниқ идентификация қилиниши мумкин; станциянинг тармоқ рақами.

Изоҳ – Бу рақам, одатда, тайёрловчи завод томонидан бериладиган сериявий рақам (ESN)дан фарқ қилади. Рухсат этилмаган кириш (фойдаланиш)нинг олдини олиш мақсадида, MIN ва ESN лар электрон усулда назорат қилинади.

Идентификация

uz - identifikatsiya

идентификация

en - identification

Процедура отождествления неизвестного объекта с одним из известных, необходимая для управления доступом к системе. Обычно идентификация предшествует операции проверки полномочий (аутентификации) пользователя.

Noma'lum ob'ektni biror ma'lum ob'ekt bilan tenglashtirish protsedurasi, bu tizimga kira olishni boshqarish uchun zarur. Odatda, identifikatsiyalash foydalanuvchi vakolatlarini tekshirish operatsiyasi (autentifikatsiya qilish)dan oldin o'tkaziladi.

Номаълум объектни бирор маълум объект билан тенглаштириш процедураси, бу тизимга кира олишни бошқариш учун зарур. Одатда, идентификациялаш фойдаланувчи ваколатларини текшириш операцияси (аутентификация қилиш)дан олдин ўтказилади.

Идентификация

пользователя

uz - foydalanuvchini

identifikatsiyalash

фойдаланувчини

идентификациялаш

en - user identification

Опознавание пользователей (по фамилии и паролю) для определения его полномочий – права на доступ к данным и выбора режима их использования.

Vakolatlarni – ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqi va ulardan foydalanish tartibini aniqlash maqsadida, foydalanuvchilarni (familiya va parolga qarab) tanish.

Ваколатларни – маълумотлардан эркин фойдаланиш ҳуқуқи ва улардан фойдаланиш тартибини аниқлаш мақсадида, фойдаланувчиларни (фамилия ва паролга қараб) таниш.

И

Идентификация злонамеренных вызовов
uz - g'araz niyatdagi chaqiruvlarni identifikatsiyalash
ғараз ниятдаги чақирувларни идентификациялаш
en - malicious call identification

Услуга, позволяющая абоненту по специальному запросу выявить номер телефона, с которого совершен злонамеренный вызов, а также получить связанные с этим номером сведения.

Abonentga, maxsus so'rovga ko'ra, yomon niyatdagi chaqiruv qilingan telefon raqamini aniqlash va shu raqam bilan bog'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradigan xizmat.

Абонентга, махсус сўровга кўра, ёмон ниятдаги чақирув қилинган телефон рақамини аниқлаш ва шу рақам билан боғлиқ маълумотларни олиш имконини берадиган хизмат.

Идентификация по спектральной структуре
uz - spektral struktura bo'yicha identifikatsiyalash
спектрал структура бўйича идентификациялаш
en - radio-frequency fingerprinting

Процесс опознавания радиостанции (сотового телефона) по спектру излучаемого сигнала.

Примечание – Этот метод используется, чтобы предотвратить мошенничество, связанное с клонированием, поскольку клонированный телефон имеет тот же электронный идентификационный номер, что и у легального сотового телефона, но отличается от него спектральным составом излучаемого сигнала. Спектрограмма радиосигнала при опознавании легальной радиостанции играет практически ту же роль, что и отпечатки пальцев при идентификации личности.

Tarqalayotgan signalning spektri bo'yicha radiostansiya (mobil telefon)ni tanib olish jarayoni.

Izoh – Bu metod klonlash bilan bog'liq aldamchilikning oldini olish uchun ishlatiladi, chunki klonlangan telefon legal mobil telefon bilan bir xil elektron identifikatsiyalash raqamiga ega bo'ladi, biroq nurlanayotgan signalning spektral tarkibi bo'yicha farqlanadi. Legal radiostansiyaning tanib olishdagi radiosignal spektrogrammasi, amalda, shaxsiy identifikatsiyalashdagi barmoq izlari kabi rol o'ynaydi.

Тарқалаётган сигналнинг спектри бўйича радиостанция (мобил телефон)ни таниб олиш жараёни.

Изоҳ – Бу метод клонлаш билан боғлиқ алдамчиликнинг олдини олиш учун ишлатилади, чунки клонланган телефон легал мобил телефон билан бир хил электрон идентификациялаш рақамига эга бўлади, бироқ нурланаётган сигналнинг спектрал таркиби бўйича фарқланади. Легал радиостанцияни таниб олишдаги радиосигнал спектрограммаси, амалда, шахсий идентификациялашдаги бармоқ излари каби роль ўйнайди.

И

Идентичность

uz - o‘xshashlik

ўхшашлик

en - identity

Установление соответствия между распознаваемым и некоторым эталонным объектом по ряду характерных признаков.

Tanib olinayotgan va ayrim etalon ob'ektlar o'rtasida, qator o'ziga xos belgilarga ko'ra, moslikning o'rnatilishi.

Таниб олинаётган ва айрим эталон объектлар ўртасида, қатор ўзига хос белгиларга кўра, мосликнинг ўрнатилиши.

Иерархия

uz - iyerarxiya

иерархия

en - hierarchy

Упорядоченная совокупность зависимых объектов, обычно включающая несколько уровней, определяющих их взаимосвязь.

O'zaro aloqadorligini belgilovchi bir necha darajaga ega bo'lgan, bir-biriga bog'liq ob'ektlarning tartibli to'plami.

Ўзаро алоқадорлигини белгиловчи бир неча даражага эга бўлган, бир-бирига боғлиқ объектларнинг тартибли тўплами.

Избирательность по каналам побочного приема

uz - yordamchi qabul qilish

kanallari bo'yicha tanlovchanlik

ёрдамчи қабул қилиш

каналлари бўйича

танловчанлик

en - spurious-response

selectivity

Характеристика, определяющая способность радиоприемника выделять полезный сигнал при воздействии мешающих сигналов по каналам побочного приема.

Radioqabulqilgichning yordamchi qabul qilish kanallari bo'ylab xalaqit beruvchi signallar ta'sir etganda foydali signalni ajratib olish qobiliyatini belgilovchi xarakteristika.

Радиоқабулқилгичнинг ёрдамчи қабул қилиш каналлари бўйлаб халақит берувчи сигналлар таъсир этганда фойдали сигнални ажратиб олиш қобилиятини белгиловчи характеристика.

Избирательность приемника

uz- qabulqilgichning

tanlovchanligi

қабулқилгичнинг

танловчанлиги

en - selectivity of a receiver

Мера способности приемника выделять полезный сигнал, на который настроен приемник, из смеси с мешающими сигналами.

Qabulqilgichning xalaqit beruvchi signallar aralashmasidan o'zi sozlangan foydali signalni ajrata olish qobiliyatining o'lchovi.

И

Қабулқилгичнинг халақит берувчи сигналлар аралашмасидан ўзи созланган фойдали сигнални ажрата олиш қобилиятининг ўлчови.

1. Избыточность

2. Резервирование

uz - 1. ortiqchalik

2. rezervlash

1. ортиқчалик

2. резервлаш

en - redundancy

1 Введение в систему дополнительных аппаратных или программных средств, сверх минимально необходимых, с целью обеспечения требуемой надежности функционирования.

Примечание – Соответственно различают аппаратную и программную избыточность. В теории информации – характеристики данных, которые можно удалить из преобразованного в цифровую форму сигнала, не нарушая точности его воспроизведения (так называемая информационная избыточность).

2 Метод повышения надежности, основанный на введении избыточных элементов, которые заменяют основные в случае их отказа.

1 Ishlashning zarur ishonchliligini ta'minlash maqsadida, tizinga eng kam miqdordagi apparat yoki dasturiy vositalarning ustiga qo'shimcha kiritish.

Izoh – Tegishli ravishda apparat va dastur ortiqchaligi farq qilinadi. Axborot nazariyasida – raqamli shaklga o'zgartirilgan signaldan uning qayta tiklanish aniqligini buzmasdan chiqarib tashlash mumkin bo'lgan ma'lumotlar xarakteristikasi (axborot ortiqchaligi deb ham ataladi).

2 Ishonchlilikni oshirish metodi bo'lib, asosiy elementlar ishlamay qolganda, ularni almashtirishi mumkin bo'lgan ortiqcha elementlarning kiritilishiga asoslangan.

1 Ишлашнинг зарур ишончилигини таъминлаш мақсадида, тизимга энг кам миқдордаги аппарат ёки дастурий воситаларнинг устига қўшимча киритиш.

Изоҳ – Тегишли равишда аппарат ва дастур ортиқчалиги фарқ қилинади. Ахборот назариясида – рақамли шаклга ўзгартирилган сигналдан унинг қайта тикланиш аниқлигини бузмасдан чиқариб ташлаш мумкин бўлган маълумотлар харақтеристикаси (ахборот ортиқчалиги деб ҳам аталади).

2 Ишончилиликни ошириш методи бўлиб, асосий элементлар ишламай қолганда, уларни алмаштириши мумкин бўлган ортиқча элементларнинг киритилишига асосланган.

И

Избыточные биты

uz - ortiqcha bitlar
ортиқча битлар
en - extra bits

Дополнительная последовательность битов, вставляемая в сигнал с целью защиты от ошибок при приеме информации.

Axborotni qabul qilishda xatolardan himoya qilish maqsadida, signalga qo'yiladigan qo'shimcha bitlar ketma-ketligi.

Axborotni qabul qilishda xatolardan himoya qilish maqsadida, signalga qo'yiladigan qo'shimcha bitlar ketma-ketligi.

Излучаемая мощность

uz - nurlanuvchi quvvat
нурланувчи қувват
en - transmitted power;
radiated power

Энергия, излучаемая в ограниченной полосе частот в единицу времени.

Примечание – Значение излучаемой мощности зависит от времени, характеристик среды передачи и способа измерения. Различают мгновенную пиковую мощность огибающей, мощность, усредненную во времени или в заданном поперечном сечении линии передачи (например, в волноводе). Полная мощность, поступающая от антенны, может передаваться в заданном направлении (в ограниченном телесном угле) или излучаться изотропно, т.е. равномерно во всех направлениях.

Vaqt birligida, chastotalarning cheklangan polosasida nurlanadigan energiya.

Izoh – Nurlanuvchi quvvat qiymati uzatish vaqtiga, uzatish muhitining xarakteristikalariga hamda o'lchash usuliga bog'liq. Og'ib o'tuvchining oniy cho'qqi quvvati, vaqtda yoki uzatish liniyasining berilgan ko'ndalang kesimida (masalan, to'lqin o'tkazgichda) o'rtachalashtirilgan quvvat farqlanadi. Antennadan keladigan to'la quvvat belgilangan yo'nalishda (cheklangan fazoviy burchakda) uzatilishi yoki izotrop, ya'ni barcha yo'nalishlarda bir tekis nurlanishi mumkin.

Вақт бирлигида, частоталарнинг чекланган полосасида нурланадиган энергия.

Изоҳ – Нурланувчи қувват қиймати узатиш вақтига, узатиш муҳитининг харақтеристикаларига ҳамда ўлчаш усулига боғлиқ. Оғиб ўтувчининг оний чўққи қуввати, вақтда ёки узатиш линиясининг берилган кўндаланг кесимида (масалан, тўлқин ўтказгичда) ўртачалаштирилган қувват фарқланади. Антеннадан келадиган тўла қувват белгиланган йўналишда (чекланган фазовий бурчакда) узатилиши ёки изотроп, яъни барча йўналишларда бир текис нурланиши мумкин.

И

Излучение на гармонике

uz - garmonikadagi nurlanish

гармоникадаги нурланиш

en - harmonic emission

Побочное излучение на частоте, являющейся целым кратным несущей частоты f_0 , т.е. $f_n = n \cdot f_0$.

Примечание – Излучение на гармониках становится особенно опасным, когда в выходных каскадах передатчика образуются резонансные цепи на частотах гармоник. Если условие резонанса хотя бы для одной из них выполняется, то уровень гармоник становится недопустимо большим.

Eltuvchi chastota f_0 ga butun karrali, ya'ni $f_n = n \cdot f_0$ bo'lgan chastotadagi qo'shimcha nurlanish.

Izoh – Garmoniklardagi nurlanish, uzatkichning chiqish kaskadlarida garmonik chastotalarda rezonansli zanjirlar hosil bo'lganda ayniqsa katta xavf tug'diradi. Agar rezonans shartlari ulardan loaqal bittasi uchun bajariladigan bo'lsa, unda garmonika darajasi yo'l qo'yib bo'lmas darajada kattalashib ketadi.

Элтувчи частота f_0 га бутун каррали, яъни $f_n = n \cdot f_0$ бўлган частотадаги қўшимча нурланиш.

Изоҳ – Гармониклардаги нурланиш, узаткичнинг чиқиш каскадларида гармоник частоталарда резонансли занжирлар ҳосил бўлганда айниқса катта хавф туғдиради. Агар резонанс шартлари улардан лоақал биттаси учун бажариладиган бўлса, унда гармоника даражаси йўл қўйиб бўлмас даражада катталашиб кетади.

Излучение на субгармонике

uz - subgarmonikadagi nurlanish

субгармоникадаги

нурланиш

en - subharmonic emission

Побочное излучение на частоте, значение которой в целое число раз меньше несущей частоты. Такой вид излучений наиболее характерен для передатчиков, в которых формирование выходного сигнала осуществляется за счет умножения частоты.

Qiymati eltuvchi chastotadan butun son marta kichik bo'lgan chastotadagi qo'shimcha nurlanish. Nurlanishning bunday turi chiqish signalining shakllanishi chastotani ko'paytirish hisobiga amalga oshiriladigan uzatkichlar uchun xos.

Қиймати элтувчи частотадан бутун сон марта кичик бўлган частотадаги қўшимча нурланиш. Нурланишнинг бундай тури чиқиш сигналининг шаклланиши частотани кўпайтириш ҳисобига амалга ошириладиган узаткичлар учун хос.

И

Имитаторы беспроводных устройств (WAP-эмуляторы)

uz - WAP emulyatorlar

WAP эмуляторлар

en - WAP emulator

Имитаторы беспроводных устройств, работающие на обычных персональных компьютерах.

Oddiy shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan, simsiz qurilmalar imitatorlari.

Оддий шахсий компьютерларда ишлайдиган, симсиз қурилмалар имитаторлари.

Имитационная помеха

uz - imitatsion xalaqit

имитацион халақит

en - smart jamming

Помеха, подобная по структуре полезному сигналу, что затрудняет ее обнаружение и выделение. Обычно состоит из тех же элементов, что и полезный сигнал, но с другими параметрами модуляции.

Strukturasiga ko'ra, foydali signalga o'xshash, shuning uchun uni topish va ajratish qiyin bo'lgan xalaqit. Odatda, u xuddi foydali signaldagi singari, lekin boshqacha modulyatsiya parametrlariga ega elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

Структурасига кўра, фойдали сигналга ўхшаш, шунинг учун уни топиш ва ажратиш қийин бўлган халақит. Одатда, у худди фойдали сигналдаги сингари, лекин бошқача модуляция параметрларига эга элементлардан ташкил топган бўлади.

Имя пользователя

uz - foydalanuvchining nomi

фойдаланувчининг номи

en - user name

Короткое уникальное имя, однозначно идентифицирующее пользователя в сети. Используя это имя, пользователь получает и отправляет информацию.

Tarmoqda foydalanuvchini aniq identifikatsiyalovchi qisqa, yagona nom. Bu nomdan foydalanib u axborotni qabul qiladi va jo'natadi.

Тармоқда фойдаланувчини аниқ идентификацияловчи қисқа, ягона ном. Бу номдан фойдаланиб у ахборотни қабул қилади ва жўнатади.

Индивидуальный вызов

uz - individual chaqiruv

индивидуал чақирув

en - private call

Вызов в сети мобильной связи, который предполагает установление соединения типа «точка-точка» между двумя абонентами.

Mobil aloqa tarmog'idagi, ikki abonent o'rtasida

И

«nuqta-nuqta» turidagi bogʻlanish oʻrnatilishi taxmin qilinadigan chaqiruv.

Мобил алоқа тармоғидаги, икки абонент ўртасида «нуқта-нуқта» туридаги боғланиш ўрнатилиши тахмин қилинадиган чақирув.

Индикатор уровня сигналов

uz - signallar darajasining indikator

сигналлар даражасининг индикатори

en - signal strength indicator

Индикатор, предназначенный для быстрого измерения общего уровня принимаемого сигнала и шума, который позволяет сделать грубую оценку условий распространения радиоволн и пригодности радиоканала для связи.

Qabul qilinadigan signal va shovqinning umumiy darajasini tez oʻlchashga moʻljallangan indikator, radiotoʻlqinlarning tarqalish sharoitlari va radiokanalning aloqa uchun yaroqliligini taxminan baholash imkonini beradi.

Қабул қилинадиган сигнал ва шовқиннинг умумий даражасини тез ўлчашга мўлжалланган индикатор, радиотўлқинларнинг тарқалиш шароитлари ва радиоканалнинг алоқа учун яроқлилигини тахминан баҳолаш имконини беради.

Индикация уровня

принимаемого сигнала

uz - qabul qilinadigan signal darajasini indikatsiyalash

қабул қилинадиган сигнал даражасини индикациялаш

en - received signal strength indication (RSSI)

Основной показатель, определяющий пригодность радиоканала для связи.

Примечание – Диапазон изменения RSSI в стандарте DECT определен от -93 до -33 dBm (шаг 6 dB).

Radiokanalning aloqa uchun yaroqliligini belgilovchi asosiy koʻrsatkich.

Izoh – DECT standartida RSSI ning oʻzgarish diapazoni -93 dBm dan -33 dBm gacha (har bir qadam 6 dB) qilib belgilangan.

Радиоканалнинг алоқа учун яроқлилигини белгиловчи асосий кўрсаткич.

Изоҳ – DECT стандартида RSSI нинг ўзгариш диапазони -93 dBm дан -33 dBm гача (хар бир кадам 6 dB) қилиб белгиланган.

Индустриальные помехи

uz - industrial xalaqitlar

индустриал халақитлар

en - man-made interference

Активные, искусственного происхождения, но непреднамеренные помехи, обусловленные работой электрических устройств, не предназначенных для передачи информации.

И

Axborot uzatish uchun mo'ljallanmagan elektr qurilmalarning ishi bilan bog'liq bo'lgan, aktiv, kelib chiqishi sun'iy, lekin qasddan qilinmaydigan xalaqitlar.

Ахборот узатиш учун мўлжалланмаган электр қурилмаларнинг иши билан боғлиқ бўлган, актив, келиб чиқиши сунъий, лекин қасддан қилинмайдиган халақитлар.

Инкапсуляция

uz - inkapsulyatsiya (lash)
инкапсуляция (лаш)

en - encapsulation

Процесс преобразования данных позволяющий передать их через сеть в прозрачном режиме.

Ma'lumotlarni tarmoq orqali shaffof rejimda uzatish imkonini beradigan ma'lumotlarni o'zgartirish jarayoni.

Маълумотларни тармоқ орқали шаффоф режимда узатиш имконини берадиган маълумотларни ўзгартириш жараёни.

Интегрированные цифровые сети с расширенными возможностями

uz - keng imkoniyatlarga ega integratsiyalashgan raqamli tarmoqlar

кeнг имкониятларга эга интеграциялашган рақамли тармоқлар

en - integrated digital enhanced networks (IDEN)

Беспроводная технология, обеспечивающая интегрированную передачу голоса, данных, SMS-сообщений.

Примечание – IDEN представляет собой технологию «четыре в одном»: пользователи могут использовать одновременно все преимущества беспроводной связи, благодаря совмещению в одном корпусе возможностей цифрового сотового телефона, двусторонней радиосвязи, алфавитно-цифрового пейджера и факс-модема. IDEN базируется на технологии TDMA и работает в частотном диапазоне 800 MHz и 1,5 GHz. IDEN использует сжатие звука, кодек VSELP и технологию квадратурной амплитудной модуляции для обеспечения скорости передачи 65 Kbit/s в полосе 25 kHz.

Ma'lumotlar, ovoz, SMS-xabarlarining birgalikda uzatilishini ta'minlovchi simsiz tarmoq.

Izoh – IDEN «bittada to'rtta» texnologiyasini o'zida ifodalaydi: foydalanuvchilar bitta korpusda raqamli sotali telefon, ikki tomonlama radioaloqa, alifbo-raqamli peyjer va faks-modem imkoniyatlari birlashtirilishi tufayli, simsiz aloqaning barcha afzalliklaridan bir vaqtda foydalanishlari mumkin. IDEN TDMA texnologiyasiga asoslanadi va 800 MHz hamda 1,5 GHz chastotalar diapazonida ishlaydi. IDEN 25 kHz polosada 65 Kbit/s uzatish tezligini ta'minlash uchun tovushni siqishdan, VSELP kodekidan va kvadraturali amplitudaviy modulyatsiya texnologiyasidan foydalaniladi.

И

Маълумотлар, овоз, SMS-хабарларнинг биргаликда узатилишини таъминловчи симсиз тармоқ. Изоҳ – IDEN «биттада тўртта» технологиясини ўзида ифодалайди: фойдаланувчилар битта корпусда рақамли сотали телефон, икки томонлама радиоалоқа, алифборакамли пейжер ва факс-модем имкониятлари бирлаштирилиши туфайли, симсиз алоқанинг барча афзалликларидан бир вақтда фойдаланишлари мумкин. IDEN TDMA технологиясига асосланади ва 800 MHz ҳамда 1,5 GHz частоталар диапазонида ишлайди. IDEN 25 kHz полосада 65 Kbit/s узатиш тезлигини таъминлаш учун товушни сиқишдан, VSELP кодекидан ва квадратурали амплитудавий модуляция технологиясидан фойдаланилади.

Интеллектуальная платформа

uz - intellektual platforma

интеллектуал платформа

en - intelligent platform

Программно-аппаратная «надстройка» над сетью, обеспечивающая применение интеллектуальных технологий для обработки запросов, адаптации оборудования к требованиям абонентов и предоставления новых услуг.

Tarmoq ustidagi dasturiy-apparatli «ustqurma», u soʻrovlarni qayta ishlash, uskunalarni abonentlarning talablariga moslashtirish va yangi xizmatlarni koʻrsatish uchun intellektual texnologiyalar qoʻllanilishini taʼminlaydi.

Тармоқ устидаги дастурий-аппаратли «устқурма», у сўровларни қайта ишлаш, ускуналарни абонентларнинг талабларига мослаштириш ва янги хизматларни кўрсатиш учун интеллектуал технологиялар қўлланилишини таъминлайди.

Интеллектуальная антенна

uz - intellektual antenna

интеллектуал антенна

en - smart antenna

1 Система антенн, сочетающая элементы множества антенн с возможностью обработки сигналов, для автоматической оптимизации ее диаграммы направленности излучения и/или приема в зависимости от условий сигналов.

Примечание – Двумя главными категориями интеллектуальных антенн, как отмечается в Рекомендации МСЭ-R М.1797, являются адаптивные антенны и антенны с переключением лучей диаграммы направленности.

2 Класс антенн, в которых реализован электронный (программный) способ перестройки диаграммы направленности с помощью специального блока управления («интеллекта» антенны). К

И

числу интеллектуальных относятся антенны с переключением лепестков, фазированные антенные решетки, адаптивные решетки и другие типы антенн, обеспечивающие пространственную селекцию сигналов.

1 Signallarning qayta ishlash imkoniyatiga ega ko'p-lab antennalarning elementlarini o'z ichiga oladigan, uning nurlanish yo'nalganlik diagram-masini avtomatik optimallashtirish uchun va/yoki signallarning shartlariga bog'liq holda qabuli uchun mo'ljallangan, antennalar tizimi.

Izoh – XEI-R M.1797 Tavsiyalarida qayd qilinganidek, adaptiv antennalar va yo'nalganlik diagrammasi nurlarini qayta ulaydigan antennalar intellektual antennalarning ikkita asosiy kategoriyalari bo'lib hisoblanadi.

2 Maxsus boshqarish bloki (antenna «intellekti») yordamida antennaning yo'nalganlik diagrammasini qayta qurishning elektron (dasturiy) usuli tatbiq qilingan antennalar klassi. Yaproqlar almashlab ulanadigan antennalar, fazalangan antenna panjaralari, adaptiv panjaralar va signallarning fazoviy seleksiyasini ta'minlovchi boshqa turdagi antennalar intellektual guruhga mansubdir.

1 Сигналларнинг қайта ишлаш имкониятига эга кўплаб антенналарнинг элементларини ўз ичига оладиган, унинг нурланиш йўналганлик диаграммасини автоматик оптималлаштириш учун ва/ёки сигналларнинг шартларига боғлиқ ҳолда қабули учун мўлжалланган, антенналар тизими.

Изоҳ – ХЭИ-Р М.1797 Тавсияларида қайд қилинганидек, адаптив антенналар ва йўналганлик диаграммаси нурларини қайта улайдиган антенналар интеллектуал антенналарнинг иккита асосий категориялари бўлиб ҳисобланади.

2 Махсус бошқариш блоки (антенна «интеллекти») ёрдамида антеннанинг йўналганлик диаграммасини қайта қуришнинг электрон (дастурий) усули татбиқ қилинган антенналар класси. Япроқлар алмашлаб уланадиган антенналар, фазаланган антенна панжаралари, адаптив панжаралар ва сигналларнинг фазовий селекциясини таъминловчи бошқа турдаги антенналар

И

интеллектуал гуруҳга мансубдир.

Интеллектуальная сеть

uz - intellektual tarmoq

интеллектуал тармоқ

en - intelligent network (IN)

Архитектура сети, разработанная в целях предоставления дополнительных услуг в телекоммуникационных сетях.

Примечание – Интеллектуальная сеть, в рамках телекоммуникационной сети общего пользования позволяет быстро разрабатывать и внедрять в любых масштабах предоставление новых услуг типа поискового набора номера, передачи вызова на другой номер, блокировки номеров, интеллектуального роуминга зонального поиска, как на локальном экспериментальном уровне, так и на уровне сети. Такая сеть предполагает наличие подходящей сетевой инфраструктуры.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan tarmoq arxitekturasi.

Izoh – Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog‘i doirasidagi intellektual tarmoq har qanday raqamni izlab terish, boshqa raqamga chaqiruvni uzatish, raqamlarni blokirovkalash turidagi yangi xizmatlarni taqdim etish, ham lokal eksperimental sathda, ham tarmoq sathida zonaviy izlashning intellektual roumingini ishlab chiqish va joriy qilish imkonini beradi. Bunday tarmoq qulay tarmoq infrastrukturasi bo‘lishini nazarda tutadi.

Телекоммуникация тармоқларида қўшимча хизматларни тақдим этиш мақсадида ишлаб чиқилган тармоқ архитектураси.

Изоҳ – Умумий фойдаланишдаги телекоммуникация тармоғи доирасидаги интеллектуал тармоқ ҳар қандай рақамни излаб териш, бошқа рақамга чақирувни узатиш, рақамларни блокировкалаш туридаги янги хизматларни тақдим этиш, ҳам локал экспериментал сатҳда, ҳам тармоқ сатҳида зонавий излашнинг интеллектуал роумингини ишлаб чиқиш ва жорий қилиш имконини беради. Бундай тармоқ қулай тармоқ инфраструктураси бўлишини назарда тутди.

Интеллектуальный

терминал

uz - intellektual terminal

интеллектуал терминал

en - intelligent terminal

Терминал с развитой логикой, который способен обеспечить подготовку, редактирование и обработку принятых сообщений.

Примечание – Загрузка необходимого программного обеспечения осуществляется через SIM-карту или путем перепрограммирования по каналам связи.

Qabul qilingan xabarlarini tayyorlash, tahrir qilish va

И

qayta ishlashni ta'minlashga qodir, yuksak mantiqli terminal.

Izoh – Zarur dasturiy ta'minot SIM-karta orqali yoki aloqa kanallari bo'yicha qayta dasturlash yo'li bilan yuklanadi.

Қабул қилинган хабарларни тайёрлаш, тахрир қилиш ва қайта ишлашни таъминлашга қодир, юксак мантиқли терминал.

Изоҳ – Зарур дастурий таъминот SIM-карта орқали ёки алоқа каналлари бўйича қайта дастурлаш йўли билан юкланади.

Интенсивность

пилот-сигнала

uz - pilot-signalning intensivligi

пилот-сигнал
интенсивлиги
en - pilot strength

Отношение энергии принимаемого пилот-сигнала к полной спектральной плотности мощности в полосе приема в течение длительности одного символа.

Bitta simvol davomiyligi mobaynida, qabul qilish polosasida, kabul qilinadigan pilot-signal energiyasi-ning, quvvatning to'liq spektral zichligiga bo'lgan nisbati.

Битта символ давомийлиги мобайнида, қабул қилиш полосасида, қабул қилинадиган пилот-сигнал энергиясининг, қувватнинг тўлиқ спектрал zichligiga бўлган нисбати.

Интерактивная

(онлайновая) служба

uz - interaktiv (onlayn) xizmat
интерактив (онлайн)
хизмат
en - on-line service

Информационная служба, обеспечивающая работу электронной почты, службы новостей и других приложений, ориентированных на диалоговый режим обмена информацией с пользователем (типа «запрос-ответ»).

Elektron pochta, yangiliklar xizmati va foydalanuvchi bilan dialog rejimida axborot almashinish («savol-javob» turidagi) mo'ljallangan boshqa ilovalarning ishlashini ta'minlaydigan axborot xizmati.

Электрон почта, янгиликлар хизмати ва фойдаланувчи билан диалог режимида ахборот алмашиниш («савол-жавоб» туридаги) мўлжалланган бошқа иловаларнинг ишлашини таъминлайдиган ахборот хизмати.

И

Интерактивные услуги

uz - interaktiv xizmatlar

интерактив хизматлар

en - online services

Широкий класс услуг, инициируемых пользователем и предоставляемых серверами и прикладными системами в режиме реального времени (например, просмотр веб-страниц, Internet-пейджинг, поиск в базах данных и др).

Foydalanuvchi tomonidan talab qilinadigan va serverlar tomonidan real vaqt rejimida taqdim etiladigan xizmatlarning keng turkumini ifodalovchi umumiy atama (masalan, veb-sahifalarni qarab chiqish, Internet-peyjing, ma'lumotlar bazasidan izlash va boshqalar).

Фойдаланувчи томонидан талаб қилинадиган ва серверлар томонидан реал вақт режимида тақдим этиладиган хизматларнинг кенг туркумини ифодаловчи умумий атама (масалан, веб-саҳифаларни қараб чиқиш, Internet-пейжинг, маълумотлар базасидан излаш ва бошқалар).

Интервал Ethernet

uz - Ethernet intervali

Ethernet интервали

en - Interval Ethernet

Время, необходимое кадру Ethernet для преодоления диаметра сети.

Tarmoq diametrini oshib o'tish uchun Ethernet kadriga zarur bo'lgan vaqt.

Тармоқ диаметрини ошиб ўтиш учун Ethernet кадрига зарур бўлган вақт.

Интервал доступа

uz - kirishga ruxsat

berilgan interval

киришга рухсат берилган интервал

en - access interval

Временной интервал, в течение которого одна или несколько станций могут передавать запросы. Если один интервал выделяется одновременно нескольким станциям, то в канале возможно возникновение конфликтов.

Bitta yoki bir nechta stansiya so'rovlarni uzatishi mumkin bo'lgan vaqt intervali. Aynan bir interval bir vaqtning o'zida bir nechta stansiya ajratilsa, kanalda to'qnashuvlar kelib chiqishi mumkin.

Битта ёки бир нечта станция сўровларни узатиши мумкин бўлган вақт интервали. Айнан бир интервал бир вақтнинг ўзида бир нечта станцияга ажратилса, каналда тўқнашувлар келиб чиқиши мумкин.

И

Интермодуляция

uz - intermodulyatsiya

интермодуляция

en - intermodulation

Процесс преобразования полезного и мешающих сигналов в нелинейных каскадах приемника или передатчика, в результате которого в спектре образуются новые частотные составляющие, создающие опасность помехового воздействия.

Uzatkich yoki qabulqilgichning nohiziqqli kaskadlarida foydali va xalaqit beruvchi signallarni o'zgartirish jarayoni. Buning natijasida spektrda xalaqit ta'siri xavfini keltirib chiqaradigan yangi chastotaviy tashkil etuvchilar hosil bo'ladi.

Uzatkich ёки қабулқилгичнинг ноҳизіққли каскадларіда фойдали ва халақит берувчи сигналларни ўзгартириш жараёни. Бунинг натижасіда спектрда халақит таъсірі хавфіні келтириб чиқарадиган янги частотавий ташкіл этувчилар ҳосил бўлади.

Интернет

uz - Internet

Интернет

en - Internet

Глобальная сеть, в которую входят правительственные, академические, коммерческие, военные и корпоративные сети всего мира. Пользователи, работающие в Интернет, могут читать и загружать данные по любой теме практически со всего света.

Butun dunyoning hukumat, akademik, tijorat, harbiy va korporativ tarmoqlari kiradigan global tarmoq. Internetda ishlaydigan foydalanuvchilar amalda butun dunyodan istalgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar olishlari va berishlari mumkin.

Бутун дунёнинг ҳукумат, академик, тижорат, ҳарбий ва корпоратив тармоқлари кирадиган глобал тармоқ. Интернетда ишлайдиган фойдаланувчилар амалда бутун дунёдан исталган мавзу бўйича маълумотлар олишлари ва беришлари мумкин.

Интерфейс

uz - interfeys

интерфейс

en - interface

1 Стык, соединение, общая граница двух устройств и сред, определяемая физическими характеристиками соединений, параметрами сигналов и их значений.

И

2 Граница между двумя взаимосвязанными системами.

3 Граница между двумя устройствами или системами с определёнными физическими, функциональными и электрическими характеристиками.

4 Общая граница между двумя функциональными блоками, определенная с помощью функциональных характеристик, общих характеристик физического соединения, характеристик сигналов и других необходимых характеристик.

1 Signallarning parametrlari, ularning qiymatlari, ulanishlarning fizik xarakteristikalari bilan belgilanadigan ikki muhit va qurilmaning umumiy chegarasi, tutashish yeri, birikishi.

2 O‘zaro bog‘langan ikki tizim o‘rtasidagi chegara.

3 Muayyan fizik, funksional va elektr xarakteristikalariga ega bo‘lgan ikki qurilma yoki tizim o‘rtasidagi chegara.

4 Ikki funksional blok o‘rtasidagi, funksional xarakteristikalar, fizik bog‘lanishning umumiy xarakteristikalari, signallarning xarakteristikalari va boshqa zarur xarakteristikalar bilan belgilanadigan umumiy chegara.

1 Сигналларнинг параметрлари, уларнинг қийматлари, уланишларнинг физик хarakteristikalari билан белгиланадиган икки муҳит ва қурилманинг умумий чегараси, туташиш ери, бирикиши.

2 Ўзаро боғланган икки тизим ўртасидаги чегара.

3 Муайян физик, функционал ва электр хarakteristikalariga эга бўлган икки қурилма ёки тизим ўртасидаги чегара.

4 Икки функционал блок ўртасидаги, функционал хarakteristikalar, физик боғланишнинг умумий хarakteristikalari, сигналларнинг хarakteristikalari ва бошқа зарур хarakteristikalar билан белгиланадиган умумий чегара.

И

Интерфейс Pop-Port
uz - Pop-Port interfeysi
Pop-Port интерфейси
en - Pop-Port

Интерфейс, который используется в телефонах Nokia и может применяться в нескольких операциях.

Примечание – Соединение устройства с ПК при помощи USB кабеля, через него можно также подзаряжать Ваш телефон, подключать стерео гарнитуру. Pop-Port комбинирует несколько функций в рамках одного удобного интерфейса. Например, можно с удобством управлять цифровой камерой, музыкальным плеером и стереонаушниками, все это через встроенное меню телефона. Кроме того, этот интерфейс признан как стандарт интерфейса телефонов Nokia, что позволит более «интеллектуально» управлять внешними устройствами.

Nokia telefonlarida foydalaniladigan interfeys.

Izoh – Bir nechta operatsiyada, masalan, qurilmani USB kabel yordamida ShK bilan ulashda, telefonni zaryadlashda, stereo garniturani ulashda qo'llanilishi mumkin. Pop-Port bitta qulay interfeys doirasida bir nechta funksiyani birlashtiradi. Masalan, qulaylik bilan raqamli kamerani, musiqali pleyerni va stereonaushniklarni kiritilgan telefon menyusi orqali boshqarish mumkin. Bundan tashqari, interfeys Nokia telefonlari interfeysi sifatida e'tirof qilingan, bu tashqi qurilmalarni yanada «intellektual tarzda» boshqarish imkonini beradi.

Nokia telefonlarida foydalaniладиган интерфейс.

Izoh – Bir nechta operatsiyada, masalan, qurilmani USB kabel yordamida ShK bilan ulashda, telefonni zaryadlashda, stereo garniturani ulashda qo'llanilishi mumkin. Pop-Port bitta qulay interfeys doirasida bir nechta funksiyani birlashtiradi. Masalan, qulaylik bilan raqamli kamerani, musiqali pleyerni va stereonaushniklarni kiritilgan telefon menyusi orqali boshqarish mumkin. Bundan tashqari, interfeys Nokia telefonlari interfeysi sifatida e'tirof qilingan, bu tashqi qurilmalarni yanada «intellektual tarzda» boshqarish imkonini beradi.

Интерфейс периферийных устройств
uz - chetki qurilmalar interfeysi
четки қурилмалар
интерфейси
en - peripheral component
interconnect (PCI)

Интерфейс, используемый во всех ПК с процессорами Pentium.

Примечание – PCI-слоты обеспечивают более высокие возможности, чем ISA-слоты, что очень важно для современных высокопроизводительных интерфейсных плат. PCI слоты имеют длину 9 см. Сетевые карты 3Com PCI поддерживают работу со скоростью либо 10 Mbit/s, либо 10/100 Mbit/s.

Pentium protsessorlari bo'lgan barcha ShK larda

И

foydalaniladigan interfeys.

Izoh – PCI-slotlar kengroq imkoniyatlarni ta'minlaydi, ISA-slotlarga qaraganda, bu zamonaviy, unumdorligi yuqori bo'lgan interfeys platalar uchun juda muhim. PCI-slotlarning uzunligi 9 sm. 3Com PCI tarmoq kartalari 10 Mbit/s yoki 10/100 Mbit/s tezlik bilan ishlashni ta'minlaydi.

Pentium процессорлари бўлган барча ШК ларда фойдаланиладиган интерфейс.

Изоҳ – PCI-слотлар кенгроқ имкониятларни таъминлайди, ISA-слотларга қараганда, бу замонавий, унумдорлиги юқори бўлган интерфейс платалар учун жуда муҳим. PCI-слотларнинг узунлиги 9 см. 3Com PCI тармоқ карталари 10 Mbit/s ёки 10/100 Mbit/s тезлик билан ишлашни таъминлайди.

Интерфейсная карта (PC-карта)

uz - PC-karta

PC-карта

en - PC card

Универсальные карты, которые могут быть использованы в качестве карт памяти, модемов, сетевых карт и адаптеров, диководов и т.д.

Примечание – Для подключения ко компьютеру PC-карты вставляются в специальные слоты.

Diskavodlar, tarmoq kartalari va adapterlari, modemlar, хотира kartalari sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan universal kartalar.

Izoh – Kompyuterga ulash uchun PC-kartalar maxsus slotlarga qo'yiladi.

Дискаводлар, тармоқ карталари ва адаптерлари, модемлар, хотира карталари сифатида ишлатилиши мумкин бўлган универсал карталар.

Изоҳ – Компютерга улаш учун PC-карталар махсус слотларга қўйилади.

Интерфейсы GSM

uz - GSM interfeyslari

GSM интерфейслари

en - GSM interface

В сети GSM определены интерфейсы двух типов: межсетевые и внутрисетевые. Соединение с внешними сетями осуществляется в соответствии с системой сигнализации SS7.

GSM tarmog'ida interfeyslarning ikki turi farqlanadi: tarmoqlararo va tarmoq ichi. Tashqi tarmoqlar bilan ulanish SS7 signalizatsiya tizimiga muvofiq amalga oshiriladi.

GSM тармоғида интерфейсларнинг икки тури фарқланади: тармоқлараро ва тармоқ ичи. Ташқи тармоқлар билан уланиш SS7 сигнализация тизимига мувофиқ амалга оширилади.

И

Интранет
uz - Intranet
Интранет
en - Intranet

Внутрикорпоративная сеть, которая строится на основе Интернет технологий.

Примечание – Как правило, под Интранет подразумевается часть сети до брандмауэра, защищающая ее от не-санкционированного доступа через Интернет. Интранет нередко используется для организации доступа к приложениям клиент–сервер с помощью обычного веб-браузера.

Internet texnologiyalari asosida quriladigan ichki korporativ tarmoq.

Izoh – Odatda, Intranet deganda, tarmoqning brandmauergacha bo‘lgan, uni Internet orqali ruxsatsiz foydalana olishdan himoya qiluvchi qismi tushuniladi. Intranetdan oddiy veb-brauzer yordamida mijoz–server dasturlaridan foydalanishni tashkil qilishda ham foydalaniladi.

Интернет технологиялари асосида қуриладиган ички корпоратив тармоқ.

Изоҳ – Одатда, Интранет деганда, тармоқнинг брандмауэргача бўлган, уни Интернет орқали рухсатсиз фойдалана олишдан ҳимоя қилувчи қисми тушунилади. Интранетдан оддий веб-браузер ёрдамида миждоз-сервер дастурларидан фойдаланишни ташкил қилишда ҳам фойдаланилади.

**Информационная служба
сетевого планирования**
**uz - tarmoqni rejalashtirish
axborot xizmati**
тармоқни режалаштириш
ахборот хизмати
**en - network information
service (NIS)**

Служба, позволяющая осуществлять централизованное администрирование пользовательских бюджетов по сети TCP/IP, упрощая входы в систему/сеть и настраивание паролей.

Tizinga/tarmoqqa kirishlarni va parollar sozla-nishini soddalashtirgan holda, TCP/IP tarmoq bo‘yicha foydalanuvchilarning byudjetlari markaz-lashtirilgan tarzda boshqarilishini amalga oshirish imkonini beradigan xizmat.

Тизимга/тармоққа киришларни ва пароллар созланишини соддалаштирган ҳолда, TCP/IP тармоқ бўйича фойдаланувчиларнинг бюджетлари марказлаштирилган тарзда бошқарилишини амалга ошириш имконини берадиган хизмат.

И

Инфракрасная передача

uz - infraqizil uzatish

инфрақизил узатиш

en - infrared transmission

Технология, позволяющая осуществлять беспроводную передачу сигналов на короткие дистанции (до 3 м) между телефонами, компьютерами и другими устройствами.

Примечание – В отличие от Bluetooth, сигнал строго направлен. Длина волны ИК-излучения составляет 880 nm.

Signallarni telefonlar, kompyuterlar va boshqa qurilmalar oʻrtasida qisqa masofaga (3 m gacha) simsiz uzatish texnologiyasi.

Izoh – Bluetooth dan farqli ravishda, signal qatʼiy yoʻnalgan boʻladi. Infraqizil nurlanish toʻlqin uzunligi 880 nm ni tashkil etadi.

Сигналларни телефонлар, компьютерлар ва бошқа қурилмалар ўртасида қисқа масофага (3 м гача) симсиз узатиш технологияси.

Изоҳ – Bluetooth дан фарқли равишда, сигнал қатъий йўналган бўлади. Инфрақизил нурланиш тўлқин узунлиги 880 nm ни ташкил этади.

Инфракрасный порт

uz - infraqizil port

инфрақизил порт

en - infrared port

Инфракрасный порт, устройство для беспроводной передачи и приема данных. Может применяться, например, для соединения двух мобильных телефонов или телефона и принтера.

Maʼlumotlarni simsiz uzatish va qabul qilish uchun moʻljallangan qurilma. Ikkita mobil telefonni yoki telefon va printerni bogʻlash uchun qoʻllanilishi mumkin.

Маълумотларни симсиз узатиш ва қабул қилиш учун мўлжалланган қурилма. Иккита мобил телефонни ёки телефон ва принтерни боғлаш учун қўлланилиши мумкин.

Инфраструктурная сеть

uz - infrastrukturali tarmoq

инфраструктурали тармоқ

en - infrastructure

Один из двух режимов работы беспроводной локальной сети. В такой конфигурации беспроводной локальной сети беспроводные станции могут обмениваться данными с беспроводными и проводными станциями через точку доступа к сети.

Simsiz lokal tarmoqning ikkita ishlash rejimidan biri. Simsiz lokal tarmoqning bunday konfiguratsiyasida simsiz stansiyalar tarmoqqa kirish nuqtalari or-

И

qali simsiz va simli stansiyalar bilan ma'lumotlar ayirboshlashi mumkin.

Симсиз локал тармоқнинг иккита ишлаш режими-дан бири. Симсиз локал тармоқнинг бундай конфигурациясида симсиз станциялар тармоққа кириш нуқталари орқали симсиз ва симли станциялар билан маълумотлар айирбошлаши мумкин.

Искажение из-за неравномерности группового времени задержки

uz - guruhiy kechikish vaqtining notekisligi tufayli buzilish

гурухий кечикиш

вақтининг нотекислиги

туфайли бузилиш

en - group-delay distortion (GDD)

Искажения, обусловленные зависимостью сдвига фазы от изменения частоты сигнала.

Примечание – В идеале характеристика группового времени задержки в рабочей полосе частот должна быть плоской, однако реально фаза сигнала изменяется в зависимости от ширины полосы частот.

Faza siljishining signal chastotasining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan buzilishlar.

Изох – Назарий жиҳатдан, chastotalarning ishchi polosasida guruhiy kechikish vaqtining xarakteristikasi tekis bo'lishi lozim, biroq amalda signal fazasi chastotalar polosasining kengligiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Фаза силжишининг сигнал частотасининг ўзгаришига боғлиқ бўлган бузилишлар.

Изох – Назарий жиҳатдан, частоталарнинг ишчи полосасида гурухий кечикиш вақтининг характеристикаси текис бўлиши лозим, бироқ амалда сигнал фазаси частоталар полосасининг кенглигига боғлиқ равишда ўзгаради.

Искажения, обусловленные запаздыванием

uz - kechikish tufayli yuzaga keladigan buzilishlar

кечкикиш туфайли юзага

келадиган бузилишлар

en - late distortion

Искажения, возникающие вследствие того, что разные компоненты сигнала приходят в точку приема с разной задержкой.

Примечание – Все элементы сигнала передаются в заданной последовательности, причем каждый в своем выделенном интервале, однако из-за задержки в канале распространения отдельные компоненты сигнала выходят за пределы выделенного интервала и накладываются на последующий элемент. Именно этот фактор и является причиной межсимвольных искажений. Наиболее эффективный метод борьбы с такого рода искажениями – введение защитных интервалов между символами.

Signal turli komponentlarining qabul qilish nuqtasiga turli darajadagi ushlanishlar bilan yetib kelishi hisobiga paydo bo'ladigan buzilishlar.

И

Izoh – Signalning barcha elementlari belgilangan ketma-ketlikda, ularning har biri o'ziga ajratilgan intervalda uzatiladi, biroq ushlanib qolishlar tufayli tarqalish kanalida signalning ayrim komponentlari ularga ajratilgan intervallardan tashqariga chiqib ketadi va o'zidan keyingi elementlar ustiga tushib qoladi. Aynan shu omil simvollararo buzilishlarning sababchisidir. Bunday holdagi buzilishlarga qarshi kurashning eng samarali metodi – simvollar o'rtasiga himoya intervallarini kiritishdir.

Сигнал турли компонентларининг қабул қилиш нуқтасига турли даражадаги ушланишлар билан етиб келиши ҳисобига пайдо бўладиган бузилишлар.

Изоҳ – Сигналнинг барча элементлари белгиланган кетма-кетликда, уларнинг ҳар бири ўзига ажратилган интервалда узатилади, бироқ ушланиб қолишлар тufайли тарқалиш каналида сигналнинг айрим компонентлари улarga ажратилган интерваллардан ташқарига чиқиб кетади ва ўзидан кейинги элементлар устига тушиб қолади. Айнан шу омил символларaro бузилишларнинг сабабчисидир. Бундай ҳолдаги бузилишларга қарши курашнинг энг самарали методи – символлар ўртасига ҳимоя интервалларини киритишдир.

Исполнитель услуги

uz - xizmatni bajaruvchi

хизматни бажарувчи

en - performer of service

Предприятие, организация или предприниматель, оказывающий услугу потребителю.

Iste'molchiga xizmat ko'rsatadigan korxonona, tashkilot yoki tadbirkor.

Истеъмолчига хизмат кўрсатадиган корхона, ташкилот ёки тadbirkor.

Использование сети

uz - tarmoqdan foydalanish

тармоқдан фойдаланиш

en - network utilization

Мера трафика в сети, выраженная в процентах к величине полосы пропускания сети. Характеризует эффективность использования потенциальных возможностей сети.

Tarmoqdagi trafik o'lchovi. Tarmoqning o'tkazish polosi kattaligiga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

Тармоқдаги трафик ўлчови. Тармоқнинг ўтка-зиш полосаси катталигига нисбатан фоизларда ифодаланadi. Тармоқнинг мавжуд имкониятларидан фойдаланиш самарадорлигини тавсифлайди.

И

Испытание сети на взлом

uz - tarmoqni buzib kirish
yuzasidan sinash

тармоқни бузиб кириш
юзасидан синаш

en - network vulnerability probe

Проверка вычислительной сети на наличие или отсутствие потенциальных проблем с защитой от несанкционированного доступа при помощи специального программного обеспечения.

Hisoblash tarmog'ini maxsus dastur yordamida, ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar bor yoki yo'qligiga tekshirish.

Ҳисоблаш тармоғини махсус дастур ёрдамида, рухсат этилмаган тарзда фойдаланишдан муҳофаза қилиш билан боғлиқ муаммолар бор ёки йўқлигига текшириш.

Источник

uz - manba
манба

en - origin, source

Исходный пункт отправки информации с начальным адресом абонента.

Abonentning dastlabki adresi ko'rsatilgan axborot jo'natiladigan boshlang'ich punkt.

Абонентнинг дастлабки адреси кўрсатилган ахборот жўнатиладиган бошланғич пункт.

Источник

непреднамеренных помех

uz - ataylab qilinmaydigan
xalaqlar manbai

атайлаб қилинмайдиган
халақитлар манбаи

en - unintentional emitter

Передатчик, который оказывает мешающее действие на приемники других систем. Источником непреднамеренных помех может быть собственное излучение работающего промышленного или медицинского оборудования.

Boshqa tizimlarning qabulqilgichlariga xalaqit beruvchi ta'sir ko'rsatadigan uzatkich. Ishlayotgan sanoat yoki tibbiyot uskunasining xususiy nurlanishi ataylab qilinmaydigan xalaqlar manbai bo'lishi mumkin.

Бошқа тизимларнинг қабулқилгичларига халақит берувчи таъсир кўрсатадиган узаткич. Ишлаётган саноат ёки тиббиёт ускунасининг хусусий нурланиши атайлаб қилинмайдиган халақитлар манбаи бўлиши мумкин.

И

Исходящая линия

uz - chiquvchi liniya

чикувчи линия

en - outbound link

(син. outgoing line)

1 Линия, по которой поток информации передается от станции связи или ретранслятора к абоненту.

2 Линия, связывающая выход концентратора или коммутатора каналов с удаленным абонентом.

1 Axborot oqimi aloqa stansiyasi yoki retranslyator-dan abonentga uzatiladigan liniya.

2 Kanallar konsentratori yoki kommutatori chiqishini olisdagi abonent bilan bog'lovchi liniya.

1 Axborot oqimi aloqa stansiyasi ёки ретранслятордан абонентга узатиладиган линия.

2 Каналлар концентратори ёки коммутатори чиқишини олисдаги абонент билан боғловчи линия.

К

Каденция

uz - kadensiya

каденция

en - cadence

Последовательность чередующихся звуков и пауз, характерная для аудиосигнала, импульсного набора номера или вызывного сигнала.

Audiosignal, raqamning impulsli terilishi yoki chaqiruv signali uchun xos bo'lgan, almashinib keladigan tovush va pauzalar ketma-ketligi.

Аудиосигнал, рақамнинг импульсли терилиши ёки чақирув сигнали учун хос бўлган, алмашиниб келадиган товуш ва паузалар кетма-кетлиги.

Кадр

uz - kadr

кадр

en - frame

1 Структурированная последовательность данных фиксированной длины, использующая некоторые параметры физического канала.

2 Основной временной интервал в системе CDMA.

3 Структура данных, состоящая из целого числа байтов, начало и конец которой отмечены специальной кодовой комбинацией.

1 Fizik kanalning ba'zi parametrlaridan foydalaniladigan, qayd qilingan uzunlikdagi ma'lumotlarning strukturalangan ketma-ketligi.

2 CDMA tizimida asosiy vaqt intervali.

К

3 Boshlanishi va oxiri maxsus kod kombinatsiyasi bilan belgilangan, baytlarning butun sonidan iborat ma'lumotlar strukturasi.

1 Физик каналнинг баъзи параметрларидан фойдаланиладиган, қайд қилинган узунликдаги маълумотларнинг структураланган кетма-кетлиги.

2 CDMA тизимида асосий вақт интервали.

3 Бошланиши ва охири махсус код комбинацияси билан белгиланган, байтларнинг бутун сонидан иборат маълумотлар структураси.

Канал доступа

uz - foydalana olish kanali

фойдалана олиш канали

en - access channel

Восходящий WCDMA канал, используемый оборудованием пользователя (абонентский подвижный терминал) для установления связи с базовой станцией.

Примечание – Канал доступа используется для обмена короткими сигнальными сообщениями, такими как: исходящие вызовы, регистрация.

Foydalanuvchi uskunasi tayanch stansiya bilan aloqa o'rnatish uchun foydalaniladigan, ko'tariluvchi WCDMA kanal.

Izoh- Foydalana olish kanalidan chiquvchi chaqiruvlar, qayd etish (ro'yhatga olish) kabi qisqa signal xabarlar almashinishda foydalaniladi.

Фойдаланувчи ускунаси таянч станция билан алоқа ўрнатиш учун фойдаланиладиган, кўтари- лувчи WCDMA канал.

Изоҳ- Фойдалана олиш каналдан чиқувчи чакирувлар, қайд этиш (рўйхатга олиш) каби қисқа сигнал хабарлар алмашилишида фойдаланилади.

Канал пилот-сигнала

uz - pilot-signal kanali

пилот-сигнал канали

en - pilot channel

Канал, по которому передается кодовая последовательность пилот-сигнала.

Примечание – В стандарте IS-95 последовательность типа «одни нули». Такой канал предназначен для установления начальной синхронизации, оценки коэффициента передачи радиоканала и фазы принимаемых сигналов, идентификации базовых станций при поиске сот и обеспечения хэндовера.

Pilot-signal kodli ketma-ketligi uzatiladigan kanal.

Izoh – IS-95 standartida «faqat nollar» turidagi ketma-ketlik. Pilot-kanal dastlabki sinxronlashni o'rnatish, radiokanalning uzatish koeffitsiyenti va qabul qilinadigan signallar fazasini

К

baholash, sotalarni izlashda tayanch stansiyalarni identifikatsiyalash hamda xendoverni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Пилот-сигнал кодли кетма-кетлиги узатиладиган канал.

Изоҳ – IS-95 стандартида «фақат ноллар» туридаги кетма-кетлик. Пилот-канал дастлабки синхронлашни ўрнатиш, радиоканалнинг узатиш коэффициенти ва қабул қилинадиган сигналлар фазасини баҳолаш, соталарни излашда таянч станцияларни идентификациялаш ҳамда хэндоверни таъминлаш учун мўлжалланган.

Канал произвольного доступа

uz - ixtiyoriy foydalana olish kanali

ихтиёрӣй фойдалана олиш канали

en - random access channel (RACH)

Канал управления на линии «вверх», используемый мобильной станцией при передаче коротких сообщений и запросов на предоставление каналов.

Liniya «yuqoriga» yo'nalishidagi boshqarish kanali bo'lib, mobil stansiya tomonidan qisqa xabarlar va kanallar taqdim etilishi yuzasidan so'rovlarni uzatishda foydalaniladi.

Метод многостанционного доступа к ретранслятору, позволяющий передавать большое число сигналов (каждый на своей несущей) через общий ствол ретранслятора.

Примечание – Обычно применяется в спутниковых сетях с интенсивным трафиком, в которых за каждой земной станцией закреплена своя несущая частота. Основной недостаток данного метода – невозможность динамического перераспределения ресурса ретранслятора.

Retranslyatordan ko'p stansion foydalana olish me-

O

todi boʻlib, u retranslyatorning umumiy stvoli orqali koʻp sonli signallarni (har biri oʻz eltuvchisida) uzatish imkonini beradi.

Izoh – Har bir yer stansiyasiga oʻz eltuvchi chastotasi birlashtirilgan, intensiv trafikka ega yoʻldoshli tarmoqlarda, odatda, shunday metod qoʻllaniladi. Ushbu metodning asosiy kamchiligi – retranslyator resursini dinamik ravishda qayta taqsimlash imkoniyatining yoʻqligida.

Ретранслятордан кўп станцион фойдалана олиш методи бўлиб, у ретрансляторнинг умумий стволи орқали кўп сонли сигналларни (ҳар бири ўз элтувчисиди) узатиш имконини беради.

Изоҳ – Ҳар бир ер станциясига ўз элтувчи частотаси бириктирилган, интенсив трафикка эга йўлдошли тarmoqlарда, оdatда, шундай метод қўлланилади. Ушбу методнинг асосий камчилиги – ретранслятор ресурсини динамик равишда қайта тақсимлаш имкониятининг йўқлигида.

Одна боковая полоса

uz - bitta yon polosa

битта ён полоса

en - single sideband (SSB)

Амплитудно-модулированный сигнал, спектр которого состоит из одной боковой полосы, расположенной ниже (нижняя боковая полоса) или выше (верхняя полоса) несущей частоты.

Spektri eltuvchi chastotadan pastda (quyi yon polosa) yoki yuqorida (yuqori polosa) joylashgan bitta yon polosadan iborat amplitudaviy modulyatsiyalangan signal.

Спектри элтувчи частотадан пастда (куйи ён полоса) ёки юқорида (юқори полоса) жойлашган битта ён полосадан иборат амплитудавий модуляцияланган сигнал.

Одновременная связь с несколькими группами

uz - bir nechta guruh bilan bir vaqtdagi aloqa

бир нечта гуруҳ билан бир вақтдаги алоқа

en - simulselect

Режим транкинговой связи, при котором станция может одновременно подключаться к нескольким работающим группам абонентов и прослушивать переговоры.

Примечание – Такой режим является приоритетным и предоставляется для ограниченного числа абонентов.

Stansiyaning bir vaqtda ishlab turgan bir nechta abonentlar guruhiga ulanishi va soʻzlashuvlarni eshitishiga imkon beradigan tranking aloqa rejimi.

Izoh – Bunday rejim ustuvor hisoblanadi va cheklangan son-dagi abonentlarga taqdim qilinadi.

О

Станциянинг бир вақтда ишлаб турган бир нечта абонентлар гуруҳига уланиши ва сўзлашувларни эшитишига имкон берадиган транкинг алоқа режими.

Изоҳ – Бундай режим устувор ҳисобланади ва чекланган сондаги абонентларга тақдим қилинади.

Одновременный доступ

uz - bir vaqtda foydalana olish

бир вақтда фойдалана

олиш

en - simultaneous access

Одновременное обращение нескольких пользователей к одному объекту или общим ресурсам системы.

Bir nechta foydalanuvchining bitta ob'ektga yoki tizimning umumiy resurslariga bir vaqtdagi murojaati.

Бир нечта фойдаланувчининг битта объектга ёки тизимнинг умумий ресурсларига бир вақтдаги мурожаати.

Однозеркальная антенна

uz - bir ko'zguli antenna

бир кўзгули антенна

en - single-reflector antenna

Антенна, основным элементом которой является параболическое зеркало с помещенным в его фокусе облучателем.

Asosiy elementi fokusda nurlagich bilan joylashtirilgan parabolik ko'zgu hisoblanadigan antenna.

Асосий элементи фокусда нурлагич билан жойлаштирилган параболик кўзгу ҳисобланадиган антенна.

Однонаправленный интерфейс

uz - bir tomonga yo'naltirilgan interfeys

бир томонга йўналтирилган интерфейс

en - one-way interface

Интерфейс, обеспечивающий передачу данных только в одном направлении.

Ma'lumotlarning faqat bitta yo'nalishda uzatilishini ta'minlaydigan interfeys.

Маълумотларнинг фақат битта йўналишда узатилишини таъминлайдиган интерфейс.

Одноранговая сеть

uz - teng darajali tarmoq

тенг даражали тармоқ

en - peer to peer network

Сеть, в которой рабочие станции (такие как персональный компьютер) могут совместно использовать информацию и ресурсы друг друга без обращения к центральному (выделенному) серверу. Примечание – Сеть из четырех персональных компьютеров можно организовать так, чтобы файлы, находящиеся на любом из четырех персональных компьютеров, были

О

доступны каждому персональному компьютеру сети. Такая сеть предполагает использование технологии распределенных коммуникаций.

Ishchi stansiyalar (shaxsiy kompter kabi) markaziy (ajratilgan) serverga murojaat qilmasdan, bir-birlarining axborot hamda resurslaridan birgalikda foydalanadigan tarmoq.

Izoh – To‘rtta shaxsiy kompyuterdan iborat tarmoqni, shu to‘rtta shaxsiy kompterning istalganida bo‘lgan fayllarga, tarmoqdagi har bir shaxsiy kompyuterlar kira oladigan qilib tashkil qilish mumkin. Bunday tarmoqda taqsimlangan kommunikatsiyalar texnologiyasidan foydalanishni nazarda tutadi.

Ишчи станциялар (шахсий компьтер каби) марказий (ажратилган) серверга мурожаат қилмасдан, бир-бирларининг ахборот ҳамда ресурсларидан биргаликда фойдаланадиган тармоқ.

Изоҳ – Тўртта шахсий компьутердан иборат тармоқни, шу тўртта шахсий компьтернинг исталганида бўлган файлларга, тармоқдаги ҳар бир шахсий компьутерлар кира оладиган қилиб ташкил қилиш мумкин. Бундай тармоқда тақсимланган коммуникациялар технологиясидан фойдаланишни назарда тутди.

Однородная (гомогенная) сеть

uz - bir jinsli (gomogen) tarmoq
бир жинсли (гомоген)

тармоқ

en - homogeneous network

Сеть с однородной структурой, в которой используется совместимое оборудование и общие протоколы обмена.

Mos keladigan uskuna va umumiy almashuv protokollaridan foydalaniladigan, bir jinsli strukturaga ega tarmoq.

Мос келадиган ускуна ва умумий алмашув протоколларидан фойдаланиладиган, бир жинсли структурага эга тармоқ.

Односторонняя связь

uz - bir tomonlama aloqa

бир томонлама алоқа

en - one-way communication

Связь, при которой передача информации осуществляется только в одном направлении.

Axborotning uzatilishi faqat bitta yo‘nalishda amalga oshiriladigan aloqa.

Ахборотнинг узатилиши фақат битта йўналишда амалга ошириладиган алоқа.

О

Однотипная сота; сота с одинаковым частотным планом

uz - bir turdagi sota; bir xil chastota sohasiga ega sota

бир турдаги сота; бир хил частота соҳасига эга сота

en - cocell

Территориально удаленная сота, в которой информационный обмен обеспечивается в тех же полосах частот, что и в одной из сот, входящей в соседний кластер.

Axborot almashinuvi qo'shni klasterga kiruvchi yacheykalardan biridagi kabi, ayni shu chastotalar polosalarida ta'minlanadigan, hududiy jihatdan uzoqda joylashgan yacheyka (sota).

Ахборот алмашинуви қўшни кластерга кирувчи ячейкалардан биридаги каби, айти шу частоталар полосаларида таъминланадиган, ҳудудий жиҳатдан узоқда жойлашган ячейка (сота).

Одноуровневая сеть

uz - bir sathdagi tarmoq

бир сатҳдаги тармоқ

en - peer-to-peer network

Сеть, в которой всем абонентским терминалам предоставляются потенциально равные возможности доступа к сетевым ресурсам.

Barcha abonent terminallari tarmoq resurslaridan teng imkoniyatlar asosida foydalanadigan tarmoq.

Барча абонент терминаллари тармоқ ресурсларидан тенг имкониятлар асосида фойдаланадиган тармоқ.

Одобрение типа

uz - turni tasdiqlash

турни тасдиқлаш

en - approval

Сертификат, выданный разработчику средств связи на определенный класс изготавливаемого им оборудования. Наличие такого документа позволяет эксплуатировать оборудование без проведения индивидуальной сертификации.

Aloqa vositalari yaratuvchisiga uning tomonidan tayyorlanadigan ma'lum klassdagi uskunalar uchun berilgan sertifikat. Bunday hujjatning mavjudligi uskunani individual sertifikatlashtirishsiz ekspluatatsiya qilish imkonini beradi.

Алоқа воситалари яратувчисига унинг томонидан тайёрланадиган маълум классдаги ускуналар учун берилган сертификат. Бундай ҳужжатнинг мавжудлиги ускунани индивидуал сертификатлаштиришсиз эксплуатация қилиш имконини беради.

О

Ожидание вызова

uz - chaqiruvni kutish

чақирувни кутиш

en - call waiting

Постановка вызова в очередь при занятости линии вызываемого абонента с уведомлением вызываемого абонента о том, что к нему поступил новый вызов.

Chaqirilayotgan abonent liniyasi band bo'lganda, unga yangi chaqiruv kelib tushganligi haqida xabar berib, chaqiruvni navbatga qo'yish.

Чақирилаётган абонент линияси банд бўлганда, унга янги чақирув келиб тушганлиги ҳақида хабар бериб, чақирувни навбатга қўйиш.

Оказание (предоставление)

услуг

uz - xizmatlar ko'rsatish

(taqdim etish)

хизматлар кўрсатиш
(тақдим этиш)

en - rendering (providing)
services

Деятельность исполнителя услуги по приему, обработке, хранению, передаче и доставке сообщений.

Xizmatni bajaruvchining, xabarlarini qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va yetkazib berish bo'yicha faoliyati.

Хизматни бажарувчининг, хабарларини қабул қилиш, қайта ишлаш, сақлаш, узатиш ва етказиб бериш бўйича фаолияти.

Онлайновые технологии

uz - onlayn texnologiyalar

онлайн технологиялар

en - online technologies

Средства коммуникации сообщений в сетевом информационном пространстве, обеспечивающие синхронный обмен информацией в реальном времени: «разговорные каналы» (чаты), аудио и видеоконференции и др.

Tarmoq axborot makonida xabarlar kommunikatsiya vositalari. Real vaqtda axborot: «so'zlashuv kanallari» (chatlar), audio hamda videokonferensiyalar va b.lar, sinxron ayirboshlash imkoniyatini beradi.

Тармоқ ахборот маконида хабарлар коммуникация воситалари. Реал вақтда ахборот: «сўзлашув каналлари» (чатлар), аудио ҳамда видеоконференциялар ва б.лар, синхрон айирбошлаш имкониятини беради.

О

Оператор

uz - operator

оператор

en - operator

1 Квалифицированный специалист, выполняющий работу по управлению и обслуживанию оборудования.

2 Организация или физическое лицо, владеющие программно-аппаратными ресурсами и каналами связи и предоставляющие телекоммуникационные услуги.

3 Знак или символ производимой операции.

1 Uskunani boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajaruvchi malakali mutaxassis.

2 Dasturiy-apparat resurslari va aloqa kanallariga ega bo'lgan holda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilot yoki jismoniy shaxs.

3 O'tkaziladigan operatsiyaning belgisi yoki simvoli.

1 Ускунани бошқариш ва унга хизмат кўрсатиш бўйича ишларни бажарувчи малакали мутахассис.

2 Дастурий-аппарат ресурслари ва алоқа каналларига эга бўлган ҳолда телекоммуникация хизматларини тақдим этувчи ташкилот ёки жисмоний шахс.

3 Ўтказиладиган операциянинг белгиси ёки символи.

Оператор А-диапазона

uz - A-diapazon operatori

А-диапазон оператори

en - A-Band carrier

Компания сотовой связи, имеющая лицензию на работу в А-диапазоне частот.

Примечание – Термин, специфичен для американских систем, в которых весь частотный диапазон (800–900) МГц, отведенный для сотовой связи, поделен между двумя операторами, условно названными А и В. Исторически оператор А – это компания, оказывающая одновременно услуги проводной и беспроводной телефонной связи. Все мобильные телефоны запрограммированы для работы только в одном диапазоне (А или В), что означает возможность поиска каналов управления только одного вида.

Chastotalarning A-diapazonida ishlash uchun litsenziyaga ega bo'lgan sotali aloqa kompaniyasi.

Izoh – Atama Amerika tizimlari uchun xos bo'lib, ularda sotali aloqa uchun ajratilgan butun (800–900) MHz chastota diapazoni, shartli ravishda A va B operatorlari sifatida nomlangan ikki operator o'rtasida taqsimlangan. Tarixan, A operator bir vaqtning o'zida simli va simsiz telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya hisoblanadi. Barcha mobil telefonlar faqat bitta (A yoki B) diapazonda ishlash

О

uchun dasturlashtirilgan bo‘lib, bu ularning faqat bir turdagi boshqaruv kanallarini qidirish imkoniyatini ifodalaydi.

Частоталарнинг А-диапазонида ишлаш учун лицензияга эга бўлган сотали алоқа компанияси.

Изоҳ – Атама Америка тизимлари учун хос бўлиб, уларда сотали алоқа учун ажратилган бутун (800–900) МГц частота диапазони, шартли равишда А ва В операторлари сифатида номланган икки оператор ўртасида тақсимланган. Тарихан, А оператор бир вақтнинг ўзида симли ва симсиз телефон алоқаси хизматларини кўрсатувчи компания ҳисобланади. Барча мобил телефонлар фақат битта (А ёки В) диапазонда ишлаш учун дастурлаштирилган бўлиб, бу уларнинг фақат бир турдаги бошқарув каналларини қидириш имкониятини ифодалайди.

Оператор В-диапазона

uz - В-diapazon operatori

В-диапазон оператори

en - В-Band carrier

Компания сотовой связи, имеющая лицензию на работу в В-диапазоне частот.

Примечание – Термин специфичен для американских систем, в которых весь частотный диапазон (800–900) МГц, отведенный для сотовой связи, поделен пополам между двумя операторами, названными условно А и В. Исторически оператор В – это компания специализирующаяся на предоставлении услуг беспроводного доступа. Все мобильные телефоны запрограммированы для работы только в одном диапазоне (А или В), что означает возможность поиска каналов управления только одного вида (как запрограммирован терминал).

Chastotalarning В -diapazonida ishlash uchun litsenziyaga ega bo‘lgan sotali aloqa kompaniyasi.

Izoh – Атама Америка тизимларига хос бўлиб, уларда сотали алоқа учун ажратилган (800–900) МГц chastotalar diapazonining barchasi shartli ravishda А va В tarzida nomlanuvchi ikki operator o‘rtasida teng bo‘lingan. В-operatori tarixan simsiz foydalana olish xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan kompaniyadir. Barcha mobil telefonlar faqat bitta (А yoki В) diapazonda ishlash uchun dasturlashtirilgan bo‘lib, u faqat bitta turdagi boshqarish kanallarini qidirish imkoniyatini anglatadi (terminal dasturlashtirilgani kabi).

Частоталарнинг В-диапазонида ишлаш учун лицензияга эга бўлган сотали алоқа компанияси.

Изоҳ – Атама Америка тизимларига хос бўлиб, уларда сотали алоқа учун ажратилган (800–900) МГц частоталар диапазонининг барчаси шартли равишда А ва В тарзида номланувчи икки оператор ўртасида тенг бўлинган. В-оператори тарихан симсиз фойдалана олиш хизматларини кўрсатишга ихтисослашган компаниядир. Барча мо-

О

бил телефонлар фақат битта (А ёки В) диапазонда ишлаш учун дастурлаштирилган бўлиб, у фақат битта турдаги бошқариш каналларини қидириш имкониятини англатади (терминал дастурлаштирилгани каби).

Оператор виртуальной сети

uz - virtual tarmoq operatori

виртуал тармоқ оператори

en - virtual network operator

Компания, которая создает собственную виртуальную сеть на базе арендуемых ресурсов и сетевой инфраструктуры другого оператора. Оператор виртуальной сети предлагает свои пакеты услуг и тарифы, выступая на рынке под своей торговой маркой.

Boshqa operatorning ijaraga olinadigan resurslari va tarmoq infrastrukturasi negizida o'zining virtual tarmog'ini yaratuvchi kompaniya. Virtual tarmoq operatori xizmat ko'rsatish bozorida, o'z savdo markasi ostida, o'z xizmatlar paketi va tariflarini tavsiya qiladi.

Бошқа операторнинг ижарага олинadиган ресурслари ва тармоқ инфраструктураси негизида ўзининг виртуал тармоғини яратувчи компания. Виртуал тармоқ оператори хизмат кўрсатиш бозорида, ўз савдо маркаси остида, ўз хизматлар пакети ва тарифларини тавсия қилади.

Оператор местной связи

uz - mahalliy aloqa operatori

маҳаллий алоқа оператори

en - local exchange carrier (LEC)

Телекоммуникационная компания обычно телефонная, обслуживающая небольшой географический регион, называемый LATA.

LATA deb ataluvchi, uncha katta bo'lmagan geografik hududga xizmat ko'rsatuvchi telekommunikatsiya, odatda, telefon kompaniyasi.

LATA deb ataluvchi, uncha katta bo'lmagan geografik hududga xizmat ko'rsatuvchi telekommunikatsiya, odatda, telefon kompaniyasi.

Оператор связи

uz - aloqa operatori

алоқа оператори

en - communication operator

Юридическое лицо или индивидуальный предприниматель, оказывающий услуги связи на основании соответствующей лицензии.

Tegishli litsenziya asosida aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxs yoki yakka tadbirkor.

Тегишли лицензия асосида алоқа хизматларини кўрсатадиган юридик шахс ёки якка тadbirkor.

О

Оператор сети

uz - tarmoq operatori

тармоқ оператори

en - network operator

Компания, осуществляющая эксплуатацию сети и поддерживающая ее в работоспособном состоянии. Оператор сети может одновременно являться и поставщиком услуг.

Tarmoqning ekspluatatsiya qilinishini amalga oshiruvchi va uning ishga layoqatli holatini saqlab turuvchi kompaniya. Tarmoq operatori bir vaqtning o'zida xizmatlar ta'minotchisi ham bo'lishi mumkin.

Тармоқнинг эксплуатация қилинишини амалга оширувчи ва унинг ишга лаёқатли ҳолатини сақлаб турувчи компания. Тармоқ оператори бир вақтнинг ўзида хизматлар таъминотчиси ҳам бўлиши мумкин.

Оператор хот-спот

uz - hot-spot operatori

хот-спот оператори

en - hotspot operator (HSO)

Компания, которая установила и обслуживает коммерческие хот-споты в кафе, вокзалах, аэропортах и т.д.

Примечание – Из-за исторического разнообразия Wi-Fi компаний, HSO стремятся взаимодействовать друг с другом, вступая в роуминговые отношения через агрегаторов, таких как Quantum, что обеспечивает дополнительный спрос на их услуги и роуминг между всеми сетями Wi-Fi.

Kafe, vokzallar va aeroportlarda tijorat hot-spotlari o'rnatgan va ularga xizmat ko'rsatuvchi kompaniya.

Izoh – Wi-Fi kompaniyalarning tarixan turlitumanligi sababli, hot-spot operatorlar Quantum kabi agregatorlar orqali rouming munosabatlarga kirishib, HSO bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qilishga intilmoqda. Bu barcha Wi-Fi tarmoqlari o'rtasida rouming va xizmatlarga qo'shimcha talabni ta'minlaydi.

Кафе, вокзаллар ва аэропортларда тижорат хот-спотлари ўрнатган ва уларга хизмат кўрсатувчи компания.

Изоҳ – Wi-Fi компанияларнинг тарихан турли-туманлиги сабабли, хот-спот операторлар Quantum каби агрегаторлар орқали роуминг муносабатларга киришиб, HSO бир-бири билан ўзаро ҳамкорлик қилишга интилмоқда. Бу барча Wi-Fi тармоқлари ўртасида роуминг ва хизматларга қўшимча талабни таъминлайди.

О

Оповещение о вызове

uz - chaqiruv haqida xabar

чақирув ҳақида хабар

en - call alert

Сигнализация, осуществляемая путем подачи звукового сигнала или высвечивания на экране дисплея номера вызывающего абонента.

Примечание – Если необходимо вызвать абонента, который уже ведет разговор или находится вне зоны действия, то такой вызов запоминается в системе, и в момент, когда абонент становится доступен, он повторяется автоматически или по команде оператора.

Tovush signalini uzatish yoki chaqiruvchi abonent raqamini displey ekranida yoritish orqali amalga oshiriladigan signalizatsiya.

Izoh – Agar so‘zlashuv olib borayotgan yoki harakat zonasidan tashqarida turgan abonentni chaqirish zarur bo‘lsa, chaqiruv tizim tomonidan eslab qolinadi va abonent bilan bog‘lanishning imkoniyati tug‘ilganda, chaqiruv avtomatik tarzda yoki operator komandasiga binoan takrorlanadi.

Товуш сигналини узатиш ёки чақирувчи абонент рақамини дисплей экранида ёритиш орқали амалга ошириладиган сигнализация.

Изоҳ – Агар сўзлашув олиб бораётган ёки ҳаракат зонасидан ташқарида тurgан абонентни чақириш зарур бўлса, чақирув тизим томонидан эслаб қолинади ва абонент билан боғланишнинг имконияти туғилганда, чақирув автоматик тарзда ёки оператор командасига биноан такрорланади.

Опорный регистр местонахождения

uz - joylashgan yer tayanch
registri

жойлашган ер таянч

регистри

en - home location register

Регистр, в памяти которого постоянно хранятся текущее месторасположение и все параметры абонента подвижной станции.

Xotirasida ko‘chma (mobil) stansiya abonentining barcha parametrlari va joriy joylashuvi doimiy saqlanadigan registr.

Хотирасида кўчма (мобил) станция абонентининг барча параметрлари ва жорий жойлашуви доимий сақланадиган регистр.

Опрос

uz - so‘rov

сўров

en - polling

Способ централизованного сбора данных с удаленных терминалов, подключенных к общей линии связи. Опрос производится последовательно, что позволяет за один достаточно короткий период времени выявить все терминалы, нуждающиеся в обслуживании.

О

Umumiy aloqa liniyasiga ulangan olisdagi terminallardan, markazlashtirilgan tarzda ma'lumotlar to'plash usuli. So'rov izchil amalga oshiriladi, bu esa, qisqa vaqt ichida xizmat ko'rsatilishiga ehtiyoji bo'lgan barcha terminallarni aniqlash imkonini beradi.

Умумий алоқа линиясига уланган олисдаги терминаллардан, марказлаштирилган tarzda маълумотлар тўплаш усули. Сўров изчил амалга оширилади, бу эса, қисқа вақт ичида хизмат кўрсатилишига эҳтиёжи бўлган барча терминалларни аниқлаш имконини беради.

Опрос по мере готовности

uz - tayyorlik holati bo'yicha so'rov

тайёрлик ҳолати бўйича сўров

en - go-ahead polling

Метод доступа в сети с централизованной архитектурой, при котором опрашиваются лишь те рабочие станции, которые активны в данный момент.

Markazlashtirilgan arxitekturaga ega tarmoq-lardan foydalana olish usuli, unda faqat ayni damda aktiv holatda bo'lgan ishchi stansiyalar so'rab chiqiladi.

Марказлаштирилган архитектурага эга тармоқлардан фойдалана олиш усули, унда фақат айна дамда актив ҳолатда бўлган ишчи станциялар сўраб чиқилади.

Опытная эксплуатация

uz - tajribaviy ekspluatatsiya

тажрибавий эксплуатация

en - operation testing

Испытания системы или ее отдельных частей, проводимые в условиях, максимально приближенных к штатной эксплуатации.

Shtat ekspluatatsiya qilish sharoitiga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda, tizim yoki uning alohida qismlarini sinab ko'rish.

Штат эксплуатация қилиш шароитига максимал яқинлаштирилган шароитда, тизим ёки унинг алоҳида қисмларини синаб кўриш.

Организация ASCO

uz - ASCO tashkiloti

ASCO ташкилоти

en - arab satellite communications organization (ASCO)

Арабская организация спутниковой связи со штаб-квартирой в г. Эр-Рияд (Саудовская Аравия). Организация создана в 1976 г., сейчас в ее состав входят 22 арабских государства. Предоставляет услуги фиксированной и мобильной спутниковой связи.

Arab yo'ldoshli aloqa tashkiloti, qarorgohi Ar-Riyod

О

shahrida (Saudiya Arabistoni) joylashgan. Tashkilot 1976 yilda tashkil qilingan, hozirda uning tarkibiga 22 ta arab davlati kiradi. Qayd etilgan va mobil yoʻldoshli aloqa xizmatlarini koʻrsatadi.

Араб йўлдошли алоқа ташкилоти, қароргоҳи Ар-Риёд шаҳрида (Саудия Арабистони) жойлашган. Ташкилот 1976 йилда ташкил қилинган, ҳозирда унинг таркибига 22 та араб давлати киради. Қайд этилган ва мобил йўлдошли алоқа хизматларини кўрсатади.

Организация WAPForum
uz - WAPForum tashkiloti
WAPForum ташкилоти
en - WAPForum

Организация, созданная в 1997 году для разработки стандарта доступа к информации, находящейся в Интернет и в других сетях, при помощи беспроводных устройств. Организация была создана компаниями: Ericsson, Motorola, Nokia и Unwired Planet и сейчас включает более 175 членов, в том числе Microsoft.

Simsiz qurilmalar yordamida Internetda va boshqa tarmoqlarda boʻlgan axborotdan erkin foydalanish standartini ishlab chiqish maqsadida, 1997 yilda tuzilgan tashkilot. Bu tashkilot Ericsson, Motorola, Nokia va Unwired Planet kompaniyalari tomonidan tuzilgan, aʼzolarining soni 175 dan oshadi, ularning ichida Microsoft ham bor.

Симсиз қурилмалар ёрдамида Интернетда ва бошқа тармоқларда бўлган ахборотдан эркин фойдаланиш стандартини ишлаб чиқиш мақсадида, 1997 йилда тузилган ташкилот. Бу ташкилот Ericsson, Motorola, Nokia ва Unwired Planet компаниялари томонидан тузилган, аъзоларининг сони 175 дан ошади, уларнинг ичиди Microsoft ҳам бор.

Организация общей очереди
uz - umumiy navbatni tashkil etish
умумий навбатни ташкил этиш
en - shared queueing

Метод организации очереди, при котором данные накапливаются в буферном запоминающем устройстве, связанным со входами и выходами коммутационных элементов.

Navbatni tashkil etish metodi, bunda maʼlumotlar kommutatsiya elementlarining kirishi va chiqishi bilan bogʻlangan bufer хотирловчи қурилмادا тоʻplanadi.

О

Организация сети; сетеобразование

uz - tarmoqni tashkil etish;
tarmoqni hosil qilish

тармоқни ташкил этиш;
тармоқни ҳосил қилиш
en - networking

Органичность; естественное сочетание

uz - tabiiylik; tabiiy birikuv
табийлик; табиий бирикув
en - seartessness

Навбатни ташкил этиш методи, бунда маълумотлар коммутация элементларининг кириши ва чиқиши билан боғланган буфер хотирловчи қурилмада тўпланади.

Объединение в сеть абонентских станций и узлов связи с помощью маршрутизаторов, коммутаторов и линий связи различного типа (кабельных, радиорелейных, спутниковых и др.).

Marshrutizatorlar, kommutatorlar va turli xil aloqa liniyalari (kabelli, radioreleli, yoʻldoshli va boshqalar) yordamida abonent stansiyalari va aloqa uzellarini tarmoqqa birlashtirish.

Маршрутизаторлар, коммутаторлар ва турли хил алоқа линиялари (кабелли, радиорелели, йўлдошли ва бошқалар) ёрдамида абонент станциялари ва алоқа узелларини тармоққа бирлаштириш.

Отсутствие взаимных (перекрестных) искажений при передаче по одному каналу связи нескольких сигналов различного вида (например, данных и речи; данных и факсимильных изображений). Процесс интеграции разных программных и аппаратных средств остается для пользователя незаметным.

Bitta aloqa kanali boʻylab turli xildagi signallarni (masalan, maʼlumotlar va nutqlar, maʼlumotlar va faksimile tasvirlar) uzatishda oʻzaro (kesishadigan) xalaqitlarning boʻlmasligi. Turli dasturiy va apparat vositalarning integratsiyalashish jarayoni foydalanuvchi uchun sezilarsiz boʻlib qolaveradi.

Битта алоқа канали бўйлаб турли хилдаги сигналларни (масалан, маълумотлар ва нутқлар, маълумотлар ва факсимиле тасвирлар) узатишда ўзаро (кесишадиган) халақитларнинг бўлмаслиги. Турли дастурий ва аппарат воситаларнинг интеграциялашиш жараёни фойдаланувчи учун сезиларсиз бўлиб қолаверади.

О

Ориентация (определение направления)

uz - oriyyentatsiya (yoʻnalishni aniqlash)

ориентация (йўналишни аниқлаш)

en - orientation (determination of directivity)

1 Определение положения данной точки в пространстве.

2 Расположение в отношении стран света и окружающей местности.

3 Определение пространственного положения, например, лепестков диаграммы направленности антенны.

1 Nuqtaning fazodagi holatini aniqlash.

2 Yorugʻlik tomonlariga va atrof-muhitga nisbatan joylashish.

3 Fazoviy holatni, masalan, antenna yoʻnalganlik diagrammasi yaproqlarining holatini aniqlash.

1 Нуқтанинг фазодаги ҳолатини аниқлаш.

2 Ёруғлик томонларига ва атроф-муҳитга нисбатан жойлашиш.

3 Фазовий ҳолатни, масалан, антенна йўналганлик диаграммаси япроқларининг ҳолатини аниқлаш.

Ортогональные коды с переменным коэффициентом расширения

uz - oʻzgaruvchan kengayish koeffitsiyentiga ega ortogonal kodlar

ўзгарувчан кенгайиш коэффициентига эга ортогонал кодлар

en - orthogonal variable spreading factor codes (OVSF)

Ансамбль кодов с переменной длиной, определяемой коэффициентом расширения спектра SF. Такие коды формируются на основе кодового дерева, каждый последующий уровень которого удваивает число возможных кодовых комбинаций.

Spektrning kengayish koeffitsiyenti SF bilan belgilanadigan, oʻzgaruvchan uzunlikka ega boʻlgan kodlar ansambli. Bunday kodlar, navbatdagi har bir sathda mumkin boʻlgan kodli kombinatsiyalar sonini ikki marta oshiradigan kod daraxti asosida tuziladi.

Спектрнинг кенгайиш коэффициенти SF билан белгиланадиган, ўзгарувчан узунликка эга бўлган кодлар ансамбли. Бундай кодлар, навбатдаги ҳар бир сатҳда мумкин бўлган кодли комбинациялар сонини икки марта оширадиган код дарахти асосида тuzилади.

Ослабление сигнала в листве

uz - bargdagi signalning susayishi

Снижение уровня мощности сигнала или ухудшение качества связи вследствие поглощения радиоволн листвой деревьев.

О

баргдаги сигналнинг
сусайиши
en - foliage attenuation
of signal

Ослабление сигнала в осадках

uz - yog'inlar vaqtida
signalning susayishi
ёғинлар вақтида
сигналнинг сусайиши
en - attenuation of signal
in precipitation

Особо дефицитные ресурсы
uz - alohida kamyob resurslar
алоҳида камёб ресурслар
en - scarce resources

Radioto'lqinlarning daraxt barglari bilan yutilishi natijasida signal quvvati darajasining yoki aloqa sifatining pasayishi.

Радиотўлқинларнинг дарахт барглари билан ютилиши натижасида сигнал қуввати даражасининг ёки алоқа сифатининг пасайиши.

Ослабление сигнала в дожде, граде, снеге и туманах, обусловленное в основном рассеянием энергии и зависит от интенсивности осадков, соотношения между размерами частиц, составляющих осадки, и длиной волны, их температуры и агрегатного состояния.

Примечание – Исследования показывают, что наибольшее ослабление сигнала (при одинаковой интенсивности осадков по содержанию воды) имеет место при дожде.

Signalning yomg'ir, do'l, qor va tumanlarda susayishi, asosan energiyaning sochilishi bilan asoslanadi va yog'inlarning intensivligi, yog'inlarni tashkil qiluvchi qismlarning o'lchamlari o'rtasidagi nisbat, to'lqin uzunligi, ularning temperaturasi va agregat holatiga bog'liq bo'ladi.

Izoh – Tadqiqotlar shuni ko'rsadiki, signalning ko'proq susayishi (suvning tarkibiga ko'ra yog'inlarning bir xil intensivligida) yomg'ir vaqtiga to'g'ri keladi.

Сигналнинг ёмғир, дўл, қор ва туманларда сусайиши, асосан энергиянинг сочилиши билан асосланади ва ёғинларнинг интенсивлиги, ёғинларни ташкил қилувчи қисмларнинг ўлчамлари ўртасидаги нисбат, тўлқин узунлиги, уларнинг температураси ва агрегат ҳолатига боғлиқ бўлади.

Изоҳ – Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, сигналнинг кўпроқ сусайиши (сувнинг таркибига кўра ёғинларнинг бир хил интенсивлигида) ёмғир вақтига тўғри келади.

Ресурсы, которые по своей природе ограничены и вследствие этого являются дефицитными. К их числу обычно относят: рабочие полосы частот, орбитальные позиции в системах с космическим аппаратом на геостационарной орбите и др.

O'z tabiatiga ko'ra cheklangan va shuning oqibatida

О

kamyob bo'lgan resurslar. Ularning qatoriga quyidagilar kiradi: chastotalarning ishchi polosalari, geostatsionar orbitadagi kosmik apparatli tizimlarning orbital vaziyatlari va boshqalar.

Ўз табиатига кўра чекланган ва шунинг оқиба-тида камёб бўлган ресурслар. Уларнинг қаторига қуйидагилар кирди: частоталарнинг ишчи поло-салари, геостационар орбитадаги космик аппа-ратли тизимларнинг орбитал вазиятлари ва бош-қалар.

Остаточный коэффициент ошибок по битам

uz - bitlar bo'yicha xatolarning qoldiq koeffitsiyenti

битлар бўйича

хатоларнинг қолдик

коэффициенти

en - bit error residual ratio

Коэффициент ошибок по битам при отсутствии замирания, включающий допуск на внутрисистемные ошибки, влияние окружающей среды, эффекты старения и долговременные помехи.

Tinish bo'lmagan holatda bitlar bo'yicha xatolar koeffitsiyenti, sistema ichidagi xatolarga qo'yimlarni, atrof muhit ta'sirini, eskirish effektlarini va uzoq muddatli xalaqlarni ichiga oladi.

Тиниш бўлмаган ҳолатда битлар бўйича хатолар коэффициенти, система ичидаги хатоларга қўйимларни, атроф муҳит таъсирини, эскириш эффектрларини ва узоқ муддатли халақтларни ичига олади.

Остронаправленная антенна

uz - keskin yo'naltirilgan

antenna

кескин йўналтирилган

антенна

en - high-directivity antenna

Антенна, у которой основная доля излучаемой или принимаемой мощности сконцентрирована в узком телесном угле.

Nurlanadigan yoki qabul qilinadigan quvvatning asosiy ulushi tor fazoviy burchakda to'plangan antenna.

Нурланадиган ёки қабул қилинадиган қувватнинг асосий улуши тор фазовий бурчакда тўпланган антенна.

Отказ (от радиоканала)

uz - rad etish (radiokanaldan

foydalanishni)

Прекращение использования услуг связи из-за недопустимо низкого качества в канале.

Kanaldagi sifat yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada

О

рад этиш (радиоканалдан
фойдаланишни)
en - retinishment

Открытая система

uz - ochiq tizim
очик тизим
en - open system

past bo‘lishi tufayli, aloqa xizmatlaridan foydalanishning to‘xtatilishi.

Каналдаги сифат йўл қўйиб бўлмайдиган даражада паст бўлиши туфайли, алоқа хизматларидан фойдаланишнинг тўхтатилиши.

Система, реализованная на базе открытых спецификаций на интерфейсы и форматы данных, а ее составные элементы удовлетворяют требованиям открытых промышленных стандартов.

Примечание – Архитектура такой системы обладает возможностями дальнейшего наращивания и ориентирована на совместную работу с другими прикладными системами.

Ochiq spetsifikatsiyalar negizida interfeyslar va ma'lumotlar formatlari asosida ishlaydigan tizim, uning tarkibiy elementlari ochiq sanoat standartlari talablarini qanoatlantiradi.

Izoh – Bunday tizimning arxitekturasi keyinchalik o‘sib borish imkoniyatlariga ega va boshqa amaliy tizimlar bilan hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan.

Очиқ спецификациялар негизида интерфейслар ва маълумотлар форматлари асосида ишлайдиган тизим, унинг таркибий элементлари очик sanoat standartlari талабларини қаноатлантиради.

Изоҳ – Бундай тизимнинг архитектураси кейинчалик ўсиб бориш имкониятларига эга ва бошқа амалий тизимлар билан ҳамкорликда ишлашга йўналтирилган.

Открытый канал

uz - ochiq kanal
очик канал
en - open channel

Канал типа «точка – многоточка», временно закрепленный за определенной группой абонентов для ведения переговоров без выполнения каких-либо установочных процедур (регистрации, поиска свободных каналов и т.п.).

Примечание – Термин используется в системах транкинговой связи. Применение открытого канала повышает оперативность связи за счет снижения времени вхождения в связь. Режим открытого канала является привилегированным, так выделенные для него частотные ресурсы недоступны для остальных абонентов и групп, работающих в системе, если они не обладают соответствующим приоритетом.

O

Qandaydir buyurtma (protseduralarni qayd etish, bo'sh kanallarni qidirish va h.k) larni bajarmasdan turib so'zlashuvlar olib borish uchun abonentlarning maxsus guruhiga vaqtincha birlashtirib qo'yilgan «nuqta – ko'p nuqta» turidagi kanal.

Izoh – Atama trunking aloqa tizimlarida ishlatiladi. Ochiq kanalning qo'llanilishi, aloqaga kirishish vaqtini kamaytirish hisobiga aloqaning tezkorligini oshiradi. Ochiq kanal rejimi imtiyozlidir, chunki uning uchun ajratilgan chastotaviy resurslar tizimda ishlab turgan boshqa abonentlar va guruhlar uchun, agar ular alohida vakolatga ega bo'lmasa, yopiq (foydalanib bo'lmaydigan) hisoblanadi.

Қандайдир буюртма (процедураларни қайд этиш, бўш каналларни қидириш ва ҳ.к) ларни бажармасдан туриб сўзлашувлар олиб бориш учун абонентларнинг махсус гуруҳига вақтинча бириктириб қўйилган «нуқта – кўп нуқта» туридаги канал.

Изоҳ – Атама транкинг алоқа тизимларида ишлатилади. Очиқ каналнинг қўлланилиши, алоқага киришиш вақтини камайтириш ҳисобига алоқанинг тезкорлигини оширади. Очиқ канал режими имтиёзлидир, чунки унинг учун ажратилган частотавий ресурслар тизимда ишлаб турган бошқа абонентлар ва гуруҳлар учун, агар улар алоҳида ваколатга эга бўлмаса, ёпиқ (фойдаланиб бўлмайдиган) ҳисобланади.

Открытый стандарт

uz - ochiq standart

очик стандарт

en - open standard

Стандарт, использующий общепринятые интерфейсы и протоколы, которые обеспечивают совместимость оборудования разных производителей и сетей разных телекоммуникационных компаний. Такой стандарт публикуется и свободно распространяется.

Turli ishlab chiqaruvchilarning uskunalari va turli telekommunikatsiya kompaniyalari tarmoqlarining moslashuvini ta'minlaydigan umume'tirof qilingan interfeys va protokollardan foydalanuvchi standart. Bunday standart nashr qilinadi va erkin tarqatiladi.

Турли ишлаб чиқарувчиларнинг ускуналари ва турли телекоммуникация компаниялари тармоқларининг мослашувини таъминлайдиган умум-этироф қилинган интерфейс ва протоколлардан фойдаланувчи стандарт. Бундай стандарт нашр қилинади ва эркин тарқатилади.

О

Открыть кратчайший путь/маршрут первым

uz - eng qisqa yo'l/yo'nalishni birinchi bo'lib ochmoq

ЭНГ ҚИСҚА ЙЎЛ/ЙЎНАЛИШНИ

биринчи бўлиб очмоқ

en - open shortest path first (OSPF)

Протокол сетевой маршрутизации, используемый в IP-сетях, таких как Интернет, который определяет самый короткий путь к каждому узлу сети.

Internet kabi IP-tarmoqlarda foydalaniladigan tarmoq marshrutlashtirish protokoli. Tarmoqdagi har bir uzalgacha bo'lgan eng qisqa yo'lni belgilaydi.

Интернет каби IP-тармоқларда фойдаланиладиган тармоқ маршрутлаштириш протоколи. Тармоқдаги ҳар бир узелгача бўлган энг қисқа йўлни белгилайди.

Отношение сигнал/шум

uz - signal/shovqin nisbati

сигнал/шовқин нисбати

en - signal-to-noise ratio (SNR)

1 Отношение мощности полезного сигнала к спектральной плотности аддитивного шума, измеренное в определенный момент времени в заданной точке приемника, например, на входе демодулятора.

2 Отношение напряжения полезного сигнала к напряжению шума, которые измерены в определенный момент времени в заданной точке приемника.

Примечание – В обоих случаях отношение сигнал/шум выражается в децибелах, однако при его определении следует четко различать вид шума. В частности, если шум импульсный, то в расчет принимается пиковое значение, а для случайного шума среднеквадратичное значение.

1 Ma'lum vaqt davomida qabulqilgichning belgilangan nuqtasida, masalan, demodulyatorning kirishida, o'lgangan foydali signal quvvatining additiv shovqinning spektral zichligiga nisbati.

2 Ma'lum vaqt davomida qabulqilgichning belgilangan nuqtasida o'lgangan foydali signal kuchlanishining shovqin kuchlanishiga nisbati.

Izoh – Har ikki holatda ham signal/shovqin nisbati detsibel-larda ifodalanadi, biroq uni aniqlash paytida shovqin turini aniq tafovutlash lozim. Jumladan, agar shovqin impulsli bo'lsa, uning cho'qqi qiymati, agar shovqin tasodifiy bo'lsa, uning o'rtacha kvadratik qiymati hisobga olinadi.

О

1 Маълум вақт давомида қабулқилгичнинг белгиланган нуқтасида, масалан, демодуляторнинг киришида, ўлчанган фойдали сигнал қувватининг аддитив шовқиннинг спектрал зичлигига нисбати.

2 Маълум вақт давомида қабулқилгичнинг белгиланган нуқтасида ўлчанган фойдали сигнал кучланишининг шовқин кучланишига нисбати.

Изоҳ – Ҳар икки ҳолатда ҳам сигнал/шовқин нисбати децибелларда ифодаланади, бироқ уни аниқлаш пайтида шовқин турини аниқ тафовутлаш лозим. Жумладан, агар шовқин импульсли бўлса, унинг чўққи қиймати, агар шовқин тасодифий бўлса, унинг ўртача квадратик қиймати ҳисобга олинади.

Отношение сигнал/шум квантования

uz - kvantlashning
signal/shovqin nisbati

квантлашнинг
сигнал/шовқин нисбати
en - signal-to-quantization
noise ratio (SQNR)

Показатель, характеризующий степень искажений, вносимых в полезный сигнал, в процессе его квантования. Численно равен отношению амплитуды выходного сигнала к среднеквадратичному значению шума квантования.

Kvantlash jarayonida, foydali signalga kiritiladigan buzilishlar darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich. Son jihatidan chiqish signali amplitudasining, kvantlash shovqinining o'rtacha kvadratik qiymatiga bo'lgan nisbatga teng.

Квантлаш жараёнида, фойдали сигналга киритиладиган бузилишлар даражасини тавсифловчи кўрсаткич. Сон жиҳатидан чиқиш сигнали амплитудасининг, квантлаш шовқинининг ўртача квадратик қийматига бўлган нисбатга тенг.

Отстройка

uz - chastotani o'zgartirish
chastotani ўзгартириш

en - out-tuning

Изменение рабочей частоты приемника с целью снижения уровня помех в рабочей полосе радиостанции.

Radiostansiyaning ishchi polosasidagi xalaqit-lar darajasini pasaytirish maqsadida, qabulqilgich ishchi chastotasini o'zgartirish.

Радиостанциянинг ишчи полосасидаги халақитлар даражасини пасайтириш мақсадида, қабулқилгич ишчи частотасини ўзгартириш.

О

Оценка качества услуг связи
uz - aloqa xizmatlari sifatini baholash

алоқа хизматлари сифатини баҳолаш
en - evaluation quality of communication service

Определение показателей качества услуг связи с учетом достоверности и/или точности количественных значений.

Miqdor qiymatlarning ishonchliligi va/yoki aniqligi hisobga olingan holda, aloqa xizmatlari sifat ko'rsatkichlarini belgilash.

Миқдор қийматларнинг ишончлилиги ва/ёки аниқлиги ҳисобга олинган ҳолда, алоқа хизматлари сифат кўрсаткичларини белгилаш.

Ошибочный доступ
ru - yanglish foydalana olish
янглиш фойдаланиш
en - failure access

Получение доступа в результате ошибочного обращения или случайного отказа, изменившего конфигурацию системы.

Tizimning konfiguratsiyasini o'zgartiruvchi yanglish murojaat yoki tasodifiy nosozlik natijasida foydalanishga ruxsat berilishi.

Тизимнинг конфигурациясини ўзгартирувчи янглиш мурожаат ёки тасодифий носозлик натижасида фойдаланишга рухсат берилиши.

П

Пакет
uz - paket
пакет
en - packet

1 Единица информации, которую компьютер или другие устройства передают друг другу по сети. Когда информация передается компьютером по сети (например, текстовый файл), она передается в виде последовательности пакетов. Помимо полезной (пользовательской) информации, в пакете передаются адреса компьютеров отправки и назначения и служебная информация.

2 Производственная единица информации, передаваемая по сети или по каналу связи. Размер пакета определяется используемым протоколом, но в принципе пакет – это набор байтов, содержащий собственно передаваемые данные и информацию об отправителе и адресате.

1 Kompyuter yoki boshqa qurilmalar tarmoq orqali bir-biriga uzatadigan axborot birligi. Axborot (masalan, matnli fayl) kompyuter orqali uzatilganda, u paketlar ketma-ketligi ko'rinishida uzatiladi. Foydali

II

axborotdan tashqari, paketda joʻnatuvchi va oluvchi kompyuterlar adreslari hamda xizmatga oid axborot ham uzatiladi.

2 Tarmoq boʻylab yoki aloqa kanali orqali uzatiladigan axborotning ishlab chiqarish birligi. Paket oʻlchami foydalaniladigan protokol bilan belgilanadi, lekin paket uzatiladigan maʼlumotlarni va joʻnatuvchi hamda adresat toʻgʻrisidagi axborotni ichiga oladigan baytlar toʻplamidir.

1 Компьютер ёки бошқа курилмалар тармоқ орқали бир-бирига узатадиган ахборот бирлиги. Ахборот (масалан, матнли файл) компьютер орқали узатилганда, у пакетлар кетма-кетлиги кўринишида узатилади. Фойдали ахборотдан ташқари, пакетда жўнатувчи ва олувчи компьютерлар адреслари ҳамда хизматга оид ахборот ҳам узатилади.

2 Тармоқ бўйлаб ёки алоқа канали орқали узатиладиган ахборотнинг ишлаб чиқариш бирлиги. Paket ўлчами фойдаланиладиган протокол билан белгиланади, лекин пакет узатиладиган маълумотларни ва жўнатувчи ҳамда адресат тўғрисидаги ахборотни ичига оладиган байтлар тўпламидир.

Пакетная коммутация

uz - paketli kommutatsiya

пакетли коммутация

en - packet switch

1 Метод передачи данных, обеспечивающий последовательную передачу пакетов от одного узла к другому. Пакетная коммутация не предполагает занятие канала между источником и получателем пакетов в течение всего сеанса обмена информацией.

2 Технология передачи информации в базовой сети, которая предусматривает разбивку информационного массива на пакеты данных, проходящие через сеть к месту назначения по различным маршрутам, что является привлекательным для мобильного доступа, поскольку радиодиапазон используется здесь лишь во время фактической передачи данных. Альтернатива – коммутация каналов. GPRS пакетная технология, разработанная для цифровых сетей мобильной связи. Коммутация пакетов замедляет взаимодействие двух отдельных клиентов сети, но в целом поз-

II

воляет значительно увеличить объем передаваемых в сети данных.

1 Paketlarning bir uzeldan ikkinchisiga ketma-ket uzatilishini ta'minlaydigan, ma'lumotlar uzatish metodi. Paketli kommutatsiya axborot almashinishning butun seansi mobaynida paketlar manbai va oluvchisi o'rtasida kanal band etilishini ko'zda tutmaydi.

2 Tayanch tarmoqda axborot uzatish texnologiyasi. Turli marshrutlar bo'ylab tarmoq orqali tayinlangan joyga o'tadigan axborot massivining ma'lumotlar paketlariga ajratilishini ko'zda tutadi, bu radiodiyapazondan ma'lumotlarni haqiqatda uzatish vaqtida foydalanilganligi sababli, mobil foydalana olishda qulaydir. Kanallar kommutatsiyasining muqobili. Mobil aloqa raqamli tarmoqlari uchun ishlab chiqilgan GPRS paketli texnologiyadir. Paketlar kommutatsiyasi tarmoqdagi ikki alohida mijozning birgalikda ishlashini sekinlashtiradi, lekin umuman olganda, tarmoqda uzatiladigan ma'lumotlar hajmini sezilarli oshirish imkonini beradi.

1 Пакетларнинг бир узелдан иккинчисига кетма-кет узатилишини таъминлайдиган, маълумотлар узатиш методи. Пакетли коммутация ахборот алмашинишнинг бутун сеанси мобайнида пакетлар манбаи ва олувчиси ўртасида канал банд этилишини кўзда тутмайди.

2 Таянч тармоқда ахборот узатиш технологияси. Турли маршрутлар бўйлаб тармоқ орқали тайинланган жойга ўтадиган ахборот массивининг маълумотлар пакетларига ажратилишини кўзда тутди, бу радиодиапазондан маълумотларни ҳақиқатда узатиш вақтида фойдаланилганлиги сабабли, мобил фойдалана олишда қулайдир. Каналлар коммутациясининг муқобили. Мобил алоқа рақамли тармоқлари учун ишлаб чиқилган GPRS пакетли технологиядир. Пакетлар коммутацияси тармоқдаги икки алоҳида mijozning биргаликда ишлашини секинлаштиради, лекин умуман олганда, тармоқда узатиладиган маълумотлар ҳажмини сезиларли ошириш имконини беради.

П

Пакетная передача данных

uz - ma'lumotlarni paketli

uzatish

маълумотларни пакетли

узатиш

en - packet bursting

Техника пакетной передачи, помещает большее количество данных в один кадр. Поскольку в каждый пакет можно вставить больше несформированных данных, обеспечивается не только доставка большего количества данных, но и уменьшается количество трафика в сети. Пакетная передача данных преобразует длинный двоичный код в простые уравнения, в результате чего уменьшается общее количество 0 и 1, передаваемых по сети. Эта технология определена как один из методов повышения производительности в проекте стандарта IEEE 802.11 e.

Paketli uzatish texnikasi, katta miqdordagi ma'lumotlarni bitta kadrqa joylashtiradi. Har bir paketga ko'proq shakllantirilmagan ma'lumotlarni kiritish mumkin bo'lganligi sababli, nafaqat katta miqdorda ma'lumotlar yetkazish, balki tarmoqdagi trafik sonining kamayishi ta'minlanadi. Ma'lumotlarni paketli uzatish uzun ikkilik kodni oddiy tenglamalarga aylantiradi, natijada tarmoq orqali uzatiladigan 0 va 1 ning umumiy soni kamayadi. Bu texnologiya IEEE 802.11 e standarti loyihasida unumdorlikni oshirish metodlaridan biri sifatida belgilangan.

Пакетли узатиш техникаси, катта миқдордаги маълумотларни битта кадрга жойлаштиради. Ҳар бир пакетга кўпроқ шакллантирилмаган маълумотларни киритиш мумкин бўлганлиги сабабли, нафақат катта миқдорда маълумотлар етказиш, балки тармоқдаги трафик сонининг камайиши таъминланади. Маълумотларни пакетли узатиш узун иккилик кодни оддий тенгламаларга айлантиради, натижада тармоқ орқали узатиладиган 0 ва 1 нинг умумий сони камаяди. Бу технология IEEE 802.11 e стандарти лойиҳасида унумдорликни ошириш методларидан бири сифатида белгиланган.

Пакетная передача данных

по цифровым каналам

сотовой связи

uz - sotali aloqaning raqamli

kanallari bo'ylab ma'lumotlarni

Передача данных в дуплексном режиме со скоростью в радиоканале 19,2 Kbit/s. Данные передаются пакетами длиной 138 byte в паузах между разговорами или по выделенным каналам связи (информационная скорость (9,0–14,4) Kbit/s).

П

paketli uzatish

сотали алоқанинг рақамли каналлари бўйлаб

маълумотларни пакетли узатиш

en - cellular digital packet data (CDPD)

Пакетный «пробник»

Интернет

uz - Internet paketli

«sinagich»

Интернет пакетли

«синагич»

en - packet internet groper (PING)

Параболическая антенна

uz - parabolik antenna

параболик антенна

en - parabolic aerial, parabolic antenna

Dupleks rejimida radiokanal bo'ylab ma'lumotlarni 19,2 Kbit/s tezlikda uzatish. Ma'lumotlar so'zlashuvlar orasidagi pauzalarda yoki ajratilgan aloqa kanallari bo'ylab uzunligi 138 baytli paketlar bilan uzatiladi (axborot tezligi (9,0–14,4) Kbit/s).

Дуплекс режимида радиоканал бўйлаб маълумотларни 19,2 Kbit/s тезликда узатиш. Маълумотлар сўзлашувлар орасидаги паузаларда ёки ажратилган алоқа каналлари бўйлаб узунлиги 138 байтли пакетлар билан узатилади (ахборот тезлиги (9,0–14,4) Kbit/s).

Проверка соединения между управляемым устройством и другим устройством, которое работает с IP пакетами, в IP сети. Во время PING теста управляемое устройство посылает ICMP пакеты другому устройству с указанным IP адресом и ждет возвращения пакетов. Узел должен иметь возможность приема ICMP пакетов и их отправки.

Boshqariladigan qurilma va IP tarmoqda IP paketlar bilan ishlaydigan boshqa qurilma orasida bog'lanishni tekshirish. PING test paytida boshqariladigan qurilma ICMP paketlarni IP adresi ko'rsatilgan boshqa qurilmaga jo'natadi va paketlarning qaytishini kutadi. Uzel ICMP paketlarni qabul qilish va ularni jo'natish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Бошқариладиган қурилма ва IP тармоқда IP пакетлар билан ишлайдиган бошқа қурилма орасида боғланишни текшириш. PING тест пайтида бошқариладиган қурилма ICMP пакетларни IP адреси кўрсатилган бошқа қурилмага жўнатади ва пакетларнинг қайтишини кутади. Узел ICMP пакетларни қабул қилиш ва уларни жўнатиш имкониятига эга бўлиши керак.

Зеркальная антенна, в которой для фокусировки электромагнитной энергии в нужном направлении в качестве отражателя используют металлическую или металлизированную поверхность параболической формы, например, параболоид вращения или параболический цилиндр.

II

Ko'zguли antenna, unda elektromagnit energiyani fokuslash uchun kerakli yo'nalishda qaytargich sifatida metall yoki metall bilan qoplangan parabolik shakldagi sirtдан, masalan, aylantirish paraboloidi yoki parabolik silindrdan foydalaniladi.

Кўзгули антенна, унда електромагнит энергияни фокуслаш учун керакли йўналишда қайтаргич сифатида металл ёки металл билан қопланган параболлик шаклдаги сиртдан, масалан, айлантериш параболоиди ёки параболлик цилиндрдан фойдаланилади.

Паразитный отклик;

побочный канал приема

uz - parazit javob; qo'shimcha qabul qilish kanali

паразит жавоб; қўшимча қабул қилиш канали

en - spurious response

Любой сигнал на частоте, лежащей вне полосы пропускания приемника, но оказывающий мешающее воздействие при приеме полезного сигнала. Под побочным каналом приема подразумевается полоса частот, попадая в которую мешающий сигнал при определенных условиях способен проникнуть на выход приемника. Данное явление свойственно исключительно супергетеродинным приемникам, в которых каналы побочного приема образуются в процессе частотного преобразования сигналов.

Процедура распределения каналов, при которой в тех сотах, где возникает избыточный трафик, число рабочих каналов увеличивается за счет заимствования их из сот со сравнительно низким трафиком. Процедура выполняется автоматически.

Kanallarni taqsimlash protsedurasi, bunda ortiqcha trafik paydo bo'lgan sotalar (yacheykalar)ning ishchi kanallari soni, nisbatan kamroq trafikli yacheykalar-dan o'zlashtirish hisobiga ko'paytiriladi. Protsedura avtomatik ravishda bajariladi.

Каналларни тақсимлаш процедураси, бунда ортиқча трафик пайдо бўлган соталар (ячейкалар)нинг ишчи каналлари сони, нисбатан камроқ трафикли ячейкалардан ўзлаштириш ҳисобига кўпайтирилади. Процедура автоматик равишда бажарилади.

Распределение спектра частот

uz - chastotalar spektrini taqsimlash

частоталар спектрини тақсимлаш

en - spectrum allocation

Упорядоченная процедура разделения сплошного спектра на участки, которые выделяются различным службам: связи, телерадиовещанию, радионавигации, астрономии и др. На международном уровне такое деление спектра закреплено в Регламенте радиосвязи, содержащем таблицу распределения полос частот между службами в пределах от 9 kHz до 275 GHz. В отличие от спутниковой связи, где распределение спектра производится на «всемирной основе», в наземной мобильной связи спектр считается национальным природным ресурсом и находится в ведении национальных и региональных частотных органов. Поэтому в разных регионах мира используются разные подходы к распределению частотного ресурса для наземной подвижной связи.

P

Yalpi spektrni turli xizmatlarga: aloqa, teleradio-eshittirishlar, radionavigatsiya, astronomiya va b.lar-ga ajratib beriladigan uchastkalarga tartibli taqsim-lash protsedurasi. Xalqaro miqyosda spektrning bun-day bo‘linishi radioaloqalar Reglamentida tasdiqlab qo‘yilgan va u 9 kHz dan to 275 GHz chegarada xizmatlar o‘rtasida chastotalar polosalarining taq-simlanish jadvaliga ega. Spektrning taqsimlanishi «umumjahon asosi» da amalga oshiriluvchi yo‘l-doshli aloqadan farqli o‘laroq, yer usti mobil aloqa-sida spektr milliy tabiiy resurs hisoblanadi hamda u milliy va hududiy chastota organlari tasarrufida bo‘ladi. Shuning uchun dunyoning turli mintaqalari-da yer usti mobil aloqasi uchun chastotalar resursi taqsimotida turli yondashuvlar mavjud.

Ялпи спектрни турли хизматларга: алоқа, теле-радиоэшиттиришлар, радионавигация, астроно-мия ва б.ларга ажратиб бериладиган участкалар-га тартибли тақсимлаш процедураси. Халқаро миқёсда спектрнинг бундай бўлиниши радиоало-қалар Регламентида тасдиқлаб қўйилган ва у 9 kHz дан то 275 GHz чегарада хизматлар ўрта-сида частоталар полосаларининг тақсимланиш жадвалига эга. Спектрнинг тақсимланиши «умумжаҳон асоси» да амалга оширилувчи йўл-дошли алоқадан фарқли ўлароқ, ер усти мобил алоқасида спектр миллий табиий ресурс ҳисо-бланади ҳамда у миллий ва ҳудудий частота ор-ганлари тасарруфида бўлади. Шунинг учун ду-нённинг турли минтақаларида ер усти мобил алоқаси учун частоталар ресурси тақсимотида турли ёндашувлар мавжуд.

Распределенная функция координации

uz - taqsimlangan muvofiq-lashtirish funksiyasi

тақсимланган мувофиқ-лаштириш функцияси

en - distributed coordination function (DCF)

Часть стандарта 802.11, определяющая как стан-ции должны конкурировать за право доступа к среде передачи. Для регулирования трафика сети DCF использует технологию CSMA.

802.11 standartining bir qismi, stansiyalar uzatish muhitidan foydalanish huquqi uchun qanday raqo-batlashishlari kerakligini belgilaydi. DCF tarmog‘i trafikini tartibga solish uchun CSMA texnologiya-sidan foydalaniladi.

Р

802.11 стандартининг бир қисми, станциялар узатиш муҳитидан фойдаланиш ҳуқуқи учун қандай рақобатлашишлари кераклигини белгилайди. DCF тармоғи трафикини тартибга солиш учун CSMA технологиясидан фойдаланилади.

Распределитель пропускной способности

uz - o'tkazish qobiliyatini taqsimlagich

ўтказиш қобилиятини тақсимлагич

en - bandwidth allocator

Устройство, программа или протокол, обеспечивающие управление распределением пропускной способности сети (подсети) и обычно контролирующей доступ к имеющимся ресурсам.

Tarmoq (kichik tarmoq)ning o'tkazish qobiliyati taqsimlanishining boshqarilishini ta'minlovchi qurilma, dastur yoki protokol bo'lib, u odatda, mavjud resurslardan foydalana olishni nazorat qiladi.

Тармоқ (кичик тармоқ)нинг ўтказиш қобилияти тақсимланишининг бошқарилишини таъминловчи қурилма, дастур ёки протокол бўлиб, у одатда, мавжуд ресурслардан фойдалана олишни назорат қилади.

Распределитель ресурса

uz - resurs taqsimlagich

ресурс тақсимлагич

en - resource allocator

Элемент системы, который управляет распределением общих ресурсов между пользователями и контролирует доступ к имеющимся ресурсам. Различают два типа распределителей ресурса: статические, определяющие ресурсы до начала работы, и динамические, выделяющие их в процессе работы системы.

Umumiy resurslarning foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishini boshqaradigan va mavjud resurslardan foydalana olishni nazorat qiladigan, tizim elementi. Resurs taqsimlagichning ikki turi farq qilindi: resurslarni ish boshlangunga qadar aniqlovchi statik va ularni tizimning ishlash jarayonida ajratib beruvchi dinamik taqsimlagich.

Умумий ресурсларнинг фойдаланувчилар ўртасида тақсимланишини бошқарадиган ва мавжуд ресурслардан фойдалана олишни назорат қилдиган, тизим элементи. Ресурс тақсимлагичнинг икки тури фарқ қилинади: ресурсларни иш бошлангунга қадар аниқловчи статик ва уларни тизимнинг ишлаш жараёнида ажратиб берувчи динамик тақсимлагич.

Р

Распределительная система

uz - taqsimlash tizimi

тақсимлаш тизими

en - distribution system

Проводная система, обеспечивающая физическое соединение точек доступа в беспроводной локальной сети. Наиболее часто используемой распределительной системой в беспроводных локальных сетях является Ethernet.

Simsiz lokal tarmoqda kirish nuqtalarining fizik bog'lanishini ta'minlaydigan simli tizim. Simsiz lokal tarmoqlarda eng ko'p foydalaniladigan taqsimlash tizimi Ethernet hisoblanadi.

Симсиз локал тармоқда кириш нуқталарининг физик боғланишини таъминлайдиган симли тизим. Симсиз локал тармоқларда энг кўп фойдаланиладиган тақсимлаш тизими Ethernet хисобланади.

Рассеяние

uz - sochilish

сочилиш

en - scatter

Изменение направления распространения радиоволн вследствие их отражения от препятствий или при прохождении через неоднородную среду.

Radioto'lqinlarning to'siqlardan qaytishi yoki bir jinsli bo'lmagan muhitdan o'tishi natijasida ular tarqalish yo'nalishining o'zgarishi.

Радиотўлкинларнинг тўсиқлардан қайтиши ёки бир жинсли бўлмаган муҳитдан ўтиши натижа-сида улар тарқалиш йўналишининг ўзгариши.

Рассинхронизация

uz - sinxronsizlanganlik

синхронсизланганлик

en - mistiming

Разница во времени приема синхросигналов.

Sinxrosignallarni qabul qilishdagi vaqt bo'yicha farq.

Синхросигналларни қабул қилишдаги вақт бўйи-ча фарқ.

Расстояние когерентности

uz - kogerentlik masofasi

когерентлик масофаси

en - coherence distance

Минимальное пространственное расстояние, на которое должны быть разнесены антенны для того, чтобы принимаемые сигналы были слабо коррелированы, т.е. их коэффициент взаимной когерентности становится ниже своего минимально допустимого значения.

Р

Qabul qilinadigan signallar kuchsiz korrelyatsiyalangan bo'lishi uchun, antennalar tarqoq holda o'rnatilishi kerak bo'lgan minimal fazoviy masofa, ya'ni bunda ularning o'zaro kogerentlik koeffitsiyenti o'zining minimal yo'l qo'yiladigan qiymatidan past bo'ladi.

Қабул қилинадиган сигналлар кучсиз корреляцияланган бўлиши учун, антенналар тарқоқ ҳолда ўрнатилиши керак бўлган минимал фазовий масофа, яъни бунда уларнинг ўзаро когерентлик коэффиценти ўзининг минимал йўл қўйиладиган қийматидан паст бўлади.

Расстояние прямой видимости

uz - to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish masofasi

тўғридан-тўғри кўриниш масофаси

en - line-of-sight distance

Расстояние между передающей и приемной антеннами (в условиях отсутствия рефракции), при котором прямая линия, соединяющая эти антенны, касается земной поверхности.

Uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalar o'rtasidagi masofa bo'lib (refraksiya bo'lmagan sharoitlarda), bunda ushbu antennalarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq yer yuzasiga tegadi.

Узатувчи ва қабул қилувчи антенналар ўртасидаги масофа бўлиб (рефракция бўлмаган шароитларда), бунда ушбу антенналарни туташтирувчи тўғри чизик ер юзасига тегади.

Растянутый диапазон частот

uz - cho'zilgan chastotalar diapazoni

чўзилган частоталар диапазони

en - spreaded band

Небольшой участок полосы частот, расширенный на всю шкалу настройки приемника.

Qabulqilgichni sozlash shkalasi bo'yicha kengaytirilgan, chastotalar polosasining uncha katta bo'lmagan uchastkasi.

Қабулқилгични созлаш шкаласи бўйича кенгайтирилган, частоталар полосасининг унча катта бўлмаган участкаси.

Растянутый импульс

uz - cho'zilgan impuls

чўзилган импульс

en - stretched pulse

Импульс на входе приемника, длительность которого значительно больше, чем у исходного, что обусловлено возникновением многолучевых искажений сигнала.

Р

Qabulqilgich kirishidagi, davomiyligi signalning ko'p nurli buzilishlari paydo bo'lishi evaziga dastlabki impulsnikidan ancha katta bo'lgan impuls.

Қабулқилгич киришидаги, давомийлиги сигналнинг кўп нурли бузилишлари пайдо бўлиши эвазига дастлабки импульсникидан анча катта бўлган импульс.

Расширение

uz - kengaytirish

кенгайтириш

en - spreading

1 Метод преобразования сигнала, основанный на управляемом расширении его полосы частот. Расширенная полоса становится избыточной по отношению к исходной информационной полосе частот. При приеме осуществляется обратное преобразование, позволяющее восстановить исходный сигнал без искажений.

2 Вид искажений, связанный с «растягиванием» сигнала по длительности в каналах с многолучевым распространением радиоволн.

1 Signalni, uning chastotalar polosasini boshqariluvchi kengaytirishga asoslangan o'zgartirish (qayta ishlash) metodi. Kengaytirilgan polosa chastotalarning boshlang'ich informatsion polosasiga nisbatan ortiqchalik qiladi. Qabul paytida, dastlabki signalni buzilishlarsiz tiklashga imkon beradigan qayta o'zgartirishlar amalga oshiriladi.

2 Radioto'lqinlar ko'p nurli tarqaladigan kanallarda signalning davomiyligi bo'yicha «cho'zilishi» bilan bog'liq buzilishlar turi.

1 Сигнални, унинг частоталар полосасини бошқарилувчи кенгайтиришга асосланган ўзгартириш (қайта ишлаш) методи. Кенгайтирилган полоса частоталарнинг бошланғич информатсион полосасига нисбатан ортиқчалик қилади. Қабул пайтида, дастлабки сигнални бузилишларсиз тиклашга имкон берадиган қайта ўзгартиришлар амалга оширилади.

2 Радиотўлқинлар кўп нурли тарқаладиган каналларда сигналнинг давомийлиги бўйича «чўзилиши» билан боғлиқ бузилишлар тури.

Р

Расширение спектра

uz - spektrni kengaytirish

спектрни кенгайтириш

en - spread spectrum, spectral splatter

1 Расширение спектра несущего сигнала на большую, чем необходимо для его передачи, часть частотного диапазона. Основные способы расширения спектра – метод прямой последовательности и переключение частоты.

2 Появление в спектре побочных частотных составляющих, которые отсутствовали в исходном сигнале. Расширение спектра обычно происходит за счет нелинейных искажений сигнала в передатчике.

1 Eltuvchi signal spektrini chastota diapazonining, signalni uzatish uchun zarur bo‘lganiga qaraganda kattaroq qismiga kengaytirish. Spektrni kengaytirishning asosiy usullari bo‘lib, to‘g‘ri ketma-ketlik metodi va chastotani o‘zgartirish hisoblanadi.

2 Spektrda boshlang‘ich signalda bo‘lmagan yondosh chastota tashkil etuvchilarning poydo bo‘lishi. Spektrni kengaytirish odatda, uzatkichda signalning nochiziqli buzilishlari hisobiga yuz beradi.

1 Элтувчи сигнал спектрини частота диапазонинг, сигнални узатиш учун зарур бўлганига қараганда каттароқ қисмига кенгайтириш. Спектрни кенгайтиришнинг асосий усуллари бўлиб, тўғри кетма-кетлик методи ва частотани ўзгартириш ҳисобланади.

2 Спектрда бошланғич сигналда бўлмаган ёндosh частота ташкил этувчиларнинг пойдо бўлиши. Спектрни кенгайтириш одатда, узаткичда сигналнинг ночизикли бузилишлари ҳисобига юз беради.

Расширение спектра

методом прямой

последовательности

uz - to‘g‘ri ketma-ketlik metodi bilan spektrni kengaytirish

тўғри кетма-кетлик методи билан спектрни кенгайтириш

en - direct sequence spread sequence (DSSS)

Метод формирования широкополосного сигнала, при котором исходный двоичный сигнал преобразуется в псевдослучайную последовательность для манипуляции несущей. Поток передаваемых данных разбивается на небольшие кусочки, каждому из которых выделяется широкополосный канал. На передающем конце информационный сигнал комбинируется с последовательностью битов, передаваемых с более высокой скоростью, которая разделяет данные в соответствии с коэффициентом расширения. В эфир

Р

передается шумоподобный сигнал, обладающий всеми свойствами аддитивного «белого» шума. Расширение спектра сигнала в n раз с использованием DSSS позволяет уменьшить спектральную плотность мощности сигнала во столько же раз. Беспроводные локальные сети стандарта 802.11b используют технологию расширения спектра методом прямой последовательности.

Keng polosali signalni shakllantirish metodi. Bunda boshlang'ich ikkilik signal eltuvchini manipulyatsiya qilish uchun psevdotasodifiy ketma-ketlikka aylantiriladi. Uzatiladigan ma'lumotlar oqimi, har biriga keng polosali kanal ajratiladigan kichik bo'laklarga bo'linadi. Uzatiladigan tomonda axborot signali yuqori tezlik bilan uzatiladigan, ma'lumotlarni kengayish koeffitsiyentiga muvofiq ajratadigan bitlar ketma-ketligi bilan biriktiriladi. Efirga, additiv «oq» shovqinning barcha xossalari ega bo'lgan shovqinsimon signal uzatiladi. Signal spektrini DSSS dan foydalanib n marta kengaytirish signal quvvati spektral zichligini shuncha marta kamaytirish imkonini beradi. 802.11b standartining simsiz lokal tarmoqlarida spektrni to'g'ri ketma-ketlik metodi bilan kengaytirish texnologiyasidan foydalaniladi.

Кенг полосали сигнални шакллантириш методи. Bunda boshlang'ich ikkilik signal eltuvchini manipulyatsiya qilish uchun psevdotasodifiy ketma-ketlikka aylantiriladi. Uzatiladigan ma'lumotlar oqimi, har biriga keng polosali kanal ajratiladigan kichik bo'laklarga bo'linadi. Uzatiladigan tomonda axborot signali yuqori tezlik bilan uzatiladigan, ma'lumotlarni kengayish koeffitsiyentiga muvofiq ajratadigan bitlar ketma-ketligi bilan biriktiriladi. Efirga, additiv «oq» shovqinning barcha xossalari ega bo'lgan shovqinsimon signal uzatiladi. Signal spektrini DSSS dan foydalanib n marta kengaytirish signal quvvati spektral zichligini shuncha marta kamaytirish imkonini beradi. 802.11b standartining simsiz lokal tarmoqlarida spektrni to'g'ri ketma-ketlik metodi bilan kengaytirish texnologiyasidan foydalaniladi.

Р

Расширение спектра скачкообразной перестройкой частоты

uz - chastotani sakrashsimon qayta o'zgartirish bilan spektrni kengaytirish

частотани сакрашсимон қайта ўзгартириш билан спектрни кенгайтириш

en - frequency hopping spread spectrum (FHSS)

Один из двух подходов к передаче радиосигнала с расширяемым спектром. Характеризуется тем, что несущая частота псевдослучайным образом «скачет» в пределах определенного диапазона в соответствии с определенной схемой переключения. Технология переключения частоты используется в старых беспроводных локальных сетях стандарта 802.11.

Spektri kengayadigan radiosignalni uzatishga bo'lgan ikki yondashuvdan biri. Ertuvchi chastota ma'lum bir qayta ulash sxemasiga muvofiq, ma'lum bir diapazon chegarasida psevdotasodifiy ravishda «sakraydi». Chastotani o'zgartirish texnologiyasidan 802.11 standartining eski simsiz lokal tarmoqlarida foydalaniladi.

Спектри кенгайдиган радиосигнални узатишга бўлган икки ёндашувдан бири. Эртувчи частота маълум бир қайта улаш схемасига мувофиқ, маълум бир диапазон чегарасида псевдотасодифий равишда «сакрайди». Частотани ўзгартириш технологиясидан 802.11 стандартининг эски симсиз локал тармоқларида фойдаланилади.

Расширение спектра с псевдослучайной перестройкой во времени

uz - vaqt bo'yicha psevdotasodifiy qayta sozlash bilan spektrni kengaytirish

вақт бўйича псевдотасодифий қайта созлаш билан спектрни кенгайтириш
en - time hopping spread spectrum (THSS)

Метод широкополосной связи, при котором информационный сигнал сжимается во времени и передается в виде короткого пакета в случайные моменты времени, определяемые с помощью псевдослучайной последовательности.

Keng polosali aloqa metodi, bunda axborot signali vaqt bo'yicha siqiladi va qisqa paket ko'rinishida, psevdotasodifiy ketma-ketlik yordamida aniqlanadigan tasodifiy vaqt onida uzatiladi.

Кенг полосали алоқа методи, бунда ахборот сигнали вақт бўйича сиқилади ва қисқа пакет кўринишида, псевдотасодифий кетма-кетлик ёрдамида аниқланадиган тасодифий вақт онида узатилади.

Р

Расширяемость

uz - kengayuvchanlik

кенгаювчанлик

en - extensibility

Возможность функционального наращивания системы путем добавления новых элементов или замены старых на более совершенные.

Yangi elementlarni qo'shish yoki eskilarini mukammalroqlariga almashtirish yo'li bilan, tizimning funksional imkoniyatini kengaytirish.

Янги элементларни қўшиш ёки эскиларини мукамалроқларига алмаштириш йўли билан, тизимнинг функционал имкониятини кенгайтириш.

Расширяемый протокол

аутентификации

uz - kengayadigan

autentifikatsiya qilish protokoli

кенгаядиган

аутентификация қилиш

протоколи

en - extensible authentication

protocol (EAP)

Гибкий протокол аутентификации, первоначально спроектированный для аутентификации в протоколе PPP, а позже включенный в стандарт 802.1x.

Dastlab PPP protokolida autentifikatsiya qilish uchun loyihalashtirilgan, keyinchalik 802.1x standartiga kiritilgan, moslashuvchan autentifikatsiya qilish protokoli.

Дастлаб PPP протоколида аутентификация қилиш учун лойихалаштирилган, кейинчалик 802.1x стандартига киритилган, мослашувчан аутентификация қилиш протоколи.

Расширяемый язык

гипертекстовой разметки

uz - kengayadigan

gipermatnli belgilash tili

кенгаядиган

гиперматнли белгилаш тили

en - EXtensible markup

language (XML)

Один из языков для создания веб-страниц. Открытый стандарт, поддерживаемый форумом W3C. Аналогично HTML использует структуру тегов, однако, в отличие от HTML, определяет не отображение элементов гипертекстового документа, а содержание этих элементов. Кроме того, XML предоставляет разработчику возможность определения и введения собственных тегов. XML поддерживает электронные транзакции в системах B2B и, как ожидается, станет доминирующим форматом электронного документооборота.

Veb-sahifalarni yaratish uchun mo'ljallangan tillardan biri. W3C forumi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ochiq standart. HTML ga o'xshash tarzda, teglar strukturasidan foydalaniladi, biroq, HTMLdan farqli ravishda, gipermatnli hujjat elementlarining tasvirini emas, balki shu elementlarning mazmu-nini belgilaydi. Bundan tashqari, XML ishlab chiquvchiga o'z teglarini aniqlash va kiritish imkoniyatini be-

Р

radi. XML B2B tizimlarida elektron tranzaksiyalarni ta'minlaydi va kutilayotganidek, elektron hujjat aylanishida yetakchi format bo'ladi.

Веб-саҳифаларни яратиш учун мўлжалланган тиллардан бири. W3C форуми томонидан қўллаб-қувватланадиган очик стандарт. HTML га ўхшаш тарзда, теглар структурасидан фойдаланилади, бироқ, HTML дан фарқли равишда, гиперматнли хужжат элементларининг тасвирини эмас, балки шу элементларнинг мазмунини белгилайди. Бундан ташқари, XML ишлаб чиқувчига ўз тегларини аниқлаш ва киритиш имкониятини беради. XML B2B тизимларида электрон транзакцияларни таъминлайди ва кутилаётганидек, электрон хужжат айланишида етакчи формат бўлади.

Расширяющая кодовая последовательность

uz - kengaytiruvchi kodli ketma-ketlik

кенгайтирувчи кодли кетма-кетлик

en - spreading code (spreading sequence)

Кодовая последовательность, применяемая для расширения спектра в системах с кодовым разделением сигнала, например, в DS-CDMA.

Signalni kodi bo'yicha ajratish tizimlarida, masalan, DS-CDMA da spektrni kengaytirish uchun qo'llaniladigan kodli ketma-ketlik.

Сигнални коди бўйича ажратиш тизимларида, масалан, DS-CDMA да спектрни кенгайтириш учун қўлланиладиган кодли кетма-кетлик.

Расщепление; разделение

uz - parchalash; ajratish

парчалаш; ажратиш

en - splitting

Разбиение зоны обслуживания, потока данных или сигнала на несколько частей.

Xizmat ko'rsatish zonasi, ma'lumotlar oqimi yoki signalni bir necha qismga bo'lish.

Хизмат кўрсатиш зонаси, маълумотлар оқими ёки сигнални бир неча қисмга бўлиш.

Регенерация; обновление

uz - regeneratsiya qilish;

yangilanish

регенерация қилиш;

янгилашиш

en - refresh

Процедура восстановления частично искаженной цифровой информации или элементов изображения.

Qisman buzilgan raqamli axborot va tasvir elementlarini tiklash protsedurasi.

Қисман бузилган рақамли ахборот ва тасвир элементларини тиклаш процедураси.

Р

Регион; зона; район

uz - region; zona; rayon

регион; зона; район

en - region

Часть Земного шара, в пределах которой действуют единые правила распределения полос частот. Весь земной шар условно поделен (рекомендации ИТУ) на три района, для каждого из которых в Регламенте радиосвязи содержатся свои требования.

Yer sharining, doirasida chastotalar polosalari taqsimlanishining yagona qoidalari amal qiladigan qismi. Butun Yer shari shartli ravishda uchta rayonga bo'lingan bo'lib, (ITU tavsiyalari), Radioaloqalar Reglamentida ularning har biri uchun tegishli talablar mavjud.

Er шарининг, доирасида частоталар полосалари тақсимланишининг ягона қоидалари амал қиладиган қисми. Бутун Ер шари шартли равишда учта районга бўлинган бўлиб, (ИТУ тавсиялари), Радиоалоқалар Регламентида уларнинг ҳар бири учун тегишли талаблар мавжуд.

Регистр идентификации оборудования

uz - uskunani identifikatsiya

qilish registri

ускунани идентификация
қилиш регистри

en - equipment identification
register (EIR)

Централизованная база данных системы связи, обычно содержащая три списка идентификационных номеров оборудования мобильных станций (IMEI): белый, черный и серый. В белом списке хранятся номера станций, зарегистрированных на текущий момент. В черный список включены номера украденных станций, или тех абонентов, которым было отказано в обслуживании. В серый список вносятся все номера станций, у которых существуют проблемы с регистрацией, но они еще не перенесены в черный список.

Aloqa tizimining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi, u odatda, mobil stansiyalar uskunalari identifikatsiya raqamlari (IMEI)ning uchta ro'yxatini saqlaydi: oq, qora va kul rang. Oq ro'yxatda ayni paytgacha ro'yxatdan o'tgan stansiyalarning raqami saqlanadi. Qora ro'yxatga o'g'irlangan stansiyalar yoki xizmat ko'rsatish rad etilgan abonentlarning raqami kiritilgan. Kul rang ro'yxatga hali qora ro'yxatga ko'chirilmagan, ro'yxatdan o'tish bilan bog'liq muammolari bo'lgan barcha stansiyalarning raqami kiritiladi.

Р

Алоқа тизимининг марказлаштирилган маълумотлар базаси, у одатда, мобил станциялар ускуналари идентификация рақамлари (IMEI)нинг учта рўйхатини сақлайди: оқ, қора ва кул ранг. Оқ рўйхатда айни пайтгача рўйхатдан ўтган станцияларнинг рақами сақланади. Қора рўйхатга ўғирланган станциялар ёки хизмат кўрсатиш рад этилган абонентларнинг рақами киритилган. Кул ранг рўйхатга ҳали қора рўйхатга кўчирилмаган, рўйхатдан ўтиш билан боғлиқ муаммолари бўлган барча станцияларнинг рақами киритилади.

Регистр местоположения подвижного абонента

uz - mobil abonent joylashgan
yer registri

мобил абонент жойлашган
ер регистри

en - visitor location register
(VLR)

База данных сети подвижной связи, в которой хранятся сведения о перемещениях абонентов. На каждой базовой станции существует свой регистр (VLR), который содержит данные об абонентах своей и «чужой» зон. Накопленная информация хранится временно – только до тех пор, пока абонент остается зарегистрированным в конкретной географической зоне. При перемещении абонента из одной зоны в другую данные о его местоположении автоматически обновляются.

Mobil aloqa tarmog'ining ma'lumotlar bazasi, unda abonentlarning ko'chib yurishi haqidagi ma'lumotlar saqlanadi. Har bir tayanch stansiyada o'zining zonasi va «begona» zonalarning abonentlari haqidagi ma'lumotlarni saqlaydigan registr (VLR) bo'ladi. Yig'ilgan axborot vaqtincha, ya'ni abonent aniq geografik zonada qayd etilgan vaqt davomida saqlanadi. Abonent bir zonadan boshqasiga ko'chib o'tganida, u joylashgan yer haqidagi ma'lumotlar avtomatik ravishda yangilanadi.

Мобил алоқа тармоғининг маълумотлар базаси, унда абонентларнинг кўчиб юриши ҳақидаги маълумотлар сақланади. Ҳар бир таянч станцияда ўзининг зонаси ва «бегона» зоналарнинг абонентлари ҳақидаги маълумотларни сақлайдиган регистр (VLR) бўлади. Йиғилган ахборот вақтинча, яъни абонент аниқ географик зонада

Р

Регистрация вызовов

uz - chaqiruvlarni qayd qilish

чақирувларни қайд қилиш

en - call logging

қайд этилган вақт давомида сақланади. Абонент бир зонадан бошқасига қўчиб ўтганида, у жойлашган ер ҳақидаги маълумотлар автоматик равишда янгиланади.

Запоминание всех поступающих вызовов по определенному номеру и регистрация детальной информации о вызовах в файле сбора статистики.

Ma'lum raqamga kelib tushadigan barcha chaqiruvlarni eslab qolish va statistik to'plam faylida chaqiruvlar haqidagi batafsil axborotni qayd qilish.

Маълум рақамга келиб тушадиган барча чақирувларни эслаб қолиш ва статистик тўплам файлида чақирувлар ҳақидаги батафсил ахборотни қайд қилиш.

Регистрация по изменению параметров

uz - parametrlarning o'zgarishiga qarab qayd qilish

параметрларнинг ўзгаришига қараб қайд қилиш

en - parameter-change registration

Метод регистрации мобильных станций, основанный на периодическом анализе передаваемой кодовой последовательности. В случае ее несоответствия с хранящимся в базе данных эталон, осуществляется повторная регистрация.

Mobil stansiyalarni qayd qilish metodi. Uzatiladigan kodli ketma-ketlikni davriy ravishda tahlil qilishga asoslangan. Ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan etalon bilan mos tushmaganda, takror qayd etish amalga oshiriladi.

Мобил станцияларни қайд қилиш методи. Узатиладиган кодли кетма-кетликни даврий равишда таҳлил қилишга асосланган. Маълумотлар базасида сақланаётган эталон билан мос тушмаганда, такрор қайд этиш амалга оширилади.

Регистрация при включении питания

uz - ta'minot ulanganda qayd qilish

таъминот уланганда қайд қилиш

en - power-up registration

Метод автоматической регистрации радиостанции перед началом ее работы, т.е. в момент включения питания.

Ishlash oldidan, ya'ni ta'minot ulangan paytda radiostansiyani avtomatik qayd etish metodi.

Ишлаш олдида, яъни таъминот уланган пайтда радиостанцияни автоматик қайд этиш методи.

Р

Регистрация; документирование

uz - qayd qilish;

hujjatlashtirish

қайд қилиш;

хужжатлаштириш

en - registration

Процедура проверки прав и полномочий пользователя при входе в систему. В мобильной связи используется более сложная процедура регистрации, при которой проверяются не только права и полномочия абонента, но и выполняется идентификация оборудования абонента с целью исключения использования станции-двойников.

Tizimga kirishda, foydalanuvchining huquq va vakolatlarini tekshirish protsedurasi. Mobil aloqada murakkabroq qayd etish protsedurasi qo'llanilib, unda abonentning nafaqat huquq va vakolatlari tekshiriladi, balki o'xshash stansiyalardan foydalanishni bartaraf qilish maqsadida, abonent uskunolari identifikatsiya ham qilinadi.

Тизимга киришда, фойдаланувчининг ҳуқуқ ва ваколатларини текшириш процедураси. Мобил алоқада мураккаброқ қайд этиш процедураси қўлланилиб, унда абонентнинг нафақат ҳуқуқ ва ваколатлари текширилади, балки ўхшаш станциялардан фойдаланишни бартараф қилиш мақсадида, абонент ускуналари идентификация ҳам қилинади.

Регламент радиосвязи

uz - radioaloqa reglamenti

радиоалоқа регламенти

en - radio regulations

Сборник основных положений, принятых на Всемирных радиоконференциях (WRC). Регламентирует на международном уровне распределение полос частот, порядок их использования, нормы на радиоизлучение, а также правила координации работы отдельных радиослужб. Проблемы распределения радиоспектра в мире начали заниматься с 1903 г. и с тех пор наблюдается неуклонная тенденция роста верхней границы распределяемого спектра частот. Таблица распределения частот в действующем Регламенте охватывает полосы частот от 9 kHz до 275 GHz.

Umumjahon radiokonferensiyasi (WRC)da qabul qilingan asosiy qoidalar to'plami. Xalqaro miqyosda chastotalar polosalarining taqsimlanishi, ulardan foydalanish tartibi, radionurlanish normalari, shuningdek, alohida radioxizmatlar ishini muvofiqlashtirish qoidalarini tartibga soladi. Radiospektr taqsimoti muammolari bilan dunyoda 1903 yildan beri

Р

shugʻullaniladi va shundan beri, taqsimlanuvchi chastotalar spektrining yuqori chegarasi toʻxtovsiz oʻsib bormoqda. Amaldagi Reglamentda chastotalarning taqsimlanish jadvali 9 kHz dan 275 GHz gacha boʻlgan chastotalar polosasini oʻz ichiga olgan.

Умумжаҳон радиоконференцияси (WRC)да қабул қилинган асосий қоидалар тўплами. Халқаро миқёсда частоталар полосаларининг тақсимланиши, улардан фойдаланиш тартиби, радионурланиш нормалари, шунингдек, алоҳида радиохизматлар ишини мувофиқлаштириш қоидаларини тартибга солади. Радиоспектр тақсимоти муаммолари билан дунёда 1903 йилдан бери шуғулланилади ва шундан бери, тақсимланувчи частоталар спектрининг юқори чегараси тўхтовсиз ўсиб бормоқда. Амалдаги Регламентда частоталарнинг тақсимланиш жадвали 9 kHz дан 275 GHz гача бўлган частоталар полосасини ўз ичига олган.

Регулировка уровня
uz - darajani sozlash
 даражани созлаш
en - leveling

- 1 Установление заданного уровня сигнала или выходной мощности путем подачи управляющего сигнала на регулирующий орган.
- 2 Выравнивание уровня нагрузки в сети с целью избежания ее перегрузки.
- 3 Сглаживание пульсаций в выпрямленном напряжении.

- 1 Boshqaruvchi organga boshqarish signalini uzatish orqali signal yoki chiqish quvvatining zarur darajasini oʻrnatish.
- 2 Tarmoqda, uning ortiqcha yuklanishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida, yuklama darajasini tenglashtirish.
- 3 Toʻgʻrilangan kuchlanishda pulsatsiyani silliqlash.

- 1 Бошқарувчи органга бошқариш сигналини узатиш орқали сигнал ёки чиқиш қувватининг зарур даражасини ўрнатиш.
- 2 Тармоқда, унинг ортиқча юкланишига йўл қўймаслик мақсадида, юклама даражасини тенглаштириш.

- 3 Тўғриланган кучланишда пульсацияни силлиқлаш.

Р

Режекция спектра

uz - spektr rejeksiyasi

спектр режекцияси

en - spectral notching

Метод борьбы с мощными узкополосными помехами, основанный на вырезании из спектра полезного сигнала узких полос частот, в которых сосредоточена основная мощность мешающего сигнала.

Kuchli tor polosali xalaqitlarga qarshi kurash metodi. Xalaqit signalining asosiy quvvati jamlangan chastotalarning tor polosasini foydali signal spektridan olib tashlashga asoslangan.

Кучли тор полосали халакитларга қарши кураш методи. Халақит сигналининг асосий қуввати жамланган частоталарнинг тор полосасини фойдали сигнал спектридан олиб ташлашга асосланган.

Режим infrastructure

uz - infrastructure rejimi

infrastructure режими

en - infrastructure mode

Режим, в котором беспроводная сеть использует как точку доступа, через которую ПК, оборудованные средствами беспроводной связи, соединяются друг с другом и с локальной сетью. Для адаптеров беспроводной связи точка доступа представляет собой концентратор беспроводной сети.

Simsiz tarmoqdan, simsiz aloqa vositalari bilan jihozlangan ShK lar o'zaro va lokal tarmoq bilan birlashtiriladigan foydalana olish nuqtasi sifatida foydalaniladigan rejim. Simsiz aloqa adapterlari uchun foydalana olish nuqtasi simsiz tarmoq konsentratörini o'zida ifodalaydi.

Симсиз тармоқдан, симсиз алоқа воситалари билан жиҳозланган ШК лар ўзаро ва локал тармоқ билан бирлаштириладиган фойдалана олиш нуқ-таси сифатида фойдаланиладиган режим. Симсиз алоқа адаптерлари учун фойдалана олиш нуқтаси симсиз тармоқ концентраторини ўзида ифодайди.

Режим асинхронной передачи

uz - asinxron uzatish

rejimi

асинхрон узатиш

режими

en - asynchronous transfer mode (ATM)

1 Универсальная транспортная сеть для передачи неоднородного трафика: данных, голоса и видео. Примечание – Коммутируемые сети, на которые распространяется этот стандарт, обеспечивают гарантированное качество услуг, что имеет принципиальное значение в случае передачи, например, видео или аудио, где потеря пакетов приводит к выпадению кадров изображения или речи. В зависимости от объема трафика могут быть организованы ATM-каналы со скоростью передачи в

Р

1,5 Mbit/s, 25 Mbit/s, 100 Mbit/s, 155 Mbit/s, 622 Mbit/s, 2488 Mbit/s и 9953 Mbit/s, при этом данная технология позволяет избегать простоя каналов.

2 Режим передачи, который использует разбиение данных на ячейки. Ячейки имеют длину 53 byte; их передача осуществляется с помощью виртуальных соединений. Сеть АТМ использует виртуальные соединения для передачи трафика через высокоскоростные коммутаторы от передающего оборудования клиента к принимающему оборудованию клиента.

1 Bir xil bo'lmagan trafikni: ma'lumotlar, ovoz va videoni uzatish uchun mo'ljallangan universal transport tarmog'i.

Izoh – Bu standart tatbiq qilinadigan kommutatsiyalanadigan tarmoqlar xizmatlar sifati kafolatlanishini ta'minlaydi, paketlarning yo'qolishi tasvir kadrlari yoki nutq tushib qolishiga olib keladigan video yoki audioni uzatishda prinsipial ahamiyat kasb etadi. Trafikning hajmiga bog'liq ravishda, uzatish tezligi 1,5 Mbit/s, 25 Mbit/s, 100 Mbit/s, 155 Mbit/s, 622 Mbit/s, 2488 Mbit/s va 9953 Mbit/s bo'lgan ATM kanallari tuzilishi mumkin. Texnologiya kanallar bo'sh turib qolishining oldini olish imkonini beradi.

2 Ma'lumotlarning yacheykalarga ajratilishidan foydalaniladigan uzatish rejimi. Yacheykalarning uzunligi 53 byte; ularni uzatish virtual bog'lanishlar yordamida amalga oshiriladi. АТМ tarmog'i trafikni yuqori tezlikli kommutatorlar orqali mijozning uzatuvchi uskunasidan qabul qiluvchi uskunasi ga uzatish uchun virtual bog'lanishlardan foydalanadi.

1 Бир хил бўлмаган трафикни: маълумотлар, овоз ва видеони узатиш учун мўлжалланган универсал транспорт тармоғи.

Изоҳ – Бу стандарт татбиқ қилинадиган коммутацияланадиган тармоқлар хизматлар сифати кафолатланишини таъминлайди, пакетларнинг йўқолиши тасвир кадрлари ёки нутқ тушиб қолишига олиб келадиган видео ёки аудиони узатишда принципиал аҳамият касб этади. Трафикнинг ҳажмига боғлиқ равишда, узатиш тезлиги 1,5 Mbit/s, 25 Mbit/s, 100 Mbit/s, 155 Mbit/s, 622 Mbit/s, 2488 Mbit/s ва 9953 Mbit/s бўлган АТМ каналлари тузилиши мумкин. Технология каналлар бўш туриб қолишининг олдини олиш имконини беради.

2 Маълумотларнинг ячейкаларга ажратилишидан фойдаланиладиган узатиш режими. Ячейкалар-

Р

нинг узунлиги 53 byte; уларни узатиш виртуал боғланишлар ёрдамида амалга оширилади. АТМ тармоғи трафикни юқори тезликли коммутаторлар орқали мижознинг узатувчи ускунасидан қабул қилувчи ускунасига узатиш учун виртуал боғланишлардан фойдаланади.

Режим бегущей волны

uz - yuguruvchi to‘lqin rejimi

югурувчи тўлқин
режими

en - traveling-wave mode

Режим, при котором нагрузка линии полностью (без отражения) поглощает направляемую ей энергию волны.

Liniya yuklamasi to‘liq (qaytishsiz) u yo‘naltiradigan to‘lqin energiyasini yutadigan rejim.

Линия юкламаси тўлиқ (қайтишсиз) у йўналтирадиган тўлқин энергиясини ютадиган режим.

Режим одноранговой сети

Ad Hoc

uz - Ad Hoc teng darajadagi tarmoq rejimi

Ad Hoc тенг даражадаги
тармоқ режими

en - Ad Hoc

Один из двух режимов работы беспроводной локальной сети.

Примечание – В такой конфигурации возможно создание беспроводной локальной сети, в которой беспроводные станции могут непосредственно обмениваться данными друг с другом без использования точек доступа к сети. Сеть ad hoc, объединяющая соответствующим образом оборудованные компьютеры, дает пользователям возможность быстро обмениваться файлами при условии нахождения в пределах радиуса действия других компьютеров.

Simsiz lokal tarmoq ikki ish rejimidan biri.

Izoh – Bunday konfiguratsiyada simsiz stansiyalar tarmoqqa kirish nuqtalaridan foydalanmasdan, bir-biri bilan bevosita ma’lumotlar almashina oladigan simsiz lokal tarmoq vujudga keltirish mumkin. Tegishlicha jihozlangan kompyuterlarni birlashtiradigan ad Hoc tarmog‘i foydalanuvchilarga boshqa kompyuterlarning ishlash radiusi chegarasida bo‘linganda, tezda fayllarni almashinish imkoniyatini beradi.

Симсиз локал тармоқ икки иш режимидан бири.

Изоҳ – Бундай конфигурацияда симсиз станциялар тармоққа кириш нуқталаридан фойдаланмасдан, бир-бири билан бевосита маълумотлар алмашина оладиган симсиз локал тармоқ вужудга келтириш мумкин. Тегишлича жиҳозланган компьютерларни бирлаштирадиган ad Hoc тармоғи фойдаланувчиларга бошқа компьютерларнинг ишлаш радиуси чегарасида бўлинганди, тезда файлларни алмашиниш имкониятини беради.

Р

Режим поочередной передачи

uz - navbatma-navbat uzatish rejimi

навбатма-навбат узатиш режими

en - ping-pong mode

Дуплексный режим связи с временным разделением каналов, при котором часть временных интервалов в кадре выделена для передачи информации в прямом направлении связи, а другая – в обратном направлении.

Примечание – Временные интервалы для передачи сигнала в противоположных направлениях обычно чередуются, поэтому такой способ передачи также называется «пинг-понговой» передачей.

Kanallar vaqt boʻyicha ajratilgan, dupleks aloqa rejimi. Bu rejimda kadrda vaqt intervalining bir qismi axborotni toʻgʻri yoʻnalishda, boshqa bir qismi esa, teskari yoʻnalishda uzatish uchun ajratiladi.

Izoh – Qarama-qarshi yoʻnalishda signalni uzatish uchun belgilangan vaqt intervallari almashinib keladi, shuning uchun uzatishning bunday usuli «ping-pong uzatish» deb ham ataladi.

Каналлар вақт бўйича ажратилган, дуплекс алоқа режими. Бу режимда кадрдаги вақт интервалнинг бир қисми ахборотни тўғри йўналишда, бошқа бир қисми эса, тескари йўналишда узатиш учун ажратилади.

Изоҳ – Қарама-қарши йўналишда сигнални узатиш учун белгиланган вақт интерваллари алмашилиб келади, шунинг учун узатишнинг бундай усули «пинг-понг узатиш» деб ҳам аталади.

Режим прослушивания

uz - eshitish rejimi

эшитиш режими

en - listening mode

Режим работы, при котором радиостанция не передает и не принимает данные, однако может контролировать сообщения, передаваемые другими станциями.

Radiostansiya maʼlumotlar uzatmaydigan va qabul qilmaydigan, lekin boshqa stansiyalardan uzatiladigan xabarlarini nazorat qila oladigan ish rejimi.

Радиостанция маълумотлар узатмайдиган ва қабул қилмайдиган, лекин бошқа станциялардан узатиладиган хабарларни назорат қила оладиган иш режими.

Режим прямой связи

uz - toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa rejimi

тўғридан-тўғри алоқа режими

Режим, при котором абонентские радиостанции способны устанавливать прямое соединение друг с другом, минуя базовую станцию.

Abonent radiostansiyalari tayanch stansiyani chetlab

Р

en - direct mode

o'tgan holda, o'zaro bevosita bog'lanishni o'rnatadigan rejim.

Абонент радиостанциялари таянч станцияни четлаб ўтган ҳолда, ўзаро бевосита боғланишни ўрната оладиган режим.

Режим с предварительным распределением ключей

uz - kalitlar oldindan taqsimlanadigan rejim

калитлар олдиндан тақсимланадиган режим
en - pre shared key (PSK)

Режим обеспечения безопасности, описанный в спецификации WPA, основанный на предварительном размещении ключей на всех хостах, имеющих доступ к беспроводной локальной сети.

Примечание – Применяется в тех случаях, когда распределение ключей по протоколу 802.1x невозможно.

WPA spetsifikatsiyasida bayon qilingan, simsiz lokal tarmoqqa kira oladigan barcha xostlarda kalitlarni oldindan joylashtirishga asoslangan, xavfsizlikni ta'minlash rejimi.

Izoh – Kalitlarni 802.1x protokoli bo'yicha taqsimlash mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

WPA spetsifikatsiyasida bayon qilingan, simsiz lokal tarmoqqa kira oladigan barcha xostlarda kalitlarni oldindan joylashtirishga asoslangan, xavfsizlikni ta'minlash rejimi.

Izoh – Kalitlarni 802.1x protokoli bo'yicha taqsimlash mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Режим смешанных волн

uz - aralash to'lqinlar rejimi

аралаш тўлқинлар режими
en - mode of mixed waves

Режим работы длинной линии, при котором в ней существует как падающая, так и отраженная волна с не одинаковыми амплитудами.

Liniyada amplitudasi teng bo'lmagan ham tushuvchi, ham qaytgan to'lqinlar mavjud bo'ladigan, uzun liniyaning ishlash rejimi.

Линияда амплитудаси тенг бўлмаган ҳам тушувчи, ҳам қайтган тўлқинлар мавжуд бўладиган, узун линиянинг ишлаш режими.

Режим стоячих волн

uz - turg'un to'lqinlar rejimi

турғун тўлқинлар режими
en - standing-wave mode

1 Режим работы длинной линии без потерь, при котором в ней существует падающая и отраженная волна с равными амплитудами.

2 Режим, при котором нагрузка линии полностью отражает направляемую ей энергию волны.

Р

1 Liniyada teng amplitudali tushuvchi va qaytgan to‘lqinlar mavjud bo‘ladigan, yo‘qotishlarsiz uzun liniyaning ishlash rejimi.

2 Liniya yuklamasi u yo‘naltiradigan to‘lqin energiyasini to‘liq qaytaradigan rejim.

1 Линияда тенг амплитудали тушувчи ва қайтган тўлқинлар мавжуд бўладиган, йўқотишларсиз узун линиянинг ишлаш режими.

2 Линия юкламаси у йўналтирадиган тўлқин энергиясини тўлиқ қайтарадиган режим.

Режим TDM/TDMA

uz - TDM/TDMA rejimi

TDM/TDMA rejimi

en - time division multiplexing/
time division multiple access
(TDM/TDMA)

Комбинированный режим работы VSAT-сетей с топологией типа «звезда». В такой сети центральная земная станция работает через прозрачный ретранслятор в режиме TDM на закрепленных частотах, а доступ VSAT-станций осуществляется в режиме TDMA.

Примечание – За счет такого асимметричного трафика удается снизить требования к энергетике земной станции, но при этом существенно увеличивается задержка по сравнению с «чистым» режимом TDMA и кроме того возникает так называемый «двойной скачок».

«Yulduz» topologiyali VSAT-tarmoqlarining kombinatsiyalangan ish rejimi. Bunday tarmoqda markaziy yer stansiyasi birlashtirilgan chastotalarda shaffof retranslyator orqali TDM rejimida ishlaydi, VSAT-stansiyalarning kirishi esa TDMA rejimida amalga oshiriladi.

Izoh – Bunday asimmetrik trafik hisobiga yer stansiyasining energetikasiga bo‘lgan talab kamaytiriladi, ammo bunda ushlanish «toza» TDMA rejimiga nisbatan ancha ortadi va bundan tashqari, «ikki marta sakrash» deb ataluvchi o‘zgarish ham sodir bo‘ladi.

«Юлдуз» топологияли VSAT-тармоқларининг комбинацияланган иш режими. Бундай тармоқда марказий ер станцияси бириктирилган частоталарда шаффоф ретранслятор орқали TDM режимида ишлайди, VSAT-станцияларнинг кириши эса TDMA режимида амалга оширилади.

Изоҳ – Бундай асимметрик трафик ҳисобига ер станциясининг энергетикасига бўлган талаб камайтиради, ammo бунда ушланиш «тоза» TDMA режимида нисбатан анча ортади ва бундан ташқари, «икки марта сакраш» деб аталувчи ўзгариш ҳам содир бўлади.

Р

Режим транкинговой связи

uz - trunking aloqa rejimi

транкинг алоқа режими

en - trunked mode

Способ организации информационного обмена между транкинговыми радиостанциями, при котором связь с базовой станцией устанавливается по выделенному или совмещенному с рабочим каналу управления с помощью транкингового контроллера. Такой режим работы позволяет реализовать более высокую пропускную способность по сравнению с обычным способом связи или передачи информации по каналу «точка-многоточка», временно закрепленным за определенной группой абонентов.

Tranking radiostansiyalar o'rtasida axborot almashuvini tashkil etish usuli, bunda tayanch stansiya bilan aloqa trunking kontroller yordamida alohida ajratilgan yoki ishchi kanal bilan birlashtirilgan boshqarish kanali orqali o'rnatiladi. Bunday ish rejimi odatdagi aloqa usuli yoki abonentlarning ma'lum guruhiga vaqtincha birlashtirib qo'yilgan, «nuqta–ko'p nuqta» kanali bo'ylab axborot uzatishga nisbatan taqqoslaganda ancha yuqori o'tkazish qobiliyatini ta'minlash imkonini beradi.

Транкинг радиостанциялар ўртасида ахборот алмашувини ташкил этиш усули, бунда таянч станция билан алоқа транкинг контроллер ёрдамида алоҳида ажратилган ёки ишчи канал билан бirlashtirilgan boshqarish kanali orqali ўrnatiladi. Бундай иш режими оdatдаги алоқа усули ёки абонентларнинг маълум гуруҳига вақтинча бириктириб қўйилган, «нуқта–кўп нуқта» канали бўйлаб ахборот узатишга нисбатан таққослаганда анча юқори ўтказиш қобилиятини таъминлаш имконини беради.

Результат услуги

uz - xizmatning natijasi

хизматнинг натижаси

en - result of service

Результат деятельности предприятия, организации или индивидуального предпринимателя по оказанию услуги, направленной на удовлетворение соответствующей потребности потребителя.

Xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar, tashkilot yoki yakka tadbirkorning, iste'molchining tegishli ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan faoliyatining natijasi.

Р

Хизмат кўрсатиш бўйича корхона, ташкилот ёки якка тадбиркорнинг, истеъмолчининг тегишли эҳтиёжини қондиришга йўналтирилган фаолиятининг натижаси.

Рекомендации Р.ХХ

uz - Р.ХХ tavsiyalari

Р.ХХ тавсиялари

en - Р.ХХ

Обозначение серии рекомендаций, в которых определены требования к качеству телефонной связи. В частности, характеристики цифровых телефонов для аналоговых каналов с полосой (300–3400) Hz описаны в Р.310, для расширенной полосы (150–7000) Hz – в Р.311, а для беспроводных и мобильных цифровых терминалов – в Р.313.

Telefon aloqa sifatiga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilgan tavsiyalar turkumining belgilanishi. Xususan, (300–3400) Hz polosada ishlaydigan analog kanallar uchun raqamli telefonlarning xarakteristikalarini Р.310 da, kengaytirilgan (150–7000) Hz polosa uchun – Р.311 da, simsiz hamda mobil raqamli terminallar uchun esa, Р.313 da bayon qilingan.

Телефон алоқа сифатига қўйиладиган талаблар кўрсатилган тавсиялар туркумининг белгиланиши. Хусусан, (300–3400) Hz полосада ишлайдиган аналог каналлар учун рақамли телефонларнинг характеристикалари Р.310 да, кенгайтирилган (150–7000) Hz полоса учун – Р.311 да, симсиз ҳамда мобил рақамли терминаллар учун эса, Р.313 да баён қилинган.

Рекомендация

uz - tavsiya

тавсия

en - recommendation

Документ, который разрабатывается органами по стандартизации и не имеет статуса стандарта, но определяет его предварительные спецификации.

Standartlashtirish organlari tomonidan ishlab chiqiladigan, standart maqomiga ega bo‘lmagan, lekin uning dastlabki spetsifikatsiyalarini belgilab beradigan hujjat.

Стандартиштириш органлари томонидан ишлаб чиқиладиган, стандарт мақомига эга бўлмаган, лекин унинг дастлабки спецификацияларини белгилаб берадиган ҳужжат.

Р

Репитер, повторитель

uz - repiter, takrorlagich

репитер, такрорлагич

en - repeater

Приемопередатчик, который используется для регенерации слабых сигналов с целью увеличения дальности действия кабельной подсистемы или зоны обслуживания базовой станции.

Kabelli quyi tizim yoki tayanch stansiyaga xizmat ko'rsatish zonasi harakat doirasini oshirish maqsadida, kuchsiz signallarni regeneratsiyalash uchun foydalaniladigan qabulqilgich-uzatkich.

Кабелли қуйи тизим ёки таянч станцияга хизмат кўрсатиш зонаси ҳаракат доирасини ошириш мақсадида, кучсиз сигналларни регенерациялаш учун фойдаланиладиган қабулқилгич-узатқич.

Ресурсный блок

uz - resurs bloki

ресурс блоки

en - resource block

Единица ресурса передачи в LTE канале, состоящая из 12 субчастотных интервалов, занимаемых в течение временного интервала 0,5 ms. Суммарная полоса частот ресурсного блока равна 180 kHz. Следовательно, количество ресурсных блоков в максимальном диапазоне частот равняется $36 \text{ MHz}/180 \text{ kHz} = 200$.

LTE kanalda uzatish resursi birligi, 0,5 ms vaqt intervali mobaynida egallanadigan 12 ta subchastota intervalidan tashkil topgan. Summar resurs bloki chastotalar polosasi 180 kHz ga teng. Binobarin, maksimal chastotalar diapazonidagi resurs bloklari soni $36 \text{ MHz}/180 \text{ kHz} = 200$.

LTE kanalda uzatish resursi birligi, 0,5 ms vaqt intervali mobaynida egallanadigan 12 ta subchastota intervalidan tashkil topgan. Summar resurs bloki chastotalar polosasi 180 kHz ga teng. Binobarin, maksimal chastotalar diapazonidagi resurs bloklari soni $36 \text{ MHz}/180 \text{ kHz} = 200$.

Ресурсный элемент

uz - resurs elementi

ресурс элементи

en - resource element

Наименьший блок передачи данных в DL и UL режиме. Необходимая полоса частот – 15 kHz. За время 0,5 ms антенна может передать 7 RE в диапазоне 15 kHz (в случае плохих условий, это количество составляет 6). $1 \text{ RB} = 12 \cdot 7 = 84 \text{ RE}$. При максимальной ширине канала можно передать $200 \text{ RB} \cdot 84 \text{ RE} = 16800 \text{ RE}$ за время 0,5 ms.

P

DL va UL rejimidagi eng kichik ma'lumotlar uzatish bloki. Zarur chastotalar polosasi – 15 kHz. 0,5 ms vaqt ichida antenna 15 kHz diapazonda 7 ta resurs elementini uzata oladi (yomon sharoitlarda bu son 6 tani tashkil etadi). $1 RB = 12 \cdot 7 = 84 RE$. Maximal kanal kengligida 0,5 ms vaqt ichida $200 RB \cdot 84 RE = 16800 RE$.

DL va UL rejimidaги энг кичик маълумотлар узатиш блоки. Зарур частоталар полосаси – 15 kHz. 0,5 ms вақт ичида антенна 15 kHz диапозонда 7 та ресурс элементини узата олади (ёмон шароитларда бу сон 6 тани ташкил этади). $1 RB = 12 \cdot 7 = 84 RE$. Максимал канал кенглигида 0,5 ms вақт ичида $200 RB \cdot 84 RE = 16800 RE$.

Ретранслятор

uz - retranslyator

ретранслятор

en - retransmitter, repeater
enhancer

1 Устройство, предназначенное для переизлучения радиосигналов с целью увеличения дальности линии связи.

Примечание – Ретрансляторы бывают пассивные, прозрачные и регенеративные. Пассивный ретранслятор выполнен без каких-либо усилителей и представляет собой обычную переизлучающую антенну.

2 Автономное приемопередающее устройство с разнесенными частотами приема и передачи, предназначенное для увеличения дальности радиосвязи путем переизлучения или переотражения радиосигналов.

1 Aloqa liniyalarining masofasini oshirish maqsadida radiosignallarni qayta nurlantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh – Retranslyatorlar passiv, shaffof va regenerativ bo'ladi. Passiv retranslyator biror bir kuchaytirgichlarsiz bajarilgan va o'zida odatdagi qayta nurlantiradigan antennani aks ettiradi.

Izoh – Bu, har bir foydalanuvchi mobil telefon yordamida xabarlarining barcha formatlaridan, jumladan, ovozli pochta, faksimil, peyjing, qisqa xabarlardan, elektron pochtdan foydalana olishlari mumkinligini bildiradi. Hozirgi vaqtda xabarlar ko‘p sonli manbalardan keladi, ular turli formatga ega. Birlashgan tizim foydalanuvchiga yuqori qulaylik bilan axborot resurslari va ma’lumotlarni boshqarish imkoniyatini ta’minlagan holda, barcha xizmatlar va xabarlar formatlarini bir joyda to‘plash imkonini beradi.

С

Мобил алоқа муҳотида хабарларни қабул қилиш ва узатишнинг бирлашган тизими.

Изоҳ – Бу, ҳар бир фойдаланувчи мобил телефон ёрдамида хабарларнинг барча форматларидан, жумладан, овозли почта, факсимиль, пейжинг, қисқа хабарлардан, электрон почтадан фойдалана олишлари мумкинлигини билдиради. Ҳозирги вақтда хабарлар кўп сонли манбалардан келади, улар турли форматга эга. Бирлашган тизим фойдаланувчига юқори қулайлик билан ахборот ресурслари ва маълумотларни бошқариш имкониятини таъминлаган ҳолда, барча хизматлар ва хабарлар форматларини бир жойда тўплаш имконини беради.

Система персональной телефонной связи

uz - shaxsiy telefon aloqa tizimi

шахсий телефон алоқа тизими

en - personal handyphone system (PHS)

Японский стандарт беспроводной телефонной связи. Сервис мобильной передачи данных на основе данного стандарта был представлен NTT DoCoMo в 1995 году. Возможность вхождения пользователей в беспроводную PHS-сеть обеспечивается специально оборудованными КПК и ноутбуками. Скорость передачи данных составляет 32 Kbit/s и 64 Kbit/s.

Yaponiya simsiz telefon aloqa standarti. Ma'lumotlarni ushbu standart asosida mobil uzatish xizmati NTT DoCoMo tomonidan 1995 yilda taqdim etilgan. Foydalanuvchilarning simsiz PHS tarmoqqa kirish imkoniyati maxsus jihozlangan cho'ntak shaxsiy kompyuterlari va noutbuklar bilan ta'minlanadi. Ma'lumotlar uzatish tezligi 32 Kbit/s va 64 Kbit/s ni tashkil etadi.

Япония симсиз телефон алоқа стандарти. Маълумотларни ушбу стандарт асосида мобил узатиш хизмати NTT DoCoMo томонидан 1995 йилда тақдим этилган. Фойдаланувчиларнинг симсиз PHS тармоққа кириш имконияти махсус жиҳозланган чўнтак шахсий компьютерлари ва ноутбуклар билан таъминланади. Маълумотлар узатиш тезлиги 32 Kbit/s ва 64 Kbit/s ни ташкил этади.

Система связи cdmaOne

uz - cdmaOne aloqa tizimi

cdmaOne алоқа тизими

en - cdmaOne system

Название системы связи второго поколения, реализованной на базе стандарта IS-95. Связь обеспечивается в диапазоне частот (824–849) МГц (линия «вверх») и (869–894) МГц (линия «вниз») с дуплексным разносом – 45 МГц. Для передачи

С

речи используются кодеки типа CELP, обеспечивающие скорость передачи 8 Kbit/s (9,6 Kbit/s в канале). Основные технические параметры сетей cdmaOne определены в стандартах TIA (IS-95, IS-96).

IS-95 standarti negizida amalga joriy etilgan ikkinchi avlod aloqa tizimining nomi. Aloqa, (824–849) MHz (liniya «yuqoriga») va (869–894) MHz (liniya «pastga») chastotalar diapazonida, 45 MHz dupleks tarqoqlik bilan ta'minlanadi. Nutqni uzatish uchun 8 Kbit/s (kanal ichida 9,6 Kbit/s)ga teng tezlikni ta'minlaydigan CELP tipidagi kodeklar ishlatiladi. cdmaOne tarmoqlarining asosiy texnik parametrlari TIA standartlarida (IS-95 va IS-96) belgilab qo'yilgan.

IS-95 standarti negizida amalga joriy etilgan ikkinchi avlod aloqa tizimining nomi. Aloqa, (824–849) MHz (liniya «yuqoriga») va (869–894) MHz (liniya «pastga») chastotalar diapazonida, 45 MHz dupleks tarqoqlik bilan ta'minlanadi. Nutqni uzatish uchun 8 Kbit/s (kanal ichida 9,6 Kbit/s)ga teng tezlikni ta'minlaydigan CELP tipidagi kodeklar ishlatiladi. cdmaOne tarmoqlarining asosiy texnik parametrlari TIA standartlarida (IS-95 va IS-96) belgilab qo'yilgan.

Система связи GSM-R

uz - GSM-R aloqa tizimi

GSM-R aloqa tizimi

en - global system for mobile railway (GSM-R)

Спецификация цифровой системы связи на базе стандарта GSM (разработана в 1994 г.), ориентированная на создание системы железнодорожной радиосвязи в диапазоне частот: (876–880) и (921–925) MHz. Предусмотрена поддержка группового, приоритетного и экстренного вызовов и обеспечение связи при скорости движения до 500 km/h. Максимальное время соединения не превышает 1,5 с.

GSM standarti negizidagi raqamli aloqa tizimining spetsifikatsiyasi bo'lib (1994 yilda ishlab chiqilgan), u (876–880) va (921–925) MHz chastotalar diapazonida temir yo'l radioaloqa tizimini tuzishga mo'ljallangan.

С

langan. 500 km/hgacha bo‘lgan harakat tezliklarida guruhiy, ustuvor va shoshilinch chaqiruvlarni amalga oshirish hamda aloqani ta’minlash nazarda tutilgan. Maksimal ulanish vaqti 1,5 s dan oshmaydi.

GSM standarti negizidaги рақамли алоқа тизимининг спецификацияси бўлиб (1994 йилда ишлаб чиқилган), у (876–880) ва (921–925) MHz частоталар диапазонида темир йўл радиоалоқа тизимини тузишга мўлжалланган. 500 km/hgacha бўлган ҳаракат тезликларида гуруҳий, устувор ва шoшилiнч чақирувларни амалга ошириш ҳамда алоқани таъминлаш назарда тутилган. Максималь уланиш вақти 1,5 s дан ошмайди.

Система связи TACS

uz - TACS aloqa tizimi

TACS алоқа тизими

en - total access communications system (TACS)

Система связи со всеобщим доступом; стандарт в области аналоговой телефонии, широко распространенный в Европе.

Umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan aloqa tizimi; Yevropada keng tarqalgan analog telefoniya sohasidagi standart.

Умумий фойдаланиш мумкин бўлган алоқа тизими; Европада кенг тарқалган аналог телефония соҳасидаги стандарт.

Система связи VoIP

uz - VoIP aloqa tizimi

VoIP алоқа тизими

en - Voice-over-IP (VoIP)

Система связи с передачей речевого сигнала по сети Интернет или по любым другим IP-сетям.

Internet tarmog‘i orqali yoki boshqa har qanday IP tarmoq orqali nutq signali uzatiladigan aloqa tizimi.

Интернет тармоғи орқали ёки бошқа ҳар қандай IP тармоқ орқали нутқ сигнали узатиладиган алоқа тизими.

Система связи с персональным доступом

uz - shaxsan kira olish (foydalana olish) mumkin bo‘lgan aloqa tizimi

шахсан кира олиш

(фойдалана олиш) мумкин бўлган алоқа тизими

Усовершенствованная технология персонального доступа для стационарных и мобильных абонентов, разработанная компанией Bellcore (США) и реализованная компанией Motorola. Система предназначена для предоставления услуг беспроводной связи в полосе частот 120 (2x60) MHz с групповой скоростью 384 Kbit/s.

С

en - personal access communication system (PACS)

Стационар ва мобил абонентлар учун ишлаб чиқилган, такомиллаштирилган шахсан kira olish (foydalana olish) texnologiyasi. Bellcore (AQSh) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Motorola kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Tizim simsiz aloqa xizmatlarini 120 (2x60) MHz chastotalar polosasida, 384 Kbit/s guruhli tezlik bilan taqdim etish uchun mo'ljallangan.

Стационар ва мобил абонентлар учун ишлаб чиқилган, такомиллаштирилган шахсан kira olish (foydalana olish) texnologiyasi. Bellcore (AQSh) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Motorola kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Tizim simsiz aloqa xizmatlarini 120 (2x60) MHz chastotalar polosasida, 384 Kbit/s guruhli tezlik bilan taqdim etish uchun mo'ljallangan.

Система типа

«точка–несколько точек»

uz - «nuqta–bir nechta nuqta» turidagi tizim

«нукта–бир нечта нукта»

туридаги тизим

en - point-to-multipoint system

Система, позволяющая одному пользователю напрямую связываться с несколькими другими.

Битта foydalanuvchiga bir nechta boshqa foydalanuvchi bilan bevosita bog'lanish imkonini beradigan tizim.

Битта фойдаланувчига бир нечта бошқа фойдаланувчи билан бевосита боғланиш имконини берадиган тизим.

Система типа

«точка–точка»

uz - «nuqta–nuqta» turidagi tizim

«нукта–нукта» туридаги

тизим

en - point-to-point system

Система, в которой связь между двумя пользователями осуществляется напрямую.

Иккита foydalanuvchi orasidagi aloqa to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan tizim.

Иккита фойдаланувчи орасидаги алоқа тўғридан-тўғри амалга ошириладиган тизим.

Система управления

качеством услуг связи

uz - aloqa xizmatlari sifatini boshqarish tizimi

алоқа хизматлари

сифатини бошқариш тизими

Совокупность организационной структуры, ответственности и полномочий персонала, процедур, процессов и ресурсов, обеспечивающих осуществление управления качеством услуг.

Xizmatlar sifatini boshqarilishini amalga oshirish

С

en - service quality management system

ta'minlanadigan, tashkiliy struktura, xodimlar javobgarligi hamda vakolatlari, protseduralar, jarayonlar, resurslar yig'indisi.

Системная сетевая архитектура

uz - tizim tarmoq arxitekturasi

ТИЗИМ ТАРМОҚ

архитектураси

en - network system architecture

Хизматлар сифатини бошқарилишини амалга ошириш таъминладиган, ташкилий структура, ходимлар жавобгарлиги ҳамда ваколатлари, процедуралар, жараёнлар, ресурслар йиғиндиси.

Общее описание структуры, форматов, протоколов, используемых для передачи информации между программным обеспечением IBM и оборудованием.

Uskuna va IBM dasturiy ta'minot o'rtasida axborot uzatish uchun foydalaniladigan protokollar, formatlar, strukturaning umumiy tavsifi.

Ускуна ва IBM дастурий таъминот ўртасида ахборот узатиш учун фойдаланиладиган протоколлар, форматлар, структуранинг умумий тавсифи.

Системное программное обеспечение

uz - tizim dasturiy ta'minoti

ТИЗИМ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ

en - system software

Управляющие программы, например операционные системы и системы управления базами данных.

Boshqaruvchi dasturlar, masalan, operatsion tizimlar va ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari.

Бошқарувчи дастурлар, масалан, операцион тизимлар ва маълумотлар базаларини бошқариш тизимлари.

Сканирование каналов

uz - kanallarni skanlash

КАНАЛЛАРНИ СКАНЛАШ

en - scan of channels

Процедура проверки состояния каналов связи с точки зрения их пригодности для передачи информации. Обычно при этом измеряется уровень шумов, присутствующих на входе приемника, или определяется текущее отношение сигнал/помеха.

Aloqa kanallari holatini, ularning axborotni uzatishga yaroqliligi nuqtai nazaridan, tekshirish protsedurasi. Bunda, odatda, qabulqilgichning kirishida mavjud bo'lgan shovqinlar darajasi o'lchanadi yoki joriy signal/xalaqit nisbati aniqlanadi.

С

Алоқа каналлари ҳолатини, уларнинг ахборотни узатишга яроқлилиги нуқтаи назаридан, текшириш процедураси. Бунда, одатда, қабулқилгичнинг киришида мавжуд бўлган шовқинлар даражаси ўлчанади ёки жорий сигнал/халақит нисбати аниқланади.

Скачкообразное изменение (параметров)

uz - sakrashsimon o'zgarish (parametrlarning sakrashsimon o'zgarishi)

сакрашсимон ўзгариш (параметрларнинг сакрашсимон ўзгариши)

en - jumping

Быстрая смена состояний, например, мгновенная перестройка с одной частоты на другую или оперативная смена приоритета сообщения. К такого вида изменениям также относят паразитные скачки (подергивания) на изображениях.

Holatning tez o'zgarishi, masalan, bir chastotadan boshqasiga juda tez qayta sozlanish yoki xabar ustuvorligining tezkor almashuvi. Bunday o'zgarishlarga tasvirlardagi parazit sakrash (titrash)lar ham kiradi.

Ҳолатнинг тез ўзгариши, масалан, бир частотадан бошқасига жуда тез қайта созланиш ёки хабар устуворлигининг тезкор алмашуви. Бундай ўзгаришларга тасвирлардаги паразит сакраш (титраш)лар ҳам киради.

Скорость передачи

uz - uzatish tezligi

узатиш тезлиги

en - transmission rate

Фундаментальное понятие в связи, которое характеризует количество информации, передаваемое по каналу связи в единицу времени. Скорость передачи зависит от ширины полосы частот и отношения сигнал/шум приемника и обычно оценивается количеством битов, передаваемых в одну секунду.

Aloqadagi asosiy tushuncha, u vaqt birligi ichida aloqa kanali bo'ylab uzatiladigan axborot miqdorini ifodalaydi. Uzatish tezligi chastotalar polosasining kengligi va signal/shovqin nisbatiga bog'liq bo'ladi, odatda, bir sekundda uzatiladigan bitlar soni bilan baholanadi.

Алоқадаги асосий тушунча, у вақт бирлиги ичида алоқа канали бўйлаб узатиладиган ахборот миқдорини ифодалайди. Узатиш тезлиги частоталар полосасининг кенглиги ва сигнал/шовқин нисбатига боғлиқ бўлади, одатда, бир секундда узатиладиган битлар сони билан баҳоланади.

С

Скорость передачи данных

uz - ma'lumotlar uzatish

tezligi

маълумотлар узатиш

тезлиги

en - data rate

Количество битов в секунду при передаче данных. Например, беспроводные локальные сети стандарта 802.11b передают данные со скоростью до 11 Mbit/s.

Ma'lumotlar uzatishda bir sekunddagi bitlar soni. Masalan, 802.11b standartidagi simsiz lokal tarmoqlarda ma'lumotlar 11 Mbit/s gacha bo'lgan tezlik bilan uzatiladi.

Маълумотлар узатишда бир секунддаги битлар сони. Масалан, 802.11b стандартидаги симсиз локал тармоқларда маълумотлар 11 Mbit/s гача бўлган тезлик билан узатилади.

Скремблер

uz - skrembler

скремблер

en - scrambler

1 Преобразователь двоичных данных в кодовую последовательность, в которой символы 1 и 0 распределены по псевдослучайному закону. Такой преобразователь позволяет улучшить работу системы синхронизации за счет исключения в сигнале длинных серий символов одного типа. Кроме того, скремблер выполняет функции простейшего шифрующего устройства, позволяющего увеличить защищенность канала связи от несанкционированного доступа.

2 Устройство, в котором осуществляется разделение исходной полосы частот аналогового сигнала на несколько неперекрывающихся узких участков и их перемешивание по псевдослучайному закону; такое преобразование относят к разряду засекречивающих, а скремблер считается простейшим средством защиты данных.

1 Ikkilik ma'lumotlarni kodli ketma-ketlikka o'zgartirgich bo'lib, unda 1 va 0 simvollari psevdotasodifiy qonunga muvofiq taqsimlanadi. Bunday o'zgartirgich signaldagi bir tipli simvollarning uzun seriyalarini bartaraf qilish hisobiga, sinxronizatsiya tizimining ishini yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, skrembler aloqa kanalining ruxsat etilmagan foydalana olishdan himoyalanganligini oshirishga yordam beradigan shifrllovchi oddiy qurilma funksiyasini bajaradi.

2 Analog signal boshlang'ich chastotalari polosasi-

С

ning bir-biri bilan kesishmaydigan bir nechta tor qism (uchastka)larga ajratilishi va ularning psevdotasodifiy qonun bo'yicha aralashtirilishi; bunday o'zgartirish maxfiylashtiriladigan toifaga mansub, skrembler esa ma'lumotlarni himoya qilishning oddiy vositasi deb hisoblanadi.

1 Иккилик маълумотларни кодли кетма-кетликка ўзгартиргич бўлиб, унда 1 ва 0 символлари псевдотасодифий қонунга мувофиқ тақсимланади. Бундай ўзгартиргич сигналдаги бир типли символларнинг узун серияларини бартараф қилиш ҳисобига, синхронизация тизимининг ишини яхшилаш имконини беради. Бундан ташқари, скремблер алоқа каналининг руҳсат этилмаган фойдалана олишдан ҳимояланганлигини оширишга ёрдам берадиган шифрловчи оддий курилма функциясини бажаради.

2 Аналог сигнал бошланғич частоталари полосасининг бир-бири билан кесишмайдиган бир нечта тор қисм (участка)ларга ажратилиши ва ularning psevdotasodifiy qonun bo'yicha aralashtirilishi; bunday o'zgartirish maxfiylashtiriladigan toifaga mansub, skrembler esa ma'lumotlarni himoya qilishning oddiy vositasi deb hisoblanadi.

Скремблирование
uz - skremblerlash
скремблерлаш
en - scrambling

1 Процедура перемешивания потока данных с целью улучшения его синхронизирующих свойств. Метод основан на побитовом сложении по модулю 2 исходного кода и символов результирующего кода, полученных в предыдущих циклах вычислений. Скремблирование также позволяет подавить наиболее сильные спектральные составляющие сигнала, размывая их по всей широкой полосе частот.

2 Метод засекречивания аналогового сигнала путем перестановки местами и инвертирования участков исходного спектра.

1 Ma'lumotlar oqimini uning sinxronlovchi xususiyatlarini yaxshilash maqsadida, aralashtirish protsedurasi. Boshlang'ich kod va hisoblashlarning oldingi sikllarida olingan natijalovchi kod simvollarini

С

ikkining moduli bo'yicha bitma-bit qo'shishga asoslangan metod. Skremblerlash, shuningdek, signalning eng kuchli spektral tarkibiy qismlarini, ularni chastotalarning keng polosasi bo'yicha yoyib yuborish bilan bostirish imkonini beradi.

2 Analog signalni boshlang'ich signal uchastkalarining o'rnini o'zgartirish va ularni inversiyalash yo'li bilan maxfiylashtirish metodi.

1 Маълумотлар оқимини унинг синхронловчи хусусиятларини яхшилаш мақсадида, аралаштириш процедураси. Бошланғич код ва ҳисоблашларнинг олдинги цикларида олинган натижаловчи код символларини иккиннинг модули бўйича битма-бит қўшишга асосланган метод. Скремблерлаш, шунингдек, сигналнинг энг кучли спектрал таркибий қисмларини, уларни частоталарнинг кенг полосаси бўйича ёйиб юбориш билан бостириш имконини беради.

2 Аналог сигнални бошланғич сигнал участкаларининг ўрнини ўзгартириш ва уларни инверсиялаш йўли билан махфийлаштириш методи.

Скремблированная речь

uz - skremblerlangan nutq
скремблерланган нутқ
en - scrambled speech

Речевой сигнал, в котором отдельные участки спектра инвертированы и смещены по частоте.

Spektrining ayrim qismlari invertirlangan va chastota bo'yicha siljigan nutq signali.

Спектрининг айрим қисмлари инвертирланган ва частота бўйича силжиган нутқ сигнали.

Скрипт WML

uz - WML skripti
WML скрипти
en - WMLS cript

Язык описания сценариев для мобильных устройств, использующие стандарт WAP.

WAP-standartidan foydalanadigan mobil qurilmalar uchun ssenariylarni tavsiflash tili.

WAP-стандартидан фойдаланадиган мобил қурилмалар учун сценарийларни тавсифлаш тили.

Слот

uz - slot
слот
en - slot

Временной интервал.

Vaqt intervali.

Вақт интервали.

С

Служба GPRS

uz - GPRS xizmati

GPRS хизмати

en - general packed radio services (GPRS)

Служба пакетной передачи данных через радиоинтерфейс. GPRS обеспечивает постоянное подключение к сети передачи данных для доступа к информационным и развлекательным услугам. GPRS также отличается мгновенным установлением соединения и высокой скоростью передачи данных.

Radiointerfeys orqali ma'lumotlarni paketli uzatish xizmati. GPRS axborot va ko'ngilochar xizmatlaridan foydalanish uchun, ma'lumotlar uzatish tarmog'iga doimiy ulanishni ta'minlaydi. Bog'lanish bir zumda o'rnatilishi, ma'lumotlar uzatish tezligi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Радиоинтерфейс орқали маълумотларни пакетли узатиш хизмати. GPRS ахборот ва кўнгилоچار хизматларидан фойдаланиш учун, маълумотлар узатиш тармоғига доимий уланишни таъминлайди. Боғланиш бир зумда ўрнатилиши, маълумотлар узатиш тезлиги юқори бўлиши билан ажралиб туради.

Служба дистанционной аутентификации

пользователей по

коммутируемым линиям

uz - foydalanuvchilarni

kommutatsiyalanadigan liniyalar

orqali masofadan autentifikatsiya

qilish xizmati

фойдаланувчиларни

коммутацияланадиган

линиялар орқали масофадан

аутентификация қилиш

хизмати

en - remote authentication

dialin user service (RADIUS)

Система аутентификации и учета, которую многие поставщики услуг широкополосного доступа к Интернет используют для управления доступом к Интернет и выписки счетов за пользование беспроводной сетью.

Autentifikatsiya qilish va hisobga olish tizimi. Bu tizimdan Internetdan keng polosali erkin foydalanish xizmatlarini yetkazib beruvchilar Internetga kirishni boshqarish va simsiz tarmoqdan foydalanganlik uchun hisob yozishda foydalanadilar.

Аутентификация қилиш ва ҳисобга олиш тизими. Бу тизимдан Интернетдан кенг полосали эркин фойдаланиш хизматларини етказиб берувчилар Интернетга киришни бошқариш ва симсиз тармоқдан фойдаланганлик учун ҳисоб ёзишда фойдаланадилар.

С

Служба коротких сообщений

uz - qisqa xabarlar xizmati
қиска хабарлар хизмати
en - short message service
(SMS)

Специальная служба мобильной связи, обеспечивающая передачу сообщений, длина которых изменяется в пределах от 100 до 500 символов ASCII (160 в стандарте GSM).

Uzunligi 100 dan 500 gacha ASCII simvollari (GSM standartida 160 ta) doirasida o'zgaradigan xabarlar-ning uzatilishini ta'minlovchi, maxsus mobil aloqa xizmati.

Узунлиги 100 дан 500 гача ASCII символлари (GSM стандартида 160 та) доирасида ўзгарадиган хабарларнинг узатилишини таъминловчи, махсус мобил алоқа хизмати.

Служба многоканального/ многоточечного распределения

uz - ko'p kanalli/ko'p nuqtali taqsimlash xizmati
кўп каналли/кўп нуқтали тақсимлаш хизмати
en - multichannel multipoint distribution service (MMDS)

Цифровая беспроводная технология передачи данных, работающая в диапазоне (2,2–2,4) GHz. Технология требует обеспечения прямой видимости между приемником и передатчиком на расстоянии до 50 km.

Примечание – Первоначально разрабатывалась для предоставления услуг кабельного телевидения в удаленные места (односторонняя передача).

Ma'lumotlarni raqamli simsiz uzatish texnologiyasi, (2,2–2,4) GHz diapazonda ishlaydi. Texnologiya 50 km gacha bo'lgan masofada, qabulqilgich bilan uzatkich orasida to'g'ridan ko'rinish ta'minlanishini talab etadi.

Izoh – Dastlab olisdagi joylarda kabelli televideniye xizmatlarini taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan (bir tomonlama uzatish).

Маълумотларни рақамли симсиз узатиш технологияси, (2,2–2,4) GHz диапазонда ишлайди. Технология 50 km гача бўлган масофада, қабулқилгич билан узаткич орасида тўғридан кўриниш таъминланишини талаб этади.

Изоҳ – Дастлаб олисдаги жойларда кабелли телевидение хизматларини тақдим этиш мақсадида ишлаб чиқилган (бир томонлама узатиш).

Служба отсутствующих абонентов

uz - o'rnida yo'q abonentlar xizmati

Служба, которая осуществляет автоматические ответы на входящие вызовы и способна записывать содержание вызовов.

С

Ўрнида йўқ абонентлар
хизмати
en - absent user service

Kiruvchi chaqiruvlarga avtomatik javob berishni amalga oshiruvchi va chaqiruvlar mazmunini yozib olish imkoniga ega bo'lgan xizmat.

Кирувчи чақирувларга автоматик жавоб беришни амалга оширувчи ва чақирувлар мазмунини ёзиб олиш имконига эга бўлган хизмат.

Служба персональной связи PCS 1900

uz - PCS 1900 shaxsiy aloqa
хизмати

PCS 1900 шахсий алоқа
хизмати

en - personal communications
services 1900 (PCS 1900)

Служба персональной связи в диапазоне 1900 MHz.

1900 MHz diapazondagi shaxsiy aloqa xizmati.

1900 MHz diapazondagi shaxsiy aloqa xizmati.

Служба локального много-точечного распределения

uz - lokal ko'p nuqtali
taqsimlash xizmati

локал кўп нуқтали
тақсимлаш хизмати

en - local multipoint distribution
service (LMDS)

Система, обеспечивающая высокоскоростную передачу данных и цифровое телевидение (96 каналов) в диапазоне частот (27,5–29,5) GHz.

Примечание – Пропускная способность в 4 раза больше, чем системы MMDS. Кроме того, в LMDS организуются двухсторонние каналы для телефонной связи, обмена данными, видеоконференцсвязи и интерактивного телевидения. Технологию LMDS часто называют сотовым телевидением, поскольку сеть имеет сотовую конфигурацию с базовой станцией, обычно расположенной в центре соты радиусом от 3 до 5 km. Все базовые станции подключены к пунктам распределения информации (коммутационному оборудованию) и через них связаны с сервером. Технология LMDS стандартизирована ITU-R(F.748).

Ma'lumotlarning yuqori tezlikda uzatilishini va (27,5-29,5) GHz chastotalar diapazonida raqamli teleeshittirishlarni (96 ta kanalni) ta'minlaydigan tizim.

Izoh – O'tkazish qobiliyati MMDS tizimidagiga qaraganda 4 marta katta. Bundan tashqari, LMDS da telefon aloqasi, ma'lumotlar almashish, video-konferensaloqa va interaktiv televideniye uchun ikki tomonlama kanallar tashkil etiladi. LMDS texnologiyasi ko'pincha sotali televideniye deb ham ataladi, chunki bu tarmoq sota markazidan 3-5 km da joylashgan tayanch stansiyalarning sotali konfiguratsiyasiga ega. Barcha tayanch stansiyalar axborotni taqsimlash punktlari (kommutatsion uskunalari)ga ulanadi va ular orqali serverlar bilan bog'lanadi. LMDS texnologiyasi ITU-R (F.748) tomonidan standartlashtirilgan.

Маълумотларнинг юқори тезликда узатилишини ва (27,5–29,5) GHz частоталар диапозонида ра-

С

қамли телеэшиттиришларни (96 та канални) таъминлайдиган тизим.

Изоҳ – Ўтказиш қобилияти MMDS тизимидагига қараганда 4 марта катта. Бундан ташқари, LMDS да телефон алоқаси, маълумотлар алмашиш, видеоконференцалоқа ва интерактив телевидение учун икки томонлама каналлар ташкил этилади. LMDS технологияси кўпинча сотали телевидение деб ҳам аталади, чунки бу тармоқ сота марказидан 3-5 кмда жойлашган таянч станцияларнинг сотали конфигурациясига эга. Барча таянч станциялар ахборотни тақсимлаш пунктлари (коммутацион ускуналар)га уланади ва улар орқали серверлар билан боғланади. LMDS технологияси ITU-R (F.748) томонидан стандартлаштирилган.

Службная информация

uz - xizmat axboroti

хизмат ахбороти

en - service information

Вспомогательные данные, которые добавляются к информационному сообщению и служат для контроля его прохождения по сети и обеспечения заданного качества обслуживания.

Ахборот хабарига қўшиладиган ва унинг тармоқ орқали о‘тишини назорат қилиш ҳамда хизмат кўрсатишнинг тайинланган сифатини таъминlashда yordam берувчи қўшимча маълумотлар.

Ахборот хабарига қўшиладиган ва унинг тармоқ орқали ўтишини назорат қилиш ҳамда хизмат кўрсатишнинг тайинланган сифатини таъминlashда ёрдам берувчи қўшимча маълумотлар.

Службный канал;

службная линия

uz - xizmat kanali; xizmat

liniyasi

хизмат канали; хизмат

линияси

en - orderwire

Специально выделенные канал или линия, предназначенные для передачи телесигнализации, команд управления и другой вспомогательной информации, в том числе и для речевого обмена между обслуживающим персоналом разных пунктов связи.

Telesignalizatsiya, boshqarish buyruqlari va boshqa yordamchi axborotni uzatish, shu jumladan, turli aloqa punktlarida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar o‘rtasida nutqiy almashuvni ta‘minlash uchun maxsus ajratilgan kanal yoki liniya.

Телесигнализация, бошқариш буйруқлари ва бошқа ёрдамчи ахборотни узатиш, шу жумладан, турли алоқа пунктларида хизмат кўрсатувчи ходимлар ўртасида нутқий алмашувни таъминlash учун maxsus ажратилган канал ёки линия.

С

Случайный доступ

uz - tasodifiy foydalana olish

тасодифий фойдалана олиш

en - random access

Метод доступа, при котором несколько станций пытаются установить соединение через общий канал связи, передавая пакеты в независимые друг от друга моменты времени. В случае, если при передаче произошел конфликт, то повторная попытка осуществляется через случайно выбранный интервал времени.

Foydalana olish metodi, bunda bir nechta stansiya paketlarni bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan vaqt onlarida uzatgan holda, umumiy aloqa kanali orqali bog‘lanish o‘rnatishga urinadi. Agar, uzatishda to‘qnashuv yuz bersa, qayta urinish tasodifiy tanlangan vaqt intervali orqali amalga oshiriladi.

Фойдалана олиш методи, бунда бир нечта станция пакетларни бир-бирига боғлиқ бўлмаган вақт онларида узатган ҳолда, умумий алоқа канали орқали боғланиш ўрнатишга уринади. Агар, узатишда тўқнашув юз берса, қайта уриниш тасодифий танланган вақт интервали орқали амалга оширилади.

Смарт-карта, интеллектуальная карточка

uz - smart-karta, intellektual kartochka

смарт-карта, интеллектуал карточка

en - smart card

Пластиковая карточка с встроенным микропроцессором, содержащая все необходимые идентификационные данные о пользователе, в том числе персональное (счет в банке, страховой полис и другие). Подобная карточка часто используется в конечном оборудовании пользователя (например, в мобильном телефоне) и обеспечивает возможность санкционированного доступа в сеть.

Ichiga foydalanuvchilar haqidagi barcha zaruriy identifikatsiya ma'lumotlari, jumladan, shaxsiy (bank hisobi, sug'urta polisi va b.lar kabi) ma'lumotlarni saqlovchi mikroprotssessor o'rnatilgan plastik kartochka. Chastotalarning bunday kartoch-kasi foydalanuvchining oxirgi uskunasi (masalan, mobil telefonda) qo'llaniladi va tarmoqdan ruxsat etilgan tarzda foydalana olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ичига фойдаланувчилар ҳақидаги барча зарурий идентификация маълумотлари, жумладан, шах-

С

сий (банк ҳисоби, суғурта полиси ва б.лар каби) маълумотларни сақловчи микропроцессор ўрнатилган пластик карточка. Частоталарнинг бундай карточкаси фойдаланувчининг охириги ускунасида (масалан, мобил телефонда) қўлланилади ва тармоқдан рухсат этилган тарзда фойдалана олиш имкониятини таъминлайди.

Смартфон

uz - smartfon

смартфон

en - smart phone

Интеллектуальный телефон. Телефон с встроенным микропроцессором, малогабаритной клавиатурой и дисплеем, обеспечивающий возможность ввода и передачи данных.

Intellektual telefon. Mikroprotsessor oʻrnatilgan, kichik oʻlchamli klaviaturasi, maʼlumotlar kiritish va uzatish imkoniyatini taʼminlaydigan displeyi boʻlgan telefon.

Интеллектуал телефон. Микропроцессор ўрнатилган, кичик ўлчамли клавиатураси, маълумотлар киритиш ва узатиш имкониятини таъминлайдиган дисплейи бўлган телефон.

Смешанная архитектура

соты

uz - sotaning aralash

arxitekturasi

сотанинг аралаш

архитектураси

en - mixed cell architecture

Архитектура многозоновой сети, состоящая из сот разного размера, обычно макро, микро и пикосот.

Turli oʻlchamdagi sotalardan, odatda, makro, mikro va pikosotalardan iborat koʻp zonali tarmoq arxitekturasi.

Турли ўлчамдаги соталардан, одатда, макро, микро ва пикосоталардан иборат кўп зонали тармоқ архитектураси.

Снупер

uz - snuper

снупер

en - snooper

Некто, по воле случая (а иногда и неслучайно) нарушивший работу беспроводной сети.

Sharoit taqozosi bilan (baʼzida tasodifiy boʻlmagan holda) simsiz tarmoq ishini buzadigan qandaydir bir odam.

Шароит тақозоси билан (баъзида тасодифий бўлмаган ҳолда) симсиз тармоқ ишини бузадиган қандайдир бир одам.

С

Снятие манипуляции

uz - manipulyatsiyani bekor qilish

манипуляцияни бекор қилиш

en - keying-off

Совместно используемые ресурсы

uz - birgalikda foydalaniladigan resurslar

биргаликда
фойдаланиладиган ресурслар

en - shared resources

Совместное детектирование

uz - birgalikda detektorlash

биргаликда детекторлаш

en - joint detection

Размыкание цепи управления модулятором и прекращение излучения в эфир манипулированного сигнала.

Boshqaruv zanjirining modulyator tomonidan ajratilishi va manipulyatsiyalangan signalning efirga tarqalishining to'xtatilishi.

Бошқарув занжирининг модулятор томондан ажратилиши ва манипуляцияланган сигналнинг эфирга тарқалишининг тўхтатилиши.

Ресурсы, выделяемые одновременно нескольким пользователям или процессам.

Bir vaqtda bir nechta foydalanuvchiga yoki jara-yonga ajratiladigan resurslar.

Бир вақтда бир нечта фойдаланувчига ёки жараёнга ажратиладиган ресурслар.

Метод обнаружения полезного сигнала, который основан на совместной обработке кодовых последовательностей. Обычно применяется на базовой станции при идентификации сигналов от многих работающих мобильных радиостанций. При совместном детектировании, в отличие от обычного режима выделения сигнала, не требуется точное вычисление взаимокорреляционных функций каждого из принимаемых сигналов. Алгоритмы совместного детектирования и компенсации взаимных помех применяются и на мобильных станциях, но в упрощенном виде.

Kodli ketma-ketliklarni birgalikda qayta ishlashga asoslangan, foydali signalni payqab olish metodi. Ishlab turgan ko'plab mobil radiostansiyalarning signallarini identifikatsiyalashda, odatda, tayanch stansiyalarda qo'llaniladi. Birgalikda detektorlashda, signalni ajratib olishning odatdagi rejimidan farqli o'laroq, qabul qilinuvchi signaldan har birining o'zaro korrelyatsiyalovchi funksiyalarini aniq hisoblash talab etilmaydi. Birgalikda detektorlash va o'zaro xalqitlarni kompensatsiyalash algoritmlari mobil stansiyalarda ham qo'llaniladi, lekin ancha soddalashtirilgan tarzda.

С

Кодли кетма-кетликларни биргаликда қайта ишлашга асосланган, фойдали сигнални пайқаб олиш методи. Ишлаб турган кўплаб мобил радиостанцияларнинг сигналларини идентификациялашда, одатда, таянч станцияларда қўлланилади. Биргаликда детекторлашда, сигнални ажратиб олишнинг одатдаги режимидан фаркли ўларок, қабул қилинувчи сигналдан ҳар бирининг ўзаро корреляцияловчи функцияларини аниқ ҳисоблаш талаб этилмайди. Биргаликда детекторлаш ва ўзаро халақитларни компенсациялаш алгоритмлари мобил станцияларда ҳам қўлланилади, лекин анча соддалаштирилган тарзда.

Совмещенный канал управления

uz - qo'shma boshqaruv kanali
қўшма бошқарув канали
en - associated control channel
(ACCH)

Канал передачи управляющей информации, который обычно состоит из двух подканалов: низкоскоростного (SACCH) и высокоскоростного (FACCH). Первый из них используется для управления мощностью, а второй – для передачи команд переключения частоты.

Boshqaruvchi axborotni uzatish kanali, u odatda past tezlikli (SACCH) va yuqori tezlikli (FACCH) ikkita kanal qismidan tashkil topgan. Bu kanal qismlaridan birinchisi quvvatni boshqarishda, ikkinchisi esa chastotani qayta ulash buyruqlarini uzatishda foydalaniladi.

Бошқарувчи ахборотни узатиш канали, у одатда паст тезликли (SACCH) ва юқори тезликли (FACCH) иккита канал қисмидан ташкил топган. Бу канал қисмларидан биринчиси қувватни бошқаришда, иккинчиси эса частотани қайта улаш буйруқларини узатишда фойдаланилади.

Согласованная нагрузка

uz - moslashgan yuklama
мослашган юклама
en - matched load,
nonreflecting load

1 Нагрузка, параметры которой соответствуют получению в ней наибольшей мощности.

2 Нагрузка линии, при которой в линии отсутствует отраженная волна.

3 Нагрузка с собственным коэффициентом стоячей волны по напряжению не более 1,05.

1 Parametrlari unda ko'proq quvvatni olishga imkon beradigan yuklama.

С

2 Liniyada qaytgan to‘lqin yo‘qligini bildiradigan liniya yuklamasi.

3 Kuchlanish bo‘yicha turg‘un to‘lqin ko‘effitsiyenti 1,05 dan ko‘p bo‘lmagan yuklama.

1 Параметрлари унда кўпроқ қувватни олишга имкон берадиган юклама.

2 Линияда қайтган тўлқин йўқлигини билдирадиган линия юкламаси.

3 Кучланиш бўйича турғун тўлқин коэффициенти 1,05 дан кўп бўлмаган юклама.

Соединение

uz - bog‘lanish

боғланиш

en - link

Физическое соединение между двумя узлами в сети.

Tarmoqda bo‘lgan ikkita uzal o‘rtasidagi fizik bog‘lanish.

Тармоқда бўлган иккита узел ўртасидаги физик боғланиш.

Соединение на «последней миле»

uz - «so‘nggi milya» dagi

bog‘lanish

«сўнги миля» даги

боғланиш

en - last-mile connection

Соединение, обеспечивающее подключение удаленного абонента к магистральной линии связи.

Olisdagi abonentning, magistral aloqa liniyasiga ulanishini ta‘minlaydigan bog‘lanish.

Олисдаги абонентнинг, магистраль алоқа линиясига уланишини таъминлайдиган боғланиш.

Соканальная помеха

uz - yonkanal xalaqiti

ёнканал халақити

en - co-channel interference

Мешающий сигнал на входе приемника базовой станции, источником которого является другая базовая станция того же типа, использующая тот же частотный канал.

Tayanch stansiya qabulqilgichi kirishidagi, manbai ayni bir chastota kanalidan foydalanadigan ayni turdagi boshqa bir tayanch stansiya bo‘lgan, xalaqit beradigan signal.

Таянч станция қабулқилгичи киришидаги, манбаи айна бир частота каналдан фойдаланадиган айна турдаги бошқа бир таянч станция бўлган, халақит берадиган сигнал.

С

- Сокращение (избыточности); сжатие (данных)**
uz - qisqartirish (ortiqchalikni qisqartirish); siqish (ma'lumotlarni siqish)
қисқартириш (ортиқчаликни қисқартириш)
сиқиш (маълумотларни сиқиш)
en - reduction
- Сообщение о выходе из сети**
uz - tarmoqdan chiqish haqidagi xabar
тармоқдан чиқиш ҳақидаги хабар
en - sign-off message
- Сообщение с паролем**
uz - parolli xabar
паролли хабар
en - sign-on message
- Сообщение с распределенным адресом**
uz - taqsimlangan adresli xabar
тақсимланган адресли хабар
en - codress message
- Сообщение с фиксированным форматом**
uz - qayd etilgan formatli xabar
қайд этилган форматли хабар
en - fixed-format message
- Предварительное преобразование данных, позволяющее снизить объем передаваемой информации за счет частичного уменьшения ее избыточности.
- Uzatiladigan axborot hajmini, uning ortiqchaligini qisman kamaytirish hisobiga qisqartirish imkonini beradigan, ma'lumotlarni oldindan o'zgartirish.
- Узатиладиган ахборот ҳажмини, унинг ортиқчалигини қисман камайтириш ҳисобига қисқартириш имконини берадиган, маълумотларни олдиндан ўзгартириш.
- Сообщение (сигнал) поступающее от абонента после окончания сеанса связи.
- Aloqa seansi tugagandan so'ng abonentdan keladigan xabar (signal).
- Алоқа сеанси тугагандан сўнг абонентдан келадиган хабар (сигнал).
- Сообщение, предъявляемое абонентом при входе в сеть перед началом сеанса связи.
- Aloqa seansi boshlanishi oldidan, tarmoqqa kirish paytida abonent tomonidan beriladigan xabar.
- Алоқа сеанси бошланиши олдидан, тармоққа кириш пайтида абонент томонидан бериладиган хабар.
- Текстовое сообщение, в котором адрес распределен по всей его длине.
- Adresi butun uzunligi bo'yicha taqsimlangan matnli axborot.
- Адреси бутун узунлиги бўйича тақсимланган матнли ахборот.
- Сообщение фиксированной длины, структура которого в процессе информационного обмена не изменяется, а служебные символы передаются на заранее определенных позициях.
- Примечание – Такие сообщения передаются между терминалами и станциями со сходными характеристиками и протоколами связи.

С

Qayd etilgan uzunlikdagi xabar, uning strukturasi axborot almashuvi jarayonida o'zgarmaydi, xizmat simvollari esa oldindan aniqlangan pozitsiyalarda uzatiladi.

Izoh – Bunday xabarlar o'xshash aloqa xarakteristikalari va protokollariga ega bo'lgan terminallar va stansiyalar o'rtasida uzatiladi.

Қайд этилган узунликдаги хабар, унинг структураси ахборот алмашуви жараёнида ўзгармайди, хизмат символлари эса олдиндан аниқланган позицияларда узатилади.

Изоҳ – Бундай хабарлар ўхшаш алоқа хarakterистикалари ва протоколларига эга бўлган терминаллар ва станциялар ўртасида узатилади.

Соседний канал

uz - qo'shni kanal

қўшни канал

en - adjacent channel

Канал, который расположен рядом с рабочим и отстоит от него по частоте на величину, равную шагу сетки частот (25 kHz).

Ishchi kanal yonida joylashgan, chastota bo'yicha undan chastotalar to'ri qadamiga teng bo'lgan kattalikka (25 kHz) orqada qoladigan kanal.

Ишчи канал ёнида жойлашган, частота бўйича ундан частоталар тўри қадамига тенг бўлган катталикка (25 kHz) орқада қоладиган канал.

Состояние покоя

uz - sokinlik holati

сокинлик ҳолати

en - quiescent state

Установившееся состояние системы автоподстройки частоты при отсутствии внешнего управляющего сигнала.

Tashqi boshqaruvchi signal mavjud bo'lmaganida, chastotani avtosozlash tizimining qaror topgan holati.

Ташқи бошқарувчи сигнал мавжуд бўлмаганида, частотани автосозлаш тизимининг қарор топган ҳолати.

Состязание

uz - raqobat, tortishuv

рақобат, тортишув

en - contention

Ситуация, когда несколько устройств, процессов или программ конкурируют за использование общего ресурса. Стремление нескольких абонентских станций одновременно захватить общий канал (моноканал), чтобы передать по нему данные.

С

Umumiy resursdan foydalanish maqsadida, bir nechta qurilma, jarayon yoki dastur raqobat-lashadigan vaziyat. Bir nechta abonent stansiyasining bir vaqtda umumiy kanal (monokanal)ni, u orqali ma'lumotlarni uzatish maqsadida, egallab olishga intilishi.

Умумий ресурсдан фойдаланиш мақсадида, бир нечта қурилма, жараён ёки дастур рақобатлашадиган вазият. Бир нечта абонент станциясининг бир вақтда умумий канал (моноканал)ни, у орқали маълумотларни узатиш мақсадида, эгаллаб олишга интилиши.

Сота с равномерным покрытием

uz - tekis qoplangan sota
текис қопланган сота
en - uniform-coverage cell

Сота, в которой отсутствуют участки с недопустимо малым уровнем сигнала или области тени.

Signalning yo'l qo'yib bo'lmaydigan past darajali uchastkalari yoki soyali joylari yo'q bo'lgan sota.

Сигналнинг йўл қўйиб бўлмайдиган паст даражали участкалари ёки сояли жойлари йўқ бўлган сота.

Сота, ячейка

uz - yacheyka (sota)
ячейка (сота)
en - cell

Географическая зона покрытия одной базовой станции.

Bitta tayanch stansiyaning geografik qoplash zonasi.

Битта таянч станциянинг географик қоплаш зонаси.

Сотовая кассета

uz - sotali kasseta
сотали кассета
en - cell

Дополнительная принадлежность мобильного спутникового телефона, обеспечивающая взаимодействие с сетью GSM и фактически позволяющая аппарату работать в двух режимах. Телефон может быть переключен в один из режимов по выбору или в автоматический режим, когда он пытается сначала подключиться к сети стандарта GSM. Если сеть недоступна, аппарат автоматически переключается в спутниковый режим.

Mobil yo'ldoshli telefonning, GSM tarmog'i bilan birga ishlashini ta'minlaydigan va apparaturaga ikki rejimda ishlash imkonini beradigan qo'shimcha jihozi. Telefon rejimlardan biriga tanlov bo'yicha yoki avval GSM standarti tarmog'iga ulanishga urinayotganda avtomatik rejimga ulanishi mumkin.

С

Agar, tarmoqqa kirish mumkin bo'lmasa, apparat avtomatik tarzda yo'ldoshli rejimga ulanadi.

Мобил йўлдошли телефоннинг, GSM тармоғи билан бирга ишлашни таъминлайдиган ва аппаратурага икки режимда ишлаш имконини берадиган кўшимча жиҳози. Телефон режимлардан бирига танлов бўйича ёки аввал GSM стандарти тармоғига уланишга уринаётганда автоматик режимга уланиши мумкин. Агар, тармоққа кириш мумкин бўлмаса, аппарат автоматик tarzda йўлдошли режимга уланади.

Сотовая связь

uz - sotali aloqa

сотали алоқа

en - cellular communication

Беспроводная персональная телекоммуникационная система, которая использует контроллеры базовой станции, имеющие мультинаправленные антенны, для создания пространственных ячеек с целью многократного использования одной и той же полосы частот благодаря пространственному разделению.

Fazoviy ajralish tufayli, ayni bir chastotalar polosasi-
sidan ko'p marta foydalanish maqsadida fazoviy
yacheykalar yaratish uchun multiyo'naltirilgan an-
tennalari bo'lgan tayanch stansiya kontrollerlaridan
foydalaniladigan, simsiz shaxsiy telekommunikat-
siya tizimi.

Фазовий ажралиш туфайли, айна бир частоталар
полосасидан кўп марта фойдаланиш мақсадида
фазовий ячейкалар яратиш учун мултийўналти-
рилган антенналари бўлган таянч станция
контроллерларидан фойдаланиладиган, симсиз
шахсий телекоммуникация тизими.

Сотовая сеть

uz - sotali tarmoq

сотали тармоқ

en - cellular network

Сеть, состоящая из множества ячеек (сот), в цен-
тре которых располагаются базовые станции,
взаимодействующие с шестью соседними базо-
выми станциями. Сигнал передается от одной ба-
зовой станции к другой по всей зоне покрытия
сотовой сети. Такая структура сети позволяет
абоненту использовать мобильный телефон, сво-
бодно перемещаясь в пространстве, не задумы-
ваясь о том, к какой базовой станции он подклю-
чен в данный момент.

С

Markazida, oltita qo‘shni tayanch stansiya bilan birgalikda ishlaydigan tayanch stansiyalar joylashgan ko‘plab yacheykalar (sotalar)dan iborat tarmoq. Signal bir tayanch stansiyadan boshqasiga sotali tarmoqning butun qamrov zonasi bo‘ylab uzatiladi. Tarmoqning bunday strukturasi abonentga mobil telefondan erkin harakatlangan holda, ayni paytda qaysi tayanch stansiyaga ulanganligi to‘g‘risida o‘ylamay foydalanish imkonini beradi.

Марказида, олтита қўшни таянч станция билан биргаликда ишлайдиган таянч станциялар жойлашган кўплаб ячейкалар (соталар)дан иборат тармоқ. Сигнал бир таянч станциядан бошқасига сотали тармоқнинг бутун қамров зонаси бўйлаб узатилади. Тармоқнинг бундай структураси абонентга мобил телефондан эркин ҳаракатланган ҳолда, айти пайтда қайси таянч станцияга уланганлиги тўғрисида ўйламай фойдаланиш имконини беради.

Сотовая система
uz - sotali tizim
сотали тизим
en - cellular system

Система связи, состоящая из нескольких базовых приемопередающих станций и соответствующих им зон покрытия (сот), в которых размещены мобильные терминалы. Когда абонент перемещается из одной соты в другую, он автоматически переключается на ближайшую базовую станцию, качество связи с которой в данный момент наилучшее. Все базовые станции связаны друг с другом, что позволяет организовать связь между любой парой абонентов. Кроме того, каждая базовая станция подключена к сети общего пользования и обеспечивает как входящие, так и исходящие звонки. В отличие от конвенциональных и транкинговых систем, сотовая связь предназначена в первую очередь для обеспечения персональной связи в дуплексном режиме.

Bir nechta qabulqiluvchi-uzatuvchi tayanch stansiya va mobil terminallar joylashtirilgan qoplash zonalari (yacheykalar)dan iborat aloqa tizimi. Abonent bir yacheykadan boshqasiga o‘tganda, u avtomatik ravishda, ayni damda aloqa sifati eng yaxshi bo‘lgan

С

boshqa bir, yaqinroqdagi tayanch stansiyaga ulanadi. Barcha tayanch stansiyalar bir-biri bilan bogʻlangan, bu esa har qanday abonent juftligi oʻrtasida aloqani tashkil etish imkonini beradi. Bundan tashqari, har bir tayanch stansiya umumiy foydalanish tarmogʻiga ulangan boʻlib, ham kiruvchi, ham chiquvchi qoʻngʻiroqlarni taʼminlaydi. Konvensial va trunking tizimlardan farqli oʻlaroq, sotali aloqa, birinchi navbatda, dupleks rejimda shaxsiy aloqani taʼminlash uchun moʻljallangan.

Бир нечта қабулқилувчи-узатувчи таянч станция ва мобил терминаллар жойлаштирилган қоплаш зоналари (ячейкалар)дан иборат алоқа тизими. Абонент бир ячейкадан бошқасига ўтганда, у автоматик равишда, айна дамда алоқа сифати энг яхши бўлган бошқа бир, яқинроқдаги таянч станцияга уланади. Барча таянч станциялар бир-бири билан боғланган, бу эса ҳар қандай абонент жуфтлиги ўртасида алоқани ташкил этиш имконини беради. Бундан ташқари, ҳар бир таянч станция умумий фойдаланиш тармоғига уланган бўлиб, ҳам кирувчи, ҳам чиқувчи қўнғироқларни таъминлайди. Конвенциал ва транкинг тизимлардан фарқли ўлароқ, сотали алоқа, биринчи навбатда, дуплекс режимда шахсий алоқани таъминлаш учун мўлжалланган.

Сотовое широковещение

uz - sotali keng eshittirish

сотали кенг эшиттириш

en - cell broadcast

Распространение по каналам сотовой связи информационно-справочной информации, доступной всем зарегистрированным абонентам. Зона широковещения может динамически изменяться от части здания, локальной городской зоны до размеров всей сети.

Sotali aloqa kanallari boʻylab, roʻyxatga olingan barcha abonentlar foydalana olishi mumkin boʻlgan axborot-maʼlumotnoma xabarlarining tarqatilishi. Keng eshittirish zonasi binoning bir qismi yoki lokal shahar zonasidan to butun tarmoq oʻlchamigacha, dinamik ravishda oʻzgarishi mumkin.

С

Сотали алоқа каналлари бўйлаб, рўйхатга олинган барча абонентлар фойдалана олиши мумкин бўлган ахборот-маълумотнома хабарларининг тарқатилиши. Кенг эшиттириш зонаси бинонинг бир қисми ёки локал шаҳар зонасидан то бутун тармоқ ўлчамигача, динамик равишда ўзгариши мумкин.

Спаривание

uz - juftlash, biriktirish

жуфтлаш, бириктириш

en - pairing

1 Объединение двух битов в одну кодовую комбинацию, применяемое в системах кодирования и модуляции.

2 Агрегирование двух соседних интервалов в кадре TDMA с целью увеличения абонентской скорости передачи.

1 Ikkita bitni bitta kodli kombinatsiyaga birlashtirish; kodlash va modulyatsiyalash tizimlarida qoʻllaniladi.

2 TDMA kadridagi ikkita qoʻshni intervalni uzatish tezligini oshirish maqsadida agregirlash.

1 Иккита битни битта кодли комбинацияга бирлаштириш; кодлаш ва модуляциялаш тизимлариди қўлланилади.

2 TDMA кадридидаги иккита қўшни интервални узатиш тезлигини ошириш мақсадида агрегирлаш.

Спектр

uz - spektr

спектр

en - spectrum

Функция, описывающая зависимость изменения амплитуды и фазы сигнала от частоты и однозначно определяющая его характеристики и свойства.

Примечание – Спектр любого сигнала может быть представлен в виде суммы большого числа гармонических колебаний с различными частотами, амплитудами и фазами. Такое разложение на гармонические составляющие называется спектральным разложением, а его свойства могут быть описаны с помощью распределения спектра амплитуд (энергетический спектр) и спектра фаз.

Signal amplitudasi va fazasining chastotaga bogʻliq ravishda oʻzgarishini tavsiflovchi hamda signalning xarakteristika va xossalarni qatʻiy belgilovchi funktsiya.

Izoh – Har qanday signalning spektri turli chastota, amplituda va fazadagi garmonik tebranishlarning yigʻindisi tarzida

С

ifodalanishi mumkin. Garmonik tashkil etuvchilarga bunday ajratish spektral parchalanish deyiladi, uning xossalari esa amplitudalar spektri (energetik spektr) va fazalar spektrini taqsimlash yordamida tavsiflanishi mumkin.

Сигнал амплитудаси ва фазасининг частотага боғлиқ равишда ўзгаришини тавсифловчи ҳамда сигналнинг характеристика ва хоссаларини катъий белгиловчи функция.

Изох – Ҳар қандай сигналнинг спектри турли частота, амплитуда ва фазадаги гармоник тебранишларнинг йиғиндиси тарзида ифодаланиши мумкин. Гармоник ташкил этувчиларга бундай ажратиш спектрал парчаланиш дейилади, унинг хоссалари эса амплитудалар спектри (энергетик спектр) ва фазалар спектрини тақсимлаш ёрдамида тавсифланиши мумкин.

Спектр мощности по задержке

uz - kechikish bo'yicha quvvat spektri

кечикиш бўйича қувват спектри

en - delay power spectrum

Распределение мощности спектральных составляющих принимаемого сигнала в зависимости от времени.

Qabul qilinayotgan signal spektral tashkil etuvchilari quvvatining vaqtga bog'liq ravishda taqsimlanishi.

Қабул қилинаётган сигнал спектрал ташкил этувчилари қувватининг вақтга боғлиқ равишда тақсимланиши.

Спектральная плотность

uz - spektral zichlik

спектрал зичлик

en - spectral density

Плотность распределения средней мощности сигнала в зависимости от частоты. Спектральная плотность определяется в ограниченной полосе частот (измеряется в W/Hz). Квадрат модуля спектральной плотности называют энергетической спектральной плотностью сигнала.

Chastotaga bog'liq holda signal o'rtacha quvvatining taqsimlanish zichligi. Spektral zichlik cheklangan chastotalar polosasida aniqlanadi (W/Hz larda o'lchanadi). Spektral zichlik modulining kvadrati, signalning energetik spektral zichligi deyiladi.

Частотага боғлиқ ҳолда сигнал ўртача қувватининг тақсимланиш зичлиги. Спектрал зичлик чекланган частоталар полосасида аниқланади (W/Hz ларда ўлчанади). Спектрал зичлик модулининг квадрати, сигналнинг энергетик спектрал зичлиги дейилади.

С

Спектральная чувствительность
uz - spektral sezgirlik
спектрал сезгирлик
en - spectral responsivity

Чувствительность оптического прибора, зависящая от воздействия электромагнитных колебаний определенной длины волны.

Optik asbobning, ma'lum to'liqin uzunligidagi elektromagnet tebranishlar ta'siriga bog'liq sezgirliги.

Битта элтувчи частотадан каналларни ажратиш методи, бунда турли каналларнинг сигналлари фойдаланиладиган кодли (одатда, псевдотасодифий) кетма-кетлик турлари бўйича фарқланиши талаб қилинади.

Т

Технология многостанционного доступа с кодовым разделением каналов

uz - kanallarni kod bo'yicha ajratish bilan ko'p stansiyali foydalana olish texnologiyasi

каналларни код бўйича ажратиш билан кўп станцияли фойдалана олиш технологияси

en - code division multiple access (CDMA)

Технология кодового доступа, основанная на использовании сигналов с расширенным спектром. Обычно применяются фазоманипулированные сигналы, сформированные на базе кодовых псевдослучайных последовательностей (ПСП) с «хорошими» взаимокорреляционными свойствами. Использование различных ПСП позволяет абонентам системы CDMA работать в общей полосе частот и получать доступ к любому каналу. К основным преимуществам технологии CDMA относятся: высокая помехоустойчивость по отношению к узкополосным помехам, трансформируемым в процессе свертки сигнала в обычный шум, высокая спектральная эффективность в каналах с многолучевым распространением радиоволн, возможность мягкого переключения каналов (хэндовер) при переходе абонента из одной зоны в другую и др. Все базовые станции сети работают на одной частоте, а следовательно отпадает необходимость в частотном планировании. Главные трудности при внедрении технологии CDMA – высокая чувствительность к разбросу мощностей абонентских станций и необходимость синхронизации базовых станций (стандарт IS-95).

Kengaytirilgan spektrli signallardan foydalanishga asoslangan kodli foydalana olish texnologiyasi. Bunda, odatda, o'zaro «yaxshi» korrelyatsiyalanish xossalariga ega bo'lgan kodli psevdotasodifiy ketma-ketlik (PTK) lar negizida tashkil etilgan fazaviy manipulyatsiyalangan signallar qo'llaniladi. Turli PTK lardan foydalanish CDMA tizimi abonentlariga chastotalarning umumiy polosasida ishlash va har qanday kanaldan foydalanish imkonini beradi. CDMA texnologiyasining asosiy ustunliklariga: signalni o'ramga aylantirish jarayonida oddiy shovqin-ga transformatsiyalanadigan tor polosali xalaqitlarga nisbatan yuqori xalaqitga chidamlilik, radioto'lqinlar ko'p nurli tarqaladigan kanallarda yuqori spektral effektivlik, abonent bir zonadan boshqasiga ko'chib o'tganida kanallarni ohista almashlab ulash (xendo-ver) kiradi. Tarmoqdagi barcha tayanch stansiyalar

T

bitta chastotada ishlaydi, shuning uchun chastotaviy rejalashtirish zarurati yo‘q. Abonent stansiyalari quvvatlarining sochilishiga bo‘lgan yuqori sezgirlik va tayanch stansiyalarni sinxronlash zarurati (IS-95 standarti) – CDMA texnologiyasini joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklardir.

Кенгайтирилган спектрли сигналлардан фойдаланишга асосланган кодли фойдалана олиш технологияси. Бунда, одатда, ўзаро «яхши» корреляцияланиш хоссаларига эга бўлган кодли псевдотасодифий кетма-кетлик (ПТК) лар негизида ташкил этилган фазавий манипуляцияланган сигналлар қўлланилади. Турли ПТК лардан фойдаланиш CDMA тизими абонентларига частоталарнинг умумий полосасида ишлаш ва ҳар қандай каналдан фойдаланиш имконини беради. CDMA технологиясининг асосий устунликларига: сигнални ўрамга айлантириш жараёнида оддий шовқинга трансформацияланадиган тор полосали халақитларга нисбатан юқори халақитга чидамлилиқ, радиотўлқинлар кўп нузли тарқаладиган каналларда юқори спектрал эффективлик, абонент бир зонадан бошқасига кўчиб ўтганида каналларни оҳиста алмашлаб улаш (хэндовер) киради. Тармоқдаги барча таянч станциялар битта частотада ишлайди, шунинг учун частотавий режалаштириш зарурати йўқ. Абонент станциялари қувватларининг сочилишига бўлган юқори сезgirlik ва таянч станцияларни синхронлаш зарурати (IS-95 стандарти) – CDMA технологиясини жорий этишдаги асосий қийинчиликлардир.

Технология радиодоступа

uz - radiofoydalanish
texnologiyasi

радиофойдаланиш
технологияси

en - radio transmission
technology (RTT)

Совокупность аппаратных и программных средств, протоколов организации связи, методов модуляции, кодирования и шифрования, определяющих способ передачи информации по радиоканалам.

Radiokanallar bo‘ylab axborot uzatish usullarini belgilovchi apparat va dasturiy vositalar, aloqani tashkil qilish protokollari, modulyatsiyalash, kodlash va shifrlash metodlarining jami.

Т

Радиоканаллар бўйлаб ахборот узатиш усуллари белгиланган аппарат ва дастурий воситалар, алоқани ташкил қилиш протоколлари, модуляциялаш, кодлаш ва шифрлаш методларининг жами.

Типовой элемент замены

uz - namunaviy almashtirish elementi

намунавий алмаштириш
элементи

en - line removable unit

Минимальная сменная, функционально законченная сборочная единица, подлежащая замене при восстановлении работоспособности.

Ishlash qobiliyatini tiklash chogʻida almashtirilishi zarur boʻlgan, almashtiriladigan eng kichik, funksional tugallangan yigʻma birlik.

Ишлаш қобилиятини тиклаш чоғида алмаштирилиши зарур бўлган, алмаштириладиган энг кичик, функционал тугалланган йиғма birlik.

Тональный многочастотный набор номера

uz - raqamni tonal koʻp chastotali terish

рақамни тонал кўп
частотали териш

en - dual-tone multi-frequency signal (DTMF)

Способ кодирования цифр с помощью комбинации двух звуковых сигналов DTMF. Передача по сети сигналов различной частоты – при нажатии цифровой клавиши телефона в сеть передается индивидуальный сигнал. Это возможность необходима для доступа к некоторым сетевым функциям (голосовая почта, E-mail).

Raqamlarni DTMF ikkita tovush signalining qoʻshilishi yordamida kodlash usuli. Turli chastotadagi signallarni tarmoq orqali uzatish – telefonning sonli tugmalari bosilganda tarmoqqa yakka signal uzatiladi. Bunday imkoniyat baʼzi bir tarmoq funksiyalaridan (ovozli pochta, E-mail) foydalanish uchun zarur.

Рақамларни DTMF иккита товуш сигналининг қўшилиши ёрдамида кодлаш усули. Турли частотадаги сигналларни тармоқ орқали узатиш – телефоннинг сонли тугмалари босилганда тармоққа якка сигнал узатилади. Бундай имконият баъзи бир тармоқ функцияларидан (овозли почта, E-mail) фойдаланиш учун зарур.

Тональный сигнал

«номер недоступен»

uz - «nomer bilan bogʻlanish mumkin emas» tonal signali

Звуковая сигнализация, передаваемая вызываемому абоненту в случае, если номер вызываемого абонента недоступен (например, если последний находится вне зоны действия ретранслятора

Т

«номер билан боғланиш мумкин эмас» тонал сигнали
en - number-unobtainable tone

или его радиостанция выключена). Если линия занята или абонент не отвечает, то в этом случае генерируется сигнал «номер не доступен».

Chaqiruvchi abonentga chaqiriluvchi abonentning raqamiga bog‘lanish mumkin bo‘lmagan holatda uzatiladigan tovushli signalizatsiya (masalan, chiqariluvchi, retranslyatorning ta’sir zonasidan tashqarida yoki uning radiostansiyasi o‘chirilgan bo‘lsa). Agar liniya band bo‘lsa yoki abonent javob bermasa, bunday vaziyatda «nomer bilan bog‘lanish mumkin emas» signali hosil qilinadi.

Чақирувчи абонентга чақирилувчи абонентнинг рақамига боғланиш мумкин бўлмаган ҳолатда узатиладиган товушли сигнализация (масалан, чиқарилувчи, ретрансляторнинг таъсир зонаси-дан ташқарида ёки унинг радиостанцияси ўчирилган бўлса). Агар линия банд бўлса ёки абонент жавоб бермаса, бундай вазиятда «номер билан боғланиш мумкин эмас» сигнали ҳосил қилинади.

Тональный сигнал готовности

uz - tayyorlik tonal signali

тайёрлик тонал сигнали

en - go-ahead tone

Звуковой сигнал, информирующий о том, что станция готова к приему сообщений.

Stansiyaning xabarlarini qabul qilishga tayyor ekanligini bildiruvchi tovush signali.

Станциянинг хабарларни қабул қилишга тайёр эканлигини билдирувчи товуш сигнали.

Топология разделяемых сред
uz - bo‘linuvchi muhitlar topologiyasi

бўлинувчи муҳитлар топологияси

en - shared-media topology

Топология, при которой одна и та же линия передачи данных поочередно используется всеми абонентами сети. Наиболее характерные примеры такой топологии – сеть с шинной или кольцевой структурами.

Ma’lumotlar uzatishning aynan bitta liniyasidan tarmoqning barcha abonentlari navbatma-navbat foydalanadigan topologiya. Bunday topologiyaga xarakterli misollar – shina yoki halqa strukturasi ega tarmoqdir.

Т

Маълумотлар узатишнинг айнан битта линиясидан тармоқнинг барча абонентлари навбатманавбат фойдаланадиган топология. Бундай топологияга характерли мисоллар – шина ёки халқа структурасига эга тармоқдир.

Точка доступа

uz - kirish nuqtasi

кириш нуқтаси

en - access point (AP)

Беспроводной концентратор или «базовая станция», которая передает или получает Wi-Fi беспроводной поток данных и обеспечивает подключение нескольких беспроводных клиентов к локальной сети или Интернет. Работает в радиусе (30–150) м. Наличие внешней антенны увеличивает дальность действия. Точка доступа обычно выполняет функции интерфейса между проводной и беспроводной сетями. При этом, проводная сеть через маршрутизатор подключена к Интернет. Точка доступа может быть выполнена в виде отдельного устройства либо реализована на базе оборудованного адаптером беспроводных сетей компьютера с соответствующим программным обеспечением. Существуют точки беспроводного доступа, поддерживающие стандарты 802.11a, 802.11b, а также стандарт 802.11a/b (такие точки доступа обеспечивают работу устройств обоих стандартов – 802.11a и 802.11b).

Simsiz konsentrator yoki 802.11 standartida simsiz ma'lumotlar oqimini uzatadigan yoki qabul qiladigan va bir nechta simsiz mijozlarning lokal tarmoq yoki Internetga ulanishini ta'minlaydigan «tayanch stansiya». 30–150 m radiusda ishlaydi. Tashqi antenning mavjudligi ta'sir masofasini oshiradi. Kirish nuqtasi odatda, simli va simsiz tarmoqlar o'rtasidagi interfeys funksiyalarni bajaradi. Bunda simli tarmoq marshrutizator orqali Internetga ulangan bo'ladi. Kirish nuqtasi alohida qurilma ko'rinishida yoki tegishli dasturiy ta'minotga ega bo'lgan, simsiz tarmoqlar adapteri bilan jihozlangan kompyuter asosida bo'lishi mumkin. 802.11a, 802.11b standartlarida, shuningdek, 802.11a/b standartida ishlaydigan simsiz kirish nuqtalari (bunday kirish nuqtalari har ikkala – 802.11a va 802.11b standartidagi qurilmalar ishini ta'minlaydi) mavjud.

Т

Симсиз концентратор ёки 802.11 стандартида симсиз маълумотлар оқимини узатадиган ёки қабул қиладиган ва бир нечта симсиз мижозларнинг локал тармоқ ёки Интернетга уланишини таъминлайдиган «таянч станция». 30-150 m радиусда ишлайди. Ташқи антеннанинг мавжудлиги таъсир масофасини оширади. Кириш нуқтаси одатда, симли ва симсиз тармоқлар ўртасидаги интерфейс функцияларни бажаради. Бунда симли тармоқ маршрутизатор орқали Интернетга уланган бўлади. Кириш нуқтаси алоҳида қурилма кўринишида ёки тегишли дастурий таъминотга эга бўлган, симсиз тармоқлар адаптери билан жиҳозланган компьютер асосида бўлиши мумкин. 802.11a, 802.11b стандартларида, шунингдек, 802.11a/b стандартида ишлайдиган симсиз кириш нуқталари (бундай кириш нуқталари ҳар иккала – 802.11a ва 802.11b стандартидаги қурилмалар ишини таъминлайди) мавжуд.

Точка доступа GPRS

uz - GPRS kirish nuqtasi

GPRS кириш нуқтаси

en - GPRS access point

Интерфейс между сетью GPRS и внешней сетью передачи данных, например, сетью Интернет. Для работы мобильного телефона в качестве GPRS модема, а также доступа к WAP ресурсам через GPRS необходимо правильно обозначить точку доступа.

GPRS tarmog‘i va tashqi ma’lumotlar tarmog‘i, masalan, Internet tarmog‘i o‘rtasidagi interfeys, mobil telefon GPRS modemi sifatida ishlashi, shuningdek, GPRS orqali WAP resurslaridan foydalanish uchun, kirish nuqtasi aniq belgilanishi zarur.

GPRS тармоғи ва ташқи маълумотлар тармоғи, масалан, Интернет тармоғи ўртасидаги интерфейс, мобил телефон GPRS модеми сифатида ишлаши, шунингдек, GPRS орқали WAP ресурсларидан фойдаланиш учун, кириш нуқтаси аниқ белгиланиши зарур.

Точный код (P-код)

uz - aniq kod (P -kod)

аниқ код (P-код)

en - precision code (P-code)

Код, обеспечивающий точное определение координат в системе GPS. P-код передается на частоте L2 с использованием сверхдлинной псевдослучайной последовательности с периодом повторения 267 дней и тактовой частотой 10,23 МГц.

T

GPS tizimida koordinatlarning aniq belgilanishini ta'minlovchi kod. P-kod L2 chastotada, takrorlanish davri 267 kun va takt chastotasi 10,23 MHz bo'lgan o'ta uzun psevdotasodifiy ketma-ketlikdan foydalanilgan holda, uzatiladi.

GPS tizimida koordinatlarнинг аниқ белгила-нишини таъминловчи код. P-код L2 частотада, такрорланиш даври 267 кун ва такт частотаси 10,23 MHz бўлган ўта узун псевдотасодифий кетма-кетликдан фойдаланган ҳолда, узатилади.

Традиционные услуги электросвязи

uz - an'anaviy elektraloqa xizmatlari

анъанавий электралоқа хизматлари

en - traditional telecommunication services

Услуги, предоставляемые сложившимися и широко распространенными службами электро-связи.

Shakllangan va keng tarqalgan elektraloqa xizmatlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar.

Шаклланган ва кенг тарқалган электралоқа хизматлари томонидан тақдим этиладиган хизматлар.

Транзакция

uz - tranzaksiya

транзакция

en - transaktion

Короткий по времени цикл взаимодействия объектов, включающий: запрос – выполнение задания – ответ. Обычно осуществляется в режиме диалога.

Ob'ektlarning vaqt bo'yicha qisqa bo'lgan birgalikda ishlash sikli. O'z ichiga «so'rov – topshiriqning bajarilishi – javob» ni oladi. Odatda, dialog rejimida amalga oshiriladi.

Объектларнинг вақт бўйича қисқа бўлган биргаликда ишлаш цикли. Ўз ичига «сўров – топширикнинг бажарилиши – жавоб» ни олади. Одатда, диалог режимида амалга оширилади.

Транк

uz - trank

транк

en - trunk

Канал или группа каналов, организуемые между двумя станциями или узлами сети, причем последние оснащены коммутационным оборудованием или средствами для распределения каналов. В сетях телефонной связи различают три вида соединительных линий: междугородная (магис-

Т

тральная), межстанционная (местная) и внутристанционная, организуемая между рабочими местами операторов. В сетях спутниковой и радиорелейной связи транковое соединение организуется между двумя коммутационными центрами.

Tarmoqning ikki stansiyasi yoki uzellari o'rtasida tashkil qilinadigan kanal yoki kanallar guruhi, shu bilan birgalikda stansiya va uzellar kommutatsiya uskunalari yoki kanallarni taqsimlash vositalariga ega bo'ladi. Telefon aloqasi tarmoqlarida birlashtiruvchi liniyalarning uch turi farq qilinadi: shaharlararo (magistral), stansiyalararo (mahalliy) va operatorlarning ish joylari orasida tashkil etiladigan stansiya ichidagi liniyalar. Yo'ldoshli va radioreleli aloqa tarmoqlarida trunk bog'lanish ikki kommutatsiya markazi o'rtasida tashkil etiladi.

Тармоқнинг икки станцияси ёки узеллари ўртасида ташкил қилинадиган канал ёки каналлар гуруҳи, шу билан биргаликда станция ва узеллар коммутация ускуналари ёки каналларни тақсимлаш воситаларига эга бўлади. Телефон алоқаси тармоқларида бирлаштирувчи линияларнинг уч тури фарқ қилинади: шаҳарлараро (магистрал), станциялараро (маҳаллий) ва операторларнинг иш жойлари орасида ташкил этиладиган станция ичидаги линиялар. Йўлдошли ва радиорелели алоқа тармоқларида trunk боғланиш икки коммутация маркази ўртасида ташкил этилади.

Транкинг
uz - trunking
 транкинг
en - trunking

Метод автоматического распределения свободных каналов, предоставляемых по запросу абонента; при этом каждый терминал может работать на любой из нескольких фиксированных частот выделенного диапазона.

Abonent so'roviga muvofiq taqdim etiladigan, bo'sh kanallarni taqsimlashning avtomatik metodi; bunda har bir terminal ajratilgan diapazonning bir nechta qayd etilgan chastotalaridan istalgan birida ishlashi mumkin.

Т

Абонент сўровига мувофиқ тақдим этиладиган, бўш каналларни тақсимлашнинг автоматик методи; бунда ҳар бир терминал ажратилган диапазоннинг бир нечта қайд этилган частоталаридан исталган бирида ишлаши мумкин.

Транкинг общего пользования

uz - umumiy foydalanishdagi trunking

умумий фойдаланишдаги транкинг

en - public trunking

Транкинговая связь, которая обеспечивает услуги сетей общего пользования, сохраняя при этом возможность организации профессиональной связи. Переход от узкоспециализированных ведомственных к коммерческим сетям, предъявляет ряд новых требований, касающихся сигнализации, нумерации, сетевого управления, биллинговых расчетов и обеспечения информационной безопасности. Реализация этих требований стала возможной лишь при переходе к новым цифровым стандартам (TETRA, ARSO 25 и др.).

Professional aloqani tashkil etish imkoniyati saqlangan holda, umumiy foydalanishdagi tarmoqlarning xizmatlarini ta'minlaydigan trunking aloqa. Tor ixtisoslashtirilgan idora tarmoqlaridan tijorat tarmoqlariga o'tish signalizatsiya, raqamlash, tarmoq boshqaruvi, billing hisob-kitoblar hamda axborot xavfsizligini ta'minlash borasida yangi talablar qo'yadi. Bu talablarni yangi raqamli standartlarga (TETRA, ARSO 25 va boshqalar) o'tilgandan so'ng bajarish mumkin bo'ldi.

Профессионал алоқани ташкил этиш имконияти сақланган ҳолда, умумий фойдаланишдаги тarmoqlarning хизматларини таъминлайдиган транкинг алоқа. Тор ихтисослаштирилган идора тarmoqlaridan тижорат тarmoqlarига ўтиш сигнализация, рақамлаш, тarmoq бoшқаруви, биллинг ҳисоб-китоблар ҳамда ахборот хавфсизлигини таъминлаш борасида янги талаблар қўяди. Бу талабларни янги рақамли стандартларга (TETRA, ARSO 25 ва бoшқалар) ўтилгандан сўнг бажариш мумкин бўлди.

Транкинг передач

uz - uzatishlar trunkingi

узатишлар транкинги

en - transmission trunking

Метод динамического выделения каналов при организации транкинговой связи. Канал выделяется абоненту только на ограниченное время и освобождается сразу же по завершении работы

Т

передатчика. Следующий после паузы сеанс связи может быть организован через любой, свободный в данный момент канал. Такой режим позволяет повысить пропускную способность транкинговых систем, однако в случае превышения максимального значения нагрузки системы, особенно в часы пик, возможны задержки при передаче информации и, как следствие, снижение комфортности разговоров.

Tranking aloqani tashkil etishda kanallarni dinamik ajratish metodi. Kanal abonentga faqat cheklangan vaqtga ajratiladi va uzatkichning ishi tugagan zahoti bo'shatiladi. Puzadan keyingi aloqa seansi ayni paytda bo'sh turgan har qanday kanal orqali tashkil etilishi mumkin. Bunday rejim tranking tizimlarning o'tkazish qobiliyatini oshirish imkonini beradi, biroq, tizimdagi yuklama maksimal qiymatidan oshib ketgan holda, ayniqsa, tig'iz payt (soatlar)da, axborot uzatilishidagi kechikishlar oqibatida, so'zlashuvlar qulayligi pasayishi mumkin.

Транкинг алоқани ташкил этишда каналларни динамик ажратиш методи. Канал абонентга фақат чекланган вақтга ажратилади ва узаткичнинг иши тугаган заҳоти бўшатилади. Паузадан кейинги алоқа сеанси айна пайтда бўш турган ҳар қандай канал орқали ташкил этилиши мумкин. Бундай режим транкинг тизимларнинг ўтказиш қобилиятини ошириш имконини беради, бироқ, тизимдаги юклама максимал қийматидан ошиб кетган ҳолда, айниқса, тифиз пайт (соатлар)да, ахборот узатилишидаги кечикишлар оқибатида, сўзлашувлар қулайлиги пасайиши мумкин.

Транкинг сообщений

uz - xabarlar trankingi

хабарлар транкинги

en - message trunking

Метод установления соединений в системах радиосвязи, при котором канал выделяется абоненту в начале сеанса и освобождается лишь по его окончании.

Radioaloqa tizimlarida bog'lanishni o'rnatish metodi, bunda kanal abonentga seansning boshlanishida ajratib beriladi va uning tugallanishi bilan bo'shatiladi.

Т

Радиоалоқа тизимларида боғланишни ўрнатиш методи, бунда канал абонентга сеансинг бошланишида ажратиб берилади ва унинг тугалланиши билан бўшатилади.

Транкинговая система

uz - trunking tizimi

транкинг тизими

en - trunking system

Система профессиональной радиосвязи с радиально-узловой структурой и с относительно небольшим объемом трафика в зоне обслуживания обычно не более (1-2) Erl/km². Характерной чертой транкинговых систем является возможность обеспечения группового вызова и высокая оперативность установления соединения (до 250 ms), а также работа в полудуплексном режиме. Поддержка дуплексного режима с выходом в телефонную сеть общего пользования не является обязательной функцией.

Radial-uzelli struktura va xizmat ko'rsatish zonasida nisbatan kamroq hajmli odatda, (1-2) Erl/km² dan ko'p bo'lmagan trafikka ega professional radioaloqa tizimi. Guruhli chaqiruvni ta'minlash imkoniyati va bog'lanish o'rnatilishining yuqori tezkorligi (250 ms gacha), shuningdek, yarim dupleks rejimda ishlash – trunking tizimlariga xos belgilardir. Umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'iga chiqish bilan dupleks rejimni saqlab turish, tizimning zarur funksiyasi hisoblanmaydi.

Радиал-узелли структура ва хизмат кўрсатиш зонасида нисбатан камроқ ҳажмли одатда, (1-2) Erl/km² дан кўп бўлмаган трафикка эга профессионал радиоалоқа тизими. Гуруҳли чакирувни таъминлаш имконияти ва боғланиш ўрнатишининг юқори тезкорлиги (250 ms гача), шунингдек, ярим дуплекс режимда ишлаш – транкинг тизимларига хос белгилардир. Умумий фойдаланишдаги телефон тармоғига чиқиш билан дуплекс режимни сақлаб туриш, тизимнинг зарур функцияси ҳисобланмайди.

Транкинговый контроллер

uz - trunking kontrollер

транкинг контроллер

en - trunking controller

Устройство, обеспечивающее обработку запросов абонентов, которые могут поступать как по выделенным каналам, так и по каналам, совмещенным с каналом управления, и предоставля-

Т

ющее абонентам свободные каналы на время сеанса связи или более короткое время, определяемое логикой работы контроллера.

Ajratilgan kanallar bo'yicha ham, boshqarish kanali bilan birlashtirilgan kanallar bo'yicha ham kelib tushishi mumkin bo'lgan abonent so'rovlarini qayta ishlaydigan va abonentlarga aloqa seansi vaqtida yoki kontroller ishlash mantiqi bo'yicha qisqa vaqtda bo'sh kanallarni taqdim etadigan qurilma.

Ажратилган каналлар бўйича ҳам, бошқариш канали билан бирлаштирилган каналлар бўйича ҳам келиб тушиши мумкин бўлган абонент сўровларини қайта ишлайдиган ва абонентларга алоқа сеанси вақтида ёки контроллер ишлаш мантиқи бўйича қисқа вақтда бўш каналларни тақдим этадиган қурилма.

Транковая эффективность

uz - trunk effektivligi

транк эффективлиги

en - trunk [trunking] efficiency

Показатель, характеризующий способность сети мобильной связи обслуживать определенное количество абонентов при заданной вероятности блокирования вызовов. Численно определяется как среднее число абонентов, приходящихся на один канал, и рассчитывается следующим образом. Сначала по формуле эрланг-В вычисляется суммарная нагрузка в зоне обслуживания. Затем определяется среднее количество абонентов, которое сможет обслужить одна сота при заданной средней нагрузке на одного абонента. Транковая эффективность вычисляется как отношение количества абонентов к числу каналов и снижается по мере уменьшения общего числа рабочих каналов в соте.

Mobil aloqa tarmog'ining, chaqiruvlar blokirovkalanishining berilgan ehtimolligida, muayyan sondagi abonentlarga xizmat ko'rsatish qobiliyatini tavsiflovchi kattalik. Miqdor jihatdan u bitta kanalga to'g'ri keladigan abonentlarning o'rtacha soni sifatida aniqlanadi. Hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi: Dastlab, erlang-B formulasi bo'yicha xizmat ko'rsatish zonasidagi jami yuklama hisoblab topiladi.

T

Soʻngra, bir abonentga belgilangan oʻrtacha yuklama toʻgʻri kelganda, bitta sota xizmat koʻrsata oladigan oʻrtacha abonentlar soni aniqlanadi. Trank effektivligi abonentlar miqdorining kanallar soniga nisbati tarzida hisoblab topiladi va u sotadagi umumiy ishchi kanallar soni kamayishi bilan pasayadi.

Мобил алоқа тармоғининг, чақирувлар блокировка-каланишининг берилган эҳтимоллигида, муайян сондаги абонентларга хизмат кўрсатиш қобилиятини тавсифловчи катталик. Миқдор жиҳатдан у битта каналга тўғри келадиган абонентларнинг ўртача сони сифатида аниқланади. Ҳисоблаш қўйидагича амалга оширилади: Дастлаб, эрланг-В формуласи бўйича хизмат кўрсатиш зонасидаги жами юклама ҳисоблаб топилади. Сўнгра, бир абонентга белгиланган ўртача юклама тўғри келганда, битта сота хизмат кўрсата оладиган ўртача абонентлар сони аниқланади. Транк эффективлиги абонентлар миқдорининг каналлар сонига нисбати тарзида ҳисоблаб топилади ва у сотадаги умумий ишчи каналлар сони камайиши билан пасаяди.

Трансвертер

uz - transverter

трансвертер

en - transverter

1 Устройство, устанавливаемое на входе приемопередатчика и предназначенное для расширения его функциональных возможностей, обычно для обеспечения работы в более высоком диапазоне частот. В состав трансвертера входят преобразователи частот приема и передачи, фильтры и другие вспомогательные узлы.

2 Преобразователь абонентского номера, используемый в системах подготовки информации для биллинга.

1 Qabulqilgich-uzatkichning kirishiga, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, odatda, yanada yuqoriroq chastotalar diapazonida ishlay olishini taʼminlash maqsadida oʻrnatiladigan qurilma. Transverter tarkibiga qabul qilish va uzatish chastotalari oʻzgartirgichlari, filtrlar va boshqa yordamchi uzellar kiradi.

2 Billing uchun axborot tayyorlovchi tizimlarda ishlatiladigan abonent raqamini oʻzgartirgich.

Т

1 Қабулқилгич-узатқичнинг киришига, унинг функционал имкониятларини кенгайтириш, одатда, янада юқорироқ частоталар диапазолида ишлай олишини таъминлаш мақсадида ўрнатилган қурилма. Трансвертер таркибига қабул қилиш ва узатиш частоталари ўзгартиргичлари, филтрлар ва бошқа ёрдамчи узеллар киради.

2 Биллинг учун ахборот тайёрловчи тизимларда ишлатилган абонент рақамини ўзгартиргич.

Трансивер

uz - transiver

трансивер

en - transceiver

Физическое устройство (приёмо-передатчик), которое соединяет интерфейс узла с локальной сетью, такой как Ethernet.

Uzel interfeysini Ethernet kabi lokal tarmoq bilan bog'laydigan fizik qurilma (qabulqilgich-uzatkich).

Узел интерфейсини Ethernet каби локал тармоқ билан боғлайдиган физик қурилма (қабулқилгич-узатқич).

Транскодер

uz - transkoder

транскодер

en - transcoder

Устройство, преобразующее выборки речевого сигнала из одного цифрового формата в другой. С помощью транскодера можно преобразовать цифровой поток со скоростью 64 Kbit/s (PCM) в 32 Kbit/s (ADPCM) или низкоскоростной речевой поток со скоростью 4,567 Kbit/s (ACELP) или 8 Kbit/s (VSELP).

Nutq signali tanlanmalarini bitta raqamli formatdan boshqasiga aylantiruvchi qurilma. Transkoder yordamida 64 Kbit/s tezlikli (PCM) raqamli oqimni 32 Kbit/s tezlikli (ADPCM) raqamli oqimga yoki 4,567 Kbit/s tezlikli (ACELP) yoki 8 Kbit/s tezlikli (VSELP) past tezlikli nutq oqimiga aylantirish mumkin.

Нутқ сигнали танланмаларини битта рақамли форматдан бошқасига айлантирувчи қурилма. Транскодер ёрдамида 64 Kbit/s тезликли (PCM) рақамли оқимни 32 Kbit/s тезликли (ADPCM) рақамли оқимга ёки 4,567 Kbit/s тезликли (ACELP) ёки 8 Kbit/s тезликли (VSELP) паст тезликли нутқ оқимига айлантириш мумкин.

Т

Транскодирование

uz - transkodlash

транскодлаш

en - transcoding

Процесс цифрового преобразования структуры сигнала обычно с изменением вида используемой модуляции. При транскодировании не происходит преобразования цифрового сигнала в аналоговый, а, следовательно, и нет накопления шумов неизбежно возникающих при переприеме информации по низкой частоте.

Signal strukturasi raqamli o'zgartirish jarayoni, bu jarayon odatda, ishlatilayotgan modulyatsiya turining o'zgartirishi bilan kechadi. Transkodlashda raqamli signalning analog signalga aylantirishi so'lar bo'lmaydi, shuning uchun axborotni past chastota bo'yicha qayta qabul qilish paytida muqarrar hosil bo'ladigan shovqinlarning to'planishi kuzatilmaydi.

Сигнал структурасини рақамли ўзгартириш жараёни, бу жараён одатда, ишлатилаётган модуляция турининг ўзгартирилиши билан кечади. Транскодлашда рақамли сигналнинг аналог сигналга айланрилиши содир бўлмайди, шунинг учун ахборотни паст частота бўйича қайта қабул қилиш пайтида муқаррар ҳосил бўладиган шовқинларнинг тўпланиши кузатилмайди.

Трансляция

2. Транспонирование

uz - translyatsiya

2. transponirlash

трансляция

2. транспонирлаш

en - translation

1 Преобразование сообщений, поступающих из одной сети, в формат сообщений другой сети.

2 Линейный перенос спектра исходных сигналов по частоте, при котором не происходит его сжатия или инвертирования.

1 Bir tarmoqdan keluvchi xabarlarini boshqa tarmoq xabarlarining formatiga o'zgartirish.

2 Dastlabki signallar spektrini chastota bo'yicha chiziqli ko'chirish, bunda uning siqilishi yoki inversiyalanishi yuz bermaydi.

1 Бир тармоқдан келувчи хабарларни бошқа тармоқ хабарларининг форматига ўзгартириш.

2 Дастлабки сигналлар спектрини частота бўйича чизикли кўчириш, бунда унинг сиқилиши ёки инверсияланиши юз бермайди.

Т

Трансляция сетевого адреса

uz - tarmoq adresini translyatsiya qilish

тармоқ адресини

трансляция қилиш

en - network address translation (NAT)

Процесс преобразования IP-адресов, используемых в частных сетях, в IP-адреса. Протокол, преобразующий официальный IP-адрес в частные адреса, которые могут быть использованы во внутренней сети.

Примечание – Провайдер, предлагающий беспроводной доступ в Интернет, может предоставить клиенту только один официальный IP-адрес. Однако протоколы NAT и DHCP позволят клиенту иметь много персональных компьютеров и ноутбуков, совместно использующих единственный официальный IP-адрес.

Xususiy tarmoqlarda foydalaniladigan IP-adreslarni IP-adreslarga aylantirish jarayoni. Rasmiy IP-adresni ichki tarmoqda foydalanish mumkin bo'lgan xususiy adreslarga aylantiruvchi protokol.

Izoh – Internetdan simsiz foydalana olishni taklif qilayotgan provayder mijozga faqat bitta rasmiy IP-adres taqdim etishi mumkin. Biroq, NAT va DHCP protokollari mijozga, yagona rasmiy IP-adresdan birgalikda foydalanadigan ko'pgina shaxsiy kompyuterlar va noutbuklarga ega bo'lish imkonini beradi.

Хусусий тармоқларда фойдаланиладиган IP-адресларни IP-адресларга айлантириш жараёни. Расмий IP-адресни ички тармоқда фойдаланиш мумкин бўлган хусусий адресларга айлантирувчи протокол.

Изоҳ – Интернетдан симсиз фойдалана олишни таклиф қилаётган провайдер мижозга фақат битта расмий IP-адрес тақдим этиши мумкин. Бироқ, NAT ва DHCP протоколлари мижозга, ягона расмий IP-адресдан биргаликда фойдаланадиган кўпгина шахсий компьютерлар ва нoutbukларга эга бўлиш имконини беради.

Трансмодуляция

uz - transmodyatsiya

трансмодуляция

en - transmodulation

Метод обработки модулированного сигнала, при котором его параметры изменяются таким образом, что он может быть восстановлен с помощью другого типа демодулятора. Трансмодуляция отличается от традиционных методов обработки сигналов тем, что процесс демодуляции и повторной модуляции осуществляется без переноса спектра сигнала «вниз» (в исходную полосу частот).

Modulyatsiyalangan signalni qayta ishlash metodi,

T

bunda signal parametrlari boshqa turdagi demodulyator yordamida tiklanishi mumkin bo'lgan tarzda o'zgaradi. Transmodulyatsiya signallarni qayta ishlashning an'anaviy metodlaridan shu bilan farqlanadiki, bunda demodulyatsiya va qayta modulyatsiya jarayoni signal spektrini «pastga» (chastotalarning boshlang'ich polosasiga) ko'chirmasdan amalga oshiriladi.

Модуляцияланган сигнални қайта ишлаш методи, бунда сигнал параметрлари бошқа турдаги демодулятор ёрдамида тикланиши мумкин бўлган tarzda ўзгаради. Трансмодуляция сигналларни қайта ишлашнинг анъанавий методларидан шу билан фарқланадики, бунда демодуляция ва қайта модуляция жараёни сигнал спектрини «пастга» (частоталарнинг бошланғич полосасига) кўчирмасдан амалга оширилади.

Трафик

uz - trafik

трафик

en - trafic

Совокупный объем передаваемой информации за единицу времени. Средняя интенсивность трафика обычно измеряется в эрлангах.

Vaqt birligi ichida uzatiladigan axborotning jami hajmi. Trafikning o'rtacha intensivligi, odatda, erlanglarda o'lchanadi.

Вақт бирлиги ичида узатиладиган ахборотнинг жами ҳажми. Трафикнинг ўртача интенсивлиги, одатда, эрлангларда ўлчанади.

Трафик канал

uz - trafik kanal

трафик канал

en - trafic channel

Канал для передачи полезной и служебной информации между абонентской и базовой станциями. В это понятие включаются прямой и обратный каналы.

Abonent va tayanch stansiyalar o'rtasida foydali va xizmatga oid axborotni uzatish kanali. Bu tushunchaga to'g'ri va teskari kanallar ham kiritiladi.

Абонент ва таянч станциялар ўртасида фойдали ва хизматга оид ахборотни узатиш канали. Бу тушунчага тўғри ва тескари каналлар ҳам киритилади.

Т

Третье поколение (3G)
uz - uchinchi avlod (3G)
учинчи авлод (3G)
en - third generation (3G)

Поколение систем мобильной связи, разрабатываемое в рамках программы ИМТ-2000. Сети радиодоступа этого поколения обеспечивают высокоскоростной доступ и передачу данных, и увеличенные возможности передачи голоса. Скорость передачи данных составляет до 144 Kbit/s для абонентов с высокой мобильностью (скорость движения до 120 km/h), 384 Kbit/s для абонентов с низкой мобильностью (скорость до 3 km/h) и 2,048 Mbit/s для неподвижных абонентов. Высокоскоростной доступ позволяет предоставлять высококачественные услуги телефонии, видеотелефонии, потоковое видео, прием телевизионных трансляций и т.д. 3G дорога в установке, так как работает в другом частотном диапазоне по отношению к 2G и 2.5G и требует внедрения нового оборудования.

Mobil aloqa tizimlarining IMT-2000 dasturi doirasida ishlab chiqilayotgan avlodi. Ushbu avlodning radiokirish tarmoqlari yuqori tezlikda foydalana olishni va ma'lumotlar uzatilishini hamda ovoz uzatishning kengaytirilgan imkoniyatlarini ta'minlaydi. Ma'lumotlar uzatish tezligi yuqori mobil (harakatlanish tezligi 120 km/h gacha) abonentlar uchun 144 Kbit/s gacha, mobilligi past (tezlik 3 km/h gacha) abonentlar uchun 384 Kbit/s, harakatlanmaydigan abonentlar uchun 2,048 Mbit/s ni tashkil etadi. Yuqori tezlikli foydalana olish yuqori sifat bilan telefoniya, videotelefoniya xizmatlari, oqimli video taqdim etilishini, televizion translyatsiyalar qabul qilishni va h.k.larni ta'minlaydi. 3G ni o'rnatish ancha qimmat, chunki 2G va 2,5G ga nisbatan boshqa diapazonda ishlaydi hamda yangi uskuna kiritilishini talab qiladi.

Мобил алоқа тизимларининг ИМТ-2000 дастури доирасида ишлаб чиқиляётган авлоди. Ушбу авлоднинг радиокириш тармоқлари юқори тезликда фойдалана олишни ва маълумотлар узатилишини ҳамда овоз узатишнинг кенгайтирилган имкониятларини таъминлайди. Маълумотлар

Т

узатиш тезлиги юқори мобил (ҳаракатланиш тезлиги 120 km/h гача) абонентлар учун 144 Kbit/s гача, мобиллиги паст (тезлик 3 km/h гача) абонентлар учун 384 Kbit/s, ҳаракатланмайдиган абонентлар учун 2,048 Mbit/s ни ташкил этади. Юқори тезликли фойдалана олиш юқори сифат билан телефония, видеотелефония хизматлари, оқимли видео тақдим этилишини, телевизион трансляциялар қабул қилишни ва ҳ.к.ларни таъминлайди. 3G ни ўрнатиш анча қиммат, чунки 2G ва 2,5G га нисбатан бошқа диапазонда ишлайди ҳамда янги ускуна киритилишини талаб қилади.

Трехрежимный телефон

uz - uch rejimli telefon

уч режимли телефон

en - triple mode phone

Мобильный телефон, который может работать одновременно в аналоговом режиме на частоте 800 MHz и в цифровом режиме на частотах 900 MHz и 1900 MHz.

Bir vaqtda analog rejimda 800 MHz chastotada hamda raqamli rejimda 900 MHz va 1900 MHz chastotalarda ishlay oladigan mobil telefon.

Бир вақтда аналог режимда 800 MHz частотада ҳамда рақамли режимда 900 MHz ва 1900 MHz частоталарда ишлай оладиган мобил телефон.

Трилатерация

uz - trilateratsiya

трилатерация

en - trilateration

Метод определения местоположения подвижного объекта, базирующийся на измерении расстояния одновременно от трех станций сети.

Mobil ob'ekt joylashgan yerni aniqlashning, bir vaqtda tarmoqning uchta stansiyasidan ob'ektgacha bo'lgan masofani o'lchashga asoslangan metodi.

Мобил объект жойлашган ерни аниқлашнинг, бир вақтда тармоқнинг учта станциясидан объектгача бўлган масофани ўлчашга асосланган методи.

У

Угол места

uz - joy burchagi

жой бурчаги

en - elevation angle

Угол между направлением максимума излучения антенны в вертикальной плоскости и плоскостью горизонта (угол возвышения). Особо важную роль угол места играет в спутниковой связи, где он определяет энергетику радиолиний. Так, при малых углах места сигналы от спутника ослабляются сильнее, так как, они проходят более длинный путь через слои атмосферы и теряют энергию вследствие сложного рельефа местности (строения, деревья и т.д.). Хорошее качество связи можно ожидать при углах видимости земных станций более 15° . При угле места 5° и менее обеспечение устойчивой связи весьма проблематично.

Vertikal tekislikda va ufq tekisligida antenna nurlanishi maksimumining yoʻnalishi oʻrtasidagi burchak (balandlik burchagi). Joy burchagi radioliniyalarning energetikasi belgilanadigan yoʻldoshli aloqada oʻta muhim rol oʻynaydi. Joy burchagi kichik boʻlganda, yoʻldoshdan keladigan signallar kuchli susayadi, chunki ular atmosfera qatlamlari orqali uzun yoʻlni bosib oʻtadi va joyning murakkab reliefi (imorat, daraxt va b.q.) natijasida energiyasini yoʻqotadi. Yaxshi, sifatli aloqaga yer stansiyalarining koʻrinish burchagi 15° dan yuqori boʻlganda erishish mumkin. Joy burchagi 5° va undan kichik boʻlganda, barqaror aloqani taʼminlash ancha qiyin boʻladi.

Вертикал текисликда ва уфқ текислигида антенна нурланиши максимумининг йўналиши ўртасидаги бурчак (баландлик бурчаги). Жой бурчаги радиолинияларнинг энергетикаси белгиланадиган йўлдошли алоқада ўта муҳим роль ўйнайди. Жой бурчаги кичик бўлганда, йўлдошдан келадиган сигналлар кучли сусаяди, чунки улар атмосфера қатламлари орқали узун йўлни босиб ўтади ва жойнинг мураккаб рельефи (иморат, даррахт ва б.қ.) натижасида энергиясини йўқотади. Яхши, сифатли алоқага ер станцияларининг кўриниш бурчаги 15° дан юқори бўлганда эришиш мумкин. Жой бурчаги 5° ва ундан кичик бўлганда, барқарор алоқани таъминлаш анча қийин бўлади.

У

Угол наклона диаграммы направленности

uz - yoʻnalganlik diagrammasining ogʻish burchagi

йўналганлик диаграммасининг оғиш бурчаги

en - tilt angle of directional diagram

Удаленный офис/дочерний офис

uz - olisdagi ofis/shuʻba ofis

олисдаги офис/шуба офис

en - remote office/branch office

Удержание вызова

uz - chaqiruvni ushlab turish

чакирувни ушлаб туриш

en - call hold

Угол относительно горизонта, под которым направлен максимум основного лепестка диаграммы направленности антенны.

Antenna yoʻnalganlik diagrammasi bosh yaproqʻining maksimumi yoʻnaltirilgan, gorizontga nisbatan burchak.

Антенна йўналганлик диаграммаси бош япроғининг максимуми йўналтирилган, горизонтга нисбатан бурчак.

Региональный офис/филиал. Технология подключения к центральной системе сетей средних размеров (например, сетей региональных отделений предприятия).

Regional ofis/filial. Oʻrtacha oʻlchamdagi tarmoqlarning (masalan, korxonalar regional boʻlimlari tarmoqlarining) markaziy tizimga ulanish texnologiyasi.

Регионал офис/филиал. Ўртача ўлчамдаги тармоқларнинг (масалан, корхона регионал бўлимлари тармоқларининг) марказий тизимга уланиш технологияси.

1 Сохранение вызова на линии до тех пор, пока не завершится процесс выбора маршрута дальнейшей его пересылки по сети.

2 Временное прерывание связи без разрыва соединения, при котором входящий вызов сохраняется на линии, а в паузе обычно передается музыка или речевые уведомления.

1 Chaqiruvning, tarmoq orqali uning keyingi uzatilish yoʻlini tanlash jarayoni tugamaguncha, liniyada saqlab turilishi.

2 Bogʻlanishni uzmay turib aloqani vaqtincha toʻxtatish, bunda kiruvchi chaqiruv liniyada saqlanib qoladi, pauzalar paytida, odatda, musiqa yoki nutqli xabarlar uzatiladi.

1 Чакирувнинг, тармоқ орқали унинг кейинги узатилиш йўлини танлаш жараёни тугамагунча, линияда сақлаб турилиши.

У

Узел

uz - uzal

узел

en - node

2 Боғланишни узмай туриб алоқани вақтинча тўхтатиш, бунда кирувчи чақирув линияда сақланиб қолади, паузалар пайтида, одатда, мусиқа ёки нутқли хабарлар узатилади.

Устройство, такое как компьютер или сервер, входящее в состав сети.

Kompyuter yoki server kabi, tarmoq tarkibiga kiradigan qurilma.

Компьютер ёки сервер каби, тармоқ таркибига кирадиган қурилма.

Узел сотовой связи

uz - sotali aloqa uzeli

сотали алоқа узели

en - cell site

Пункт связи, в котором расположена базовая станция, антенный комплекс и другое связанное оборудование.

Tayanch stansiya, antenna kompleksi va boshqa aloqa uskunasini joylashgan aloqa punkti.

Таянч станция, антенна комплекси ва бошқа алоқа ускунаси жойлашган алоқа пункти.

Узел управления услугами

uz - xizmatlarni boshqarish uzeli

хизматларни бошқариш

узели

en - service control point

Контроллер в интеллектуальных сетях, в памяти которого хранится профиль услуг, предоставляемых сетевыми службами.

Intellectual tarmoqlardagi kontroller bo'lib, uning xotirasida tarmoq xizmatlari taqdim etadigan barcha servis profillari saqlanadi.

Интеллектуал тармоқлардаги контроллер бўлиб, унинг хотирасида тармоқ хизматлари тақдим этадиган барча сервис профиллари сақланади.

Узкополосная частотная модуляция

uz - tor polosali chastotaviy

modulyatsiyalash

тор полосали частотавий

модуляциялаш

en - narrowband frequency

modulation

Частотная модуляция несущей, при которой девиация частоты меньше максимальной частоты модулирующего сигнала.

Eltuvchini chastotaviy modulyatsiyalash, bunda chastota deviatsiyasi modulyatsiyalovchi signal maksimal chastotasidan kichik bo'ladi.

Элтувчини частотавий модуляциялаш, бунда частота девиацияси модуляцияловчи сигнал максимал частотасидан кичик бўлади.

У

Узкополосность

uz - tor polosalilik

тор полосалилик

en - narrowband

Классификация информационной емкости или полосы пропускания канала связи. Под узкой полосой пропускания принято понимать полосу пропускания, обеспечивающую скорость передачи информации 64 Kbit/s и менее.

Aloqa kanali axborot sig'imini yoki o'tkazish polosasining tasnifi. Tor o'tkazish polosasini deyilganda, 64 Kbit/s va undan kam o'tkazish polosasini tushuniladi.

Алоқа канали ахборот сифимининг ёки ўтказиш полосасининг таснифи. Тор ўтказиш полосаси дейилганда, 64 Kbit/s ва ундан кам ўтказиш полосаси тушунилади.

Узкополосный канал

uz - tor polosali kanal

тор полосали канал

en - narrowband channel

Канал, который имеет ограниченную ширину полосы частот, обычно меньше 0,1 % от несущей частоты. Канал с шириной полосы больше 0,1 % от несущей частоты условно принято считать широкополосным.

Chastotalar polosasini cheklangan, odatda, eltuvchi chastotaning 0,1 foizidan kamroq kenglikka ega bo'lgan kanal. Eltuvchi chastotaning 0,1 foizidan kattaroq polosa kengligiga ega bo'lgan kanalni shartli ravishda, keng polosali deb atash qabul qilingan.

Частоталар полосаси чекланган, одатда, элтувчи частотанинг 0,1 фоизидан камроқ кенгликка эга бўлган канал. Элтувчи частотанинг 0,1 фоизидан каттароқ полоса кенглигига эга бўлган канални шартли равишда, кенг полосали деб аташ қабул қилинган.

Указатель категории услуг

uz - xizmatlar toifasi ko'rsatkichi

хизматлар тоифаси

кўрсаткичи

en - classmark

Признак, определяющий набор услуг, включая привилегии пользователя и ограничения в обслуживании.

Xizmatlar to'plamini, jumladan, foydalanuvchining imtiyozlari va xizmat ko'rsatishdagi cheklashlarni aniqlab beruvchi belgi.

Хизматлар тўпламини, жумладан, фойдаланувчининг имтиёзлари ва хизмат кўрсатишдаги чеклашларни аниқлаб берувчи белги.

у

Улучшенная скорость данных для развития GSM
uz - GSMni rivojlantirishning yaxshilangan ma'lumotlar tezligi

GSMni rivojlantirishning yaxshilangan ma'lumotlar tezligi

en - enhanced data for GSM evolution (EDGE)

Проект стандарта, предназначенный для улучшения системы GSM и описывающий окончательное развитие технологии передачи данных с помощью протоколов GSM и TDMA; является технологией, переходной к сетям передачи данных 3-го поколения (3G). Реализует новую схему модуляции и позволяет увеличить скорость передачи данных (до 384 Kbit/s) или улучшить спектральные характеристики.

GSM tizimini yaxshilash uchun mo'ljallangan va GSM, TDMA protokollari yordamida ma'lumotlar uzatish texnologiyasining yakuniy rivojlantirilishini tavsiflaydigan standart loyihasi; Uchinchi avlod (3G) ma'lumotlar uzatish tarmoqlariga o'tish texnologiyasi hisoblanadi. Modulyatsiyaning yangi sxemasini ifodalaydi, ma'lumotlar uzatish tezligini oshirish (384 Kbit/s gacha) yoki spektral xarakteristikalarini yaxshilash imkonini beradi.

GSM tizimini yaxshilash uchun mo'ljallangan va GSM, TDMA protokollari yordamida ma'lumotlar uzatish texnologiyasining yakuniy rivojlantirilishini tavsiflaydigan standart loyihasi; Uchinchi avlod (3G) ma'lumotlar uzatish tarmoqlariga o'tish texnologiyasi hisoblanadi. Modulyatsiyaning yangi sxemasini ifodalaydi, ma'lumotlar uzatish tezligini oshirish (384 Kbit/s gacha) yoki spektral xarakteristikalarini yaxshilash imkonini beradi.

Улучшенная служба сообщений

uz - yaxshilangan xabarlar xizmati

yaxshilangan xabarlar xizmati

en - enhanced message service (EMS)

Технология, позволяющая передавать мелодии и картинки внутри SMS сообщения. EMS-стандарт приема/передачи особого вида данных (фоновые заставки, лого операторов, мелодии) разработан, совместно компаниями Ericsson, Motorola, Siemens.

Kuy va rasmlarni SMS xabar ichida uzatish imkonini beradigan texnologiya. Alohida ma'lumotlar (fonli lavhalar, operatorlar logi, kuylar)ni qabul qilish/uzatish EMS-standarti. Ericsson, Motorola, Siemens kompaniyalari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan.

У

Куй ва расмларни SMS хабар ичида узатиш имконини берадиган технология. Алоҳида маълумотлар (фонли лавҳалар, операторлар логи, куйлар) ни қабул қилиш/узатиш EMS-стандарти. Ericsson, Motorola, Siemens компаниялари томонидан биргаликда ишлаб чиқилган.

Универсальная персональная телефонная связь

uz - universal shaxsiy telefon aloqasi

универсал шахсий телефон алоқаси

en - universal personal telephony (UPT)

Связь, обеспечивающая возможность использовать единый номер для установления входящей и исходящей связи вне зависимости от сети и местоположения абонента в текущий момент времени.

Tarmoqqa va abonentning ayni damda qaysi joyda ekanligiga bogʻliq boʻlmagan holda, kiruvchi va chiquvchi aloqani oʻrnatish uchun yagona raqamni ishlatish imkonini beruvchi aloqa.

Тармоққа ва абонентнинг айна дамда қайси жойда эканлигига боғлиқ бўлмаган ҳолда, кирувчи ва чиқувчи алоқани ўрнатиш учун ягона рақамни ишлатиш имконини берувчи алоқа.

Универсальные услуги связи

uz - universal aloqa xizmatlari

универсал алоқа хизматлари

en - universal telecommunication services

Услуги связи, оказание которых любому пользователю услуг связи на всей территории Республики Узбекистан в заданный срок с установленным качеством и по доступной цене обязательно для операторов универсального обслуживания.

Universal xizmat koʻrsatish operatorlari uchun, qulay narxda, belgilangan sifat bilan belgilangan vaqtda Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududida aloqa xizmatidan har qanday foydalanuvchiga koʻrsatilishi majburiy boʻlgan aloqa xizmatlari.

Универсал хизмат кўрсатиш операторлари учун, қулай нархда, белгиланган сифат билан белгиланган вақтда Ўзбекистон Республикасининг барча ҳудудида алоқа хизматидан ҳар қандай фойдаланувчига кўрсатилиши мажбурий бўлган алоқа хизматлари.

У

Управление взаимодействия с клиентом

uz - mijoz bilan o'zaro aloqani boshqarish

мижоз билан ўзаро алоқани бошқариш

en - customer relationship management (CRM)

Система управления, позволяющая оптимизировать бизнес, сократить издержки и увеличить лояльность клиентской базы путем постоянного сбора информации о предыдущих заказах и предпочтениях клиента, а также организовать прямой доступ к информации для узконаправленных рекламных кампаний.

Oldin qilingan buyurtmalar va mijozning istaklari to'g'risida doimiy tarzda axborot to'plash, shuningdek, axborotdan bevosita foydalanishni va tor yo'nalishdagi reklama kampaniyalarini tashkil qilish yo'li bilan biznesni optimallashtirish, xarajatlarni qisqartirish hamda mijozlar xayrixohligini oshirish imkonini beradigan boshqaruv tizimi.

Олдин қилинган буюртмалар ва мијознинг истаклари тўғрисида доимий тарзда ахборот тўплаш, шунингдек, ахборотдан бевосита фойдаланишни ва тор йўналишдаги реклама кампанияларини ташкил қилиш йўли билан бизнесни оптималлаштириш, харажатларни қисқартириш ҳамда мијозлар хайрихоҳлигини ошириш имконини берадиган бошқарув тизими.

Управление доступом к среде

uz - muhitga kira olishni boshqarish

муҳитга кира олишни бошқариш

en - media access control (MAC)

Канальный подуровень, который отвечает за процедуры, сообщения и протоколы, обеспечивающие управление радиоресурсами, т.е. за установление, поддержание и разрыв соединений, динамический выбор каналов и др. MAC-уровень – это «мозговой центр» платы интерфейса сети или базовой станции, именно здесь обеспечивается выполнение правил, обязательных для всех устройств сети.

Protseduralar, xabarlar va radioresurslarning boshqarilishini ta'minlaydigan protokollar uchun, ya'ni bog'lanishlar o'rnatilishi, tutib turilishi va uzilishi, kanallarni dinamik tanlash va boshqalar uchun ma'sul bo'lgan kanal quyi sathi. MAC-sath – bu tarmoq interfeysi platasining yoki tayanch stansiyasining «aql-idrok markazi» dir, aynan shu yerda tarmoqdagi barcha qurilmalar uchun majburiy bo'lgan qoidalarning bajarilishi ta'minlanadi.

У

Процедуралар, хабарлар ва радиоресурсларнинг бошқарилишини таъминлайдиган протоколлар учун, яъни боғланишлар ўрнатилиши, тутиб турилиши ва узилиши, каналларни динамик танлаш ва бошқалар учун маъсул бўлган канал қуйи сатҳи. МАС-сатҳ – бу тармоқ интерфейси платасининг ёки таянч станциясининг «ақл-идрок маркази» дир, айнан шу ерда тармоқдаги барча қурилмалар учун мажбурий бўлган қоидаларнинг бажарилиши таъминланади.

Управление мобильностью

uz - mobillikni boshqarish

мобилликни бошқариш

en - mobility management

Процедура, связанная с регистрацией, аутентификацией и распределением сетевых ресурсов для мобильных станций. Управление мобильностью осуществляется на сетевом уровне архитектуры системы.

Mobil stansiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni autentifikatsiya qilish va tarmoq resurslarining ular uchun taqsimlanishi bilan bog‘liq protsedura. Mobillikni boshqarish tizim arxitekturasi tarmoq darajasida amalga oshiriladi.

Мобил станцияларни рўйхатдан ўтказиш, уларни аутентификация қилиш ва тармоқ ресурсларининг улар учун тақсимланиши билан боғлиқ процедура. Мобилликни бошқариш тизим архитектурасининг тармоқ даражасида амалга оширилади.

Управление; контроль

uz - boshqarish; nazorat

бошқариш; назорат

en - control

Процесс целенаправленного воздействия на объект с целью организации его функционирования по заданной программе, а также наблюдения за работой.

Ob'ektning berilgan dastur bo'yicha faoliyat ko'rsatishini tashkil etish maqsadida aniq yo'naltirilgan ta'sir hamda uning ishini kuzatish jarayoni.

Объектнинг берилган дастур бўйича фаолият кўрсатишини ташкил этиш мақсадида аниқ йўналтирилган таъсир ҳамда унинг ишини кузатиш жараёни.

У

Управляемый мобильной станцией хэндовер

uz - mobil stansiya tomonidan boshqaradigan xendover

мобил станция томонидан бошқарадиган хэндовер

en - mobile-controlled handover (МСНО)

Процедура перехода мобильной станции из одной соты в другую, при которой уровень принимаемого сигнала от разных базовых станций измеряется мобильной станцией; она же и принимает решение, где и какой хэндовер ей необходим. Данный метод применяется в сетях беспроводного доступа.

Mobil stansiyaning bir sotadan boshqasiga o'tish protsedurasi, bunda turli tayanch stansiyalardan qabul qilinuvchi signal darajasi mobil stansiya tomonidan o'lchanadi; aynan shu stansiya o'ziga qayerda va qanday xendover kerakligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu usul simsiz foydalana olish tarmoqlarida qo'llaniladi.

Мобил станциянинг бир сотадан бошқасига ўтиш процедураси, бунда турли таянч станциялардан қабул қилинувчи сигнал даражаси мобил станция томонидан ўлчанади; айнан шу станция ўзига қаерда ва қандай хэндовер кераклиги тўғрисида қарор қабул қилади. Ушбу усул симсиз фойдалана олиш тармоқларида қўлланилади.

Уровень квантования

ru - kvantlash darajasi

квантлаш даражаси

en - quantization level

Дискретное значение, которое принимается в качестве величины мгновенного значения аналогового сигнала в заданный момент времени. Число уровней квантования N зависит от динамического диапазона сигнала, допустимого уровня шумов квантования и ряда других факторов.

Berilgan vaqt onidagi analog signalning oniy qiymati kattaligi sifatida qabul qilinadigan diskret qiymat. Kvantlash darajalari soni N signalning dinamik diapazoni, kvantlash shovqinlarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajasi va boshqa qator omillarga bog'liq.

Берилган вақт онидаги аналог сигналнинг оний қиймати катталиги сифатида қабул қилинадиган дискрет қиймат. Квантлаш даражалари сони N сигналнинг динамик диапазони, квантлаш шовқинларининг йўл қўйилиши мумкин бўлган даражаси ва бошқа қатор омилларга боғлиқ.

У

Услуга WAP-банкинг

uz - WAP-banking xizmati

WAP-банкинг хизмати

en - WAP-banking

Возможность управлять своим банковским счетом с мобильного телефона.

Mobil telefondan shaxsiy bank hisobini boshqarish imkoniyati.

Мобил телефондан шахсий банк ҳисобини бошқариш имконияти.

Услуга WAP по SMS

uz - SMS bo'yicha WAP xizmati

SMS бўйича WAP хизмати

en - Wireless Application

Protocol (WAP over SMS)

Способ предоставления WAP услуг, когда вся информация идет по каналам, предназначенным для передачи SMS. Во время просмотра WAP ресурсов можно совершать звонки по телефону. Наличие этой услуги зависит от оператора.

Butun axborot SMS uzatish uchun mo'ljallangan kanallar orqali o'tayotganda WAP xizmatlarni taqdim qilish usuli. WAP resurslarni ko'rib chiqish vaqtida telefon orqali qo'ng'iroqlar qilish mumkin. Bu xizmatning bo'lishi operatorga bog'liq.

Бутун ахборот SMS узатиш учун мўлжалланган каналлар орқали ўтаётганда WAP хизматларни тақдим қилиш усули. WAP ресурсларни кўриб чиқиш вақтида телефон орқали қўнғироқлар қилиш мумкин. Бу хизматнинг бўлиши операторга боғлиқ.

Услуга передачи мультимедийных сообщений

uz - multimedia xabarlarini uzatish xizmati

мультимедиа хабарларини узатиш хизмати

en - multimedia messaging service (MMS)

Услуга приема и передачи мультимедийных сообщений, содержащих музыкальные, фото- и видеофайлы.

Musiqali, foto- va video fayllarni ichiga oladigan multimedia xabarlarini uzatish va qabul qilish xizmati.

Мусиқали, фото- ва видео файлларни ичига оладиган мультимедиа хабарларини узатиш ва қабул қилиш хизмати.

Услуга присоединения

uz - ulanish xizmati

уланиш хизмати

en - interconnection service

Услуга, направленная на удовлетворение потребности операторов связи в организации взаимодействия сетей электросвязи, при котором должны быть обеспечены установление соединения и передача информации между пользователями взаимодействующих сетей электросвязи.

У

Aloqa operatorlarining elektraloqa tarmoqlarining birgalikda ishlashini tashkil qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan xizmat. Bunda birgalikda ishlaydigan elektraloqa tarmoqlarining foydalanuvchilari o'rtasida axborot uzatish va bog'lanish o'rnatilishi ta'minlanishi kerak.

Алоқа операторларининг электралоқа тармоқларининг биргаликда ишлашини ташкил қилишга бўлган эҳтиёжини қондиришга қаратилган хизмат. Бунда биргаликда ишлайдиган электралоқа тармоқларининг фойдаланувчилари ўртасида ахборот узатиш ва боғланиш ўрнатилиши таъминланиши керак.

Услуга электросвязи

uz - elektraloqa xizmati

электралоқа хизмати

en - telecommunication service

Услуга, заключающаяся в приеме, обработке, хранении, передаче и доставке сообщений электросвязи.

Elektraloqa xabarlarini qabul qilishda, qayta ishlash, saqlash, uzatish va yetkazib berishda ifodalanadigan xizmat.

Электралоқа хабарларини қабул қилишда, қайта ишлаш, сақлаш, узатиш ва етказиб беришда ифодаланадиган хизмат.

Услуги голосовой почты

uz - ovozli pochta xizmatlari

овозли почта хизматлари

en - voice mail service (VMS)

Комплекс услуг, предоставляемых оператором, называемых голосовой почтой, позволяющих принимать звонки, используя услуги переадресации, если мобильный телефон занят, выключен, находится вне зоны покрытия сети, не отвечает на вызов в течение некоторого времени.

Operator tomonidan taqdim etiladigan, ovozli pochta deb ataladigan xizmatlar kompleksi. Mobil telefon band bo'lganda, o'chirib qo'yilganda, tarmoq qoplash zonasidan tashqarida bo'lganda, qandaydir vaqt mobaynida chaqiruvga javob bermaganda, qayta adreslash xizmatidan foydalanib, qo'ng'iroqlarni qabul qilish imkonini beradi.

Оператор томонидан тақдим этиладиган, овозли почта деб аталадиган хизматлар комплекси. Мобил телефон банд бўлганда, ўчириб қўйилганда, тармоқ қоплаш зонасидан ташқарида бўлганда,

У

қандайдир вақт мобайнида чакирувга жавоб бермаганда, қайта адреслаш хизматидан фойдаланиб, қўнғироқларни қабул қилиш имконини беради.

Услуги, основанные на определении

местонахождения

uz - joylashgan yerni aniqlashga asoslangan xizmatlar

жойлашган ерни

аниқлашга асосланган

хизматлар

en - location-based services (LBS)

Способность отслеживать местонахождение пользователей и доставлять им информацию, имеющую отношение к конкретной зоне, где они в данный момент находятся. В сетях UMTS точность определения координат составляет около 50 метров.

Foydalanuvchilarning qayerdaligini kuzatib borish va ular ayni paytda boʻlgan aniq hududga taalluqli axborotni yetkazish. UMTS tarmoqlarida koordinatlarni belgilash aniqligi 50 m ga yaqin.

Фойдаланувчиларнинг қаердалигини кузатиб бориш ва улар айна пайтда бўлган аниқ худудга тааллуқли ахборотни етказиш. UMTS тармоқларида координатларни белгилаш аниқлиги 50 m га яқин.

Усовершенствованная система связи с цифровым доступом

uz - takomillashtirilgan, raqamli foydalanish mumkin boʻlgan aloqa tizimi

такомиллаштирилган,

рақамли фойдаланиш мумкин

бўлган алоқа тизими

en - enhanced digital access communication system (EDACS)

Цифровая транкинговая система с малым временем доступа (не более 0,25 s) и скоростью передачи 9,6 Kbit/s, работающая в соответствии с закрытым протоколом, разработанным компанией Ericsson (Швеция). В речевом кодеке (скорость 9,2 Kbit/s) реализован алгоритм многоуровневого кодирования, обеспечивающий адаптацию к индивидуальным особенностям речи абонента. Предусмотрено также динамическое управление вызовами с помощью 8-уровневой схемы приоритетов.

Ericsson (Shvetsiya) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yopiq protokolga muvofiq ishlaydigan qisqa foydalana olish vaqtiga (0,25 s dan koʻp emas) va 9,6 Kbit/s uzatish tezligiga ega raqamli trunking tizimi. Nutq kodekida (tezligi 9,2 Kbit/s) abonent nutqining individual xususiyatlariga moslashuvni taʼminlovchi koʻp darajali kodlash algoritmi qoʻllanilgan. Shuningdek, 8 darajali ustuvorliklar sxemasi yordamida chaqiruvlarni dinamik boshqarish ham koʻzda tutilgan.

у

Ericsson (Швеция) компанияси томонидан ишлаб чиқилган ёпиқ протоколга мувофиқ ишлайдиган қисқа фойдалана олиш вақтига (0,25 s дан кўп эмас) ва 9,6 Kbit/s узатиш тезлигига эга рақамли транкинг тизими. Нутқ кодексида (тезлиги 9,2 Kbit/s) абонент нутқининг индивидуал хусусиятларига мослашувни таъминловчи кўп даражали кодлаш алгоритми қўлланилган. Шунингдек, 8 даражали устуворликлар схемаси ёрдамида чақирувларни динамик бошқариш ҳам кўзда тутилган.

Усовершенствованная версия стандарта NMT-450

uz - NMT-450 standartining takomillashtirilgan versiyasi
NMT-450 standartining takomillashtirilgan versiyasi
en - NMT-450

Использует систему сигнализации SS7, систему аутентификации абонентов. Характеристики обслуживания абонентов доведены до уровня стандарта NMT-900.

SS7 signalizatsiya tizimini, abonentlarni autentifikatsiya qilish tizimini qoʻllaydi. Abonentlarga xizmat koʻrsatish xarakteristikalarini NMT-900 standarti darajasiga yetkazilgan.

SS7 signalizatsiya tizimini, abonentlarni autentifikatsiya qilish tizimini qoʻllaydi. Abonentlarga xizmat koʻrsatish xarakteristikalarini NMT-900 standarti darajasiga yetkazilgan.

Усовершенствованная логика мобильной связи для специальных пользовательских приложений

uz - maxsus foydalanish ilovalari uchun mobil aloqaning takomillashtirilgan logikasi
maxsus foydalanish ilovalari uchun mobil aloqaning takomillashtirilgan logikasi
en - customized applications mobile enhanced logic (CAMEL)

Технология управления сетями мобильной связи, основанная на принципах интеллектуальной сети, адаптированная к требованиям конкретных пользователей. Обеспечивает создание такой сетевой инфраструктуры на базе существующего протокола MAP стандарта GSM, которая позволяет операторам определять и вводить новые услуги, не требуя их стандартизации в рамках GSM.

Intellectual tarmoq prinsiplariga asoslangan, aniq foydalanuvchilarning talablariga moslashtirilgan mobil aloqa tarmoqlarini boshqarish texnologiyasi. GSM standartining amaldagi MAP protokoli negizida, operatorlarga yangi xizmatlarni GSM doirasida, ularning standartlashtirilishini talab qilmagan holda, aniqlash va kiritish imkonini beradigan tarmoq infrastrukturasi tuzilishini taʼminlaydi.

у

Интеллектуал тармоқ принципларига асосланган, аниқ фойдаланувчиларнинг талабларига мослаштирилган мобил алоқа тармоқларини бошқариш технологияси. GSM стандартининг амалдаги MAP протоколи негизида, операторларга янги хизматларни GSM доирасида, уларнинг стандартлаштирилишини талаб қилмаган ҳолда, аниқлаш ва киритиш имконини берадиган тармоқ инфраструктураси тузилишини таъминлайди.

Усовершенствованная служба мобильной телефонной связи

uz - takomillashtirilgan mobil telefon aloqa xizmati
такомиллаштирилган мобил телефон алоқа хизмати
en - advanced mobile phone service (AMPS)

Один из стандартов службы сотовой связи, основан на технологии FDMA.

Sotali aloqa xizmati standartlaridan biri. FDMA texnologiyasiga asoslangan.

Sotali aloqa xizmati standartlaridan biri. FDMA texnologiyasiga asoslangan.

Усовершенствованная специализированная мобильная радиосвязь

uz - takomillashtirilgan ixtisoslashgan mobil radioaloqa
такомиллаштирилган ихтисослашган мобил радиоалоқа
en - enhanced specialized mobile radio (ESMR)

Обобщенное название технологии интегрированной транкинговой мобильной связи, которая ориентирована на предоставление не только специализированных (диспетчерская связь и т.п.), но и традиционных услуг сотовой связи, включая режимы персональной связи и общенационального роуминга.

Integratsiyalangan tranking mobil aloqa texnologiyasining umumlashgan nomi, bu texnologiya nafaqat ixtisoslashtirilgan (dispetcher aloqasi va boshqa), balki shaxsiy aloqa va umummilliy rouming rejimlarini ham o'z ichiga olgan an'anaviy sotali aloqa xizmatlarini ham ko'rsatishga mo'ljallangan.

Интеграцияланган транкинг мобил алоқа технологиясининг умумлашган номи, бу технология нафақат ихтисослаштирилган (диспетчер алоқаси ва бошқа), балки шахсий алоқа ва умуммиллий роуминг режимларини ҳам ўз ичига олган анъанавий сотали алоқа хизматларини ҳам кўрсатишга мўлжалланган.

У

Усовершенствованный кодек речи с переменной скоростью передачи

uz - takomillashtirilgan uzatish tezligi o'zgaruvchan nutq kodeki
такомиллаштирилган узатиш тезлиги ўзгарувчан нутқ кодеки

en - enhanced variable rate codec (EVR)

Устройство Dongle

uz - dongle qurilmasi
dongle қурилмаси

en - dongle

Установка связи; входение в связь

uz - aloqaning o'rnatilishi;
aloqaga kirishish

алоқанинг ўрнатилиши;
алоқага киришиш

en - netting

Устойчивая зона покрытия

uz - turg'un qoplanish zonasi
турғун қопланиш зонаси

en - signal-strength coverage

Вокодер с переменной скоростью передачи, разработанный компанией Motorola. Средняя скорость передачи – 8,5 Kbit/s (IS-127).

Motorola kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, o'zgaruvchan uzatish tezligiga ega vokoder. Uzatishning o'rtacha tezligi – 8,5 Kbit/s (IS-127).

Motorola kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, ўзгарувчан узатиш тезлигига эга вокодер. Узатишнинг ўртача тезлиги – 8,5 Kbit/s (IS-127).

Любое компактное периферийное устройство со встроенным разъемом (наиболее применим к USB-модемам для работы в сетях 3G).

Ajratkich (raz'yom) o'rnatilgan har qanday ixcham periferik qurilma (3G tarmoqlarida ishlash uchun USB modemlarga nisbatan qo'llaniladi).

Ажраткич (разъём) ўрнатирилган ҳар қандай ихчам периферик қурилма (3G тармоқларида ишлаш учун USB модемларга нисбатан қўлланилади).

Автоматическое подключение радиостанции к сети, если для нее установлен требуемый режим и выбраны определенные рабочие частоты.

Radiostansiyaning, kerakli rejim o'rnatilgan va ma'lum ishchi chastotalar tanlanganda, tarmoqqa avtomatik ulanishi.

Радиостанциянинг, керакли режим ўрнатирилган ва маълум ишчи частоталар танланганда, тармоққа автоматик уланиши.

Зона, в которой излучение радиосигнала обеспечивается с уровнем, достаточным для достоверного приема.

Radiosignal ishonchli qabul qilish uchun yetarli darajada nurlanadigan zona.

Радиосигнал ишончли қабул қилиш учун етарли даражада нурланадиган зона.

У

Устойчивость; стабильность

uz - barqarorlik; stabillik

барқарорлик; стабиллик

en - stability

Способность системы, возвращаться в исходное состояние после внешних воздействий и продолжать работу без изменения функциональных характеристик.

Tizimning, tashqi ta'sirlardan so'ng dastlabki holaga qayta olish hamda funksional xarakteristikalarini o'zgartirmagan holda ishini davom ettirish xususiyati.

Тизимнинг, ташқи таъсирлардан сўнг дастлабки ҳолатга қайта олиш ҳамда функционал характеристикаларини ўзгартирмаган ҳолда ишини давом эттириш хусусияти.

Участок хэндовера

uz - xendover uchastkasi

хэндовер участкаси

en - handover leg

Один из возможных маршрутов перехода мобильного абонента от одной базовой станции к другой.

Mobil abonent bir tayanch stansiyadan boshqasiga o'tishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardan biri.

Мобил абонент бир таянч станциядан бошқасига ўтиши мумкин бўлган йўналишлардан бири.

Ф

Фазовая манипуляция

uz - fazaviy manipulyatsiya

фазавий манипуляция

en - phase shift keying (PSK)

Процесс модуляции, при котором для представления информации используются небольшие изменения фазы несущей, в результате чего возможна передача данных через радиоэфир.

Modulyatsiyalash jarayoni bunda axborotni taqdim etish uchun eltuvchi fazasi biroq o'zgartiriladi, natijada ma'lumotlarni radioefir orqali uzatish mumkin bo'ladi.

Модуляциялаш жараёни бунда ахборотни тақдим этиш учун элтувчи фазаси бироқ ўзгантирилади, натижада маълумотларни радиоэфир орқали узатиш мумкин бўлади.

Фемтосота

uz - femtosota

фемтосота

en - femtocell

Сота с небольшим покрытием, предназначенная для обеспечения покрытия сотовой связи в помещениях.

Ф

Qoplash zonasi kichik bo'lgan, xonalarda sotali aloqa bilan qoplanishni ta'minlash uchun mo'ljallangan sota.

Қоплаш зонаси кичик бўлган, хоналарда сотали алоқа билан қопланишни таъминлаш учун мўлжалланган сота.

Фидер

uz - fider

фидер

en - feeder

Линия, по которой высокочастотная энергия передается от передатчика к антенне или ее элементам или от антенны к приемнику. В качестве фидера обычно используется коаксиальный кабель или волновод.

Yuqori chastotali energiya qabulqilgich-uzatgichdan antenna yoki uning elementlariga eng kam yo'qotishlar bilan yoki parazit nurlanishsiz uzatiladigan liniya. Fider sifatida odatda, koaksial kabel yoki to'lqin o'tkazgichdan foydalaniladi.

Юқори частотали энергия қабулқилгич-узатгичдан антенна ёки унинг элементларига энг кам йўқотишлар билан ёки паразит нурланишсиз узатиладиган линия. Фидер сифатида одатда, коаксиал кабель ёки тўлқин ўтказгичдан фойдаланилади.

Фидерная связь

uz - fider aloqa

фидер алоқа

en - feeder communication

Радиосвязь между наземной станцией и спутником или между базовой станцией и центром коммутации через шлюз, используемая для ретрансляции сообщения.

Yer ustidagi stansiya bilan yo'ldosh yoki tayanch stansiya bilan kommutatsiya markazi o'rtasida shlyuz orqali amalga oshiriladigan radioaloqa. Xabarlarini retranslyatsiya qilishda foydalaniladi.

Ер устидаги станция билан йўлдош ёки таянч станция билан коммутация маркази ўртасида шлюз орқали амалга ошириладиган радиоалоқа. Хабарларни ретрансляция қилишда фойдаланилади.

Ф

Фиксированная частота

uz - qayd etilgan chastota
қайд этилган частота
en - spot frequency

Частота радиостанции, которая не перестраивается в процессе эксплуатации.

Radiostansiyaning, ekspluatatsiya jarayonida qayta sozlanmaydigan chastotasi.

Радиостанциянинг, эксплуатация жараёнида қайта созланмайдиган частотаси.

Фиксированное время обращения

uz - murojaat qayd etilgan vaqt
мурожаат қайд этилган вақт
вақт
en - fixed round-trip time
(FRTT)

Суммарное время, включающее задержку, необходимую для обработки информации и время полной циркуляции пакета от отправителя к получателю и обратно.

Axborotni qayta ishlash uchun zarur bo'lgan ushlanish va paketning jo'natuvchidan oluvchiga hamda teskari yo'nalishda to'liq aylanish vaqtini o'z ichiga oluvchi yig'indi vaqt.

Ахборотни қайта ишлаш учун зарур бўлган ушланиш ва пакетнинг жўнатувчидан олувчига ҳамда тескари йўналишда тўлиқ айланиш вақтини ўз ичига олувчи йиғинди вақт.

Фиксированное распределение каналов (в сотовой связи)

uz - kanallarning qayd etilgan taqsimoti
(sotali aloqada)
каналларнинг қайд этилган тақсимоти
(сотали алоқада)
en - fixed channel allocation

Метод распределения каналов, основанный на использовании частотно-территориального планирования, при котором каждой соте на достаточно длительный период времени выделяется фиксированное число несущих. Выделяемое число несущих обычно зависит от плотности трафика и размеров соты.

Chastota-hududiy rejalashga asoslangan kanallarni taqsimlash metodi, bunda har bir sotaga (yacheykaga) yetarlicha uzoq vaqtga aniq miqdorda eltuvchilar ajratiladi. Ajratilgan eltuvchilar soni, odatda trafikning zichligi va yacheykaning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Частота-худудий режалашга асосланган каналларни тақсимлаш методи, бунда ҳар бир сотага (ячейкага) етарлича узоқ вақтга аниқ миқдорда элтувчилар ажратилади. Ажратилган элтувчилар сони, одатда трафикнинг зичлиги ва ячейканинг ўлчамларига боғлиқ бўлади.

Ф

Фиксированный

беспроводной доступ

uz - qayd qilingan simsiz
foydalana olish

кайд қилинган симсиз
фойдалана олиш

en - fixed wireless access

1 Доступ в Интернет с помощью стационарных устройств или систем беспроводного доступа, устанавливаемых в офисах, домах. Стационарные устройства, как правило, получают питание от сети электропитания, в отличие от подвижных устройств, питающихся от батарей. Преимуществом таких систем является возможность соединения удаленных пользователей без необходимости прокладки новых кабелей.

2 Обеспечение обычной телефонной связи с использованием беспроводных средств радиосвязи. Обычно организуется в небольших городах или сельской местности, где создание проводной инфраструктуры нерентабельно.

1 Internetdan statsionar qurilmalar yoki ofislarda, uylarda oʻrnatiladigan simsiz foydalana olish tizimlari yordamida foydalanish. Statsionar qurilmalar, batareyalardan taʼminlanadigan koʻchma qurilmalardan farqli ravishda, odatda, elektr taʼminot tarmogʻidan taʼminlanadi. Olishdagi foydalanuvchilarni yangi kabel yotqizish zaruratisiz bogʻlash imkoniyatining mavjudligi bunday tizimlarning afzalligi hisoblanadi.

2 Simsiz radioaloqa vositalaridan foydalanib, odatdagi telefon aloqasini taʼminlash. Odatda, simli infrastrukturaning tuzish oʻzini oqlamaydigan holatlarda, yaʼni uncha katta boʻlmagan shahar yoki qishloq joylarda tashkil etiladi.

1 Интернетдан стационар қурилмалар ёки офисларда, уйларда ўрнатиладиган симсиз фойдалана олиш тизимлари ёрдамида фойдаланиш. Стационар қурилмалар, батареялардан таъминланадиган кўчма қурилмалардан фарқли равишда, одатда, электр таъминот тармоғидан таъминланади. Олишдаги фойдаланувчиларни янги кабель ётқизиш заруратисиз боғлаш имкониятининг мавжудлиги бундай тизимларнинг афзаллиги ҳисобланади.

2 Симсиз радиоалоқа воситаларидан фойдаланиб, одатдаги телефон алоқасини таъминлаш. Одатда, симли инфраструктурани тузиш ўзини оқламайдиган ҳолатларда, яъни унча катта бўлмаган шаҳар ёки қишлоқ жойларда ташкил этилади.

Ф

Фильтр нижних частот

uz - quyi chastotalar filtri

қуйи частоталар фильтри

en - low-pass filter

Фильтр, который пропускает все частоты, лежащие ниже заданной частоты и отсекает остальные.

Berilgan chastotadan pastdagi barcha chastotalarni oʻtkazadigan va boshqalarini ajratib qoʻyadigan filtr.

Берилган частотадан пастдаги барча частоталарни ўтказадиган ва бошқаларини ажратиб қўядиган фильтр.

Фильтрация вызовов

uz - chaqiruvlarni saralash

чақирувларни саралаш

en - call screening

Процедура, запрещающая или разрешающая передачу входящих вызовов в зависимости от того, какой номер был набран. Используется при организации приоритетного доступа или для предотвращения несанкционированных вызовов.

Qaysi raqam terilganligiga qarab, kiruvchi chaqiruvlarning uzatilishini taqiqlovchi yoki unga ruxsat beruvchi protsedura. Ustuvor foydalanishni tashkil etishda yoki ruxsat etilmagan chaqiruvlarning oldini olish uchun foydalaniladi.

Қайси рақам терилганлигига қараб, кирувчи чақирувларнинг узатилишини тақиқловчи ёки унга рухсат берувчи процедура. Устувор фойдаланишни ташкил этишда ёки рухсат этилмаган чақирувларнинг олдини олиш учун фойдаланилади.

Флуктуации

uz - fluktuatsiyalar

флуктуациялар

en - fluctuation

1 Случайные отклонения величины от среднего значения.

2 Быстрые колебания уровня сигнала или отклонения параметра от заданного значения в течение пренебрежимо малого промежутка времени.

1 Kattalikning oʻrtacha qiymatdan tasodifiy ogʻishlari.

2 Signal darajasining tez tebranishi yoki parametrning berilgan qiymatdan qisqa vaqt oraligʻida ogʻishi.

1 Kattalikning oʻrtacha qiymatdan tasodifiy ogʻishlari.

2 Signal darajasining tez tebranishi yoki parametrning berilgan qiymatdan qisqa vaqt oraligʻida ogʻishi.

Ф

Фоновая обработка

uz - fon bo'yicha qayta ishlash
фон бўйича қайта ишлаш
en - background processing

Низкоприоритетная обработка, осуществляемая по мере высвобождения ресурсов системы, которая обычно выполняется в режиме не доступном воздействию пользователя.

Odatda, foydalanuvchining ta'siri bo'lmaydigan rejimda bajariladigan va tizim resurslarini bo'shab borishiga qarab amalga oshiriladigan past mavqeli qayta ishlash.

Odatda, foydalanuvchining ta'siri bo'lmaydigan rejimda bajariladigan va tizim resurslarini bo'shab borishiga qarab amalga oshiriladigan past mavqeli qayta ishlash.

Фоновое излучение

uz - fon nurlanishi
фон нулланиши
en - background radiation

Излучение, уровень которого существенно ниже полезного сигнала.

Darajasi foydali signalnikidan ancha past bo'lgan nurlanish.

Darajasi foydali signalnikidan ancha past bo'lgan nurlanish.

Форма волны; форма сигнала

uz - to'lqin shakli; signal shakli
тўлқин шакли; сигнал шакли
en - waveform

Функция, характеризующая распределение электромагнитной волны в пространстве или описывающая зависимость изменения параметров электрического сигнала (напряжения, тока, мощности) от времени и частоты. Форма волны или сигнала может быть синусоидальной, прямоугольной, треугольной, пилообразной или другого, произвольного вида.

Elektromagnit to'lqinning fazoda tarqalishini yoki elektr signal parametrlari (kuchlanish, tok, quvvat) ning vaqt va chastotaga bog'liq holda o'zgarishini tavsiflovchi funksiya. To'lqin yoki signal sinusoidal, to'g'ri burchakli, arrasimon yoki boshqa ixtiyoriy shaklda bo'lishi mumkin.

Электромагнит тўлқиннинг фазода тарқалишини ёки электр сигнал параметрлари (кучланиш, ток, қувват)нинг вақт ва частотага боғлиқ ҳолда ўзгаришини тавсифловчи функция. Тўлқин ёки сигнал синусоидал, тўғри бурчакли, arrasimon ёки бошқа ихтиёрий шаклда бўлиши мумкин.

Ф

Формирование очереди вызовов

uz - chaqiruvlar navbatini shakllantirish

чақирувлар навбатини шакллантириш

en - call queueing

Процедура, позволяющая упорядочить процесс обработки всех поступающих вызовов. Предоставление канала связи осуществляется по мере освобождения номера вызываемого абонента или за счет переадресации вызовов на другой номер. Во время ожидания вызываемому абоненту посылается специальный сигнал оповещения или речевое сообщение, уведомляющее, что ответ на его вызов будет дан, когда нужная линия станет доступна.

Kelayotgan barcha chaqiruvlarni qayta ishlash jarayonini tartibga solish protsedurasi. Aloqa kanalining taqdim etilishi chaqirilayotgan abonent raqami boʻshashiga qarab yoki chaqiruvlarni boshqa raqamga oʻtkazish hisobiga amalga oshiriladi. Kutish vaqtida chaqirayotgan abonentga kerakli liniya boʻshashi bilan uning chaqiruviga javob berilishi haqida ogohlantiradigan maxsus xabar signali yoki nutqli xabar joʻnatiladi.

Келаятган барча чақирувларни қайта ишлаш жараёнини тартибга солиш процедураси. Алоқа каналининг тақдим этилиши чақирилаётган абонент рақами бўшашига қараб ёки чақирувларни бошқа рақамга ўтказиш ҳисобига амалга оширилади. Кутиш вақтида чақираётган абонентга керакли линия бўшаши билан унинг чақирувига жавоб берилиши ҳақида огоҳлантирадиган махсус хабар сигнали ёки нутқли хабар жўнатилади.

Формула Эрланга В

uz - Erlang- B formulasi

Эрланг-В формуласи

en - erlang-B formula

Формула, определяющая вероятность блокирования вызова P_B в момент, когда все каналы заняты, т.е.

$$P_B = (A^N / N!) / \left(\sum_{n=0}^N (A^n / n!) \right),$$

где: N – число каналов, A – нагрузка. Данная формула имеет важное практическое значение, т.к. позволяет определить количество абонентов, обслуживаемых системой, в которой блокируемые вызовы не ставятся в очередь.

Barcha kanallar band boʻlgan vaziyatda P_B chaqiruvning blokirovkalanish ehtimolini aniqlovchi for-

Ф

mula, ya'ni

$$P_B = (A^N / N!) / \left(\sum_{n=0}^N (A^n / n!) \right),$$

bunda N – kanallar soni, A – yuklama. Ushbu formula muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki u tizim tomonidan xizmat ko'rsatiladigan abonentlar sonini aniqlashga imkon beradi, bunda blokirovka qilingan chaqiruvlar navbatga qo'yilmaydi.

Барча каналлар банд бўлган вазиятда P_B чақирувнинг блокировкаканиш эҳтимолини аниқловчи формула, яъни

$$P_B = (A^N / N!) / \left(\sum_{n=0}^N (A^n / n!) \right),$$

бунда N – каналлар сони, A – юклама. Ушбу формула муҳим амалий аҳамиятга эга, чунки у тизим томонидан хизмат кўрсатиладиган абонентлар сонини аниқлашга имкон беради, бунда блокировка қилинган чақирувлар навбатга қўйилмайди.

Формула Эрланга С
uz - Erlang-C formulasi
Эрланг-С формуласи
en - erlang-C formula

Формула, определяющая вероятность того, что поступивший вызов не обслуживается системой немедленно, а становится в очередь, записывается в виде:

$$P_c = P_0 \frac{A^N N}{N!(N-A)}, \quad \text{где} \quad P_0 = 1 / \left\{ \sum_{n=0}^{N-1} (A^n / n!) + \frac{A^N N}{N!(N-A)} \right\} -$$

вероятность того, что все каналы свободны. Данная модель обслуживания известна также как система с ожиданием.

Kelib tushgan chaqiruvlarga tizim tomonidan darhol xizmat ko'rsatilmadan, ularni navbatga qo'yish ehtimolini aniqlash formulasi:

$$P_c = P_0 \frac{A^N N}{N!(N-A)}, \quad \text{bunda} \quad P_0 = 1 / \left\{ \sum_{n=0}^{N-1} (A^n / n!) + \frac{A^N N}{N!(N-A)} \right\} -$$

barcha kanallarning bo'sh ekanligi ehtimolidir. Xizmat ko'rsatishning ushbu modeli kutishga ega tizim ham deb ataladi.

Келиб тушган чақирувларга тизим томонидан дарҳол хизмат кўрсатилмасдан, уларни навбатга

Ф

кўйиш эҳтимолини аниқлаш формуласи:

$$P_c = P_0 \frac{A^N N}{N!(N-A)}, \quad \text{бунда} \quad P_0 = 1 \left\{ \sum_{n=0}^{N-1} (A^n / n!) + \frac{A^N N}{N!(N-A)} \right\}^{-1}$$

барча каналларнинг бўш эканлиги эҳтимолидир. Хизмат кўрсатишнинг ушбу модели кутишга эга тизим ҳам деб аталади.

Форум MGI

uz - MGI forumi

MGI форуми

en - mobile games

interoperability (MGI) forum

Форум, созданный совместно компаниями Ericsson, Motorola, Nokia и Siemens. Задача форума – подготовка единой спецификации для сетевых серверов, которая позволит создателям программ разработать многопользовательские игры с доступом через беспроводные сети с мобильных устройств.

Ericsson, Motorola, Nokia va Siemens kompaniyalari tomonidan birgalikda ta'xis etilgan forum. Forumning vazifasi – tarmoq serverlari uchun, dasturlarni yaratuvchilarga mobil qurilmalardan simsiz tarmoqlar orqali kiriladigan ko'p foydalaniladigan o'yinlarni ishlab chiqish imkonini beradigan yagona spetsifikatsiyani tayyorlash.

Ericsson, Motorola, Nokia va Siemens kompaniyalari tomonidan birgalikda ta'xis etilgan forum. Forumning vazifasi – tarmoq serverlari uchun, dasturlarni yaratuvchilarga mobil qurilmalardan simsiz tarmoqlar orqali kiriladigan ko'p foydalaniladigan o'yinlarni ishlab chiqish imkonini beradigan yagona spetsifikatsiyani tayyorlash.

Фронт (импульса)

uz - front (impuls fronti)

фронт (импульс fronti)

en - front

Участки нарастания и спада импульсного сигнала, которые по их расположению во времени называют передним и задним фронтом импульса.

Impuls signalining oshib va tushib boruvchi uchastkalari, ular vaqtda bo'yicha joylashuviga ko'ra, impulsning oldingi va keyingi frontlari deyiladi.

Импульс сигналининг ошиб ва тушиб борувчи участкалари, улар вақтда бўйича жойлашувига кўра, импульснинг олдинги ва кейинги фронтлари дейилади.

Ф

Функция беспроводных услуг

uz - simsiz xizmatlar funksiyasi

симсиз хизматлар

функцияси

en - over the air function

Технология для передачи и приема информации о конфигурации, относящейся к приложению в беспроводных системах связи.

Simsiz aloqa tizimlaridagi dasturga taalluqli bo‘lgan konfiguratsiya to‘g‘risidagi axborotni uzatish va qabul qilish texnologiyasi.

Симсиз алоқа тизимларидаги дастурга тааллуқли бўлган конфигурация тўғрисидаги ахборотни узатиш ва қабул қилиш технологияси.

Функция профилирования

uz - profillash funksiyasi

профиллаш функцияси

en - profile function

Функция настройки абонентского терминала, с помощью которой задаются выделяемые ему сетевые ресурсы и виды предоставляемых услуг.

Abonent terminalini sozlash funksiyasi, uning yordamida terminalga ajratiladigan tarmoq resurslari hamda taqdim etiladigan xizmat turlari belgilanadi.

Абонент терминалини созлаш функцияси, унинг ёрдамида терминалга ажратиладиган тармоқ ресурслари ҳамда тақдим этиладиган хизмат турлари белгиланади.

Х

Хакер

uz - hacker

хакер

en - hacker

Человек, имеющий желание и возможности похитить информацию, находящуюся в сети. Хакеры часто пытаются проникнуть в корпоративные системы шуток ради, пользуясь уязвимостью беспроводных сетей.

Tarmoqdagi axborotni o‘g‘irlash istagi va imkoniyati bo‘lgan odam. Xakerlar, ko‘pincha hazil tariqasida simsiz tarmoqlarning zaifliklaridan foydalangan holda, korporativ tizimlarga suqulib kirishga harakat qiladilar.

Тармоқдаги ахборотни ўғирлаш истаги ва имконияти бўлган одам. Хакерлар, кўпинча ҳазил тариқасида симсиз тармоқларнинг заифликларидан фойдаланган ҳолда, корпоратив тизимларга суқулиб киришга ҳаракат қиладилар.

Х

Характеристика электромагнитной совместимости

uz - elektromagnit moslashuv
xarakteristikasi

электромагнит мослашув
характеристикаси

en - characteristic of
electromagnetic mean

Характеристика технического средства, отражающая возможность его функционирования в заданной электромагнитной обстановке и/или степень его воздействия на другие технические средства.

Примечание – Характеристика электромагнитной совместимости может отражать свойства технического средства как источника помех, как рецептора и/или свойства окружающей среды, влияющие на электромагнитной совместимости технического средства.

Texnik vositalarning berilgan elektromagnit vaziyatda ishlash imkoniyatini va/yoki uning boshqa texnik vositalarga ta'siri darajasini ko'rsatadigan xarakteristikasi.

Izoh – Elektromagnit moslashuv xarakteristikasi xalaqit manbai kabi, retseptor kabi va/yoki texnik vositalarning elektromagnit moslashuviga ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhit vositasi sifatida texnik vositalarning xususiyatlarini aks ettirishi mumkin.

Texnik vositalarning berilgan elektromagnit vaziyatda ishlash imkoniyatini va/yoki uning boshqa texnik vositalarga ta'siri darajasini ko'rsatadigan xarakteristikasi.

Izoh – Elektromagnit moslashuv xarakteristikasi xalaqit manbai kabi, retseptor kabi va/yoki texnik vositalarning elektromagnit moslashuviga ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhit vositasi sifatida texnik vositalarning xususiyatlarini aks ettirishi mumkin.

Хот-спот

uz - хот-спот

хот-спот

en - hot-spot

Место, где развернута общедоступная беспроводная локальная сеть. «Горячие точки» располагаются в зонах, где может находиться множество людей с компьютерными устройствами, таких как аэропорты, гостиницы, дворцы съездов и кафе. Используя устройства с поддержкой беспроводной связи стандартов семейства 802.11 (например, мобильные или карманные ПК), пользователи могут получить доступ в Интернет, а также к специальным услугам провайдера.

Umumfoydalaniladigan simsiz lokal tarmoq tashkil qilingan joy. «Qaynoq nuqtalar» aeroportlar, mehmonxonalar, sayzdlar saroyi va kafelar kabi kompyuter qurilmalari bo'lgan, odamlar gavjum zonalarda joylashtiriladi. 802.11 turkum standartlari (masalan, mobil yoki cho'ntak ShK) simsiz aloqa

Х

qo‘llanilgan qurilmalar, foydalanuvchilarga Internetdan, shuningdek, provayderning maxsus xizmatlaridan foydalana olish imkonini beradi.

Умумфойдаланиладиган симсиз локал тармоқ ташкил қилинган жой. «Қайноқ нуқталар» аэропортлар, меҳмонхоналар, съездлар саройи ва кафелар каби компьютер қурилмалари бўлган, одамлар гавжум зоналарда жойлаштирилади. 802.11 туркум стандартлари (масалан, мобил ёки чўнтак ШК) симсиз алоқа қўлланилган қурилмалар, фойдаланувчиларга Интернетдан, шунингдек, провайдернинг maxsus хизматларидан фойдалана олиш имконини беради.

**Хранение (информации);
удержание (вызова)**

uz - saqlash (axborotni); ushlab
turish (chaqiruvni)

сақлаш (ахборотни); ушлаб
туриш (чақирувни)

en - hold

Услуга, предоставляемая сетью с коммутацией каналов и позволяющая временно хранить передаваемые данные до момента, пока они не будут затребованы абонентом.

Примечание – Разновидностью этой услуги является возможность сохранения в сети на какое-то ограниченное время уже установленных соединений.

Uzatilayotgan ma'lumotlarni abonent tomonidan talab qilib olingunga qadar, vaqtincha saqlash imkonini beruvchi, kanallar kommutatsiyalanadigan tarmoq ko'rsatadigan xizmat.

Izoh – Bu xizmatning yana bir ko'rinishi – tarmoqda qandaydir cheklangan vaqt davomida o'rnatilgan ulanishlarni saqlab qolish imkoniyatining mavjudligidir.

Узатилаётган маълумотларни абонент томонидан талаб қилиб олингунга қадар, вақтинча сақлаш имконини берувчи, каналлар коммутацияланадиган тармоқ кўрсатадиган хизмат.

Изоҳ – Бу хизматнинг яна бир кўриниши – тармоқда қандайдир чекланган вақт давомида ўрнатилган уланишларни сақлаб қолиш имкониятининг мавжудлигидир.

Хэндовер

uz - hendover
хэндовер

en - handover

1 Передача управления от одной базовой станции к другой при перемещении подвижного пользователя, ведущего разговор (или передачу данных) из ячейки в ячейку.

2 Передача управления абонентской станцией от одной базовой станции к другой в процессе связи между ними.

X

1 So‘zlashayotgan (yoki ma’lumot uzatayotgan) mobil foydalanuvchi yacheykadan yacheykaga ko‘chayotganda, boshqaruvning bir tayanch stansiyadan boshqasiga uzatilishi.

2 Tayanch stansiyalar o‘rtasida bog‘lanish (aloqa) jarayonida abonent stansiyasining boshqaruvni bir tayanch stansiyadan boshqasiga uzatishi.

1 Сўзлашаётган (ёки маълумот узатаётган) мобил фойдаланувчи ячейкадан ячейкага кўчаётганда, бошқарувнинг бир таянч станциядан бошқасига узатилиши.

2 Таянч станциялар ўртасида боғланиш (алоқа) жараёнида абонент станциясининг бошқарувни бир таянч станциядан бошқасига узатиши.

Хэндовер RSSI

uz - RSSI xendover

RSSI хэндовер

en - RSSI handover

Хэндовер на основе измерения уровня RSSI. Процедура переключения абонентской станции, основанная на измерении уровня сигнала от двух и более базовых станций. Для того, чтобы предотвратить колебательный процесс (частое переключение), переключение осуществляется не сразу, а с определенным гистерезисом, т.е. при уверенном превышении одного сигнала над другим.

RSSI darajasini o‘lchash asosidagi xendover. Ikki va undan ortiq tayanch stansiyadan keladigan signal darajasini o‘lchashga asoslangan, abonent stansiyasini qayta ulash protsedurasi, tebranma jarayon (tez-tez qayta ulash) ning oldini olish maqsadida, qayta ulash darhol emas, balki muayyan gisterezis bilan, ya’ni bir signal boshqasidan qat’iy oshib borganda amalga oshiriladi.

RSSI dаражасини ўлчаш асосидаги хэндовер. Икки ва ундан ортиқ таянч станциядан келадиган сигнал даражасини ўлчашга асосланган, абонент станциясини қайта улаш процедураси, тебранма жараён (тез-тез қайта улаш) нинг олдини олиш мақсадида, қайта улаш дарҳол эмас, балки муайян гистерезис билан, яъни бир сигнал бошқасидан қатъий ошиб борганда амалга оширилади.

X

Хэндовер с задержкой

uz - kechikish bilan bo'ladigan xendover

кечикиш билан бўладиган хэндовер

en - delayed handover

Переключение частоты при переходе мобильной станции из одной соты в другую через определенный интервал времени. Технически реализуется за счет использования двух порогов уровней мощности: минимального и максимального. Позволяет устранить эффект «пинг-понга» на границе зон обслуживания двух базовых станций.

Mobil stansiya bir yacheykadan boshqasiga o'tishida chastotaning ma'lum vaqtdan so'ng qayta sozlanishi. Texnik jihatdan quvvat darajalarining ikkita – minimal va maksimal qiymat bo'yicha chegarasidan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Ikkita tayanch stansiyaning xizmat ko'rsatish zonalari chegarasida «ping-pong» effektini bartaraf etish imkonini beradi.

Мобил станция бир ячейкадан бошқасига ўтишида частотанинг маълум вақтдан сўнг қайта созланиши. Техник жиҳатдан қувват даражаларининг иккита – минимал ва максимал қиймат бўйича чегарасидан фойдаланиш ҳисобига амалга оширилади. Иккита таянч станциянинг хизмат кўрсатиш зоналари чегарасида «пинг-понг» эффектини бартараф этиш имконини беради.

Хэндовер с помощью мобильной станции

uz - mobil stansiya yordamidagi xendover

мобил станция ёрдамидаги хэндовер

en - mobile assisted handover

Передача обслуживания (с одной базовой станции к другой) с участием подвижной станции. Метод автоматического переключения, при котором абонентская станция выполняет измерение уровня сигнала и высылает отчет о результатах измерения на базовую станцию.

Mobil stansiya ishtirokida xizmat ko'rsatishni bir tayanch stansiyasidan boshqasiga uzatish. Avtomatik qayta ulash metodi, bunda abonent stansiyasi signal darajasini o'lchaydi va o'lchash natijalari to'g'risida tayanch stansiya hisobot yuboradi.

Мобил станция иштирокида хизмат кўрсатишни бир таянч станциясидан бошқасига узатиш. Автоматик қайта улаш методи, бунда абонент станцияси сигнал даражасини ўлчайди ва ўлчаш натижалари тўғрисида таянч станцияга ҳисобот юборади.

X

Хэндовер с разнесением каналов

uz - tarqoq kanalli xendover
тарқоқ каналли хэндовер
en - diversity handover

Процедура мягкого переключения каналов, при которой в момент смены частот связь с мобильной станцией поддерживается, как минимум, по двум каналам. Это позволяет выбрать сигнал с наилучшим качеством связи и исключить возможную задержку при переключении каналов.

Kanallarni ohista qayta ulash protsedurasi, bunda chastotalarni almashtirish vaqtida mobil stansiya bilan aloqa kamida ikki kanal bo'yicha saqlab turiladi. Bu aloqa sifati eng yaxshi bo'lgan signalni tanlab olish va kanallarni qayta ulashda ehtimoli bo'lgan kechikishni bartaraf etish imkonini beradi.

Каналларни охиста қайта улаш процедураси, бунда частоталарни алмаштириш вақтида мобил станция билан алоқа камида икки канал бўйича сақлаб турилади. Бу алоқа сифати энг яхши бўлган сигнални танлаб олиш ва каналларни қайта улашда эҳтимоли бўлган кечикишни бартараф этиш имконини беради.

Хэндовер с частым переключением

uz - tez-tez qayta ulash bilan kuzatiladigan xendover
тез-тез қайта улаш билан кузатиладиган хэндовер
en - ping-pong handover

Нежелательное явление, свойственное сетям мобильной связи. Возникает, когда абонентская станция находится на границе зон обслуживания двух соседних базовых станций. В результате флуктуации уровня принимаемых сигналов обычно возникает многократное переключение абонентской станции с одной базовой станции на другую, что приводит к снижению общей пропускной способности сети. Чтобы избежать такого явления, обычно используется схема переключения с гистерезисом.

Mobil aloqa tarmoqlarida uchraydigan nomaqbul hodisa. Abonent stansiyasi ikki qo'shni tayanch stansiyaning xizmat ko'rsatish zonasi doirasida bo'lganda vujudga keladi. Qabul qilinadigan signal-lar darajasining fluktuatsiyasi natijasida abonent stansiyasining bir tayanch stansiyadan boshqasiga, ko'p marotaba qayta ulanishi sodir bo'ladi. Bu tarmoqning umumiy o'tkazish qobiliyati pasayishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish maqsadida

Х

gisterezis bilan qayta ulash sxemasidan foydalaniladi.

Мобил алоқа тармоқларида учрайдиган номақбул ходиса. Абонент станцияси икки қўшни таянч станциянинг хизмат кўрсатиш зонаси доирасида бўлганда вужудга келади. Қабул қилинадиган сигналлар даражасининг флукутуацияси натижасида абонент станциясининг бир таянч станциядан бошқасига, кўп маротаба қайта уланиши содир бўлади. Бу тармоқнинг умумий ўтказиш қобилияти пасайишига олиб келади. Бундай ҳолатнинг олдини олиш мақсадида гистерезис билан қайта улаш схемасидан фойдаланилади.

Ц

Центр коммутации мобильной связи

uz - mobil aloqa kommutatsiya
markazi

мобил алоқа коммутация
маркази

en - mobile switching center
(MSC)

Центр коммутации, который обеспечивает обслуживание мобильных абонентов в пределах определенной географической зоны, включающей несколько базовых станций. По выполняемым функциям центр коммутации мобильной связи аналогичен коммутационной станции ISDN или станции сопряжения, так как фактически поддерживает интерфейс между проводными сетями и мобильными станциями. Кроме того, центр коммутации мобильной связи обеспечивает также функции маршрутизации и переключения рабочих каналов в процессе перемещения абонента из соты в соту, а также постоянное отслеживание мобильных станций. При взаимодействии с телефонной сетью общего пользования центр коммутации мобильной связи обеспечивает передачу сигнализации и вызовов.

Bir nechta tayanch stansiyani o'z ichiga oluvchi, ma'lum bir geografik zona doirasida mobil abonentlarga xizmat ko'rsatilishini ta'minlovchi kommutatsiya markazi. Mobil aloqa kommutatsiya markazi o'zining bajariladigan funksiyalariga ko'ra ISDN kommutatsiya stansiyalariga yoki tutashgan stansiyalarga o'xshash bo'ladi, chunki u amalda o'tkaz-

Ц

gichli (simli, tolali) tarmoqlar bilan mobil stansiyalar o'rtasida interfeysni saqlab turadi. Bundan tashqari, mobil aloqa kommutatsiya markazi abonentning sotadan boshqa sotaga ko'chib o'tish jarayonida marshrutlash va ishchi kanallarni o'zgartirish funksiyalarini, shuningdek, mobil stansiyalarni doimo kuzatib turishni ham ta'minlaydi. Mobil aloqa kommutatsiya markazi umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'i bilan birgalikda signalizatsiya va chaqiruvlarning uzatilishini ta'minlaydi.

Бир нечта таянч станцияни ўз ичига олувчи, маълум бир географик зона доирасида мобил абонентларга хизмат кўрсатилишини таъминловчи коммутация маркази. Мобил алоқа коммутация маркази ўзининг бажариладиган функцияларига кўра ISDN коммутация станцияларига ёки туташган станцияларга ўхшаш бўлади, чунки у амалда ўтказгичли (симли, толали) тармоқлар билан мобил станциялар ўртасида интерфейсни сақлаб туради. Бундан ташқари, мобил алоқа коммутация маркази абонентнинг сотадан бошқа сотага кўчиб ўтиш жараёнида маршрутлаш ва ишчи каналларни ўзгартириш функцияларини, шунингдек, мобил станцияларни доимо кузатиб туришни ҳам таъминлайди. Мобил алоқа коммутация маркази умумий фойдаланишдаги телефон тармоғи билан биргаликда сигнализация ва чақирувларнинг узатилишини таъминлайди.

Центр радиосвязи

uz - radioaloqa markazi
радиоалоқа маркази
en - radio center

Совокупность передающих и приемных устройств, объединенных территориально и организационно.

Hududiy va tashkiliy jihatdan birlashtirilgan, uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalar yig'indisi.

Худудий ва ташкилий жиҳатдан бирлаштирилган, узатувчи ва қабул қилувчи қурилмалар йиғиндиси.

Центр управления сетью

uz - tarmoqni boshqarish
markazi

1 Центральный элемент сети связи, из которого осуществляется управление элементами сети, ее ресурсами и трафиком.

Ц

тармоқни бошқариш
маркази
en - network management
center (NMC), network opera-
tions center (NOC)

2 Центр управления телекоммуникационной се-
тью. Место, из которого крупная сеть управляет-
ся и поддерживается 24 часа в сутки.

1 Aloqa tarmog‘ining markaziy elementi bo‘lib, un-
dan tarmoq elementlari, uning resurslari va trafik-
ning boshqarilishi amalga oshiriladi.

2 Telekommunikatsiya tarmog‘ini boshqarish mar-
kazi. Yirik tarmoq sutkasiga 24 soat boshqariladigan
va ta‘minlanadigan joy.

1 Алоқа тармоғининг марказий элементи бўлиб,
ундан тармоқ элементлари, унинг ресурслари ва
трафикнинг бошқарилиши амалга оширилади.

2 Телекоммуникация тармоғини бошқариш мар-
кази. Йирик тармоқ суткасига 24 соат бошқари-
ладиган ва таъминланадиган жой.

Цикл сети

uz - tarmoq sikli

тармоқ цикли

en - network loop

Явление, происходящее когда два устройства се-
ти соединены между собой более чем одним пу-
тем, что вынуждает пакеты циркулировать по се-
ти, не достигая адреса назначения. Концентратор
способен обнаруживать циклы в сети и автома-
тически блокировать (изолировать) один из сво-
их портов для того, чтобы предотвратить зацик-
ливание.

Tarmoqdagi ikkita qurilma o‘zaro bittadan ortiq yo‘l
bilan bog‘langanda yuz beradigan hodisa, bu paket-
larning, tayinlangan adresga yetib bormay, tarmoq
bo‘ylab aylanib yurishiga sabab bo‘ladi. Konsentra-
tor tarmoqdagi sikllarni aniqlashga va o‘z portlari-
dan birini sikllanishning oldini olish maqsadida av-
tomatik tarzda blokirovkalashga qodir.

Тармоқдаги иккита қурилма ўзаро биттадан
ортиқ йўл билан боғланганда юз берадиган ҳо-
диса, бу пакетларнинг, тайинланган адресга етиб
бормай, тармоқ бўйлаб айланиб юришига сабаб
бўлади. Концентратор тармоқдаги циклларни
аниқлашга ва ўз портларидан бирини циклла-
нишнинг олдини олиш мақсадида автоматик
тарзда блокировкалашга қодир.

Ц

Циркулярный вызов

uz - sirkulyar chaqiruv

циркуляр чакирув

en - conference calling

Вызов, который могут принимать одновременно все участники конференцсвязи.

Konferensaloqaning barcha qatnashchilari bir vaqtda qabul qilishi mumkin bo'lgan chaqiruv.

Конференцалоканинг барча катнашчилари бир вақтда қабул қилиши мумкин бўлган чакирув.

Цифровая микросотовая система беспроводной связи

uz - raqamli mikrosotali simsiz

aloqa tizimi

рақамли микросотали

симсиз алоқа тизими

en - digital enhanced cordless telecommunications (DECT)

1 Система, обеспечивающая своим пользователям устойчивую высококачественную связь, защищенную от несанкционированного доступа. Стандарт DECT поддерживает речевую и факсимильную связь, а также передачу данных.

2 Цифровые европейские беспроводные телекоммуникации. Европейский стандарт беспроводной телефонной связи. Работает на основе технологии TDMA в частотном диапазоне 1,8 GHz и 1,9 GHz. Использование технологии динамического выбора/выделения канала позволяет нескольким пользователям DECT-телефонов вести переговоры на одной и той же базовой частоте. За счет применения метода коммутации пакетов DECT обеспечивает скорость беспроводной передачи данных до 522 Kbit/s, а в перспективе – до 2 Mbit/s. Считается, что с распространением двухстандартных мобильных трубок DECT/GSM популярность DECT возрастет.

1 O'z foydalanuvchilariga, ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan himoyalangan yuqori sifatli barqaror aloqani ta'minlaydigan tizim. DECT standarti nutqli va faksimil aloqani, shuningdek, ma'lumotlar uzatishni ta'minlaydi.

2 Yevropa raqamli simsiz telekommunikatsiyalari. Yevropa simsiz telefon aloqa standarti. TDMA texnologiyasi asosida 1,8 GHz va 1,9 GHz chastota diapazonida ishlaydi. Kanalni dinamik tanlash/-ajratish texnologiyasidan foydalanish bir nechta DECT telefoni foydalanuvchilariga so'zlashuvni aynan bitta tayanch chastotada olib borish imkonini beradi. Paketlarni kommutatsiyalash metodini qo'llash hisobiga, DECT ma'lumotlarni simsiz uzatish tezligi 522 Kbit/s gacha, kelajakda esa, 2 Mbit/s gacha

Ц

